

R.T. Jo'rayev
M.B. Isabayev

O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK JAMIYATI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Jo'rayev Ro'zimat To'xtasinovich
Isabayev Maxsad Baxadirovich**

**O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI**

O'quv qo'llanma

*5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili, nemis tili) va
5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishlari
3-bosqich talabalari uchun*

**“Iste'dod ziyo-press” nashriyoti
Namangan
2022**

UO'K: 821-512-133-9

KBK: 84(O'zb)7

M-17

Jo'rayev R., Isabayev M. – O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi.
Fuqarolik jamiyati. O'quv qo'llanma «Iste'dod ziyo press» nashriyoti. – Namangan, 2022,
388 b.

ANNOTASIYA

O'quv qo'llanmada O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, nazariy asoslari, sohalar bo'yicha olib borilayotgan islohotlar yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, fuqarolik jamiyatini o'rganishning metodologik va uslubiy yondoshuvlarining mazmun mohiyati ochib berilgan. O'quv qo'llanmadan o'r in olgan mavzularda Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlari, korrupsiyaga qarshi kurash, saylov huquqi erkinligi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari, jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlashga doir Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim masalalari, fuqarolik jamiyatini qurish borasidagi islohotlarning mazmun mohiyati yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalarining 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili, nemis tili) va 5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishlari o'quv rejasida 3-bosqich talabalari uchun hamda professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

В пособии описаны приоритеты Стратегии действий по дальнейшему развитию Узбекистана, теоретические основы, проводимые реформы в данной сфере. Пособие также раскрывает содержание Новой стратегии развития Узбекистана, методологические и методологические подходы к изучению гражданского общества. В пособие рассмотрены пять приоритетов Стратегии действий: борьба с коррупцией, свобода избирательного права, органы местного самоуправления, общественный контроль и прозрачность государственных органов. Важные вопросы развития Узбекистана, суть проводимых реформ гражданского общества. Пособие предназначено для студентов и преподавателей вузов страны.

ANNATATION

The manual describes the priorities of the Action Strategy for the further development of Uzbekistan, theoretical foundations, ongoing reforms in this area. The manual also reveals the content of the New Development Strategy of Uzbekistan, methodological and methodological approaches to the study of civil society. The manual examines five priorities of the Strategy of Action: the fight against corruption, freedom of suffrage, local government bodies, public control and transparency of state bodies. Important issues of the development of Uzbekistan, the essence of the ongoing reforms is civil society. The manual is intended for students and teachers of universities in the country.

Mas'ul muharrir:

Dexkanov Narlmon Burxonjonovich – siyosiy fanlar doktori, dotsent

Taqrizchilar:

Fayzullayev Tursunboy – NamDU, siyosiy fanlari doktori, professor

Mo'minov Alisher Gapparovich – O'zMU, siyosiy fanlari doktori, professor

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 13 maydagi 166-sonli buyrug'iga asosan 166-053 ro'yxat raqami bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8109-8-3

© **Jo'rayev Ro'zimat To'xtasinovich**
© **Isabayev Maxsad Baxadirovich**
© «Iste'dod ziyo press» nashriyoti, 2022.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan 2017-2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlangani o'zbek davlat boshqaruvi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Butun davlat hokimiyati organlari ishining samaradorligini saqlab qolgan holda hokimiyat vakolatlarini markaz ixtiyoridan soqit qilish, bu vakolatlarining bir qismini markazdan mintaqalarga, mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlariga berib borish zaruratga aylanib bormoqda. O'z navbatida, davlat hokimiyati mahalliy organlari yangi sharoitlarda hokimiyat vazifalarining bir qismini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga topshirish yo'li bilan ularning rolini kuchaytirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Mazkur hujjatda aniq, hayotiy islohotlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilab berilgani mamlakatimizda islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatni har tomonlama uyg'un, jadal rivojlantirish, barcha sohani modernizatsiya qilish va erkinlashtirishdek buyuk maqsadlarga xizmat qiladi.

2021-yil 24-oktabrda bo'lib o'tgan saylovda eng ko'p – 80,12 foiz bilan yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabr kuni lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida *"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari"* degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi. Darhaqiqat, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi. Unda xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar yo'lini yanada qat'iy davom ettirib, bu yo'ldan hech qachon ortga qaytilmasligimiz, asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish, *"Inson qadri uchun"* degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezonini bo'lib qolishi aks etadi. Umuman olganda *"inson – jamiyat – davlat"* degan yangi tamoyil hayotimiz aksiga aylanadi.

Harakatlar strategiyasidagi davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; ijtimoiy sohani rivojlantirish; xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabi ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish, mazkur sohalar doirasida so'nggi besh yil davomida amalga oshirilgan tub yangilanishlarni tadqiq etish, ularni keng jamoatchilik va talaba-yoshlar ongiga singdirish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Mazkur o'quv qo'llanma ushbu vazifalarni amalga oshirishda uning mazmun-mohiyatini kelajak yosh avlodlarga o'rgatish hamda uni targ'ibot-tashviqot etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, 2018-yil 18-avgustda 4-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fan dasturi asosida tayyorlandi. O'quv qo'llanma o'n bitta mavzudan iborat bo'lib, har bir mavzu uchtadan kichik bo'limlarni o'z ichiga oladi. Xususan, unda Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlari va fuqarolik jamiyati shakllanishidagi muhim bo'lgan mavzulari atroflicha yoritib berishga harakat qilingan.

**1-MAVZU: O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING
YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

Reja:

- 1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari va funksiyalari*
- 2. Fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar evolyutsiyasi va yondashuvlar*
- 3. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanish strategiyasi*

Tayanch so'zlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyatining belgilari, uning funksiyalari, fuqarolik jamiyati shakllanishi, fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar evolyutsiyasi, fuqarolik jamiyatining sohalar bo'yicha namoyon bo'lishi, Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi, uning rivojlanish bosqichlari, strategiya.

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari va funksiyalari

Fuqarolik jamiyati demokratik siyosiy tizim shakllanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati aholi ijtimoiy faolligining davlat organlari faoliyatiga bog'liq bo'lmagan turli shakllarini o'zi ichiga olgan majmuani ifodalaydi hamda jamiyat tuzilishining haqiqiy holati yoki darajasini namoyon etadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi ifodalaydigan ijtimoiy aloqalar majmui, u yoki bu mamlakat xalqiga xos bo'lgan fuqarolik munosabatlarining sifat ko'rsatkichi bo'lib, ijtimoiy sohada davlat va jamiyat funksiyalarini farqlaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Siyosiy hokimiyatning jamiyat va uning a'zolari ustidan hukmronligi emas, balki jamiyatning davlatga nisbatan birlamchiligi sharoitida, boshqacha aytganda, haqiqiy demokratiya sharoitida insonning tom ma'nodagi erkinligi ta'minlanishi mumkin. Bunday jamiyatga o'tish tarixiy jihatdan uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bog'liqdir. Jamiyat tushunchasi bilan "fuqarolik jamiyati" tushunchasi o'rtasida nafaqat chambarchas bog'liqlik, balki juda jiddiy farqlar ham mavjud. Insonlar o'rtasidagi munosabatlar majmui hisoblangan jamiyat o'z taraqqiyotining takomilga yetgan bosqichida, ma'lum sharoitlarda fuqarolik

jamiyatiga aylanadi. Fuqarolik jamiyati kategoriyasi jamiyatning tuzilishi va o'zini o'zi boshqarish nuqtai nazaridan sifat jihatidan yangi holatni ifodalaydi, davlat va shaxs manfaatlarining muqobilligini namoyon etadi. Bunda inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyati tushunchasining o'zi keng va tor ma'noda qo'llaniladi.

Keng ma'noda fuqarolik jamiyati jamiyatning davlat tuzilmalarining nazorati yetib bora olmaydigan barcha qismini qamrab oladi. U tabiiy-tarixiy taraqqiyot davomida davlatdan mustaqil bo'lgan muxtor soha sifatida vujudga keladi va o'zgarib boradi.

Fuqarolik jamiyati *tor ma'noda*, huquqiy jamiyat bilan bevosita bog'liq bo'lib, boshqacha aytganda, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor va demokratik huquqiy davlatchilik sharoitida davlat tomonidan boshqarilmaydigan, erkin va teng huquqli shaxslarning o'zaro munosabatlarini ifodalaydi. Bu individual huquqlar va xususiy manfaatlar erkin amal qiladigan ijtimoiy makon hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati burjuaziya davrining mahsuli bo'lib, asosan quyi qatlamlardan ixtiyoriy tarzda, davlatga tobe bo'lgan ommani o'z ichiga olgan jamiyatdan xo'jalik va siyosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lgan erkin fuqarolar jamiyati tarzida shakllanadi.

Fuqarolik jamiyatining murakkabligi shundaki, u xo'jalik, iqtisodiy, oila-urug'chilik, etnik, diniy va huquqiy munosabatlar, axloq, shuningdek shaxslar va hokimiyatning birlamchi subyektlari bo'lmish partiyalar, manfaat guruhlari va hokazolar o'rtasidagi davlat tomonidan tartibga solinmaydigan siyosiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Davlat tuzilmalaridan farqli o'laroq fuqarolik jamiyatida vertikal (bo'ysunish) emas, balki huquqiy jihatdan erkin va teng huquqli hamkorlar o'rtasida gorizontaal aloqalar va raqobat munosabati amal qiladi.

"Fuqarolik jamiyati" – na yuridik, na davlat-huquqiga tegishli bo'lgan tushunchadir. Davlat o'z qonunlari bilan o'z manfaatiga mos bo'lgan fuqarolik jamiyati shaklini "o'rnatish", "qonunlashtirish", "joriy etish" huquqiga ega emas. Fuqarolik jamiyati – bu qonuniyatli bosqich, shaxslar o'zini o'zi namoyon etishining oliy shaklidir.

U xalqning farovonligi, madaniyati va ongining o'sishi, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy rivojlanishiga mos ravishda pishib

yetiladi. Fuqarolik jamiyati insoniyatning taraqqiyot mahsuli sifatida, sinfiy-feodal tizimga xos qat'iy qoidalarning o'zgarishini, huquqiy davlat shakllanishining boshlanishi davrida paydo bo'ladi. Barcha fuqarolarda xususiy mulk asosida iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatining paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati vujudga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi. Sinflararo imtiyozlarning bekor bo'lishi, inson qadrining o'sishi va tobe fuqarodan barcha bilan teng huquqqa ega bo'lgan shaxsga aylanish fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim sharti hisoblanadi. Shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan huquqiy davlatchilik fuqarolik jamiyatining siyosiy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bu sharoitda insonning xulqi uning manfaatlari bilan belgilanadi va har qanday xatti-harakati uchun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi. Bunday shaxs o'z erkinligini barcha narsadan ustun qo'ygan holda, ayni vaqtda boshqalarning qonuniy huquqlarini ham hurmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov fuqarolik jamiyatini "Fuqarolik jamiyati bu o'zini o'zi boshqarishdir. Uning birinchi va asosiy tamoyili shu. Biz uchun fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy makondir"- deya ta'riflaydi. Prezident Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Fuqarolik jamiyati barpo etish, yurtdoshlarimizning erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish kelgusida ham O'zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi"¹.

Olim X.Odilqoriev fuqarolik jamiyatiga quyidagi ta'rifni keltiradi: "Fuqarolik jamiyati – bu insonlarning shunday birlashmasiki, unda jamiyat ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohasidagi asosiy nodavlat tuzilmalarni shakllantiradi; ushbu jamiyat o'z faoliyati bo'yicha davlat va uning organlaridan mustaqil hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini davlat – hokimiyat tuzilmalariga kirmaydigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin".²

M.Sharifxo'jaev tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "fuqarolik jamiyati bu – erkin, demokratik, huquqiy sivilizatsiyalashgan jamiyat bo'lib, unda yakkahokimlik rejimiga, volyuntarizmga, sinfiy

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимишни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз. 1- жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. –б. 44.

² Одилқориев Х.Т. Фуқаролик жамияти қарор топишининг асосий тамойиллари ва қонуниятлари. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларини шакллантириш масалалари: назария ва амалиёт // Илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: ТДҲИ, 2007. – Б. 31-32.

yo'q. Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, axloq, insonparvarlik, adolat ustuvorlik qiladi. Bu jamiyatda ko'p ukldali raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini muvozanatga keltirilib turiladi³.

Siyosatshunos olim M.Qirg'izboev fikriga ko'ra⁴, "fuqarolik jamiyati bu:

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga olgan insoniy birlikdir;

ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatga ega bo'ladilar."

Professor Z.M.Islomovning fikricha, "fuqarolik jamiyati - bu qonun, axloq, gumanizm va adolatlilik prinsiplari hurmat qilinadigan, insonlarni qiynash, totalitarizm, tabaqaviy nafrat, volyuntarizm, yakka hokimiyat rejimlari mavjud bo'lmagan erkin, demokratik huquqiy jihatdan rivojlangan jamiyat. Bu - ko'p tarmoqli aralash bozor iqtisodiyoti va raqobatga hamda turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini muvozanati va tashabbuskor tadbirkorlikka asoslangan jamiyat"⁵.

Fuqarolik jamiyatining belgilari. Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning obyektiv ravishdagi ma'suliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang

³ Шарифхужаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. -Т.: Шарқ, 2003. 20-бет.

⁴ Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. - Т.: Ўзбекистон, 2010. 52-бет

⁵ Исламов З.М. Общество. Государство. Право. (Вопросы теории). - Т.: Адолат, 2001. - С.68

ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan fuqarolarning siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyat darajalari yuqori bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Siyosiy sohada: siyosiy partiyalar va harakatlar. Uni siyosiy hokimiyat tuzilmasi yoki davlat boshqaruvi bilan aynan bir xil, deb bo'lmaydi. Jamiyat huquqiy jihatdan takomilga yeta borib fuqarolik jamiyatiga aylana boshlagan paytda, fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil etishning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini ishlab chiqarib boshlagan davrda shaxs erkinligini to'liq ta'minlashga qodir bo'ladi. Siyosiy va g'oyaviy plyuralizm hamda ko'ppartiyaviylik fuqarolik jamiyatining siyosiy jihatdan institutsiyalashuvida muhim asos hisoblanadi. Siyosiy va g'oyaviy monopolizm fuqarolik jamiyati uchun begonadir

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ-shirkatlar; ijara jamoalari; aksiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; kooperatsiyalarning mavjudligi. Fuqarolik jamiyatining dastlabki tarkibiy elementi uning iqtisodiy tuzilmasi bo'lib, u rivojlangan bozor munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Bozor munosabatlari esa erkin iqtisodiyotni, ya'ni doimiy foyda olishga qaratilgan mustaqil tadbirkorlik faoliyatini ifodalaydi.

Ijtimoiy sohada: oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'zini o'zi boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari; ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligi. Bozor munosabatlari sharoitida u juda murakkab xususiyatga ega bo'lib, avvalo, bir-biridan farqlanadigan ijtimoiy guruhlarni aks ettiradi. Bu guruhlar yollanma ishchilar, tadbirkorlar va mehnatga layoqatsiz fuqarolardan iboratdir. Mazkur guruhlarning iqtisodiy manfaatlari va moddiy imkoniyatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash – ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Ma'naviy sohada: so'z, vijdon va fikr erkinligi; o'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatdan ta'minlanganligi.

Bundan tashqari fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari ham mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

- erkin individlar uyushmasi;
- o'zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;
- murakkab tuzilishga ega bo'lgan plyuralistik tizim;
- o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan tizim.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillariga esa quyidagilar kiradi:

1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;

2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;

3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;

4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;

5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;

6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;

7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi.

Demokratik huquqiy davlat rivojning mantig'i, ichki qonuniyatlari davlat hokimiyati organlari va boshqaruvining siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari – kasaba uyushmalari, faxriylar, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari, ijtimoiy va ijodiy jamg'armalar, fuqarolarning boshqa turli birlashmalari bilan har tomonlama yaqin aloqalari va hamkorligini taqozo etadi.

Chinakam demokratik, huquqiy davlat o'zaro yaqin aloqada bo'lgan va bir-biri bilan chambarchas bog'liq ikki qismdan:

1) davlat hokimiyati organlari va boshqaruvi;

2) fuqarolarning turli-tuman manfaatlarini o'zida ifodalagan mustaqil siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalaridan iborat. Mana shu ikkinchi nodavlat qismni fuqarolik jamiyati deb aytiladi.

Fuqarolik jamiyati funksiyalari. Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z funksiyalari nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa alohida o'z funksiyalari bo'ladi. ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyasi o'z a'zolarining moddiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishdan iborat. Fuqarolarning iqtisodiy, irqiy, mintaqaviy, kasbiy, diniy va hokazo birlashmalari individ manfaatlarini, intilish hamda maqsadlarini har tomonlama amalga oshirish uchun hamkorlik qilishga jalb qilinadi. Ushbu asosiy funksiyani bajarish doirasida fuqarolik jamiyati quyidagi muhim ijtimoiy funksiyalarni amalga oshiradi:

Qonuniylik asosida u inson va fuqaro hayotining xususiy sohasiga davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning asossiz aralashuvidan himoya qiladi;

Fuqarolik jamiyati institutlari asosida o'zini o'zi boshqarishning jamoaviy mexanizmlarini yaratadi;

Fuqarolik jamiyati siyosiy hokimiyatning mutlaqlashtirilishi, yakka hokimlikka intilishining oldini olishda muhim va qudratli vosita hisoblanadi. U fuqarolar va ularga oid birlashmalar faoliyatiga davlatning noqonuniy aralashuvining oldini olish bilan davlat organlari va butun siyosiy hokimiyatni demokratlashtirishga ko'mak beradi. Bu funksiyani bajarishda saylov va referendumlar, namoyishlar va hokazo vositalar qo'llaniladi. Bundan tashqari, mustaqil ommaviy axborot vositalari orqali jamoat fikrini shakllantirishda ham katta kuchga egadir.

Fuqarolik jamiyati institutlari va tashkilotlari jamiyat manfaatlarini yo'lida davlat va jamoat ishlariga keng jalb etiladilar;

Fuqarolik jamiyati o'z a'zolariga nisbatan jamoatchilik nazoratini ham amalga oshiradi. Fuqarolik jamiyati institutlari yordamida jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy vaziyatni sog'lomlashtirishga intiladi; milliy, diniy va ma'naviy me'yorlarni kuzatib, ularni saqlab qolishga harakat qiladi; fuqarolarning jamiyatda qabul qilingan ana shu me'yorlarga amal qilishlarini ta'minlaydi;

Fuqarolik jamiyati ijtimoiy aloqa vazifasini ham bajaradi. Erkin bozor munosabatlari rivoj topayotgan sharoitda manfaatlarning xilma-xilligi vujudga keladi. Ularning turiligi fuqarolar erkinligi bilan belgilanadi. Demokratik tizimga asoslangan davlat o'z fuqarolari manfaatlarini va talablarini to'liq qondirishi lozim. Ammo erkin bozor sharoitida manfaatlarning turi shunchalik ko'payib ketadiki, hokimiyat ularning barchasi haqida to'liq ma'lumotga ega

bo'la olmaydi. O'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining vazifasi fuqarolarning eng dolzarb talab va ehtiyojlari haqida ogohlantirib turishdan iborat.

2. Fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar evolyutsiyasi va yondashuvlar

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bir necha asr davom etgan bo'lib, uning ayrim elementlari antik davrda G'arbiy Yevropaning ba'zi bir hududlarida mavjud bo'lgan. Bu mintaqada hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoji tovar-pul munosabatlarini vujudga keltirgan holda xususiy huquqqa oid bir qator institutlar shaklida mustahkamlangan. Ammo ular fuqarolik jamiyatining eng sodda ko'rinishdagi o'choqlari bo'lib, ba'zi mintaqalarda sinfiy jamiyatlar bilan uyg'unlashgan holda mavjud bo'lgan. Fuqarolik jamiyati insoniyatning taraqqiyot mahsuli sifatida huquqiy davlatning shakllanishining boshlanishi davrida paydo bo'ladi. Barcha fuqarolarda xususiy mulk asosida iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatining paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati vujudga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi. Jamiyat demokratik taraqqiyotning muayyan bosqichidagina fuqarolik jamiyatiga aylanadi va davlatning iqtisodiy, siyosiy rivoji darajasiga, xalqning moddiy ma'naviy farovonligi, madaniyati hamda ongi o'sishiga qarab shakllanadi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi insoniyat rivojlanishining ilk bosqichlaridanoq "ideal davlat", "ideal jamiyat", "ideal shoh" tushunchalari negizida shakllana boshlagan. Yangi davrning eng muhim siyosiy hodisalaridan biri bo'lgan "fuqarolik jamiyati" g'oyasi o'z tadrijida bir qancha konsepsiya va talqinlarni vujudga keltirdi. Biroq, u hamisha "davlat" hodisasiga nisbatan qarama-qarshi qo'yilgan. Fuqarolik jamiyatining liberal talqini T.Gobbs, J.Lokk va Sh.Monteske davriga borib taqaladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari asosan XVII asrda G.Grotsiy, T.Gobbs, D.Lokk, XVIII asrda J.J.Russo, Sh.Monteske, V.Gumboldt, D.Viko kabi mutafakkirlar tomonidan o'rganilgan bo'lsada, aslida antik davr namoyondasi Aristotelning siyosiy-huquqiy qarashlarida ilk bora fuqarolik jamiyatiga oid fikrlar mavjud.

Yangi davrda Yevropa va keyinchalik, Amerika singari yirik mintaqalar miqyosida fuqarolik jamiyati taraqqiyoti uch bosqichda

amalga oshgan. Dastlabki bosqichda (taxminan XVI-XVII asrlarda), fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari vujudga kelgan. XVII asrning oxiridan XIX asrning yakuniga qadar bo'lgan ikkinchi bosqichda eng rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati huquqiy jihatdan tenglik va xususiy tadbirkorlikka asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishida shakllandi. XX asrda fuqarolik jamiyatining uchinchi bosqichi - ya'ni uning ijtimoiylashuv davri boshlandi.

Yunon faylasufi **Platonning** ideal davlat va jamiyat haqidagi ta'limoti uning "Davlat", "Qonunlar" kabi dialoglarida rivojlantirildi. Xususan, "Davlat" nomli asarida adolatli ideal davlatni ta'riflar ekan, davlat polisidagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan koinotning birikuvidan hosil bo'ladi, deydi. Platonning ta'limotiga ko'ra adolat deganda birinchi navbatda har bir odam o'z ishi bilan shug'ullansin, boshqalarning ishlariga aralashmasin, polis turli ehtiyojlarning umumlashgan ifodasidir degan g'oyani ilgari suradi. Bu turli-tuman ehtiyojlarni qondirish uchun davlatda odamlar o'rtasida mehnat taqsimoti qaror topgan bo'lishi kerak. Ideal davlatda ayollar erkaklar bilan baravar huquqqa ega. U ideal davlatida uch tabaqa faylasuflar, harbiylar va dehqon-hunarmandlarni bo'lishini e'tirof etgan. Platon o'zining "Qonunlar" nomli asarida davlatning mohiyati va qurilishi haqida batafsil to'xtalib o'tadi. Platon ideal davlatning eng muhim belgilari quyidagilardan iborat. Barcha yerlar davlatning mulki bo'lib odamlarning farzandlaridan biriga meros bo'lib o'tishi mumkin. Mavjud mulkning ko'p va ozligiga qarab, odamlar to'rt toifaga bo'linadilar: Boylikning ham, kambag'allikning ham ma'lum chegarasi bo'lib, bu qonun tomonidan belgilab qo'yiladi. Platonning ideal davlatida qonunchilikka e'tibor qaratgan. Qonun chiqaruvchilarga Platon maslahat berib qonunlar juda qattiq bo'lmasin, qonunga itoat etish bilan birga hukmdorlar jamiyatni erkin boshqara olsinlar, qonunlarni ishlab chiqqanda geografik muhit, iqlim, tuproq va boshqa omillar e'tiborga olinishi zarur. Platon qonunlarga rioya etmaslikni qattiq qoralaydi. Platon o'z qarashlarida mafkuraviy masalalarga katta e'tibor berdi. Davlat va qonunlarning ilohiy va muqarrar qudratini odamlarga yetkazish, ularning ongiga singdirish kerak. Qonun-qoidalarni buzish qattiq jazolanishi kerak. Platon tomonidan ikki yarim ming yil oldin aytilgan "Qonun ustuvorligi", "qonun hukmronligi" g'oyalari bizning kunimiz uchun shubhasiz juda foydali.

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar **Aristotel** (eramizdan oldingi 384-322 yillar)ning "Siyosat" asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Aristotel, eng yaxshi hayot tarzi haqidagi ta'limot bevosita davlat tuzilishi va siyosatining maqbul shakliga bog'liq, deya ta'kidlaydi. Aristotel davlatning siyosiy tashkilot ekanini ta'kidlab, davlat bu oliy hokimiyatga ega bo'lgan siyosiy tizimdir, deb uqdiradi. Davlatning to'g'ri va noto'g'ri boshqarish shakllarini ajratadi. Davlatning to'g'ri boshqarish shaklida xalqqa manfaat keltiradi. Noto'g'ri boshqarish shaklida faqat tor doiradagi odamlarga foyda keltiradi xolos. Davlat boshqarishining uchta to'g'ri shakli monarxiya, aristokratiya politiya. Davlat boshqarishning noto'g'ri shakli tiraniya, oligarxiya, demokratiyadir. Aristotel davlat boshqarish shakllarining turli xillarini ham tekshirib chiqadi. Uning fikricha, eng to'g'ri boshqarish shakli – bu politiyadir. Boshqa davlat formalari politiyadan ozmi-ko'pmi chekinishlarga asoslanadi. Davlatni noto'g'ri boshqarish shaklidan eng yomoni bu tiraniyadir. Politiya oligarxiya va demokratiyaning eng yaxshi tomonlarini birlashtiradi, ammo ularning yomon tomonlaridan butunlay xoli davlat shaklidir. Aristotel ishlab chiqqan ideal davlatning loyihasini oddiy bir faktni tajribada sinab ko'rishdek aniq bir belgilar bilan xarakterlab bo'lmaydi, deb ko'rsatadi. Ideal davlatning aholisi yetarli darajada bo'lib, aniq ko'zga tashlanib turishi kerak. Uning hududida quruqlik va dengizga yaxshi yo'naltirilgan bo'lmog'i zarur. Uning fikriga ko'ra, ezgulik aniq-maqсад va unga doimiy intilish bilan birga amalga oshiriladi. Ezgulik tug'ma sifat bo'lmasdan, unga ta'lim-tarbiya va mehnat orqali erishiladi. Aristotel adolatsizlik deganda qonunni buzuvchilar, va barchaga teng munosabatda bo'lmaydigan kishilarni tushunadi. Qonunga yarasha ish qiladigan, barchaga bir ko'zda qaraydigan kishilarni adolatli deb hisoblaydi. Uning fikricha, barcha kishilar tenglikka amal qilishi lozim. Aristotelning buyuk xizmati shundaki, u ilk bor erkinlikka intilish – insonga xos tug'ma xususiyat ekani va bu hol uning o'zligini anglashi, yuksak maqsadlar va ezgu amallar sari xatti-harakatlari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.

Bu g'oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, **Tomas Gobbs** asarlarida takomillashtirildi. Siyosiy ta'limotlar bo'yicha yirik

namoyondalaridan biri, ingliz faylasufi T.Gobbs (1588-1679)ning siyosiy va huquqiy qarashlari "Fuqarolik haqida", "Leviofan" asarlarida o'z aksini topgan. Davlatning paydo bo'lishi sabablarini Gobs inson tabiatidan izlaydi. Uning fikricha inson o'z tabiati bilan egoist. U hukmronlik qilishga intiladi. Uni boshqa odamlar bilan muloqotga kirishishga undovchi kuch muhabbat emas, shuhrat va qulaylikka erishishdir. Inson faqat o'zining manfaatini ko'zlaydi, jaf chekmaslikka intiladi. Lekin barcha odamlarning kuch-qudrati teng, chunki tabiat ularga hamma narsani teng bergan. Shuning uchun odamlar tabiiy holatida bir biriga nisbatan dushmanlikda yashaydilar. "Odam odamga bo'ridir". Gobbs so'zi bilan aytadigan bo'lsak, tabiiy holat hammani hammaga nisbatan urush holatidir. Bu yerda umumiy hokimiyat, qonun, xususiy mulk yo'q. Aql bunday holatdan chiqish zarurligini, tinchlikni ta'minlashni talab qiladi. Buning yagona chorasi, deydi Gobbs, ijtimoiy shartnoma tuzishdan iboratdir. Bu shartnomaning bajarilishini ta'minlash uchun unga rioya qilish zarur. Mana shu talabdan kelib chiqib, Gobbs tinchlikni ta'minlovchi, bajarilishi shart bo'lgan qonun-qoidalarni ko'rsatadi. Bular orasida minnatdor bo'lish, o'tgan xafachiliklarni kechirish, boshqalarga hurmat, o'z tabiatiga ko'ra odamlar teng ekanligini tan olish va boshqa shunga o'xshagan axloqiy qonun-qoidalar. Davlat mana shu shartnoma mahsulidir. Odamlar umumiy tinchlik va o'z muhofazasining ta'minlash uchun ixtiyoriy ravishda urush holatini bartaraf qilishga qodir hokimiyatni joriy qilishga kelishadilar. Bu kelishuvda har bir individ davlat foydasiga o'z erkidan voz kechadi. Gobbs davlatga jismoniy kuch sifatida qaraydi. Jismoniy kuch bo'lmasa shartnoma buzilishi mumkin. Yolg'iz jismoniy kuchgina har bir kishining joni va sog'lig'ini himoya qilish uchun tuzilgan shartnomaning buzilishining oldini olishi mumkin. Gobbs davlat hukmronligini ta'minlovchi omil hokimiyatni yagona organning qo'lida bo'lishidadir, deb biladi. Uning fikricha, demokratiya, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hokimiyatning bitta organ qo'lida bo'lishini buzadi. Gobbs mutlaq erkinlikka ega bo'lgan hukmdor hokimiyati-absolyutizm tarafdori edi. Agar monarx individlarning xavfsizligini ta'minlay olmay qolsa, barchaning barchaga qarshi fuqarolar urushi holati yuzaga keladi. Shuning uchun yangi shartnoma va yangi hukmdorga zarurat paydo bo'ladi. Absolyut monarx uchun eng yaxshi himoya vorislik huquqi va Xudo marhamatining uyg'unlashuvi orqali taxtga kelishdir. Shuni ham

ta'kidlash kerakki, Gobbs ta'limotidagi shartnoma qirol bilan xalq o'rtasida tuzilgan shartnoma emas. Bu egoist va aqlga ega individlarning bir-biri bilan tuzilgan shartnomasidir. Davlat mana shu shartnomaning mahsuli sifatida individlarning tinchligini ta'minlashi kerak. Bu absolyutizmni himoya qilish va asoslash doirasidan kengroq talab edi. Gobbs ta'limotida keyinchalik yuzaga kelgan burjua liberalizmga asos soluvchi ayrim elementlar borligini ko'rish mumkin.

O'zining "Fuqarolik boshqaruvi haqidagi ikkinchi risola" deb nomlangan asarida **Jon Lokk** (1632-1704) har qanday odam uchun tabiiy (ya'ni sodda, johil, ibtidoiy - muallif izohi) holatni inkor etgan holda fuqarolik jamiyati talablari darajasiga yetish uchun yagona yo'l boshqalar bilan kelishgan holda ijtimoiy birlikka qo'shilish yoki birlashishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi.⁶ Uning fikriga ko'ra, mutlaq monarxiya fuqarolik jamiyati bilan umuman mutanosib bo'la olmaydi va u fuqarolarning erkin boshqaruvi shakliga mos kelmaydi. Bundan tashqari, u xususiy mulk mustaqil individning kristallashuvi jarayoni negizida yotishini, aynan xususiy mulk inson siyosiy mustaqilligi va erkinligining iqtisodiy asosi ekanligini uqtiradi.⁷ Uning fikricha, tabiiy holatda erkinlik va tenglik hukm suradi. Tabiiy erkinlik hech qachon begonalashtirilmaydi. Lokk mulkka egalikni ham erkinlik kabi odamning tabiiy huquqi deb hisoblaydi. Odamlarning erkinligi va ularning mulki, deydi Lokk, tabiiy holatda ishonchli muhofaza qilinmaydi. Umumiy tenglik tufayli barcha o'zini qirol deb tasavvur qiladi. Biroq, ko'pchilik hamma vaqt ham adolat talablariga rioya qiladi deb bo'lmaydi. Bu hol o'z mulkiga egalik qilishni qiyinlashtiradi. Odamlarning oliy maqsadi o'z mulkini, tabiiy erkinligini muhofaza qilishdan iboratdir. Shu maqsadda ular ijtimoiy shartnoma asosida o'zlarining tabiiy erkinligi, hayoti va mulkini muhofaza qilish huquqini jamiyatga topshiradilar. Lekin tabiiy huquqning barchasidan voz kechilmaydi. Individ faqat hokimiyatning saqlanishi uchun zarur bo'lgan miqdordagina tabiiy huquq va erkinliklarini cheklaydi. Qolgan qismi insonning o'zida daxlsiz qoladi. Davlatning vazifasi deydi Lokk, o'z tadbirkorlarining xorijiy raqobatchilaridan himoya qilish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tartib saqlashdan iboratdir. Lekin davlat savdo-sotiq va sanoatni boshqarish ishlariga aralashmasligi lozim. Davlat


⁶ Гоббс Т. Избранные произведения. В 2-х томах. Т.2. М.1956. 137-бет.

⁷ Мухаяв Р.Т. Политология. - М.: Проспект, 2010. - 640 с.

individlarga ijtimoiy va iqtisodiy tenglikni emas, balki huquqiy tenglikni ta'minlashi kerak. Lokk absolyutizmga qat'iy qarshi chiqadi. U hukmdorlar hokimiyatini cheklash muammosi bilan jiddiy shug'ullandi, hokimiyatning bo'linish prinsipini qo'llab-quvvatladi. Lokk qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va ittifoq, (federativ) hokimiyatlarni ajratadi. Ular bitta organ qo'lida bo'lmasligi kerak. Sud hokimiyatini Lokk ijro etuvchi hokimiyat ixtiyoriga beradi. Uning ta'limoti burjua davlatchiligi prinsiplarini asoslashga qaratilgan edi.

Fransuz mutafakkiri **Jon Jak Russo** (1702-1778) qarashlarining asosida ijtimoiy shartnoma nazariyasi bo'lib, unda inson, jamiyat va davlat munosabatlari atroflicha tahlil etiladi. Russo o'z davrida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilar ekan, kishilar o'z salohiyatlarini birlashtirgan holda hukmron sinfga qarshi tura olishlari mumkinligi va ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mumkinligiga urg'u beradi. Uning fikriga ko'ra, kishilar tabiiy holatda yashab qolishlariga qarshi ta'sir kuchli bo'lganligi tufayli ular o'z hayot tarzini o'zgartirishga majburdirlar. Ular yangi kuchni vujudga keltira olmas ekan, faqatgina mavjud kuchni birlashtirish va yo'naltirish bilan o'zlarini saqlab qolish, boshqalar bilan birlashgan holda umum manfaat yo'lida harakat qilishi mumkin bo'lgan kuchlar birligini hosil qilishi mumkin. Ayni vaqtda Russo, bunday birlashgan kuchni hosil qilish uchun o'z salohiyatidan jamoa manfaati yo'lida voz kechgan insonning eng asosiy boyligi bo'lgan erkinlikni qanday saqlab qolishi haqida ham bosh qotiradi. Bunga javob topar ekan, "uyushmaning shunday shaklini topish kerakki, unda mujassam bo'lgan qudrat uyushma a'zolarining shaxsi va mulkini himoyalashi va asrashi, shu tufayli barcha bilan birlashgan har bir kishi ko'pchilikka bo'ysunadi va ayni vaqtda, ilgarigidek erkin bo'lib qolaveradi. Ijtimoiy shartnoma bajaradigan asosiy vazifa ana shudir", deya ta'kidlaydi. Russo g'oyalari ijtimoiy shartnoma natijasida ijtimoiy birlik qay tarzda shakllanishiga qaratilgan. "Agar har birimiz o'z shaxsiyatimiz va bor kuchimizni umumjamoa va uning oliy irodasiga topshirar ekanmiz, natijada barchamiz uchun har birimiz yagona butunlikning ajralmas qismiga aylanamiz".⁸ Russoning fikricha, davlat hukmronlikni mustahkamlash, xususi

⁸ Russo Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. - М.: "КАНОН-пресс", "Кучково-поле", 1998. 39-40 с.



mulkni qo'riqlash uchun paydo bo'lgan. Bu odamlar orasida tengsizlikni yanada kuchaytirdi. Ayniqsa despotik davlatlarda inson qulga aylangan. Inson erkin tug'ilgan, lekin u hamma yerda kishanlangandir. Bu holatdan chiqishning qonuniy yo'li nimadan iborat, degan savolga Russo o'zining mashhur "Ijtimoiy shartnoma" nomli asarida javob berishga harakat qiladi. Russoning fikricha, qonun chiqarishda butun xalq ishtirok etgandagina erkinlik ta'minlanadi. Davlat demokratik prinsiplarga amal qilgandagina odam yo'qotgan tabiiy erkinligi o'rniga siyosiy erkinlikka ega bo'ladi. U hokimiyatga bo'ysunadi, lekin despotizm-dagi qullikdan ozod bo'ladi. Barchaga taalluqli umumiy irodaning xato qilishi mumkin emas. U doim umumiy manfaat uchun xizmat qiladi, deydi Russo. Qonun umumiy irodaning ifodasi bo'lishi kerak. Agar bu shart davlatda amalga oshirilsa fuqarolar erkin bo'ladilar, chunki ular o'zlari qabul qilgan qonunlarga bo'ysunadilar. Russo xalq suvereniteti tarafdoridir. Uning fikricha, suverenitet bo'linmas, yagona, begonalashtirilmaydi, unga faqat xalq egalik qiladi. Ijtimoiy shartnomaning asosiy talabi shundadir. Davlat hokimiyati shu talabga mos holda tashkil qilinishi kerak. Bunda inson tabiiy huquqlarining ma'lum qismi saqlanadi, deydi Russo.

Fuqarolik jamiyatini davlat hokimiyatining maqomi nuqtai nazaridan talqin etgan mashhur olimlardan biri **Sh.L. de Monteske** (1689–1755 y.)dir. Uning asosiy g'oyalaridan biri hokimiyatning bo'linishi to'g'risidadir. U o'zining "Qonunlar ruhi" nomli asarida davlatni fuqarolik jamiyatida fuqarolarning o'zaro adovatini bartaraf etishga qaratilgan jamoatchilik kelishuvining natijasi sifatida ko'rib chiqadi. U ushbu ikki tushunchaga aniqlik kiritadi va ularning har ikkisinining o'ziga xos qonunlari (fuqarolik va davlat) bo'lib, o'zining ta'sir doirasiga ega. Demak, fuqarolik jamiyati fuqarolarning o'zaro munosabatlarini boshqarsa (shu bilan birga xususiy mulkka egalik qilish), davlat esa insonlarning siyosiy huquqlari va erkinligini ta'minlaydi. Bu borada o'zining yuqorida qayd etilgan asarida Sh.Monteske shunday yozadi: "fuqaro uchun erkinlik o'z xavfsizligi borasida ishonchga asoslangan ruhiy xotirjamlikdir. Bunday xotirjamlikka erishish uchun shunday boshqaruv bo'lishi kerakki, bu holatda bir fuqaro boshqa fuqarodan qo'rqmasin". Uning fikricha, erkinlik bu xavfsizlikni xis qilishdir. Bu hissiyot qonunlarning hukmronligidan kelib chiqadi. Davlatdagi erkinlikning eng muhim belgisi qonunchilikdir. siyosiy arbobning

asosiy vazifasi qonunchilikning ta'minlash chora va vositasini topish va ko'rsatib berishdan iboratdir. Bunday vosita, deydi Monteske, hokimiyatlar taqsimlash prinsipini joriy qilishdir. Mana shu prinsip joriy qilingan davlatdagina erkinlik ta'minlanishi mumkin. Bu siz despotizm hukm suradi. Fuqarolik jamiyatida qonunlarning hayotda amal qilishiga urg'u bergan olim "men biror mamlakatga borsam, u yerda yaxshi qonunlar mavjudligi bilan emas, balki qonunlarga qanday itoat etilayotganligi bilan qiziqaman..." - deb yozadi⁹. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar shartnoma asosiga qurilgan. O'z mohiyatiga ko'ra bu munosabatlar taraqqiy topgan, negaki davlat va fuqarolik jamiyati birgalikda, individlarning hayot-faoliyatini ta'minlash va insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratishgan. Davlat insonlarning asosiy huquqlarini himoyalaydi, hokimiyat yordamida tabiiy dushmanlikni chegaralaydi, o'z yaqinlari va qondoshlari hayotiga nisbatan bo'ladigan tahdidlarni, o'z moddiy boyligidan xavotirlikni bartaraf etadi; fuqarolik jamiyati bo'lsa hokimiyatni jilovlab turadi. Monteskening hokimiyatlarni taqsimlash ta'limoti o'z zamondoshlari orasida mashhur bo'ldi. Bu ta'limot XVIII asr oxiri Fransuz burjua revolyutsiyasining konstitutsion hujjatlarida o'z aksini topdi.

Fuqarolik jamiyatini o'z mehnati bilan kundalik ehtiyojlarini qondiradigan individlarning majmuasi sifatida tasavvur etgan nemis faylasufi **Georg Gegel** (1770-1831)ning yondashuvi o'zgacha bir an'anani namoyon etadi. Uning fikriga ko'ra, inson tabiiy holatda tabiatga mutloq qaram bo'lgan. Bu holatda zo'ravonlik, varvarlik, madaniyatsizlik hukm suradi. Insoniyatning bu holatdan chiqaruvchi yagona vosita fuqarolar jamiyatining tashkil etishdan iborat. Faqat fuqarolik jamiyati har bir odam erkinligini ta'minlashga qodir. Fuqarolik jamiyatida qonun odamlar erkinligining cheklashga qaratilgan xatti-harakatlarga barham beradi, shaxs hayoti, sog'lig'i, mulki, or-nomus va qadr-qimmatini muhofaza qilish uchun xizmat qiladi. Gegelning siyosiy ta'limotining markaziy tushunchasini erkinlik tushunchasi tashkil qiladi. Erkinlik insonning asosiy sifatidir. Qonunlar, deydi Gegel, umumiy irodaning ifodalaydi va barcha uchun barobar. Unga ko'ra, xususiy mulk fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etadi. Kishilar, avvalo xususiy

⁹ Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. О законах в их отношениях к различным существам. - М., 1955. - С.164-165.

manfaatlarga asoslangan holda harakat qilishadi, ammo ular bir-birlari bilan bog'liq bo'lganliklari tufayli ular o'rtasida ijtimoiy aloqa o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyati xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida bozor munosabatlari tizimini, oila va davlat orasida joylashgan jamiyatning hayotiylikini, fuqarolik huquqlarini ta'minlaydigan oraliq shaklini ifoda etadi.¹⁰ Gegel fuqarolik jamiyatiga ta'rif berar ekan, xususiy mulkning birlamchiligiga urg'u beradi. Unga ko'ra, avvalo, xususiy mulkchilikka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, ijtimoiy qatlamlar, oila, axloq, burch, madaniyat, ta'lim, qonunlar fuqarolik jamiyatini tashkil etadi.¹¹ Davlat va jamiyat munosabatlari haqida gapirganda, Gegel jamiyat emas, balki davlat taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini ta'kidlaydi. Gegelga ko'ra, fuqarolik jamiyatiga nisbatan davlatning birlamchiligi, butun olam taraqqiyotining negizida "Dunyoviy ruh", "Mutlaq g'oya"ning turganligi bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyati ruh-g'oyaga nisbatan "begona" bo'lgan bir paytda, aynan davlat umumjahon miqyosida o'z-o'zicha rivojlanishda bo'lgan g'oyani o'zida namoyon etgan holda, inson shaxsiyatining, siyosiy, moddiy va ruhiy ibtidolarning eng qudratli ifodachisi sifatida maydonga chiqadi. Gegel fikricha, fuqarolik jamiyati va davlatning paydo bo'lishiga tabiiy zaruriyat, tabiat qonunlarining qat'iy ta'siri bilan bir vaqtda erkin iroda ta'siri ham sabab bo'ldi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyat va davlat huquq va axloqqa asoslangan individual xalq ruhi, xalqning kollektiv ongidir. Xalqning umumiy irodasini qonun orqali ta'minlagan davlatgina adolatlidir. Fuqarolarning davlatga nisbatan munosabati uning buyruq va talabalariga ko'r-ko'rona bo'ysunishida emas, unga bo'lgan ishonchda va oqilona bo'ysunishda namoyon bo'ladi, deydi Gegel. Oshkora bayon qilingan ideal, bu konstitutsiyaviy kuchli hukumatdir. Hukmdor o'zining injiqliklari asosida boshqarishi mumkin, degan qarashga qat'iy qarshi chiqadi. Gegel qonun asosida boshqariladigan davlat tarafdori edi.

Yana bir nemis faylasufi **Emmanuil Kant** (1724-1804) inson huquqlari masalasini umumiy tamoyil sifatida qo'ygan eng birinchi siyosiy mutafakkirlardan hisoblanadi. Kant odamlarning hamjihat yashashini ta'minlovchi umumiy mezonni izlaydi. Mana shu mezon mavjud boshqaruv shakllarini siyosiy adolat talablariga javob

¹⁰ Гегель Г.В.Ф. *Философия права*. М., 1990. 228 с

¹¹ Гегель Г.В.Ф. *Работы разных лет*. В 4-х томах. Т. 2. 134 -бет

berishi yoki bermasligini baholash imkonini beradi. Davlatning fuqarolar erkiga qonun doirasida aralashuvining chegarasi qayerda? Insonning tabiiy erkinliklarini tartibga solish va uni ajralmas huquqlariga aralashish umuman qonuniymi? Kantning siyosiy-huquqiy qarashlari mana shunday savollarga javob berishga harakat qiladi. Bir individ xatti-harakatlaridagi erkinlik boshqa birining harakat erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin. Kantning fikri shundan iboratki, umumiy tamoyilga ko'ra shaxsning cheklanmagan harakat erkinligi boshqalarning xuddi shunday erkinligi bilan mos keladigan darajagacha cheklanishi kerak. Amaldagi qonun ham xuddi shu tarzda har bir kishining harakat erkinligini cheklaydi. Turli xil maqsadlarga ega bo'lgan odamlarning tinch-totuv yashash sharti mana shundan iborat. Erkning shunday cheklanishi erkinliklarni ko'proq ta'minlaydi, eng avvalo, nizolarni adolatli tarzda tartibga solish imkonini yaratadi. Qonunlarning umum ahamiyatlilikligi mezonini Kant fuqarolarning o'zlari kiritgan qonunlar bilan bog'laydi. Amalda qonun chiqaruvchilar shunday qonunlar qabul qilishga harakat qilishlari kerakki, uni barcha fuqarolar qo'llab-quvvatlasin. Qonunlar xalqning irodasini ifodalashi kerak deb hisoblagan. Kant fikriga ko'ra, moddiy jihatdan mustaqil bo'lgan fuqarolargina madaniy, munozara yurituvchi ommani tashkil qiladilar.

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi **A.Fergyussonning** qarashlari ham juda muhimdir. Olimlar fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyati tushunchasini dastlab aynan A.Fergyusson qo'llagan. Unga ko'ra "shaxslarning baxti fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadidir: a'zolarining har biri baxtsiz bo'lgan jamiyat qanday farovonlikka erisha oladi?".¹² Jamiyatning baxtini diniy nuqtai nazardan talqin etishda uning diniy tahsil olganligi ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Uning fuqarolik jamiyati borasidagi asosiy qarashlari 1767-yilda yozilgan "Fuqarolik jamiyatining tarixiy tajribasi" deb nomlangan asarida mujassamlashgan bo'lib, unda o'sha vaqtda shakllangan jamiyat, ya'ni tijoriy munosabatlarga asoslangan jamiyat axloqiy nuqtai nazardan tanqid qilingan.¹³ Fergyussonga ko'ra insonning jamoa bo'lib yashashga bo'lgan azaliy moyilligi qo'pol yoki sodda holatdan tamadduniy rivojlanganligini namoyon etadi. Ayni vaqtda,

¹² Фергюссон А. Опыт истории гражданского общества / Пер. с англ. Под ред. М.А.Абрамова. М., 2000. 107-бет

¹³ Фергюссон А. Опыт истории гражданского общества / Пер. с англ. И.И.Мюрберг. Под ред. М.А.Абрамова. – М.: РОССПЕН, 2000. 4–10-бетлар.

bu taraqqiyot insonning axloqiy xususiyatlari takomiliga mos kelmaydi, bu yerda ijtimoiy jarayonda o'ziga xos tarzda regress kuzatiladi. Tamadduniy jarayon ijtimoiy munosabatlar va institutlarni qoliplashtirish, millatlarning boyligini ko'paytirish bilan odamlarni jamiyatdan ajralishiga imkon yaratadi, ular fuqarolik hissini yo'qotishadi. Bunday teskari harakat korrupsiyaga olib keladi. Fegryusson o'z ta'limotida insonning axloqiy qarashlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. U J.J.Russoning tabiiy holat borasidagi fikrlariga qarshi chiqar ekan, insonning jamiyat ichida tug'ilishi va jamiyat ichida qolishi to'g'risidagi Sh.Monteske fikriga to'liq qo'shiladi. U insondagi xudbinlikni qoralar ekan, o'ta xudbin inson ijtimoiy faoliyat yuritishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Ommaviy faoliyat yuritish insonga xos bo'lgan eng ulug' xususiyat bo'lib, insoniyat baxti eng ulug' maqsad, jamiyat ichida yashash qobiliyati eng ulug' qobiliyatdir. Fergyussonga ko'ra inson faoliyatining ikki turi mavjud: egoistik (xudbin) va ijtimoiy. Birinchisi yopiqlik, raqobat va dushmanlik hissiga yaqin bo'lsa, ikkinchisi jamiyat ichida yashash, insonlarni birlashtirishga xizmat qiladi. Inson jamiyat a'zosi sifatida butunlikning qismi bo'lib, aslida u o'z-o'ziga tegishli emas. U jamiyat farovonligi yo'liga to'sqinlik qiladigan har qanday erkinlik va baxtdan voz kechishi kerak. Ko'rinib turganidek, A.Fergyusson fuqarolik jamiyatiga erishishda jamiyatning taraqqiy topganligi emas, balki axloqiy tarbiyasi muhim o'rin tutishiga e'tibor qaratmoqda.

Sharqda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor, xatti-harakatlar va qoida-me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimgi madaniy tarixiy-huquqiy yodgorlik – Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo'lgan. Bu kabi g'oyalar Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar tomonidan ham ilgari surilgan.

Avesto'da fuqarolik jamiyati muammolari. Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab, asta-sekin jismoniy va intellektual jihatdan takomillashib bordi. Odamzodning jamiyat bo'lib yashashi uchun

ma'naviy madaniyat kerak edi. Ana shu ehtiyojlar sababli hozirgi odam tiplaridagi instinktlar o'rnini axloq normalari egallab bordi. Natijada dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelgan odamlar jamoasida "ruxsat" va "taqiq" tizimi shakllandi. Diniy dunyoqarashning shakllanishi tufayli ruxsat va taqiqlar o'rniga "savob" va "gunoh" haqidagi tushunchalar tarkib topdi. Insonlar jamoasining keyingi uch ming yillik ma'naviy madaniyati ana shu qarashlar doirasida takomillashib bordi. Insoniyat taraqqiyotida davlatning paydo bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Davlat rivoji ham katta tarixiy davrlarni bosib o'tgan. Bora-bora davlatning demokratik shakllari yuzaga kelgach, jamiyat ma'naviyati qonun ustivorligi ruhida shakllanib bordi. Davlat va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi Bobil, Misr, Hindiston, Markaziy Osiyoda vujudga kela boshladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, qadimgi hind eposlari bo'lmish "Mahabhorat", "Ramayana", "Kalila va Dimna"da jamiyat, inson, ijtimoiy muammolar o'z ifodasini topgan. Xususan, "Avesto"da qayd etilgan "Ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal" qoidasi jamiyatning asosiy tamoyiliga aylangan. Jamiyat, unda odamlarning o'zni, ularning hamkor bo'lib yashashi to'g'risidagi g'oyalar Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda ham shakllangan.

Buyuk qomusiy olim, faylasuf **Abu Nasr Forobiy** (870-950) juda ko'p fanlar sohasida ilg'or g'oyalarni asoslab bergani uchun unga "ikkinchi muallim" - "muallimi soniy" (Arastu birinchi muallim) "muallimi avval degan" faxriy nom berilgan edi. U Arastuning "Metafizika", "Fizika" asarlariga ilmiy sharhlar yozgan. Farobiyning inson va jamiyat, ularning o'zaro ta'siri, davlat, siyosat, urush va tinchlik kabi masalalariga bag'ishlangan asarlari sirasiga "Fozil odamlar shahri" haqida kitob "Baxt saodatga erishish" haqida risola, "Fuqarolik siyosati", "Jamiyatni o'rganish haqida", "Urush va tinchtotuv yashash haqida", "Davlat haqidagi traktat", "Davlat arboblari haqida hikmatlar" nomli asralarida inson, jamiyat, siyosat, adolat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan. Farobiyning uqdirishicha, inson ijtimoiy mavjudotdir. U tabiiy ravishda boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishga intiladi, natijada ijtimoiy faoliyat vujudga keladi. Jamiyat odamlarni birlashtirishi va ularga baxt-saodat bag'ishlashi kerak. "Fozil odamlar shahri" nomli asarda davlat boshlig'ining fazilatleri belgilab beriladi. Davlatni boshqaruvchi kishi sog'lom, jasur, aqlli va

ma'rifatparvar, adolatparvar bo'lishi, kishilar bilan muomala qilish, san'atini chuqur bilishi va unga amal qilishi zarur. Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatlarni fozil (Al Madina al Fozila) va johil (Al Madina al Joxiliya)larga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma'rifatli kishilar tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining o'zaro ko'maklashuviga, bir-biriga yordam berishga asoslanadi. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido - insoniylikdir. Shu tufayli odamlar o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim degan hamda boshqaruvning jamoatchilik asoslari haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Aholining tinch-totuv yashashiga, farovon turmush kechirishini ta'minlab beruvchi davlatni ideal deb atash mumkin. Fuqarolar va shahar-davlat mahkamalarining o'zaro yordam va hamkorlikda yashashlari barcha muvaffaqiyatlarning bosh omilidir. Davlatni boshqarish ham inson tanasida kechiruvchi jarayonlarini eslatadi. Tananing barcha a'zolari biri-biri bilan mahkam bog'langanligi singari barcha odamlar bir-birlari bilan va davlat bilan mana shunday mahkam bog'langandirlar. Davlatni boshqaruvchidan juda ko'p fazilatlar talab qilindi. Jamoa boshlig'i mulohazali, halol, kamtar, haqiqatparvar, donishmand bo'lishi kerak. Jamoa boshlig'i odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi murabbiydir. Ideal dastlabki yo payg'ambarlar, yo faylasuf, yoki bo'lmasa yuksak fazilatlariga ega bo'lgan boshqarishi zarur payg'ambarlar haqiqatni vahiy orqali o'rgansalar va bilib olsalar, faylasuflar haqiqatni aql-idrok orqali oladilar va o'rgatadilar. Davlat boshlig'i bir qator tug'ma fazilatlariga ham ega bo'lishi kerak. Jumladan, uning tani sog', jismining a'zolari butun, tiniq fikrli balog'at sohibi bo'lib, har narsani ochiq idora eta bilishi shart.

Farobiy "jamiyat" va "davlat" tushunchalarini alohida mustaqil tushunchalar sifatida tadqiq etadi. Farobiy "har bir inson o'z tabiatiga ko'ra shunday yaratilganki, u yashash va oliy darajasidagi yetuklikka erishmogi uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni ko'lga kirita olmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi..." - deb yozadi. Insonni davlatlarga birlashishi ham tabiiy voqeiylik bo'lsada, uning asosidan insonlarning erki yotadi. Farobiyning fikriga ko'ra, kishilar o'zaro bir-birlariga yordam berishib tinch-totuv yashasalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Allomaning qarashlariga ko'ra, jamiyat hodisasi davlatga nisbatan birlamchi bo'lib, o'zak hodisa hisoblanadi. Davlat kishilarga jismoniy shaxs sifatida emas balki, insonning intellektual rivojlanishiga imkoniyat yaratishi zarur, deb hisoblaydi. Boshqaruv (idora) san'ati ikki asosiy qismdan iborat bo'ladi: nazariy va amaliy. Nazariy qism – boshqaruvning asosiy usul va qonunlarining bilimi bo'lsa, amaliy davlatni idora qilishdir. Ularning har ikkalasiga siyosiy amaliyot, tajriba va kuzatuv natijasida erishiladi. Shuningdek, ushbu asarida “Inson jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Insonlarni jamiyatda mavjud bo'lishining asosiy sharti ularning hamkorligidir. Inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin. Buning uchun esa jamiyatning barcha a'zolari uchun bir xilda ongli qonunlar va odil sudlov zarur. Jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishlari shart” – deya ta'kidlaydi. Farobiy jamoani katta-kichikligiga ko'ra uch turga bo'ladi: 1) buyuk jamoa-dunyodagi barcha xalqlarning birlashuvi; 2) o'rta jamoa-bir xalq yoki millatni birlashtiruvchi jamoa; 3) kichik jamoa-alohida bir shahar davlatini birlashtiruvchi jamoa. Farobiy mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Farobiya ko'ra, shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi, jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi.

Farobiy orzu qilgan ideal shahar-davlatlarining asosiy vazifasi – bu tinchlikni ta'minlash, adolatli prinsiplarni himoya qilishdir. Farobiy davlat boshqaruv shakllari masalalariga ham to'xtab, shoh donishmand bo'lishi va u o'z lavozimiga loyiq kishi bo'lishini e'tirof etadi. Bu bilan Farobiy taxtni otadan baloga o'tib kelishini qoralab, davlat boshlig'i o'z lavozimiga mansub bo'lgan shaxs bo'lishligini yoqladi. Farobiy ham o'zining siyosiy qarashlarida monarxiya davlat boshqaruv shaklidan voz kecha olmaydi. Uning fikriga ko'ra, davlat boshlig'i har tomonlama yetuk shaxs bo'lishi kerak. Ammo bu yerda shuni aytish kerakki, Farobiy monarx to'g'risida gapirar ekan uning oldiga 12 talabni qo'yadi. Ideal davlat boshlig'i haqiqatni sevuvchi va

uning uchun kurashuvchi, boylikka hirs qo'ymaydigan, adolatsizlik va jabr-zulm qiluvchilarga qarshi kurashuvchi, botir, jasur bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Bu yerda shu narsa xarakterliki, Farobiyning o'zi ham ana shu 12 fazilatning hammasi yagona bir kishida bo'lishiga shubhalanib, davlatni bir kishi emas, balki bir necha kishi boshqarishi kerak degan g'oyani ilgari suradi. Bu yerda biz Farobiyni monarxiya boshqaruv shakli doirasida cheklanib qolmasdan, balki o'z zamonidan ilgari ketganini ko'ramiz. Uning ushbu masalalardagi fikrlari ko'proq utopik xarakterda bo'lib, kelajakda adolatli (fazilatli) davlatlarni va ularning rahbarlari xalq orasidan chiqqan donishmand shaxslar bo'lishini orzu qilish bilan cheklanadi.

Sharqning ulkan olimi, davlat arbobi bo'lgan **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048)ning muhim ijtimoiy-siyosiy g'oyalaridan biri bu – moddiy faktorning roli haqidagi qarashlaridir. Uning fikriga ko'ra, odamlar o'z dushmanlariga qarshi kurashish va o'zlarining zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburlidirlar. U "Minerallar" asarida ehtiyoj tomonlari turli tuman va ko'p bo'lishi, faqat bir necha kishilar uyushmasigina uni qoniqtirishi mumkin. Ana shuning uchun odamlar shaharlar yaratilishiga mushtarakdirlar, deb hisoblaydi. Beruniy odamlarni jamoa bo'lib yashashlarining asosiy qoidalari bu o'zaro yordam, birlari bilan tinch-totuv yashash, umumiy manfaat uchun ishlash kabi tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Insonning asosiy vazifalaridan biri bu mehnatdir. Chunki barcha narsalar mehnat orqali ro'yobga chiqadi, paydo bo'ladi. Kishilarning boy va kambag'allarga, ezuvchilar va eziluvchilarga bo'linishining asosiy sabablaridan biri mulkiy tengsizlik ekanligini ta'kidlaydi. Olim qonunsiz yoki adolatsiz shartnomalar asosida tengsizlik, zo'rlik, qalloblik yotishini va buning natijasida bir kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishini qoralaydi va qonunsiz holatlarga qarshi chiqadi. U bu bilan jamiyatda ko'proq sotsial adolatsizlik sodir bo'layotganligini ko'rsatadi. Beruniy davlat paydo bo'lishi va ularning vazifalari masalalarini Farobiy kabi tabiiy ehtiyojdan deb biladi. Boshqacha qilib aytganda, odamlar ijtimoiy adolatli tartibni o'rnatish uchun davlatga birlashadilar degan fikrlar bo'ladi. Beruniy davlatning shakli masalasida esa mamlakatni mutlaq hokim shohlar – despotlar emas, balki ma'rifatparvar shohlar boshqarishi kerakligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Beruniyning siyosiy-huquqiy

qarashlari, eng ilg'or va chuqur insoniylik prinsiplariga asoslanadi. U inson nomini, uning tafakkurini ulug'lab, shohlar va qonunlar ana shu hazrati inson uchun xizmat qilishi hamda uni bosqinchilar, zolim shohlardan himoya qilishlari kerak degan progressiv g'oyalarni o'rtaga tashlaydi.

Sharqda "Ash-Sheyx" yoki "Ar-Rais" degan taxallus bilan, g'arbda esa Avitsenna degan nom bilan mashhur bo'lgan qomusiy mutafakkir **Abu Ali ibn Sino** (980-1034)ning ijtimoiy-siyosiy qarashlari Abbosiylar xalifaligining siyosiy tushkunlikka uchragan hamda xonliklar, bekliliklar o'rtasida o'zaro urushlar kuchaygan bir zamonda shakllanadi. U fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

U adolatni ruhiy lazzatning bosh mezonini sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy, axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi – muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Abu Ali ibn Sino davlatga birlashuvning tabiiy zarurati sifatida qaradi. O'zining "Kitob al-ishorat vat-Tanbidat" nomli asarida u shunday deb yozgan edi: "Agar bir odam hamma ishni o'zi qiladigan bo'lsa, uning zimmasiga juda og'ir yuk tushgan bo'lur edi, binobarin, ular o'rtasida kelishuv bo'lmo'g'i lozim". Ibn Sino jamiyatning har bir a'zosi foydali mehnat bilan shug'ullanadigan, bekorchilik qoralanadigan davlatni ideal deb hisoblagan. U ideal ijtimoiy tartibni va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan dono hukmdorga katta umid bog'lagan. Abu Ali ibn Sino jamiyatda tengsizlik tarafdori edi, chunki, uning fikricha, faqat boylardan yoki, aksincha, faqat

kambag'allardan iborat bo'lgan jamiyat faoliyat ko'rsata olmaydi. Agar jamiyatning barcha a'zolari boy bo'lib ketsalar, odamlarda hamdardlik o'zaro yordam hissi yo'qoladi. Agar jamiyatning hamma a'zolari kambag'al bo'lsa, bunday xalq kirilib ketadi.

XI asrda yashab ijod etgan, sulton Mahmud G'aznaviyning bosh vaziri, davlat arbobi bo'lgan **Nizomulmulk** (1018-1092) ham adolatli jamiyat qurishni davlat hokimiyatining vazifasi deb biladi. Bizgacha uning "Siyosatnoma" (Siyar ul-muluk) asari etib kelgan. Bu asar boshqaruv ilmiga bag'ishlangan bo'lib, siyosat bobida eng qimmatli asarlardan biri hisoblanadi. Mazkur asarda shoh va hokimlarni adl-u insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat etadi..

Nizomulmulk asarning har biriga hayotiy tajriba, hikoya va misollar, ilmiy, axloqiy, tarbiyaviy dalillarni keltirib o'tadi: Amaldorlarni to'g'ri tanlab, ularga qo'llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat va ijro fazilatini kutish davlat boshqaruvining asosiy talablaridandir. Mamlakatda markaziy hukumat kuchli bo'lishi, davlat boshqaruvining asosi adolat va saxovatga asoslanmog'i lozimdir. Podshoh zulm ko'rganlarni qabul qilib, zolimlarni jazolab va raiyat so'zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Podshohga raiyat va lashkar ahvolidan to'la xabardor bo'lish va ularga qancha xarajat ketishini bilish vojibdir. Hukmdor har bir ishning tadbirini donolar-u qariyalar va dunyo ko'rgan kishilar bilan hal qilish kerak.

Nizomulmulk davlat boshqaruvining mutlaq monarxiya shakli tarafdori bo'lib, siyosiy hokimiyat masalasiga axloqiy tamoyillar asosida yondashgan. Uning jamiyat faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq davlat boshqaruvi to'g'risidagi fikrlaridan shunday xulosalar chiqarish mumkin: siyosat va davlat boshqaruvidagi, shuningdek, inson hayotidagi barcha zarur masalalarni bilish va ulardagi o'zaro munosabatlarni anglash faqat amaldor yoki hukmdorgagina tegishli emas. Ular jamiyatning barcha a'zolariga tegishlidir. Shuning uchun ham tajribali, oqil, fozil kishilar bilan kengash va maslahatlar asosida siyosiy va boshqaruv qarorlari qabul qilish vositasidagina jamiyat barqarorligini ta'minlash va adolat o'rnatish, farovon hayot qurish mumkin.

Buyuk davlat arbobi **Amir Temur** yaratgan hokimiyat tuzilmasi va davlat boshqaruvi apparatining funksiyalari uning "Temur tuzuklari"da bayon qilingan. "Temur tuzuklari"da ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy masalalariga katta ahamiyat qaratilgan. Amir Temur nafaqat o'z xalqini, zabt etilgan mamlakatlarning aholisini ham imkoni boricha qonun himoyasiga olgan. Ularni asirlik va talon-tarojlardan saqlagan. Fuqarolarni himoya qilish qonun bilan mustahkamlangan, qonun barchaga barobar bo'lgan. Temur tuzuklari"dagi "Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir", - degan so'zlar bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Amir Temur davlatida siyosatidagi sog'lom fikrlilik, uning davr muddaosi bilan hamnafas bo'lishiga doir masalaga ham e'tibor berilgan. Boshqaruv "Kuch - adolatda!" - degan tamoyilga asoslangan. Bunda saltanat rahbari tomonidan o'z zimmasiga yuklangan burch va mas'uliyatni chuqur anglash, xalq tinchligi, omonligini saqlash, davlat rahbarining butun fikr-u zikri jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga xizmat qilishi zarur, deb hisoblangan. Davlatni boshqarishda u islom dini va shariatga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatiga qarab, ularning hurmatini joyiga qo'yadi. Temur davlatida fuqarolarning belgilangan qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunishi lozimligi masalasiga katta e'tibor beriladi. Amir Temur saltanatni boshqarishda 12 ta qoidaga asoslangan. Eng avvalo, olim-u fuzalo, sayyidlar, shayxlar va fozillarga tayandi, ularni o'zining eng yaqin maslahatgo'yi, deb bildi. Qonun-qoidalarga itoat etish boshqalar qatori Amir Temur farzandlari uchun ham majburiy bo'lgan. Qonun oldida hech kim alohida imtiyozga ega bo'lmagan. Amir Temur hukmronligi davrida har bir viloyatda qozilar qonunlarning to'la amal qilinishi, tinchlik va osoyishtalik hukm surishini qattiq nazorat qilib turganlar, tartibbuzarlar jazolangan.

Buyuk shoir va mutafakkir **Alisher Navoiy** (1441-1501)ning davlat va axloq sohalaridagi idealining asosiy qoidalari uning "Saddi Iskandariy", "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlarida bayon qilingan. U mamlakatning tarqoqligini, o'zaro urushlarni qat'iy qoralagan, faoliyatini donishmandlik va adolat asosiga qurgan ma'rifatli hukmdor boshchiligida markazlashgan davlat barpo etishga chaqirgan Navoiyning fikriga ko'ra, adolat - hukmdor

razilatlarning asosiy mezonini. "Kofir bo'lsa ham odil bo'lgan shoh, - deb yozadi u "Xamsa" dostonlaridan birida, - mamlakatni obod qiladi, zolim esa, garchi u musulmon bo'lsa ham, uni vayron etadi". Navoiy ham jamiyatni boshqarishda ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanish zarurligini ta'kidlaydi. U adolatli jamiyatga erishish uchun insonlar ma'rifatliligi, ilimli bo'lishi zarur ekanini o'zining g'azallari va dostonlarida ifoda etib beradi. U adolatli rahbarning ish uslubi, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini tasvirlashga intiladi. Insonlar hayotidagi eng afzal tomonlaridan biri yaxshilik yo'lidagi o'zaro yordamdir. Bu narsa ijtimoiy hayotni yuqori darajaga ko'tarish, jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish va ularning qayg'u alamlarini yengillashtirishdan iboratdir. Mana shuning o'zi ham har bir shaxs va har bir jamiyatning baxtiyor bo'lishi uchun o'zaro yordamning zarurligini ko'rsatadi. O'z asarlarida Alisher Navoiy hatto hukmdorni saylab qo'yish va uning hokimiyat funksiyalarini cheklash g'oyasini ham ilgari surgan. Uning fikricha, hukmdor birorta ham muhim davlat masalasini dono maslahatchilar bilan kelishmasdan, kengashmasdan turib hal qilmasligi kerak.

3. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanish strategiyasi

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida shunday deb ta'kidlaydi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi"¹⁴.

¹⁴ Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". - T.: O'zbekiston, 1997.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri – bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi (11- modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipial masalalari huquqiy jihatdan mustahkamlanganligini ko'rish mumkin. "Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir" – degan edi Birinchi Prezident I.A.Karimov.

O'zbekistonning mustaqil dastlabki taraqqiyot yo'li – "O'zbek modeli" mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot dasturi bo'lib, bu dastur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning g'oyaviy-nazariy negizini tashkil etgan. Ushbu sohalaridagi vazifalar quyidagi muhim jihatlarni o'z ichiga qamrab oldi:

Ijtimoiy-siyosiy sohada: ma'muriy-buyruqbozlik, avtoritar tuzum mexanizmi va tuzilmalaridan qutilish hamda davlat qurilishining demokratik, huquqiy tamoyil va me'yorlariga o'tish, fuqarolik jamiyatiga o'tishning poydevorini qurish;

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada: insonning ishlab chiqarish vositalaridan begonalashuvidan, rejali-taqsimotchilik tizimidan kechish va ko'p ukladli iqtisodiyotga hamda bozor munosabatlariga o'tish;

Ma'naviyat sohasida: aqidabozlik va o'ta siyosiylashgan mafkura hukmronligidan qutulish, milliy ma'naviyatni shakllantirish;

Xalqaro munosabatlar sohasida: butun dunyo taraqqiyotidan ajralib qolishdan, o'zni chetga olishdan va unga qarshi turishdan voz kechish, jahon hamjamiyatiga kirib borish va teng huquqli hamkorlikka yo'l ochish.

Islohotlarning mazkur asosiy yo'nalishlari orqali respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning murakkabligi va ulkan miqyoslarini tasavvur qilish mumkin. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini o'z xalqi tarixi va uning ongi-ruhiyatidan, aniq sharoitlaridan kelib chiqib tanladi.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosida amalga oshirilgan islohotlarda quyidagi muhim jihatlariga e'tibor qaratildi: *Birinchi*dan, siyosiy islohotlarni amalga oshirishda milliy davlatchilik asoslari bosqichma-bosqich ravishda barpo qilina boshlandi; *Ikkinchi*dan, bu jarayonda jamiyatimiz demokratik taraqqiyoti manfaatlariga to'liq mos keluvchi siyosiy institutlarni shakllantirish, uning huquqiy asoslarini yaratish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi; *Uchinchi*dan, avvalgi totalitar tuzumga xizmat qilgan va umrini tugatib bo'lgan davlat tuzilmalaridan to'liq voz kechildi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining "O'zbek modeli"ning eng bosh g'oyasi xalqimiz uchun munosib bo'lgan erkin, farovon hayotni barpo qilishdan iboratdir. Bu borada zamonaviy demokratiya prinsiplarini milliy manfaatlarimizdan kelib chiqib, jamiyatda qaror toptirish vazifasi ustuvor qilib belgilangan edi. Nazariy-konseptual jihatdan puxta ishlab chiqilgan ushbu rivojlanish modeli so'nggi yillarda o'zining amaliy natijasini ko'rsatishi kamayib bordi.

Umuman olganda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni shartli ravishda 4 bosqichga bo'lib tahlil qilish mumkin:

Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-1999 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining shakllanishining huquqiy asoslari yaratildi;

Ikkinchi bosqich (2000-2009 yillar)da mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha jarayonlar davom ettirildi. 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

Konsepsiyasi" e'lon qilindi. Bu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi va ya'ni – uchinchi bosqichni boshlab berdi;

Uchinchi bosqich (2010-2016 yillar)da fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha islohotlar amalga oshirildi;

To'rtinchi bosqich (2017-yildan hozirgacha bo'lgan davr) mamlakatda demokratik islohotlarni jadallashtirish, hokimiyatning xalqchilligini oshirish kabilarni o'z ichiga olgan Yangi O'zbekiston davridir. 2017-yil 7-fevralda Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlaridan iborat Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishidan boshlandi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu ma'noda, Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir.

Harakatlar strategiyasi odamlarni ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga da'vat etmoqda. Har bir soha faoliyati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan, fuqarolik jamiyatining ajralmas bir qismi bo'lgan jamoatchilik nazorati ostida rivojlanishi zarurligini kun tartibiga qo'yimoqda. Bunday muhitda insonning davlat, jamiyat va o'zi oldida mas'uliyatni to'la his etib yashashi, so'zi bilan ishi bir bo'lishiga rioya etish fazilatlarini asosiy mezon

sifatida namoyon bo'ladi. Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda huquqiy demokratik asosdagi xalq davlatini barpo etish yo'lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat hisoblanadi.

O'zbekistonda 2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidan keyin xalq, davlatning mustahkam poydevorini ko'rish, demokratik imkoniyatlarni kengaytirish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining mustaqil hokimiyat sifatida faoliyat olib borishi bo'yicha asosiy talabdan kelib chiqadigan bosh tamoyil – xalqqa xizmat qilish va uning oldida hisob berish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Agar ana shu tamoyilga amal qilinmasa, har qanday hokimiyat faqat byurokratik tuzilmadan iborat bo'lib qolishi haqli ravishda ta'kidlab kelinmoqda. Haqiqatan ham, xalqqa yaqinlashish, uning ichiga kirib, eng dolzarb muammolarini hal etish, el-u yurt dard-u tashvishlari bilan yashash har qanday hokimiyatning borligini bildiradi. Chunki u shu tariqa hokimiyatning birdan-bir manbai bo'lgan xalq tomonidan e'tirof etiladi, qo'llab-quvvatlanadi.

"Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi marosimiga bag'ishlangan nutqida, – o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur. Shu maqsadda 2017 – 2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi". Haqiqatan ham, Prezidentning bevosita rahbarligi ostida "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturini ham o'z ichiga oladigan mazkur keng ko'lamlı dasturiy hujjat har tomonlama puxta ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq, uni hayotga joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi.

2017-2021 yillarda mazkur Harakatlar strategiyasi asosida har bir soha bo'yicha ko'plab amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib 5 ta davlat dasturi qabul qilindi. Ularni amalga oshirishga 114 trln. so'm va qariyb 31 mlrd. AQSh dollari yo'naltirilib, O'zbekistonni rivojlantirish uchun jami

118 ta fundamental g'oya ilgari surildi. O'tgan davrda Harakatlar strategiyasini ro'yobga chiqarish uchun 311 ta qonun 2000 ga yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 3000 dan ziyod Hukumat qarorlari qabul qilinganligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, aniq raqamlar bilan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarga to'xtalib o'tsak:

Harakatlar strategiyasining *birinchi ustuvor yo'nalishi* davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish borasida bir qator ma'muriy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 110 ta samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan idoralararo organlar faoliyati tugatildi. 10 ta yangi vazirlik va idoralar tuzilib, 6 ta davlat funksiyasi xususiy sektorga o'tkazildi. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda Xalq qabulxonalari va Prezidentning Virtual qabulxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular aholi bilan bevosita muloqotni, tezkor javob berishni va joylarda muammolar hal etilishini ta'minlab kelmoqda. 2017-yildan 2020-yilgacha ular orqali 10,1 mln. murojaatlar o'rganilib ijobiy hal etilgan. Byurokrtiyaga qarshi kurashish natijasida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan hujjatlar soni 2 barobarga (167 dan 79 gacha) qisqartirildi. 4 yil ichida "Yagona darcha" tamoyili asosida taqdim etiladigan xizmatlar soni 10 barobarga (16 dan 157 gacha) oshdi.

Harakatlar strategiyasining *ikkinchi ustuvor yo'nalishi* sud tizimi bo'yicha 2018-yilda fuqarolarning huquqlari va tadbirkorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari (yoki harakatsizligi) ishlarini ko'rib chiqish uchun ma'muriy sudlar tuzildi. Ma'muriy sudlar tomonidan 2017-yildan 2021-yilning sentyabriga qadar 68 mingta ariza ko'rib chiqilib, 44,3 mingtasi qondirildi, xususan hokimlarning 5,3 mingta qarori noqonuniy deb topildi.

Harakatlar strategiyasining *uchinchi ustuvor yo'nalishi* iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo'yicha 2017-2020-yillarda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 1,4 barobarga o'sdi. Inflyatsiya darajasi 18,8% dan 11,1% gacha pasaydi, oltin-valyuta rezervlari 26,4 mlrd. dollardan 34,9 mlrd. dollargacha oshdi. O'zbekiston barcha eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar bo'yicha bojxona bojlarini bekor qildi, eksport va litsenziyalash tartibi amallarini soddalashtirdi. 60% import qilinuvchi tovarlar

uchun bojxona bojlarning "nol" stavkalarini belgiladi va import bojxona bojlari stavkalarini 6,45% gacha kamaytirdi. Islohotlar natijasida kichik biznes sektori sezilarli darajada o'sdi: 2016-yilda respublikada 27 ming, 2020-yilda esa – 93 ming kichik tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tkazildi.

Harakatlar strategiyasining *to'rtinchi ustuvor yo'nalishi* ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha 2017–2020-yillarda O'zbekiston dori-darmonlar va tibbiy maqsadli buyumlar uchun 1618 mlrd. so'm ajratdi (1991-2016-yillarda 227 mlrd. so'm bo'lgan). Ulardan 61,6 mlrd. so'm qismi onkologik kasalliklarni davolash uchun dorilarga (1991-2016-yillarda 8,3 mlrd. so'm), 217,4 mlrd. so'm – gematologiya va onkogematologiya uchun dorilarga (1991-2016-yillarda 2,8 mlrd. so'm) yo'naltirilgan. Xalq ta'limi tizimidagi islohotlar natijasida 2017–2020-yillarda 328 ta yangi maktab barpo etildi va 11 yillik majburiy maktab ta'limi tiklandi. Maktabgacha ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. 2016-yilda 5,2 ming bolalar bog'chalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2020-yilda ular 18,3 mingga yetdi (shu jumladan davlat bog'chalari soni 5 mingdan 6,2 minggacha oshdi). Bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi darajasi 2020-yilda 61% ga yetdi, 2016-yilda esa 27,7% bo'lgan edi. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda: kambag'allik darajasi 2000-yildagi 28% dan 2020-yilda 11% gacha qisqardi. Kam ta'minlangan oilalar bolalar bog'chalari uchun to'lovlardan ozod etilgan, kam ta'minlangan oilalarning bolalari bo'lgan maktab o'quvchilari mavsumiy kiyim bilan ta'minlanmoqda.

Harakatlar strategiyasining *beshinchi ustuvor yo'nalishi* xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish borasida O'zbekiston birinchi marta diniy masalalar bo'yicha "alohida xavotir uyg'otuvchi" davlatlar ro'yxatidan chiqarildi. Qo'shni davlatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli aloqalar mustahkamlanib, chegaralar hamda suv-energetik resurslardan foydalanishga oid masalalar tartibga solindi. Hozir O'zbekistonda 86 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim amal qiladi (2016-yilda u 9 ta davlat uchun amal qilar edi), respublikamiz xalqaro reytinglarda bir nechta pozitsiyaga yuqoriroq ko'tarildi. O'zbekistonning mudofaa salohiyati mustahkamlandi: kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilarning ulushi 68% gacha o'sdi (2016-

yilda 37%), qo'shinlarning zamonaviy qurol-yarog' bilan jihozlanishi darajasi 5 barobarga ortdi.

Bundan tashqari Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 4-mart kuni *"2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"*gi farmonni imzoladi. Unda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish; fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish; davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish; fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi.

Muhokama uchun savollar:

- 1. Fuqarolik jamiyati tushunchasiga ta'rif bering?*
- 2. Fuqarolik jamiyatining belgilari va funksiyalariga nimalar kiradi?*
- 3. Fuqarolik jamiyatiga doir sharq va g'arb allomalarining ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini aytib bering?*
- 4. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishida Harakatlar strategiyasining o'rne va shu asosda amalga oshirilgan amaliy islohotlar haqida nimalar bilasiz?*

2-MAVZU: HARAKATLAR STRATEGIYASI – O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI

Reja:

- 1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati***
- 2. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari va unda belgilangan vazifalar***
- 3. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davomi***

Tayanch so'zlar: strategiya, konsepsiya, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Harakatlar strategiyasining fuqarolik jamiyati shakllanishidagi ahamiyati, uning maqsadi va ustuvor yo'nalishlari, milliy komissiya, Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar, uning rivojlanish bosqichlari, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, uning ustuvor yo'nalishlari.

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun

hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan: "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va 2017 yil - "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Xususan, loyihalarning "Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi" portalida yo'lga qo'yilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, 2017 yil 23 - 27 yanvar kunlari Toshkent shahrida media-haftalik va xalqaro davra suhbat tashkil etilib, ularda 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning, shuningdek O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik xorijiy investorlarning vakillari ishtirok etishdi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli **"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"**gi Farmoniga asosan Harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik,

ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi. Shuningdek, Harakatlar strategiyasi aholi va tadbirkorlarni o'yantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish (*buyuk Amir Temur davlati bayrog'ining ranggi bo'lgan moviy rangda ifodalangan bo'lib, u osmon va toza suv ramzi hisoblanadi*). Ushbu ustuvor yo'nalishda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish masalalari aks etadi.

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish (*siyoh rang - qonuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va or-nomuslilik ramzidir*). Mazkur ustuvor yo'nalishda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash kabi muhim vazifalar belgilangan.

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish (*tilla rang – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzidir*). Ushbu ustuvor yo'nalishda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish kabi iqtisodiy dolzarb masalalar belgilab olingan.

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish (*qizil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ifoda etuvchi ramzidir*). Mazkur ustuvor yo'nalishda aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga doir muhim vazifalar belgilab olingan.

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish (*oq rang – tinchliksevarlik siyosat elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzidir*). Ushbu ustuvor yo'nalishda esa davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalari o'rin olgan.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. Bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

Davlat dasturining "*Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish*" deb nomlangan birinchi yo'nalishini amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'ldi. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Davlat dasturining ikkinchi yo'nalishi *qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash* chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalarning korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul

qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo'nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarining o'z vaqtida olinishini ta'minlash nazarda tutilmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek ushbu yo'nalish 2018 - 2021 yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e'lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYO organlarini isloh qilishni ham o'z ichiga oladi.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek ushbu yo'nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik

sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

2017 – 2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

"Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o'rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini to'liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o'rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta'minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta'minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo'llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi

avtobus yo'nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilmoqda.

"Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb nomlangan beshinchi yo'nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir "Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, O'zbekistonning xorijiy hamkorlar bilan 2017 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion so'm va 8,3 milliard AQSh dollari yo'naltiriladi.

Kelgusi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha *Milliy komissiya* tuzilgan. Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yo'nalishining har biri bo'yicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan. Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018 - 2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash ham yuklatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumati bo'lgan Vazirlar Mahkamasiga ushbu komissiyalar bilan birgalikda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati

muvofiglashtirib borilishi, uning joylarda ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlash vazifasi yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi esa mazkur komissiyalarga rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy taraqqiyot tajribasini, zarur bo'lganda, xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlari vakillarini jalb qilgan holda, o'rganishda ko'maklashadigan bo'ldi. Davlat dasturida nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishilishi va kiritilishi ustidan monitoring qilish hamda uning natijalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni va Vazirlar Mahkamasiga har chorakda axborot berib borish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yuklatildi.

Davlat dasturi bajarilishining borishi to'g'risidagi umumlashtirilgan axborot Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha komissiyalar tomonidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga taqdim etib boriladigan bo'ldi. Davlat dasturi doirasida o'tkazilayotgan tadbirlarning ochiqligi, ularda fuqarolar, barcha darajadagi davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar, ijodiy va ilmiy muassasalar vakillarining keng ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratildi.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.

2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari va unda belgilangan vazifalar

2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

"Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish;

ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeyini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

"Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;
sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2.6. *Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:*

davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish;

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

3.1. *Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:*

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish,

shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibliigi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonolari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan

ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsulдорlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik

berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport

salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

budjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va

imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj

boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy obyektlar bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va

fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti

sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shniçilik muhitini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

Aytish mumkinki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'tgan 25 yil davomida mamlakatimiz erishgan yutuqlar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi kunda davrning o'zi oldimizga qo'yayotgan dolzarb masalalarni hisobga olib, keyingi besh yilga va undan keyingi davrga mo'ljallangan tarixiy taraqqiyotni yangi ufqlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, u o'zining mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishni ta'minlaydigan strategik dasturdir.

Albatta, xalqimiz o'rtasida "Harakatlar strategiyasi" degan nom bilan tobora mashhur bo'lib, uning hayotiga chuqur kirib borayotgan mazkur dasturning har bir yo'nalishi va bandining samarali amalga oshirilishi har birimizning mazkur jarayonda ongli va vatanparvar fuqaro, shu yurtning fidoyi farzandi sifatida faol ishtirok etishimizga bevosita bog'liqdir. Buning uchun esa eng avvalo, Harakatlar strategiyasining ma'no-mazmunini, uning har bir yo'nalish bo'yicha qo'yilayotgan amaliy va dolzarb vazifalarini chuqur tushunib borishimiz kerak.

3. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davomi

2021-yil 24-oktabrda bo'lib o'tgan saylovda eng ko'p 80,12 foiz bilan yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabr kuni lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar

yo'lini yanada qat'iy davom ettirib, bu yo'ldan hech qachon ortga qaytilmasligi yana bir bor ta'kidlab o'tdi. Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish, *"Inson qadri uchun"* degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezon bo'lib qoladi.

Ushbu nutqda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqilgani, saylov jarayonida uni o'ziga xos umumxalq muhokamasidan o'tkazilgani ta'kidlanadi. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida *"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari"* degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi. Darhaqiqat, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi. Bundan buyon *"inson – jamiyat – davlat"* degan yangi tamoyil asosida faoliyat tashkil etiladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat bo'lib, uning doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalar etib quyidagilar belgilandi:

Birinchidan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarimiz yangi pog'onaga ko'tariladi.

Bunda *"Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat"* g'oyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Natijada millati, tili va dinidan qat'i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. *"Rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi kerak"*. Shuning uchun quyidagi muhim bo'lgan vazifalar belgilab olindi:

mahalliy boshqaruv organlarining joylarda muammolarni hal etishdagi roli va mas'uliyatini yanada kuchaytirish, davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o'tkazish;

mahalla tizimi isloh etilib, har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi va yoshlar masalalari bilan muntazam shug'ullanadigan Yoshlar ishlari agentligining vakili joriy etish. Bundan tashqari, hokimliklar va mahallalarning moliyaviy

imkoniyatini kengaytirish maqsadida tuman byudjeti qo'shimcha manbalar bilan ta'minlanib, mahallaning alohida jamg'armasi shakllantiriladi;

markaziy idoralarni transformatsiya qilish orqali fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish. Buning uchun, eng avvalo, vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishning tartibi, ularni bir-biridan farqlab turadigan mezonlar, tarkibiy tuzilma va shtatlarni belgilashga oid aniq talablar ishlab chiqilishi, bir xil yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralarni optimallashtiriladigan bo'ldi;

hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tezkorlik bilan mustaqil hal etish bo'yicha vazirlik va idoralarning vakolatlari yanada kengaytirish;

har bir tarmoq va hudud bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimi yo'lga qo'yish;

Xalq qabulxonalari tom ma'noda xalq ovozi, jamoatchilik fikrini ifoda etadigan tuzilmaga aylanishi uchun qo'shimcha huquqiy asoslar yaratish;

kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayoniga yangicha, zamonaviy yondashuvlar joriy etish;

Oliy Majlis faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqimiz kutayotgan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotini tezlashtirishga xizmat qiladigan qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

qonun ijodkorligi faoliyatini demokratlashtirish va ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan parlament nazoratini kuchaytirish. Bunda parlament tomonidan mamlakatimiz bo'yicha murojaatlar bilan ishlash holati nazoratga olinib, joylardagi ijro idorasi rahbarlari hisobotini eshitish va uning natijasiga muvofiq, ularga nisbatan ta'sirchan choralari ko'rish amalga oshiriladi;

Xalq deputatlari mahalliy kengashlari hamda hokimlarning vakolatlari aniq belgilashga oid qonuniy asoslarni yaratish;

fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvi va ijtimoiy loyihalarni hayotga tatbiq etishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirish;

so'z va matbuot erkinligini, fuqarolarning axborot olish va uni tarqatish, o'z fikr va qarashlarini erkin bildirish huquqini ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Ikkinchidan, adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng asosiy va zarur shartidir.

Bu borada quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

ma'muriy sudlar faoliyatini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish;

sud xususiy mulk himoyasida turib, fuqaro va tadbirkorlarning huquqlarini tiklash orqali ijro idoralari qonun doirasida ishlashga majbur qiladigan tizimni yaratish;

korruptsiya illatiga barham berishga davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalarini safarbar etish;

aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish;

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish ustuvor vazifalarimizdan biridir.

Bu borada quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish; "xomashyodan – tayyor mahsulotgacha" degan tamoyil asosida drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish; makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish choralari amalga oshirish;

budjet va tashqi qarz barqarorligini ta'minlash, mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini kengaytirish;

tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, hammaga teng bo'lgan biznes muhitini va zarur infratuzilma yaratish;

davlat korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish; erkin raqobatga asoslangan bozorni yaratish hisobidan aholi va tadbirkorlarni energiya resurslari bilan ta'minlash;

aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va ishsiz fuqarolarni davlat hisobidan malakali kasb-hunarga o'qitish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ehtiyojmand aholini manzilli qo'llab-quvvatlash orqali 2026-yilgacha kambag'allikni ikki barobar qisqartirish;

aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo muntazam avtomobil, temir yo'l va havo qatnovini yaxshilash bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi samaradorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish. Agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;

Qishloq joylarda yashayotgan aholining hayot darajasi va sifatini oshirish. Fermer va dehqonlar daromadini 2 barobar ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini kamida 5 foizga yetkazish.

To'rtinchidan, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Bu borada quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

2025-yilga borib, oliy toifali o'qituvchilarning oylik maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish choralari ko'rish;

bog'cha tizimini maktab ta'limi bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarimizni maktabga tayyorlash sifatini yanada yaxshilash. Barcha bog'chalarni har yili 2 million nusxadagi zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlab borish;

Milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga, oliy ta'lim tizimida esa 50 foizga yetkazish, maktablarda ta'lim-tarbiya sifati va darajasini oshirish;

yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish bilan birga, talabalarni turar-joy bilan ta'minlash bo'yicha boshlagan ishlarni davom ettirish;

xalqimiz salomatligini ta'minlash. Kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish; tibbiy profilaktikaga, oilaviy shifokorlar rolini oshirishga alohida e'tibor qaratish;

viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish. Davlat tibbiy sug'urta tizimini ishga tushirish;

shahar va tumanlarda ommaviy sportni rivojlantirishga, jumladan, sport maydonchalari, piyodalar va velosipedchilar uchun yo'laklar, ekoparklar, ta'lim dargohlaridagi sport zallaridan iborat sport infratuzilmasini yaratish. Olimpiya o'yinlariga kiritilgan har bir sport turini rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha kompleks dasturlar amalga oshirish;

har bir tumanda faxriylarni qo'llab-quvvatlash ishlarini kengaytirish uchun alohida dasturlar tuzib, uni amalga oshirish;

nogironligi bo'lgan fuqarolarni kafolatli ish o'rni va daromad manbai bilan ta'minlash uchun ularga aniq kvotalar belgilash bo'yicha amaldagi qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish;

ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'qitish va turarjoy bilan ta'minlash, jamiyatda munosib o'rin egallashiga jiddiy e'tibor qaratish;

xotin-qizlarimizning bandligini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan Milliy dastur qabul qilish;

xorijiy davlatlarda bilim olayotgan, mehnat qilib daromad topayotgan yurtdoshlarimizni, ularning mamlakatimizda yashayotgan oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Beshinchidan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bu borada quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

"Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish;

milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini oshirish, madaniyat va san'atni yuksaltirish;

muqaddas islom dinimizning insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, "jaholatga qarshi - ma'rifat" tamoyili asosida unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash;

mamlakatimizdagi do'stlik va ahillik muhitini yanada mustahkamlash. Barcha millat va elat vakillarining milliy o'zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an'alarini saqlab qolish va rivojlantirish.

Oltinchidan, bugungi kunda insoniyat ko'plab umumbashariy muammolarga duch kelmoqda va ularga yechim topish nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu borada quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e'lon qilish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasini hayotga tatbiq etishga doir tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi ekologik siyosati asoslarini tashkil etishga qaratilgan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish;

2021-yil avgust oyida mamlakatimizda bo'lib o'tgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi konferensiyada qabul qilingan qaror va hujjatlarning izchil bajarilishi uchun xalqaro hamkorlarimiz bilan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Yettinchidan, mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz qudratini yanada oshirish ustuvor maqsadimiz bo'lib qoladi.

jasur harbiylarimizning jangovar shayligi, jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini kuchaytirish;

harbiy xizmatchilar va soha faxriylarini, ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, moddiy ta'minotini yanada yaxshilash, uy-joy bilan ta'minlash, farzandlarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini tobora kuchaytirish;

Afg'onistonda tinch va osoyishta hayotni tiklash, bu mamlakatda iqtisodiy va gumanitar inqirozga yo'l qo'ymaslik uchun afg'on xalqiga qo'limizdan kelgan barcha yordamni ko'rsatish;

Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari va dunyoning barcha mintaqalaridagi sheriklarimiz bilan o'zaro manfaatli va ko'pqirrali aloqalarni kengaytirish;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Parlamentlararo ittifoq, xalqaro moliyaviy institutlar va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy Kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan ko'p tomonlama munosabatlarni yangi, amaliy ma'no-mazmun bilan boyitish.

Muhokama uchun savollar:

1. Harakatlar strategiyasining boshqa taraqqiyot dasturlaridan asosiy farqi nimalardan iborat?

2. Nima uchun Harakatlar strategiyasini O'zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi deya e'tirof etilmoqda?

3. Harakatlar strategiyasini qabul qilish jarayonlari to'g'risida fikringizni bayon eting?

4. Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi nechta asosiy ustuvor yo'nalishlardan iborat va undagi vazifalarni aytib bering?

3-MAVZU: DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Reja:

- 1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini oshirish**
- 2. Davlat boshqaruvida hukumat tizimini isloh qilish**
- 3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish**

Tayanch so'zlar: boshqaruv, davlat boshqaruvi, jamoatchilik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi hokimiyat, Oliy Majlisning tashkiliy - institutsional tuzilmalari, parlamentning roli va nazoratini kuchaytirish, parlament tekshiruv instituti, parlament nazorati, Vazirlar Mahkamasi, Bosh vazir, vazirlik va qo'mitalar, maslahatchi, kollegial organ, apparat, Vazirlar Mahkamasining umumiy vakolatlari, uning tarkibi, chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlari, faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirilishi, jamoatchilik palatasini tashkil etilishi, Xalq qabulxonalari, jamoatchilik muhokamasi, davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi

1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini oshirish

Mazkur rejada qonun chiqaruvchi hokimiyatning davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rnini, uning ijtimoiy tabiati, maqsadi va vazifalari hamda parlament tizimining bugungi ahvoli va uni isloh qilish masalalari o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi hokimiyati tizimini istiqloqlarning boshida mamlakatimizda birdaniga, to'satdan qaror topgan deb bo'lmaydi. Bu tizim istiqloq yillarida yurtimizda sho'ro siyosiy tizimini isloh qilish bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilgan ishlarning mahsuli hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlarning dastlabki bosqichida - milliy davlatchilikning poydevori yaratilishida qonun chiqaruvchi hokimiyatning bir palatali modeli tanlab olindi. Bu model O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunida o'z

aksini topdi. Ularda qonun chiqaruvchi hokimiyatning davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rni, vakolatlari, tarkibi, boshqa institutlar bilan o'zaro aloqalari ko'rsatib berildi:

O'zbekistonda demokratik islohotlarning ikkinchi bosqichida ikki palatali parlamentni tuzish maqsad qilib qo'yildi. Bu bosqichda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi, Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy Qonunlar va ularning Reglamenti haqidagi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarda:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun chiqarishdagi o'rni va ahamiyati kuchaytirildi; u vaqti vaqti bilan ishlaydigan parlamentdan doimiy ya'ni professional ishlaydigan parlamentga aylantirildi; uning tarkibi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat qilib belgilandi; Qonunchilik palatasi ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 150 deputatdan tashkil topsa, Senat hududiy vakillik palatasi sifatida 100 nafar senatorlardan iborat bo'lishi mustahkamlandi;

ikkinchidan, qonun chiqaruvchi hokimiyatning ijro hokimiyati faoliyatini nazorat qilishdagi o'rni va ahamiyati sezilarli darajada o'rttirildi; Prezident vakolatlarining bir qismi, jumladan, davlat, ijroiya, sud va diplomatik tuzilmalar, maxsus xizmatlar va prokuratura rahbarlarini tasdiqlash vakolati yangi saylangan yuqori palata – Senatga o'tkazildi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat – O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U davlat hokimiyati tizimida alohida o'rin tutadi:

birinchidan, qonun chiqaruvchi hokimiyat mamlakatning vakillik organi sifatida o'ta muhim siyosiy-huquqiy hujjatlar – dasturlar, qonunlar, budjetning loyihalarini muhokama etadi va tasdiqlaydi yoki rad etadi. Ana shu loyihalarni chuqur va har tomonlama muhokama etish va tasdiqlash yoki tasdiqlamaslik - qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining mazmunini tashkil qiladi.

Biroq, qonun chiqaruvchi hokimiyatning faoliyati doirasiga mazkur hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqish kirmaydi. Bunday faoliyat turi asosan ijro etuvchi hokimiyatga yuklatiladi. Garchi, qonun chiqaruvchi hokimiyat u yoki bu dastur qonun loyihalarini tayyorlashda ishtirok etsa-da, u ushbu holatda ijro etuvchi

hokimiyat sifatida o'rin tutadi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat – bu siyosiy-huquqiy hujjatlarning loyihalarini chuqur va har tomonlama muhokama qiluvchi va tasdiklovchi yoki rad etuvchi hokimiyat hisoblanadi. Agar, qonun chiqaruvchi hokimiyat siyosiy-huquqiy hujjatlarning loyihalarini chuqur va har tomonlama, pishiq va puxta muxokama qilmas ekan, ular bo'yicha mustaqil qaror chiqarmas ekan, u o'zining arbitrlilik(vakillik) rolini bajara olmaydi;

ikkinchidan, qonun chiqaruvchi hokimiyat nafaqat siyosiy-huquqiy hujjatlarning loyihalarini muhokama etadi va tasdiqlaydi, balki ularning ijro etuvchi hokimiyat tomonidan hayotga tadbiiq etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; aytish mumkinki, qonun chiqaruvchi hokimiyat – bu mamlakatda siyosiy-huquqiy hujjatlarning amalda bajarilishini nazorat-tahlil qiluvchi, ularga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kirituvchi hokimiyat hisoblanadi; qabul qilingan hujjatlarning bajarilishi ustidan nazorat qilmaydigan qonunchilik hokimiyati samarali faoliyat yurita olmaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning kuchi, uning ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini nazorat - tahlil qilishga qodirligidadir. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatini nazorat - tahlil qilib boradi, uni aynishidan tiyib tozalab turadi. Xalqimiz qonun chiqaruvchi hokimiyatni "jamiyat hayotining ko'zgusi", – deb bejizga aytmaydi. Shubhasiz, qonun chiqaruvchi hokimiyatning nazorat-tahlil faoliyati siyosiy-huquqiy hujjatlar ta'sirchanligini oshirishning va ayni chog'da jamiyatning qonuniy ehtiyojlarini tezkor aniqlashning samarali vositasi hisoblanadi;

uchinchidan, qonun chiqaruvchi hokimiyat kishilarni tomomila chiroyli, go'zal va boy yashashga o'rgatadigan dasturlar, qonunlar yaratadi. U shunday yaratilgan siyosiy institutki, butun faoliyatining ma'no-mazmuni bilan har bir insonga, butun O'zbekiston xalqiga, uning hayotini yaxshilashga, adolatli, chiroyli va farovon yashashga qaratilgan dasturlar qonunlarni qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyati o'z faoliyatida muayyan tamoyillar: mustakillik, qonuniylik, xolisonalik, aniqlik, tizimlilik, oqilonalik va ishonchlilik, pishiq-puxtalilik, vazminlik va oqibatini unutmashlik, izchillik va ketma-ketlik, lo'ndalik va tushunarlilik, xilma-xillik va ko'p variantlilik, takrorlash va qarama-qarshiliklarga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va oshkoralik kabi

tamoyillarga asosan faoliyat olib boradi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining maqsadi – davlat va jamiyatdagi muaiiolarni bartaraf etishga, huquqiy demoqratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishga imkon beradigan, mukammal dasturlar, qonunlarni qabul qilishni ko'zda tutadi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, u qator vazifalarni bajaradi.

Xususan, dastur va qonunlar loyihalarini chuqur va hartomonlama muhokama etish hamda qabul qilish – qonun chiqaruvchi hokimiyatning bosh vazifasi hisoblanadi. Hech bir qonun loyihasi, agar u qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan ko'rib chiqilmagan, ma'qullanmagan va qabul qilinmagan bo'lsa, qonuniy kuchga ega bo'lmaydi. Shu sababli, qonun chiqaruvchi hokimiyat qonuniy kuchga ega bo'lgan hujjatlarni chiqarishga vakolatli hokimiyat hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat dasturlar, qonunlar, qarorlarning ijrosi ustidan nazorat qilish vazifasini ham amalga oshiradi. Bu vazifa qonunchilik faoliyatini ado etish uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda:

birinchidan, siyosiy-huquqiy hujjatlardagi kamchiliklar aniqlanadi;

ikkinchidan, mansabdor shaxslarning qonunlar ijrosi uchun javobgarlik oshiriladi;

uchinchidan, siyosiy-huquqiy hujjatlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan yo'nalishlar belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida vakillik hokimiyat tizimi muayyan darajalarda ko'rinadi. Bu ko'rinishlarga qo'yidagilar:

- Oliy vakillik instituti – Oliy Majlis;
- Quyi vakillik instituti – Xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari.

Oliy Majlis – O'zbekiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi hokimiyati hisoblanadi. U qonun chiqaruvchi hokimiyatni butun mamlakatning qonunlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Konstitutsiyamizning 76-moddasiga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 150 deputatdan tashkil topsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati xududiy vakillik palatasi sifatida, 100 nafar Senat a'zosi (senatorlar)dan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi yuqori kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasy viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni 25 yoshga to'lgan va kamida 5 yil O'zbekiston Respublikasi xududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan boshqa talablar faqat qonun bilan belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi (senator) bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin 2 oydan kechiktirmay va Senat tarkibi topganidan keyin 1 oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalari davrida bo'lib o'tadi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari esa zaruratga qarab, lekin yilda

kamida uch marta o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarim ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi, Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda esa barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi raislari, Bosh prokurori, Markaziy bank boshqaruv raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida - alohida majlis o'tkazadilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Parlamentlarning kelishuviga binoan, qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birgalikdagi jami 21 ta vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78 - moddasida belgilab qo'yilgan. Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, koida tariqasida, avval, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-80-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 4 ta mutloq vakolatlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 14 ta mutloq vakolatlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan karorlar

qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibiga quyidagi tashkiliy - institutsional tuzilmalar kiradi:

1. *Qonunchilik palatasi Kengashi* (rahbar organi) – Qonunchilik palatasining faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida tuziladi. U palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab to'planadi. Uning tarkibiga Qonunchilik palatasi Spikeri, uning o'rinbosarlari, fraksiyalar rahbarlari, Qonunchilik palatasi qo'mitalarining raislaridan iborat jami 19 kishi kiradi.

2. *Qonunchilik palatasi Devoni* – Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta'minotini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi. Uning tarkibiga: Qonunchilik palatasi rahbariyati huzuridagi kotibiyat, yuridik boshqarma, davlat budjeti boshqarmasi, matbuot xizmati, axborot-tahlil bo'limi, nazorat va monitoring bo'limi, lingvistik ekspertiza va tahririyat bo'limi, xalqaro aloqalar va protokol bo'limi, tashkiliy ishlar va kadrlar bo'limi, axborot texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'limi, moddiy-texnika ta'minoti bo'limi, moliya, hisob va hisobot bo'limi kiradi. Devon xodimlarining mehnatga oid munosabatlari Qonunchilik palatasining vakolat muddatiga bog'liq bo'lmaydi. Qonunchilik palatasi devoni yuridik shaxs hisoblanadi.

3. *Qo'mitalar* – qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun tuziladi. Hozirda 12 ta qo'mita faoliyat olib bormoqda:

- Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi
- Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi
- Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi
- San'at, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi
- Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi
- Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi

- Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi
- Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi
- Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi
- Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi
- Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislari palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab o'tkaziladi. Majlis agar qo'mita a'zolarining kamida yarmi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Shuningdek majlislarida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, televideniye, radio hamda boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili ishtirok etishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qo'mita jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi. Qo'mitalar Qonunchilik palatasi oldida mas'ul va unga hisobdordir.

4. *Komissiyalar* (ishchi organi) – muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar orasidan tuziladi. Hozirgi kunda Qonunchilik palatasida 5 ta komissiya faoliyat yuritmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi
- Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining o'zaro hamkorligini tashkil etish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash
- Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya
- Oila va ayollar masalalari bo'yicha komissiya.

Komissiya Qonunchilik palatasi majlisida deputatlar orasidan komissiya raisi va a'zolaridan, zarurat bo'lganida esa, shuningdek komissiya raisining o'rinbosaridan iborat tarkibda tuziladi. Ayrim masalalarni tayyorlash uchun komissiya davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari,

mutaxassislar va olimlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning vakillari orasidan ishchi guruhlari tuzishi ham mumkin. Komissiyalar o'z faoliyatini zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan keyin yoki Qonunchilik palatasining qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatadi.

5. *Fraksiyalar* (xalqni davlat organlari bilan bog'lovchi bo'g'in) – siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasi hisoblanadi. Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va Qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a'zosi bo'lishi mumkin. Ya'ni deputat faqat bir fraksiyaning a'zosi bo'la oladi. Kamida 9 nafar deputat fraksiya tuzish huquqiga ega bo'ladi. Parlamentdagi ko'pchilikni Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan fraksiya tashkil etadi. O'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda blok tuzadigan bir nechta fraksiyalar ham tashkil etishi mumkin. 2019-yilda qonunga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan fraksiyalar o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin. Fraksiyalarning blokka birlashishi qonunda nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishda ularning mustaqilligini cheklab qo'ymaydi.

Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida quyidagi hollarda tarqatib yuborilishi mumkin:

1. Qonunchilik palatasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoki u bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

2. Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda.

Qonunchilik palatasi favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatilishi mumkin emas. Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov 3 oy mobaynida o'tkaziladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qonun chiqaruvchi

hokimiyatni isloh qilish va yangilash borasida amalga oshirilgan ishlar "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonunda o'z ifodasini topdi. Bu qonunda:

birinchidan, siyosiy partiyalar fraksiyalarning huquqiy maqomi parlamentdagi ko'pchilik va parlamentdagi ozchilik (muxolifat) maqomi qonuniy tarzda belgilandi;

ikkinchidan, siyosiy partiyalar. fraksiyalari rahbarlarini Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari etib saylash bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralar ko'rildi;

uchinchidan, Bosh vazir lavozimiga nomzod bo'yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashishi tartibi, uning parlament tomonidan tasdiqlanishining qat'iy belgilangan tartib va mexanizmi joriy etildi;

to'rtinchidan, siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalariga Bosh vazirni iste'foga chiqarish, mahalliy kengashlardagi partiya guruhlariga esa, viloyat hokimlarini iste'foga chiqarish to'g'risida tashabbus bilan chiqish huquqi berildi.

Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyatining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirining ortishiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qonun chiqaruvchi hokimiyatning salohiyati sifat jihatidan o'zgardi. Bu yillarda ko'p partiyaviylik asosida qonun chiqaruvchi hokimiyatga 6 marotaba (1994, 1999, 2004, 2009, 2014, 2019 yy.) saylovlar o'tkazildi. Ushbu saylovlar natijasida O'zbekistonda zamonaviy qonun chiqaruvchi hokimiyat qaror topdi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan siyosiy islohotlar behudaga ketmadi. Bu islohotlar natijasida, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyatining qonunchilik faoliyati kuchaydi. Bu borada muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Umuman olganda, so'nggi 4 yilda barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi¹⁵. Bu qonun inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalarning asosiy qoidalariga to'la mos

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентини Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йилда Олий Мажлиста қилган Мурожаатномасидан // <https://president.uz/uz/lists/view/4052>

keladi.

Ikkinchidan, mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyatining nazorat-tahlil faoliyati kuchaydi. Bu faoliyat davlat budjetini tasdiqlashda, tayinlanadigan va saylanadigan mansabdor shaxslarning axborotini eshitib borishda, ijro etuvchi hokimiyat organlariga va ularning mansabdor shaxslariga so'rov huquqida, Prezident farmonlarini, qarorlarini tasdiqlashda mujassamlashdi;

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tashqi siyosiy faoliyati ham kuchaydi. Bu faoliyat hukumat boshlig'i, diplomatiya va konsullik xizmatlari faoliyatini nazorat qilishda, tashqi siyosiy masalalarni hal etishda o'z ifodasini topdi.

Oliy Majlis davlatning tashqi siyosatiga: 1) xalqaro hayotni o'rganish, baholash, qonun yaratish faoliyatining mexanizmlari orqali ta'sir ko'rsatdi; 2) parlament a'zolar xalqaro aloqalarni amalga oshiruvchi davlat muassasalari ishini nazorat qilib bordilar; 3) parlament davlat tomonidan tuzilgan shartnomalarni ratifikatsiya qildi; 4) xalqaro munosabatlar yuzasidan murojaatlar va bayonotlar qabul qildi; 5) chet davlatlarning parlamentlari bilan aloqalarini rivojlantirdi.

Umuman, Oliy Majlis - O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi va qilmoqda. Uning chet el davlatlari parlamentlari bilan aloqalari kengaydi. Chunonchi, birinchi chaqiriq Oliy Majlisning ishlashi davrida O'zbekiston parlamentiga 200 dan ziyod chet el delegatsiyasi tashrif buyurdi. Shu bilan birga, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyati, jumladan Oliy Majlis faoliyatini zamon talablariga to'liq javob beradi, deb bo'lmaydi. Bu hokimiyatning qonunchilik faoliyatida ijodkorlik, jo'shqinlik, tashabbuskorlik, nazorat-tahlil faoliyatida izchillik va qat'iyatlilik yetishmaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat hokimiyati tizimining kuchli tarmog'i emas, balki zaif va mo'rt tarmog'i bo'lib qolmoqda. Chindan ham, u birinchi navbatda, ijroiya hokimiyatiga nisbatan kuchli bo'lmagan, ko'p jihatdan zaif va mo'rt institut hisoblanadi. Uning zaifligi dasturlar, qonunlarni ishlab chiqishda erkin va mustaqil bo'lmasligida, ijro etuvchi hokimiyatni to'liq nazorat qilmasligida ko'rinadi. Oliy Majlisning qonun

chiqaruvchilik faoliyatida hokimiyatning ijro tarmog'idagi biron-bir yirik xato va kamchiliklarni ochib tashlaganlik kabi holatlar kamdan-kam uchraydi.

Rivojlangan mamlakatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning ijro etuvchi hokimiyatning u yoki bu loyihalariga qarshi chiqish, uni rad etish odatiy hol hisoblanadi. Masalan, AQSh Kongressining Vakillar palatasi 2007-yil 13-dekabrda 2008-yil mudofaa uchun ajratiladigan mablag' loyahasini ko'rib chiqqan. Loyihaga binoan, mamlakat mudofaasi uchun 696,4 mlrd. doll. ajratiladi. Bu mablag'ning 506,8 mlrd. mudofaa vazirligi ehtiyojlariga, 189,4 mlrd. Iroq va Afg'onistondagi harbiy amaliyotlarga, 225 mln. esa Chexiya va Polshadagi raketaga qarshi tizim o'rnatishga sarflanadi. Pentagon bu ish uchun 310 mln. doll. mablag' so'ragan edi. Loyihaga 370 kongressmenning 47 nafari qarshi chiqqan¹⁶. Bunday misollarni ko'plab keltirsa bo'ladi.

So'nggi besh yil ichida (2017-2021) davlat va jamiyat qurilishi tizimida parlament – Oliy Majlisning rolini oshirishga qaratilgan ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan:

- *Parlamentning roli va nazoratini kuchaytirishga* qaratilgan 35 ta Senat so'rovi (2016-yilgacha jami 7 so'rov amalga oshirilgan bo'lib, u 5 barobarga ko'paygan), 75 ta Senat eshituvlari (2016-yilgacha jami 45 eshituv amalga oshirilgan bo'lib, u 40 foizga oshgan), 1077 ta Senat a'zosi so'rovlari (2016-yilgacha jami 32 so'rov amalga oshirilgan bo'lib, u 33 barobarga ko'paygan), 40 ta Qonunchilik palatasi so'rovi (2016-yilgacha jami 6 so'rov amalga oshirilgan bo'lib, u 7 barobarga ko'paygan), 74 ta Qonunchilik palatasi eshituvlari (2016-yilgacha jami 40 eshituv amalga oshirilgan bo'lib, u 2 barobarga oshgan), 1168 ta Qonunchilik palatasi deputati so'rovlari (2016-yilgacha jami 26 so'rov amalga oshirilgan bo'lib, u 47 barobarga ko'paygan) yuborilgan.

- *Parlament tekshiruv instituti takomillashtirish bo'yicha* 2016-yilga qadar faqat ikki palata birlashib tekshiruvni amalga oshirishi mumkin bo'lgan. 2017-yildan boshlab parlament tekshiruvini har bir palata alohida o'tkazishi mumkin bo'ldi.

- *Ijro hokimiyati ustidan Parlament nazoratini olib borish* 2016-yilgacha amaliyotda mavjud bo'lmagan. 2019-yildan Davlat

¹⁶ Каранг. Мудофаа бюджети муҳокамаси. "Халқ сўзи", 2007 йил 14 декабр.

dasturining bajarilishi bo'yicha Hukumatning hisobotini har chorakda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida eshitish amaliyoti joriy etildi. 2021-yilning boshiga qadar jami 7 marotaba eshituvlar o'tkazilgan.

- *Hukumat bilan Parlamentning hamkorligini kuchaytirish bo'yicha* Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlisdagi vakolatli vakili lavozimi hamda 2018-yilda Qonunchilik palatasida hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish tartibi – "Hukumat soati" instituti joriy etildi. Xususan, shu yilning o'zida jami 27 marotaba "Hukumat soati" o'tkazilib, ularda jami 32 ta vazirlik va davlat qo'mitalari rahbarlari xalq vakillarining dolzarb masalalariga doir savollariga atroflicha javob berdi.

- *Hukumatni shakllantirishdagi roli oshirildi.* 2019-yildan boshlab quyi palata faoliyatida ilk bor Hukumat a'zoriga nomzodni u mas'ul qo'mita va fraksiyalar tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilganidan keyingina ularni Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqish va ma'qullash amaliyoti joriy etildi. 2021-yil holatiga Bosh vazir tomonidan taqdim qilingan 51 nafar nomzodlar Qonunchilik palatasining majlislarida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi axborotini Senatning yalpi majlislarida yiliga ikki marta eshitish amaliyoti joriy etildi. Sog'liqni saqlash vazirining o'z faoliyati haqidagi axborotini Qonunchilik palatasining majlislarida yiliga ikki marta eshitish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Senat majlislarida viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish amaliyoti joriy etildi. Har yili Adliya vazirining davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyotining holati to'g'risidagi axborotini Senatning yalpi majlisida eshitalishiga oid norma qonunchilikda belgilandi. Oliy Majlis davlat budjetining ijrosi 2016-yilgacha Bosh prokuratura, Hisob palatasi, Markaziy bank va siyosiy partiyalarning faoliyati yuzasidan yillik axborotlarni eshitish bilan cheklangan edi.

- *Davlat budjetini shakllantirishdagi roli kuchaytirildi.* Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Davlat budjeti boshqarmasi tashkil etildi. Oliy Majlisi Senatning Davlat budjeti va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi tashkil etildi. Oliy Majlisi palatalari va xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan yil boshida ko'rib chiqilganidan so'ng "O'zbekiston

Respublikasi Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni tasdiqlanadi. Avvallari Moliya vazirligi tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori tasdiqlanar edi.

- *Mamlakat tashqi siyosatidagi roli oshirildi.* Tashqi ishlar vazirining o'z faoliyati haqidagi axborotini Senatning yalpi majlislarida yiliga 2 marotaba eshitish amaliyoti joriy etildi. Oldinlari bunaqa amaliyot mavjud bo'lmagan. 2020-yilga qadar O'zbekistonning chet davlatlardagi 11 diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o'z faoliyati masalalariga doir hisobotlari Senat tomonidan eshitildi. Xususan, 2021-yilning o'tgan davrining o'zida 8 ta hisobotlar eshitilgan.

- *Qonunlarni qabul qilishdagi faolligi oshirildi.* 1991-2016 yilgacha 435 ta (yiliga o'rtacha 17 tadan) qonun qabul qilingan bo'lsa, 2017-2020 yillarda 342 tani tashkil qildi. Bu yiliga o'rtacha 85 tani tashkil etadi.

- *Parlament a'zolarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan qonun loyihalari soni keskin o'sdi.* 1991-2016 yilgacha 80 ta (yiliga o'rtacha 3 tadan) qonun qabul qilingan bo'lsa, 2017-2020 yillarda 81 tani tashkil qildi. Bu yiliga o'rtacha 20 tani tashkil etadi.

- *Hukumat tomonidan kiritilgan qonun loyihalarini Parlamentda ko'rib chiqishning samaradorligi oshdi.* 2005-2016 yillarda Hukumat tomonidan jami 385 ta qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan, shundan 14 tasi (3,5%) rad etilgan. Bu yiliga Hukumat tomonidan o'rtacha 39 ta qonun loyihasi kiritilganligini anglatadi. 2017-yildan boshlab Vazirlar Mahkamasi tomonidan jami 322 ta qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan bo'lsa, shundan 16 tasi (5%) rad etilgan. Bu yiliga Hukumat tomonidan o'rtacha 39 ta qonun loyihasi kiritilganligini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mazkur yo'nalishda asosiy e'tibor, sa'y-harakatlar ana shunday natijalarni bermoqda. Haqiqatdan ham O'zbekistonda qonunchilik hokimiyatining jamiyat hayotidagi o'rni va roli chinakamiga kuchaymoqda.

2. Davlat boshqaruvida hukumat tizimini isloh qilish

Hukumat bu – davlat boshqaruvining oliy orani bo'lib, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Hukumat shu bilan birga, jamoat tartibi

va milliy xavfsizlikni ta'minlaydi, shuningdek, davlat boshqaruvining boshqa organlari hamda qurolli kuchlariga umumiy rahbarlik qiladi.

Jahon mamlakatlarda hukumat turli nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan Vazirlar Kengashi, Kabinet, Ministrlar Kabineti, Davlat kengashi, Ma'muriy Kengash, Federal Hukumat, Hukumat va hokazo. Bizda, ya'ni O'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlangan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.¹⁷

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan Respublikada ijro etuvchi hokimiyatning amalga oshirilishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoida hukumat maqomi, uning alohida huquqlarini, tarkibini, qonun chiqaruvchi organlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlari tarkibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumat Prezident, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsipiga asoslanadi. Respublikada yashovchi barcha millatlar manfaatlarini hisobga olish uchun o'z faoliyatini oshkoralik, insonparvarlik va qonuniylik asosida olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z tarkibiga ega bo'lib, uning tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar.

Vazirlar Mahkamasining tarkibini tuzish borasida mamlakat

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1993 йил. 5-сон. 202-модда. (янги тахрирда «Халқ сўзи» газетаси 2003 йил 29 август)

Prezidentiga juda katta vakolatlar berilgan. Ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-, 93-, 98-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan.¹⁸

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ikki palatali parlament tuzish zarurligi to'g'risidagi g'oyalari XXI asr boshlarida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida milliy davlatchilik institutlarini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlariga asos qilib olindi. Davlat hokimiyati organlarining ishini zamon talablariga muvofiq ravishda tubdan yaxshilamay turib islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyat turmushining barcha sohalarini erkinlashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan kuchli va adolatli hokimiyat, demokratik fuqarolik jamiyatini, kelajagi buyuk davlatni barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda 2003-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi hamda ushbu qonunni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish yakunlariga binoan amalga kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan belgilab qo'yildi.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.¹⁹ Mazkur o'zgartish va qo'shimchalarga binoan Konstitutsiyani 89-moddasining "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi" degan so'zlardan iborat bo'lgan ikkinchi xatboshisi olib tashlandi. Demak, qonun kuchga kirgandan so'ng, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasiga saylov va O'zbekiston Respublikasining Senatini shakllantirish yakunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanmaydi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2021.

¹⁹ «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga uzgartirishlar va qo'shimchalar kiritilish to'g'risida»gi qonuni «Xalq su'ni» gazetasi 2003 yil 21 may soni.

Konstitutsiyaning 98-moddasi hamda yangi tahrirdagi qonunning 15-moddasiga ko'ra, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, boshqacha qilib aytganda Vazirlar Mahkamasi Raisi funksiyalarining barchasini amalga oshiradi. Qonunchilikda "Vazirlar Mahkamasining Raisi" degan ibora o'rnini "Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri" degan ibora egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi davlat boshqaruvi sohasidagi yangi siyosiy institut bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Administratsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatini axborot-tahliliy va tashkiliy-nazorat jihatdan ta'minlashni amalga oshiruvchi davlat organidir.

Administratsiyaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlari, shu jumladan davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini va hamkorligini taminlash bo'yicha vakolatlari amalga oshirilishiga ko'maklashish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi holati va tendensiyalarini tahlil qilish, amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash;

mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashish, huquqni muhofaza qilish faoliyatini muvofiqlashtirish;

davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, suverenitetni muhofaza qilish, O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini taminlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

aholi bilan ochiq va to'g'ridan to'g'ri muloqotni tashkil etish hamda xalq farovonligini yuksaltirish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilish huquqi ro'yobga chiqarilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

fuqarolik jamiyati institutlari bilan ularning demokratik

huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali o'zaro hamkorlikni taminlash;

kadrlarga oid yagona davlat siyosatini amalga oshirish va davlat xizmati ishlarining davlat tomonidan boshqarilishini taminlash;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarining ijrosini tashkil etish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish va ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tuzilmalar, shuningdek, uning vakolatlari amalga oshirilishiga ko'maklashadigan maslahat va kengash organlari faoliyatini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatini huquqiy, tashkiliy-texnik, axborot-tahliliy va protokol jihatdan taminlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va tarkibi. Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir lavozimiga taqdim etilgan nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin 10 kunlik muddatda uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi. Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotgan va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini taqdim etadi.

Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi ovoz bersa, tasdiqlangan hisoblanadi. Agar ovoz berish chog'ida Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasida yoki Senatda Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan keyin Bosh vazir lavozimiga nomzodni yana bir marta taqdim etish huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi a'zolari Bosh vazirning Qonunchilik

palatasi ma'qullaganidan keyin kiritilgan taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Vazirlar Mahkamasi a'ziligiga nomzod Qonunchilik palatasidagi mas'ul qo'mita, siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar guruhlari tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilganidan keyin Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi va ma'qullanadi. Vazirlar Mahkamasi a'zosi lavozimiga nomzod uning nomzodini Qonunchilik palatasida ko'rib chiqish va ma'qullash chog'ida Vazirlar Mahkamasining harakatlar dasturi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, istiqbolga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar va vazifalarga erishish borasidagi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi harakatlar rejasini taqdim etadi. Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi a'ziligiga nomzodni rad etgan taqdirda, Bosh vazir ko'rib chiqish va ma'qullash uchun yangi nomzodni kiritadi. Vazirlar Mahkamasining a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanganidan keyin o'z vazifalarini bajarishga kirishadi.

Bosh vazir va Qonunchilik palatasi o'rtasida doimiy ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi. Vazirlar Mahkamasining o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi yangi shakllantirilgan Senatning birinchi majlisi o'tkazilgan kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Bosh vazir tomonidan yozma murojaat berish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari o'zining majlislarida Vazirlar Mahkamasining o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi to'g'risidagi tegishli qarorlarni qabul qiladi.

Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan quyidagi hollarda lavozimidan ozod etiladi:

1. Bosh vazirning iste'foga chiqish to'g'risidagi arizasiga binoan;

2. Bosh vazir o'z vakolatlarini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda;

3. Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyat ko'rsatishiga tahdid soluvchi, bartaraf etib bo'lmaydigan ixtiloflar yuzaga kelganda, shuningdek Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir necha bor O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid qarorlar qabul qilingan taqdirda;

4. Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar zarur asoslarga ega bo'lgan bunday tashabbus Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalarning yetakchi fraksiyalari tomonidan qo'llab-quvvatlansa hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasida va Senatda ovozga qo'yilganda tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senat a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozini olsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

5. Bosh vazirga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

palatalari tomonidan qabul qilingan ishonchsizlik votumi bildirilgan taqdirda.

Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining devoni o'z ish faoliyatini mavjud konstitutsiyaviy asoslar, qonunlar, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Reglamenti asosida yuritadi.²⁰

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 9 dekabrda PF-3358-son Farmonida Respublika davlat boshqaruvi organlari ro'yxati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 22 dekabrda "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida turli sohadagi xo'jalik boshqaruv organlari takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Hukumati – Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari avvalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'yilgan. Jumladan, "...Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlashi..."²¹ belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunga asosan hukumat, ya'ni Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo'nalishlariga quyidagi faoliyat sohalari kiradi:

- iqtisodiyot sohasidagi ;
- budjet, moliya, pul-kredit siyosatini amalga oshirish sohasidagi;
- ijtimoiy sohadagi;
- madaniy-gumanitar sohadagi;
- hududlarni rivojlantirish sohasidagi;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi;
- tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 14 fevraldagi 62-son qaroriga ilova // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari 2005 yil fevral.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston". 2003 yil.

sohasidagi;

- investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi;
- axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohasidagi;

- jamoat tartibini saqlash, davlat xavfsizligini va mudofaa qobiliyatini ta'minlash sohasidagi vakolatlari kiradi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari avvalambor, o'zining faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni namoyon qilar ekan, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatidan farqli ravishda, ijro faoliyatini amalga oshiradi. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qarorlar, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek, ijroiya hokimiyati tarkibiga kiruvchi davlat organlari ustidan boshqaruvni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari aynan shulardan kelib chiqqan holda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagi umumiy vakolatlarga ega:

samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi;

fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir choralarni amalga oshiradi;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi hamda yo'naltiradi, ularning faoliyati ustidan nazoratni ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzalarni taqdim etadi;

davlat boshqaruvi tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, vazirliklarni, davlat qo'mitalarini, idoralarni va boshqa davlat

boshqaruvi organlarini tuzish, qayta tashkil etish hamda tugatish haqida takliflar ishlab chiqadi;

strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari davlat boshqaruvi tizimiga joriy etilishini ta'minlaydi;

mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim hamda ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yaqin, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategiyalar, konsepsiyalar, dasturlar hamda "yo'l xaritalari"ni amalga oshirish yuzasidan choralar ko'radi.

Vazirlar Mahkamasining ayrim vakolatlari boshqa qonunlarda ham o'z aksini topishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tayyorlash to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi Vazirlar Mahkamasining qonun loyihalarini tayyorlash borasidagi faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda Vazirlar Mahkamasining qonunchilik tashabbusiga doir vakolatlari belgilangan. Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqini qonun loyihalarini Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi o'zi kiritgan qonun loyahasini Qonunchilik palatasida ko'rib chiqishda ishtirok etish uchun o'z vakillarini tayinlaydi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi quyidagilardan iborat:

1. *Bosh vazir* - Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi.

2. *Bosh vazir o'rinbosarlari (7 ta)* - hujjatlar va topshiriqlar bajarilishining borishi monitoringini amalga oshiradi, joylarda ishlarning haqiqiy holatini o'rganadi, shuningdek iqtisodiyotdagi va ijtimoiy sohada muammolarni har tomonlama tahlil qiladi.

3. *Bosh vazir maslahatchilari* - o'z vakolatiga kiritilgan tegishli yo'nalishlar va masalalar bo'yicha Bosh vazirga takliflar ishlab chiqilishini, ularning ekspertizadan o'tkazilishini va tayyorlanishini ta'minlaydi.

4. *Vazirlar Mahkamasi a'zolari* - Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarida masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek Vazirlar Mahkamasi majlislarining kun tartibi bo'yicha takliflar kiritadi.

5. *Vazirlar Mahkamasining kollegial organlari* - Vazirlar Mahkamasi doimiy komissiyalar tuzadi va ularning vazifalarini,

funksiyalarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

6. *Vazirlar Mahkamasining apparati* - O'zbekiston Respublikasi Hukumatining faoliyatini huquqiy, tashkiliy-texnik, axborot-tahliliy va bayonnoma jihatdan ta'minlashni, Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarini, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari loyihalarini tayyorlashni, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan "yo'l xaritalarini", jadvallarni, harakatlar dasturlarini, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshiradi;

7. *Vazirlar Mahkamasining Rayosati* - Vazirlar Mahkamasining doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi bo'lib, uning tarkibiga Bosh vazir, Bosh vazirning o'rinbosarlari va maslahatchilari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlar. Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanganiga qadar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi qoidalaridan kelib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasining qarorlarini, farmoyishlarini va Bosh vazirning farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan hujjatlarning bajarilishi ustidan nazoratni bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari orqali amalga oshiradi:

- *Qarorlar.* Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy tusdagi hujjatlari qarorlar shaklida qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari, agar ularning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy tusga ega qarorlari "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami"da, "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami"da, "Xalq so'zi", "Народное слово" gazetalarida va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilinadi, zarur bo'lgan taqdirda esa boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng omma e'tiboriga yetkaziladi;

- *Farmoyishlar.* Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha hujjatlari Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari, agar ushbu hujjatlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ular imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyati davomida quyidagi organlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan
- sud hokimiyati organlari bilan
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar va kuch ishlatishga vakolatli bo'lgan tuzilmalar bilan
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan
- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan
- nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Uning tartib qoidalari 2019-yil 10-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahririning 7-bobida batafsil keltirilgan.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatining ochiqligi va shaffofligi. Vazirlar Mahkamasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq xalq bilan ochiq muloqotni ta'minlaydi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda jismoniy shaxslarni va yuridik

shaxslarning vakillarini qabul qilishni tashkil etadi. Vazirlar Mahkamasining apparati jismoniy va yuridik shaxslarning Vazirlar Mahkamasi apparatiga, davlat boshqaruvi organlariga hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga kelib tushgan murojaatlari bilan ishlash monitoringini va tahlilini amalga oshiradi. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish holatini o'rganish yakunlari Vazirlar Mahkamasining Rayosati majlislarida yoki selektor yig'ilishlarida har chorakda, shu jumladan tegishli mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari ko'rish to'g'risida takliflar kiritgan holda ko'rib chiqiladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning samarali tizimi faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyatning isloh qilinishi va boshqaruvda yangi usullarni qaror topishi. Ma'lumki, O'zbekiston Prezidenti lavozimi paydo bo'lishi 1985-yil aprelida sobiq Ittifoqda boshlangan qayta qurish jarayonlari bilan, ayniqsa, 1988-89 yillardayoq avj olib ketgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan bog'liq. Shu yillarda "yuqori"ning ko'rsatmalariga o'rganib qolgan markaziy va mahalliy boshqaruv idoralari qayta qurish jarayonida avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik ish uslubi uchun qattiq tanqidga uchradi, ular yangi sharoitga mos ish uslubini topishga qiynaldilar. Natijada davlat hokimiyati birmuncha kuchsizlandi. Belgilangan iqtisodiy va ijtimoiy rejalar to'liq bajarilmay qolaverdi. Ishlab chiqarishga davlat rahbarligi bo'shashib, xalqning moddiy va madaniy turmush darajasi tobora pasaya bordi. Qonunlar va hukumat hujjatlarining ijrosi ustidan nazorat kamaydi. Xullas, mamlakatda boshboshdoqlik xavfi orta borib, davlat hokimiyatini markazda ham, joylarda ham kuchaytirishga jiddiy ehtiyoj tug'ildi. 90-yillar boshlarida iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bir qatorda ijtimoiy va milliy muammolar ham kuchaydi, boshqacha qilib aytganda "markazdan qochirma kuchlar" faollashdi, natijada qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatini birlashtiruvchi, ularning jamiyat uchun nafini oshiruvchi "yangi institutga" ehtiyoj tobora sezila bordi".

Ma'lumki, 1990-yil 24-martida O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi

(asosiy qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra respublikada Prezident lavozimi ta'sis qilindi. Bunda demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy idoralarining o'zaro aloqasini takomillashtirish ko'zda tutildi.

O'zbekistonda yangi jamiyat qurish borasida tajribalar o'rttirilishi bilan Prezidentlik boshqaruvi tobora takomillash boradi. Jumladan, 1990-1992-yillarda Prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib Vazirlar Kengashi Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. 1990-yil 15-noyabrda Prezident I.Karimov "O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon chiqardi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: "O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyat tuzilishini takomillashtirish hamda "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish" to'g'risidagi O'zbekiston SSR Qonuniga binoan O'zbekiston SSR Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibi tasdiqlansin". Prezidentning ushbu farmoni asosida xalq xo'jaligi dehqonchilik sanoati, xalq iste'moli mollari, qurilish-naqliyot, mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, umum iqtisodiyot, moddiy-texnika, madaniyat ishlari komplekslariga ajratilib, uning rahbarlari belgilandi va ular Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritildi. Prezident ayni bir paytda Vazirlar Mahkamasi Raisi bo'lib qoldi. Bu bilan Prezident va Hukumat apparati birlashtirildi. Shunday qilib, Prezident ikkinchi bosqichda respublikada oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxsga aylandi va ayni bir paytda davlat boshlig'i ham hisoblandi. Endilikda u faqat farmonlar emas, balki qarorlar va farmoyishlar ham qabul etadigan bo'ldi. Vitse-Prezident lavozimi ham ta'sis etilib, u Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiluvchi, uning ishini uyushtiruvchi shaxsga aylangan edi. Biroq ikkinchi bosqichda joriy etilgan Vitse-Prezident lavozimi o'zini oqlamadi. Shu boisdan 1992-yil 4-yanvardagi qonun bilan u tugatilib, O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri lavozimi ta'sis etildi. U Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiladi va uning ishini tashkil etadi, deb belgilandi.

Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda siyosiy partiyaga a'zoligini to'xtatib turadi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, deb ko'rsatildi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, Prezident vakolatlarining bunday kengaytirilishi O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishuvi tufayli sodir bo'ldi. Yangi Konstitutsiyada belgilab qo'yildiki, Prezident mustaqil davlat rahbari sifatida muzokaralar olib boradi va respublika shartnomalarini imzolaydi, ularning bajarilishini ta'minlaydi, o'z huzuridagi akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillarining ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi, viloyat, tuman, shahar va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, o'z vakolatiga berilgan boshqa ichki va tashqi masalalarni hal qiladi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, O'zbekistonda prezidentlik instituti o'rnatilgan dastlabki davrda vazirlar kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Chunonchi, uning 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqdagan yangi tarkibi 41 kishi, ya'ni Rais, Bosh Vazir, uning ikki birinchi o'rinbosari, to'rt o'rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo'mitasi raisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari tobora takomillashib bordi. Jumladan, hukumat tarkibi ham yangi talablar asosida shakllantirildi. 1995-yil 5-mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II sessiyasi bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi to'g'risidagi Farmonini tasdiqlash masalasi ko'rildi. Sessiyada yangi Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi saylandi. Shulardan 11 nafari - Vazirlar Mahkamasining rahbariyati, ya'ni Bosh Vazir va uning o'rinbosarlari, 15 nafari - vazirlar va 8 nafari davlat qo'mitalarining raislari edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi lavozimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasiga kirdi.

1990-yilning martida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining birinchi sessiyasida tasdiqlangan Vazirlar Kengashining avvalgi tarkibiga qaraganda vazirliklar va davlat qo'mitalari rahbarlaridan iborat bo'lgan hukumat a'zolarining umumiy soni 10 kishiga qisqardi. Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi, iqtisodiy sohalaridagi yangi voqealarga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi jiddiy ravishda

qayta tuzildi.

Shunday qilib, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi, fuqarolarni himoya qiluvchi oliy darajadagi ijroiya hokimiyati vujudga keltirildi, milliy davlatchilikda jahon tan olgan o'ziga xos tajriba to'plandi.

Albatta, bozor munosabatlariga o'tish davrida boshqaruv tizimida bunday islohotni taqozo etgan o'ziga xos omillari bor edi:

Birinchidan, yangi jamiyatga o'tishda boshqaruv tizimida jiddiy buzilishlarga yo'l qo'ymasdan, MDHga kiruvchi ayrim mamlakatlarda bo'lganidek, iqtisodiyotni boshqarishning real dastaklarini qo'ldan chiqarib yubormaslik kerak edi. Chunki yangi tuzilayotgan idoralar tajribaga va bozor sharoitlarida o'zini-o'zi boshqarish mexanizmiga ega edi.

Ikkinchidan, o'tish davrida yetuk bozor munosabatlari va mexanizmlari ham uzil-kesil shakllanmagan edi. Shuning uchun bozor munosabatlari tarkib topgan va bu yo'nalishda endigina qadamlar tashlayotgan mamlakatlardagi boshqaruvni tashkil etishning turli tizimlari o'rganildi. Shu asnoda butun xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi sharoitlarga mos tuzilmalari topildi. Buning mohiyati ishlab chiqarishning markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va tashkil etishdan moliyani, moddiy xomashyo boyliklarini davlat tomonidan boshqarish tizimidan voz kechishni bildirar edi.

Yana shuni aytish kerakki, O'zbekistondagi boshqaruvni izchil, bosqichma-bosqich tashkil etish modeli keng jamoatchilik tomonidan ma'qul deb hisoblandi.

Bugungi kunga kelib Vazirlar Mahkamasi tarkibi ham tubdan takomillashib, yangi vazirlik va qo'mitalar tashkil etildi. Hozirda 24 ta vazirlik, 10 ta davlat qo'mitalari, 3 ta davlat inspeksiyalari, 14 ta agentlik, 5 ta qo'mita, 6 ta markaz, 2 ta markaziy muassasalar va 4 ta inspeksiyalar faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, davlat vazirliklariga quyidagilar kiradi:

- | | |
|--|--------------------------------|
| 1. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish | 5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim |
| 2. Moliya | 6. Xalq ta'limi |
| 3. Transport | 7. Sog'liqni saqlash |
| 4. Bandlik va mehnat munosabatlari | 8. Ichki ishlar |
| | 9. Mudofaa |
| | 10. Favqulodda |

O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK IJTIMOIYATI

- | | |
|--|--|
| 11. Qurilish | 18. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish |
| 12. Tashqi ishlar | 19. Maktabgacha ta'lim |
| 13. Investitsiya va tashqi savdo | 20. Innovatsion rivojlanish |
| 14. Axborot texnologiya va kommunikatsiyalarini rivojlantirish | 21. Qishloq xo'jaligi |
| 15. Adliya | 22. Suv xo'jaligi |
| 16. Madaniyat | 23. Energetika |
| 17. Jismoniy tarbiya va sport | 24. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash |

Biz yuqorida qisqacha keltirib o'tgan markaziy boshqaruv idoralari tizimining takomillashuvi va ayrimlarining yangidan tashkil etilishini ta'kidlash lozim. Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish doirasida davlat boshqaruvining 93 ta organi isloh qilinganligi, shu jumladan, 77 ta vazirlik va idora qayta tashkil etilganligi, 7 tasi tugatilganligi, 9 tasi yangidan tashkil etildi.

2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunning qabul qilinganligi davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatni tubdan yangilanishiga xizmat qildi. Unda idoralararo elektron hamkorlik qilish, elektron hukumatning yagona identifikatorlari elektron davlat xizmatining reglamenti va elektron davlat xizmatlari, ularning asosiy vazifalari belgilab berildi. Bu vaqt, resurs va inson omilini kamaytirish, boshqaruv organlari samaradorligini oshirishga imkon berdi.

Umuman olganda 2017-2021 yillarda mamlakatimiz davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish va uni butunlay yangi shaklda barpo etish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Ayrim tashkilot va muassasalar nomi ikki-uch yil orasida bir necha marta o'zgartirildi. Ba'zi turdosh tarmoqlar birlashtirildi, bir qismi bo'lib yuborilib, yangitdan tuzildi. Bir qator sohalar, ayniqsa, bank, pul-kredit, tashqi iqtisodiy faoliyat, markaziy organlari va qator idoralar bilan bog'liq bo'lgan sohalarda butunlay yangi vazirliklar va boshqa shakldagi muassasalar tashkil etildi. So'nggi besh yil ichida davlat boshqaruvi tizimi tubdan takomillashtirildi:

- 2017-yil 8-sentabrda O'zbekiston Respublikasida *Ma'muriy islohotlar Konsepsiyasi* qabul qilindi. Natijada: 10 ta yangi vazirlik va

idoralar tashkil qilindi. 110 ta samarasiz idoralararo kollegial organlarning faoliyati tugatildi. 6 ta davlat funksiyasi xususiy sektor subyektlariga o'tkazildi. 39 ta davlat korxonalariga korporativ boshqaruv va moliyaviy audit tizimi joriy etildi.

- *Mahalliy hokimiyatlar faoliyatida mustaqillik oshirildi.* 2016-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish jarayoni haddan tashqari markazlashtirilgan edi. 2017-yildan boshlab esa hududiy davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarga 26 ta markazlashgan funksiyalar o'tkazildi. Jumladan: hokimlarga budjet, investitsiya va qurilish sohasida 6 ta; mahalliy kengashlarga soliq solish va investitsiya sohasida 2 ta; turizm, ta'lim, uy-joy, kichik sanoat zonalar, veterinariya, ekologiya, ichimlik suvi, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, dori vositalari va rieltorlik faoliyati sohasidagi 18 ta muhim funksiyalar hududiy davlat boshqaruvi organlariga o'tkazildi.

- *Mahalliy hokimiyatlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar tartibi ochiqlandi.* "E-qaror" tizim orqali 17 mingdan ortiq mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari belgilangan tartibda qabul qilindi va barcha fuqarolar tanishib chiqish uchun shu tizim orqali e'lon qilindi. 2017-yilga qadar bunday tizim bo'lmagan edi. Shuningdek, bir-biriga zid, to'liq tahlil qilinmagan va korrupsiya holatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilish amaliyoti kuzatilgan.

- *Kadrlar siyosati tizimi takomillashtirildi.* 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Avvallari davlat xizmatining unifikatsiyalangan huquqiy asoslari, davlat xizmatchilarining maqomini belgilovchi yagona normalar, ularning faoliyatini baholash mezonlari shakllantirilmaganligi davlat xizmatchilarining professional korpusini yaratish imkonini bermagan. Hozirda davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlari yagona ochiq portali – vacancy.argos.uz platformasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda 60 ta vazirlik, idoralari hamda 206 dan ortiq tuman (shahar) hokimliklardagi mavjud 5 732 ta vakant lavozimlar bo'yicha tanlov e'lon qilindi. Ushbu vakant lavozimlarga 96 ming nafar nomzod tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun hujjat topshirildi.

Tarixan juda qisqa davrda mana shunday tub islohotlarni amalga oshiradigan, aholi ongi va dunyoqarashini butunlay

o'zgartira oladigan davlat tizimini mustahkamlash, eng samarali va eng zamonaviy usullarni qidirib topish zarur edi. Mamlakatimiz hukumati aholi turmush darajasi va iqtisodiy-ijtimoiy hayotini yaxshilash, aholining turmush darajasini oshirish va uning davlatga bo'lgan ishonchining yo'qolishini oldini olish maqsadida eng avvalo boshqaruv tizimini takomillashtirish, davlat apparatining barqaror ishlashini ta'minlash ishiga jiddiy e'tibor berilmoqda.

3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish

Har qanday davlat taraqqiyotining yangi davri va bosqichi, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi tizimini zamon talablaridan kelib chiqqan holda, yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shu boisdan so'nggi to'rt yilda Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda keng jamoatchilikning davlat boshqaruvi sohalaridagi ishtiroki va nazorat etishdagi faoliyati borasida samarali natijalarga erishilmoqda. Bunda albatta, o'z vaqtida qabul qilingan rivojlanishning 2017 – 2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi muhim ahamiyatga ega. Uning 1.3.-bandi "Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish" deb nomlangan bo'lib, unda jamoatchilik institutining o'rnini va rolini oshirishga qaratilgan masalalar o'z aksini topgan. Bunda davlat va jamiyatning ehtiyojlarini o'z vaqtida "qondirish"ga qaratilgan davlat boshqaruvining sifati, uning tezkorligi va samarali nazorat qilish ekanligiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. "Xalqimiz manfaati, uning ertangi taqdiriga daxldor bo'lgan har qanday qarorni qabul qilishda yetti o'lchab, bir kesishimiz zarur"²². Bunda uni qabul qilishdan tortib toki uni ijro etilishigacha bo'lgan barcha jarayonlarda aynan keng jamoatchilikning ishtirok etishi, mazkur jarayonda fuqarolar ishtirokining shaffof va samarali usullarini joriy etish²³ muhimdir. Xususan, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 2017-2020-

²² Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йулида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.: Ўзбекистон, 2015. –Б.210.

²³ "Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги ПФ-5729-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.05.2019 й., 06/19/5729/3199-сон, 20.07.2019 й., 06/19/5769/3450-сон.

yillarda 132 ta normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, 26 ta O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 34 ta Prezident Qarori, 38 ta Prezident Farmoni, 34 ta Vazirlar Mahkamasi Qarori qabul qilindi²⁴.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekani qat'iy belgilab qo'yilgan. Ya'ni, xalq hokimiyatchiligi prinsipi Bosh Qonunimizning ustuvor tamoyillaridan biri bo'lib, fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Xalqning davlat boshqaruvida samarali ishtirok etishi uchun esa, birinchi navbatda, aholining huquqiy bilim darajasi mustahkamligi, har bir shaxsning yurt taqdiriga daxldorlik hissi, faol fuqarolik pozitsiyasi, shuningdek, jamoat tashkilotlarining tashabbuskorligi talab etiladi.

Bugungi kunda qabul qilingan qarorlarni aholi orasida keng muhokama etish va uning ijrosini o'rganish yuzasidan tizimli ishlarni samarali amalga oshirilmoqda deb bo'lmaydi. Shuning uchun norma ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik muhokamalarining ta'sir darajasini oshirish vazifa sifatida belgilandi²⁵. Bu o'z-o'zidan fuqarolarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlashda NNTlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirishni taqozo qiladi. Boshqaruv jarayonida davlatga qarashli bo'lmagan, "uchinchi sektor" vakillaridan iborat turli jamoatchilik maslahat kengashlarining keng ishtirok etishi uning samaradorligini oshirishga zamin hozirlaydi. Shu sababli, Prezident huzuridagi Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari²⁶; davlat boshqaruvi organlari huzurida Jamoatchilik kengashlari; mahalliy Kengashlar huzurida fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat fondlari tashkil etildi. Shuningdek, Prezident Xalq qabulxonasi va virtual qabulxonalar yo'lga qo'yildi. Xalq bevosita mamlakat fuqarolari bilan ishlashning bunday yangi tizimining tashkil qilinishi fuqarolarga ko'plab imkoniyatlarni yaratdi. Buni

²⁴ <https://xs.uz/uz/post/davlat-organlari-va-tashkilotlari-faoliyati-ochiqligini-tamini-lashda-zhamoatchilik-nazorati-kuchajtiriladi>

²⁵ Norma ijodkorligi faoliatini takomillashtirish konseptsyasi. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон Фармонига 1-илова // ҚХММБ: 06/18/5505/1639-сон.

²⁶ "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурдаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5980-сонли Фармони. 16.04.2020. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.04.2020 й., 06/20/5980/0450-сон.

birgina virtual qabulxonaga aholi tomonidan bugungi kunga qadar 5 milliondan ortiq²⁷ murojaatlar kelib tushganligi bilan ham izohlash mumkin.

Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati instituti faoliyatini bugungi tezkor zamon talablari darajasida tashkil etish bo'yicha hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammoli masalalar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi, albatta. Xususan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish subyektlari bo'lgan nodavlat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish lozimligini ochiq e'tirof etish joiz. Shu maqsadda 2018-yil 4-maydagi *"Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi Prezident farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tashkil etildi. Ushbu kengashga fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiyasi haqida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentini muntazam ravishda xabardor qilish va Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha qulay sharoitlar yaratish yuzasidan Prezidentga takliflar kiritish vazifasi yuklatildi.

Bugungi kunda qarorlarning ijrosini yanada qat'iy tartibda qayta ko'rib chiqib, takomillashtirishni zamonning o'zi talab etmoqda. "E'tirof etish kerakki, bizda parlament nazorati, jamoatchilik nazorati, jurnalist tekshiruv kabi demokratik institutlar hali to'liq shakllanib, hayotimizdan chuqur joy olgani yo'q"²⁸. Qarorlarning ijro etilishi ustidan keng fuqarolik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asosi 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunda aks etdi. Unda qabul qilinayotgan qonun va dasturlarda jamoatchilik fikrini hisobga olish huquqiy mustahkamlab qo'yildi. Davlat dasturlari ham 2017-yildan boshlab keng jamoatchilikning muhokamasiga taqdim etilib, so'ng qabul qilinmoqda. Maqsad muhim masalalarni kompleks muhokama etish, jamoatchilikning fikr-mulohazalarini o'rganishdan iboratdir.

²⁷ <https://pm.gov.uz/uz#/>

²⁸ Мирзиёев Ш. Буюк келажғимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б. 49.

“Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimi” portalida yo’lga qo’yilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari bo’yicha kelib tushgan 1310 ta taklif va mulohaza asosida 2017-yilgi Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko’rib chiqildi²⁹. Shuningdek, 2019-yil Davlat dasturi loyihasining 2019.strategy.uz veb-saytida jamoatchilik muhokamasiga qo’yilganda fuqarolar tomonidan jami 3399 ta izohlar bildirilgan. www.regulation.gov.uz sayti orqali 404 ta takliflar taqdim qilingan. 2019-yil Davlat dasturi loyihasi muhokamasida 4180 ta taklif kelib tushgan bo’lsa, shundan 340 dan ziyod fuqarolarning konseptual va dolzarb takliflaridan Davlat dasturi loyihasini mazmunan takomillashtirishda foydalanildi. 30 na yaqin takliflar asosida esa tegishli bandlarga tahririy o’zgartirishlar kiritildi. 2020-yil Davlat dasturi loyihasiga aholidan jami 3162 ta takliflar qabul qilingan bo’lsa, farmon loyihasiga 363 ta takliflar bildirildi. Natijada 62 ta konseptual va 30 dan ortiq tahririy o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi. 2021-yil Davlat dasturi loyihasiga kelib tushgan jami 3783 ta takliflar har tomonlama ko’rib chiqilib, uning yakuniga ko’ra, loyihaga jami 50 ga yaqin konseptual hamda yuzdan ortiq aniqlashtiruvchi tahririy o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi.

Prezidentning Oliy Majlisga murojaatnomasida qonunlar muhokamasiga aholini kengroq jalb qilish, buning uchun zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, xususan, jahon internet tarmog’ida “maydon”lar yaratish, jamoaviy tarzda elektron shaklda murojaat qilish tartibini joriy etish zarurligi qayd etilgan edi. 2018-yilning 12-aprelda parlament palatalari Kengashining qo’shma qarori qabul qilinib, “Mening fikrim” nomli veb-portal orqali “Elektron jamoaviy murojaat qilish va ularni ko’rib chiqish tartibi to’g’risida”gi Nizom ishlab chiqildi. “Mening fikrim” veb-portali 20-apreldan sinov tariqasida ishga tushirilib, uning mobil ilovasi yaratildi. Mazkur veb-portalning yaratilishi fuqarolarning jamoatchilik nazorati subyektı sifatida davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi, o’z fikrlarini bildirish imkoniyati ta’minlaydi. Ushbu portal orqali 4,7 mingdan ziyod tashabbuslar bildirildi³⁰. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari

²⁹ <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasini-yanada-rivojlantirish-b-yicha-arak-07-02-2017>

³⁰ https://reforms.uz/direction-01_inner-08.html

faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunida belgilangan asosiy vazifalar – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olish huquqining kafolatlarini ta'minlash hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar uchun mas'uliyatini oshirish kabi asosiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat dasturlari portal yaratildi.

Prezidentimiz joriy yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o'yantirayotgan muammolarga davlat idoralari e'tiborini qaratib, o'zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq ekanini alohida ta'kidlab, jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Murojaatnomada mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim masalalarga doir qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlar, jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish majburiyligini aniq belgilash, jamoatchilik ma'qul desa – ma'qul, noma'qul desa – noma'qul bo'lishi kerakligi aytib o'tilgandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 16-aprelda imzolangan *"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni* bu yo'nalishda yana bir yangi taraqqiyot ufqini ochib beruvchi muhim dasturilamal hujjat bo'ldi. Mazkur Farmon "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oyani amalda ro'yobga chiqarishda ustuvor o'rin tutishi shubhasiz. Ushbu hujjatga muvofiq, markazda va barcha hududlarda oliy maqomda tashkil etilayotgan Jamoatchilik palatasining eng asosiy vazifasi fuqarolarimizning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini faollashtirish, davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko'maklashishdan iborat bo'ladi. Shuningdek, mazkur palata Prezident va Oliy Majlisga fuqarolik jamiyatining holati va rivojlanish tendensiyalari to'g'risida yillik milliy ma'ruzalarni taqdim etib borishi, Konstitutsiyaga o'zgartirish hamda tuzatishlar kiritish to'g'risidagi takliflar, mamlakat ijtimoiy-

iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim va dolzarb masalalarga doir qonun hujjatlari loyihalarini ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lmoqda. O'z navbatida, davlat organlariga qonunlarning, turli sohalardagi davlat dasturlarining ijrosi hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan tushuntirish berish talabi bilan Jamoatchilik palatasi so'rovini yuborish vakolati ham berilmoqda.

Palata faoliyatining asosiy yo'nalishlari esa, davlat, fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlarining tizimli muloqotini yo'lga qo'yish, ularning ijtimoiy manfaatlari kelishilishini ta'minlash, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini faollashtirish hamda davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko'maklashish, aholi fikrini tizimli o'rganib borish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va ularning yechimi bo'yicha takliflar kiritish, jamoatchilik fikrini o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Shuningdek, Jamoatchilik palatasi fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasi, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qo'shayotgan hissasini baholovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqadi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda jamoat tashkilotlarining hamkorligini yo'lga qo'yadi, muhim normativ-huquqiy hujjat loyihalarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazib boradi. Fuqarolar, NNTlar va OAV vakillari, blogerlarni OAVlarda so'z erkinligi, fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqini amalga oshirish, "jamoatchilik eshituvi", "jamoatchilik ekspertizasi", "jamoatchilik monitoringi" kabi ta'sirchan zamonaviy nazorat shakllarini hayotga joriy etish, islohotlar va davlat dasturlarining joylarda, shuningdek, sohalarda amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik monitoringini tashkillashtirish, tavsiyalar va natijalar haqida Prezident, Parlament va Hukumatga muntazam axborot kiritib borish ham palata faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu tashkilot mamlakat tashqi siyosatining ustuvor vazifalarini hayotga tatbiq etish, uning nufuzli xalqaro reytinglarda egallagan o'rnini yaxshilashda fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda xorijdagi vatandoshlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatish, NNTlarga xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda yordam ko'rsatib boradi.

Ta'kidlash joiz, ayni vaqtda mamlakatimizda 9200 dan ortiq (1991-yilda 95 tani tashkil etgan) nodavlat notijorat tashkilotlari mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati jamiyat hayotida o'z o'rni va rolini topolmagan, faoliyati sezilarli darajada emasdi. Endilikda Jamoatchilik palatasi ana shu tashkilotlar ishini ham muvofiqlashtirib, bundan buyon samarali faoliyat yuritishlarini ta'minlashi tabiiy. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining izchil rivojini ta'minlash, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda aholi vakillari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining nufuzi va rolini oshirishda mutlaqo yangi institut bo'lgan Jamoatchilik palatasining ahamiyati ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Barchamiz bir haqiqatni unutmashimiz kerak: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart. Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan – fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari Kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o'rtasida har tomonlama muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak" – deya ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tomonidan mamlakatimizning barcha shahar hamda tumanlarida, chekka-chekka qishloqlarda, mahallalarda ommaviy qabullar, xalq bilan yuzma-yuz suhbatlar tashkil etildi. Qisqacha qilib aytganda, xalq ichiga kirib borildi. Odamlarning yuraklarida yig'ilib qolgan dardlari, allaqachon hal qilinishi mumkin bo'lgan-u, lekin to'rachilik, o'zibo'larchilik, sansolarlik oqibatida yillar davomida yechilmay kelgan muammolar yuzaga chiqa boshladi. Eng muhimi, odamlar dardlarini aytishi, kattayu kichik idoralar rahbarlari bilan yuzma-yuz gaplashishi, muammolariga qisqa fursatda yechim topishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi. Nafaqat muammolar, ularning talab va takliflariga ham quloq tutildi, bu takliflar yig'ilib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi yo'lga qo'yildi. Prezidentimizning "Rahbarlar xalqning xizmatkori bo'lishi zarur", "Asosiy maqsadimiz – xalq roziligi, xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka

bo'ladi", degan qat'iy talablari amalda o'z ifodasini ko'rsatdi. Bugungi kunda ana shu izlanishlar samarasi sifatida ko'plab yangiliklar hayotga tatbiq etilmoqda. Toki shu kunga qadar bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilgan edi. Xususan, 2003-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarini "Yagona darcha" tamoyili asosida ro'yxatdan o'tkazish uchun shahar, tuman hokimliklari huzurida maxsus inspeksiyalar tashkil etilgan. 2016-yildan esa ular negizida Davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari ish olib borgan. Ammo ushbu sa'y-harakatlar ham aholining bugungi talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi ayon bo'ldi. Natijada 2017-yil 12-dekabrda Prezidentning "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va ushbu hujjat asosida Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi. Bu ham, albatta, aholiga barcha sohalarida qulay imkoniyatlar yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berish yo'lida tashlangan yana bir muhim qadamdir. Ilgari "Yagona darcha" tizimi faqatgina tadbirkorlarga xizmat ko'rsatib kelgan bo'lsa, endilikda oddiy fuqarolarga ham davlat idoralari bilan bog'liq ishlarda ushbu tizim orqali xizmat ko'rsatish maqsad qilindi.

2019-yil 17-yanvarda qabul qilingan "*Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida Xalq qabulxonalarining aholi murojaatlari bilan ishlash bo'yicha amaldagi tizimi bilan bir qatorda, Xalq qabulxonalarining muammolarni uyma-uy yurish orqali aniqlash va hal qilishni, davlat organlarining aholi bilan bevosita ishlashini nazarda tutuvchi yangi tizim joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyati bilan bog'liq nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan Xalq qabulxonalari to'g'risidagi nizom va Xalq qabulxonalarining sektorlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi tartibi tasdiqlandi.

Keyingi yillarda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini "regulation.gov.uz" portali orqali jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish tajribasi shakllantirildi. Ushbu portal 2018-yil 24-iyuldan o'z ish faoliyatini boshladi. Bugungi kunga qadar 10254 ta normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi tashkil etilib, 39182 ta takliflar bildirilgan. Shundan 467 ta bildirilgan takliflar qabul qilinib, tegishli

normalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Belgilangan yangi tartibga asosan, jamoatchilik muhokamasidan o'tmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari qabul qiluvchi organlar tomonidan majburiy tartibda ishlab chiquvchilarga qaytariladi. Qolaversa, loyihaning jamoatchilik muhokamasiga qo'yilganligi to'g'risida ishlab chiquvchi ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon berishi qat'iy belgilandi.

So'nggi besh yil ichida (2017-2021) jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir nechta muhim ishlar amalga oshirildi. Xususan:

- *My.gov.uz portal orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyati yaratildi.* Ushbu portal 2013-yil 1-iyulda ishga tushirilgan bo'lib, 2016-yilga qadar xizmatlardan elektron foydalanish bo'yicha murojaatlar yuborish tizimi rivojlanmagan edi. Shu bilan birga real vaqt rejimida ko'rsatiladigan xizmatlar umuman mavjud bo'lmagan. 2017-yilga kelib ushbu yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda ushbu portalda 254 ta davlat xizmatidan foydalanish imkoniyati mavjud. 2015-yil 17-martdan esa ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz) foydalanishga topshirildi.

- *Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi.* Joylarda 205 ta Davlat xizmatlari markazlari, olis va chekka hududlarda 115 ta filiallardan iborat bo'lgan Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi. "Yagona darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlari turlari 10 barobarga oshirildi. 2016-yilgacha faqat tadbirkorlik subyektlariga 16 turdagi davlat xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 157 ta turdagi davlat xizmatlaridan jismoniy va yuridik shaxslar foydalanish imkoni yaratildi. Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun talab etiladigan hujjatlar soni ikki barobarga (167 tadan 79 taga), xizmat ko'rsatish muddatlari esa 45 foizga qisqardi. Shuningdek, davlat xizmatlaridan eksterritorial tamoyil asosida (yashash manzilidan qat'iy nazar) istalgan hududda foydalanish imkoniyati yaratilib, respublika bo'yicha barcha Davlat xizmatlari markazlarini real vaqt rejimida (onlayn) kuzatish imkonini beruvchi Situatsion markaz ishga tushirildi.

- *Ortiqcha qog'ozbozlik va byurokratiyaga chek qo'yildi.* Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun talab qilinadigan litsenziya va ruxsat berish xususiyatidagi hujjatlar soni qisqardi. Jumladan, 2016-yilga qadar litsenziya turlarining soni 100 dan ortiq

bo'lgan bo'lsa (ruxsat berish xususiyatidagi hujjatlar soni esa 200 tani tashkil etgan), hozirgi kunga kelib 85 turdagi litsenziya (103 ta ruxsat berish xususiyatidagi hujjatlar) bekor qilindi.

- *NNTlar faoliyatining amalga oshirish va ushbu faoliyatni nazorat qilish tartiblari liberallashtirildi.* NNTlarni davlat ro'yxatidan va qayta ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ularga davlat xizmatlarini ko'rsatishning elektron tizimi (e-ngo.uz) ishga tushirildi. NNT tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni xabarnoma shakliga o'tkazildi. 2017-yilga qadar NNTlarning barcha tadbirlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan kelishishi majburiy edi. NNTlar faoliyatini monitoring qilish tartibi takomillashtirilib, soddalashtirildi. Sababi oldinlari qonunchilikda NNT faoliyatini monitoring qilish muddatlari va davriyligi, mas'ul xodimning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilmagan edi.

- *NNTlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlari kuchaytirildi.* Barcha hududlarda o'z binosiga ega bo'lmagan NNTlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Nodavlat notijorat uylari" tashkil etildi. Avval bunday sharoit yaratilmagan edi.

- *NNTlarga davlat budjeti tomonidan ajratilgan mablag'lar miqdori oshirildi.* 2016-yilda NNTlarga 10 mlrd. so'm ajratilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatgich 40 mlrd. so'mga yaqinlashdi. Natijada 2020-yilning ko'rsatgichlari 2016-yilga nisbatan 4 barobarga oshganligini ko'ramiz.

- *NNTlarga xorijiy donordan ajratiladigan mablag'larning miqdori oshdi.* 2020-yilning ko'rsatgichlari 2016-yilga nisbatan deyarli 13 barobarga oshdi. Jumladan, 2016-yilda 4 mln. AQSH dollari bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatgich 51 mln AQSH dollariga teng bo'ldi.

- *NNTlar faoliyatiga e'tibor kuchaytirildi.* 2018-yil "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

- *Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi takomillashtirildi.* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari, davlat organlari va idoralarning "ishonch telefon"lari tashkil etilishi natijasida fuqarolarning murojaat qilish imkoniyati oshirildi. Birgina Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari orqali 10,1 mln. dan ortiq murojaatlar kelib tushgan.

- *Ochiq ma'lumotlar portali faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi.*

Portalda hozirda 150 dan ortiq davlat organlari to'g'risidagi 8,4 mingta ochiq turdagi axborot mavjud. Foydalanuvchilari soni esa 7 mln 700 mingga yetdi. Natijada 2016-yildagi ochiq ma'lumotlar soni 4 barobarga, foydalanuvchilarning soni esa deyarli 15 barobarga oshishiga erishildi.

- *Axborot makoni kengaytirilib, OAVlarining jamiyatdagi roli oshirildi. So'z erkinligi mustahkamlandi.* Hozirgi kunda OAVlarning soni 1893 tani tashkil etmoqda. 2016-yilga qadar solishtirganda 379 taga yoki 20% ga ko'paygan. Xususan, hozirgi kunda: 642 ta gazeta, 482 ta jurnal, 17 ta axborotnoma-byulleten, 72 ta televideniye, 37 ta radio, 5 ta axborot agentligi va 638 ta internet nashr (veb-sayt)lar faoliyat olib bormoqda. 2021-yilda nashriyotlar soni 200 taga yetdi. 2016-yildagi ko'rsatgichga nisbatan 36% ga oshdi. Mazkur sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning umumiy soni 2016-yilga qaraganda deyarli 60% ga oshib, jami 1067 ta mutaxassis faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, jami 693 ta davlat tashkilotlarida axborot xizmati tashkil etildi.

- *Xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.* BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksida 2020-yilda 87-o'rinni egalladi. 2014-yilda 91-o'rinda turar edik. Open Data Inventory (ODIN) – Ochiq ma'lumotlar reytingida esa Jahon bo'yicha 44-o'rin (63 ball), Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egalladik. Vaholanki, 2015-yilda 3 ball bilan Jahon bo'yicha oxirgi o'rinda edik. 2019-yili O'zbekiston Britaniyaning "The Economist" nashrida "Yil mamlakati" deya e'tirof etildi.

Muhokama uchun savollar

- 1. Ikki palatali parlamentning afzalliklarini sanab bering.*
- 2. Keyingi yillarda Mahalliy Kengashlar faoliyatini yaxshilash borasida qanday ishlar amalga oshirilgan?*
- 3. Bugungi kunda Oliy Majlis va Mahalliy Kengashlar faoliyatini yanada isloh qilish va erkinlashtirish zarurmi? Nima uchun?*
- 4. Vakillik organlarining ijro hokimiyati ustidan nazorati xususida nimalarni bilasiz?*
- 5. Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tubdan isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlardan misollar keltiring?*
- 6. Jamoatchilik boshqaruvi deganda nimani tushunasiz?*

4-MAVZU: QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMINI ISLOH QILISH

Reja:

- 1. Qonun tushunchasi va uning ustuvorligini ta'minlash.***
- 2. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimi.***
- 3. O'zbekistonda sud-huquq tizimini demokratik asosda takomillashtirish.***

Tayanch so'zlar: qonun, normativ-huquqiy hujjatlar, konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qonunchilik palatasi, Senati, qonun ustuvorligi, uni ta'minlashga doir qarashlar, O'zbekiston Respublikasi sud tizimi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, viloyat va tuman (shahar) sudlari, harbiy sud, fuqarolik, ma'muriy, jinoyat va iqtisodiy sudlar, sudya maqomi, sudyalarni saylash va tayinlash tartibi, sud raislarini saylash va tayinlash tartibi, sudyalari oliy kengashi, "xabeas korpus" institutining joriy etilishi, "bir sud – bir instansiya" tamoyili, public.sud.uz – "qarorlar to'plami" rukni, aybsizlik prezumpsiyasi, probatsiya xizmati, majburiy mehnatni oldini olish.

1. Qonun tushunchasi va uning ustuvorligini ta'minlash

Qonun – inson, jamiyat va davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi bo'lib, davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori kuchga ega bo'lgan hujjatidir. Qonun davlat boshqaruv tizimining asosini tashkil qiladi, davlatning boshqa hamma organlarining normativ aktlariga nisbatan eng katta yuridik kuchga ega bo'ladi. Qonunlarni ishlab chiqarish jarayoni qonunchilik tashabbusi, qonun loyihasining muhokama qilinishi, qabul qilinishi va uning e'lon qilinishi kabi bosqichlardan iborat.

Qonunlar o'zida mujassamlashgan normalarning mohiyati bo'yicha konstitutsiyaviy va oddiy qonunlarga bo'linadi. Oddiy qonunlar, o'z navbatida, kodifikatsiya qilingan va joriy qonunlarga bo'linadi. Federativ davlatlarda qonunlar, shuningdek, federal va

federatsiya subyektlari qonunlariga ajratiladi. Qonunlarning alohida toifasini favqulodda qonunlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) Asosiy qonun – Konstitutsiya;

2) Konstitutsiyaviy qonun;

3) Qonun (kodekslar va joriy qonunlar);

4) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonun osti hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Prezident O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar va qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu hujjat davlat hokimiyatining tashkil etilishini va boshqaruv mexanizmini belgilaydi. Shuningdek, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy asoslari, siyosiy tizimini, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi. Konstitutsiya jamiyat huquqiy tizimining, butun qonunchilikning o'zagini, yuridik zaminini tashkil etadi. Joriy qonunlarning barchasi konstitutsiya qoidalari va prinsiplari asosida hamda ularning ijrosi manfaati yo'lida chiqariladi.

Qonunlar rasman e'lon qilingandan 10 kun o'tgach yoki qonunda (uni amalga kiritish to'g'risida maxsus hujjatda) ko'rsatilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Qonun o'zida ko'rsatilgan muddat tugagan bo'lsa yoki bekor qilinishi natijasida (ijtimoiy munosabatlarning shu sohasini tartibga soluvchi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan) o'z kuchini yo'qotadi.

Qonunning oliy yuridik kuchga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– qonunni uni qabul qilgan oliy vakillik organidan boshqa hech kim o'zgartira olmaydi, bekor qila olmaydi yoki yangisini o'rnata olmaydi;

– boshqa barcha normativ-huquqiy aktlar qonunga qat'iy muvofiq holda qabul qilinadi va amalga oshiriladi;

– biron bir qonunosti normativ-huquqiy akt, ya'ni, qonunga asoslangan hujjat qonunga zid bo'lsa, u qonunga muvofiq holga keltiriladi yoki bekor qilinadi;

– qonunni qabul qilgan organdan boshqa hech kim uni qo'shimcha tarzda tasdiqlashi va harakatdan to'xtatib qo'yishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida yangilanayotgan ijtimoiy tuzumning, huquqiy davlat barpo etishning eng muhim prinsiplari, rivojlanish yo'nalishlari va dasturiy vazifalari o'z aksini topadi.

Qonun ijodkorligi faoliyatining xalqchilligi. 2018-yil 8-avgustdagi Prezidentning "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilingan edi. Bu esa norma ijodkorligi faoliyatida yangi davrni boshlab berdi. Mazkur hujjat uzoq yillar davomida shakllangan norma ijodkorligi faoliyatiga baho beribgina qolmay, mavjud muammolar, shu jumladan, ko'pgina masalalar va ularning oqilona yechimini topib berdi. Xususan, ilgari qonunlar ijtimoiy munosabatlarning eng umumiy jihatlarini tartibga solar, hukumat va idoraviy hujjatlarning qonunga nisbatan yuridik kuchi kamroq bo'lsa-da, aynan ular qonunlarni ishlash mexanizmini belgilab berayotgan hamda harakatga kelishini ta'minlayotgan edi. Amaliyotda esa huquqiy bo'shliqning asosiy qismi ijro hokimiyati hujjatlari bilan to'ldirilardi. Endilikda konsepsiyada sohada to'planib

qolgan muammolarni to'liq bartaraf etish, jumladan, qonunchilik bazasini tizimlashtirish, to'g'ridan-to'g'ri amal qilish mexanizmlariga ega qonunlarni qabul qilish, har bir qonun hujjati bahosini aniqlash mexanizmlarini joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Konstitutsiya qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Prezident ma'ruzasida hamda 2019-yilga mo'ljallangan Davlat dasturida qonun ijodkorligi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, to'g'ridan-to'g'ri amaliyotda qo'llanadigan qonunlar qabul qilish lozimligini ta'kidlagan edi. Shundan kelib chiqib, parlamentning quyi palatasi tomonidan norma ijodkorligi bo'yicha ilg'or tajribaga ega 20 dan ortiq rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya va Turkiya amaliyoti hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlari chuqur o'rganildi va tahlil qilindi. Ularning ijobiy yutuqlari asosida bugungi kunda samarali, xalqchil qonunlarni ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qonun ijodkorligi o'ziga xos murakkab usul va vositalar majmuidan iborat bo'lib, jamiyatda huquq normasiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan to tegishli normativ-huquqiy hujjat kuchga kirib, ijrosi monitoringini amalga oshirishgacha bo'lgan barcha jarayonni qamrab oladi. Aytish joizki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishida qonunchilikning maqbulligi, mukammalligi, xalqchilligi va samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Qisqacha aytganda, jamiyat va davlat taraqqiyoti qonun ijodkorligi faoliyatining sifatiga bog'liqdir. Shu sababli, parlament faoliyatida ishlar yangicha yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Jumladan, qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi natijasida, agar 2015-yilda deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida bor-yo'g'i 8 ta, 2016-yilda 11 qonun loyihasi kiritilgan bo'lsa, 2017-yilda 27 ta, 2018-yilda 23 ta va joriy yilning o'tgan davrida 17 tani tashkil etdi. Milliy parlamentimizda bunday ko'rsatkich avval bo'lmagan. Shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilgan qonun loyihalari soni o'rta hisobda qariyb 2,8 baravarga oshdi. Agar 2016-yilda quyi palata 49 ta qonun loyihasini ko'rib chiqqan bo'lsa, 2018-yilda bu raqam 135 tani tashkil etdi. O'tgan

davr mobaynida palataga kiritilgan 68 ta qonun loyihasi qayta ishlanib, 60 - 85 foiz o'zgartirildi. Shu vaqtga qadar qonun va qonunosti hujjatlari tarqoq holda yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirib kelingan bo'lsa, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, ularga ilova qilinayotgan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning yagona uslubiyoti tasdiqlanishi bilan bu muammolar o'z yechimini topdi. Ayni paytda mazkur uslubiyot normativ-huquqiy hujjatlarning nafaqat texnik jihatlarini, balki ularda aks etishi zarur bo'lgan tarkibiy qismlarni, shuningdek, hujjatga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallar mazmuniga qo'yilgan talablarni ham aniq belgilab berdi.

Qabul qilingan yana bir muhim hujjat, bu – to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarda tizimlashtirilishi va unifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi"dir. Unda aksariyat qonunosti hujjatlarini yaxlit qonun shakliga keltirishga qaratilgan 60 ga yaqin qonunlarni qabul qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi. "Yo'l xaritasi"da o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirgan holda 2019-yilda 25 ta, 2020-yilda 19 ta va 2021-yilda 17 ta qonun loyihasini qayta ko'rib chiqish nazarda tutilgan. Xususan, Sog'liqni saqlash, Investitsiya, Ekologiya kodekslarini va boshqa muhim qonunlarni qabul qilish nazarda tutildi. Birgina misol, "Advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan advokatura institutiga oid 2 ta qonun va 10 dan ortiq qonunosti hujjatlari tizimlashtiriladi. O'tgan vaqt davomida Saylov kodeksi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi va boshqa qonunlar qabul qilindi. Ta'kidlash joizki, "Yo'l xaritasi"da umumiy tUSDagi, harakatsiz va huquqni qo'llash amaliyotiga ta'sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish kabi muhim masalalar ham qamrab olingan. Shu asosda 200 ga yaqin qonunlar va 500 dan ziyod qonunosti hujjatlari tizimlashtiriladi.

Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiyasining tom ma'nodagi "yuragi" hisoblangan hujjat, shubhasiz, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonundir. 2012-yilda qabul qilingan oldingi variantida norma ijodkorligi faoliyatini tizimli tashkil etish hamda to'g'ridan-to'g'ri amal qilish

mexanizmlariga ega emas edi. Masalan, bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va qabul qilish masalalari 10 ga yaqin turli yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlari bilan tartibga solinmoqda. Birgina 2008 - 2017-yillarda 8 mingdan ortiq hujjatlar qabul qilingan bo'lsa, ularning yarmi bekor qilingan, xususan, 2017-2018-yillarda qariyb 900 dan ziyod hujjatlar to'liq yoki qisman bekor qilingan. Shu sababli 2021-yil 20-aprelda *"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"*gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Xususan, endilikda qonun hujjatlarini qabul qilish asoslari va tartibi, qonunosti hujjatlarining tartibga solish doirasi aniq belgilandi. Unga ko'ra, qonun bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha qonunosti hujjatlarini qabul qilishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy mustahkamlandi.

Shu bilan birga, qonun loyihasida jamoatchilik fikrini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Endilikda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari, majburiyatlariga daxldor, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga, atrof-tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi loyihalar bo'yicha majburiy jamoatchilik muhokamasi o'tkaziladi. 2018-yilda kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar natijasida normativ hujjatlar tayyorlashda jamoatchilikning fikri inobatga olinishi belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda umumxalq muhokamasiga qo'yilishi mumkin. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasiga qo'yiladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi manfaatdor davlat organlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, o'zga tashkilotlar vakillari, olimlar va mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi. Mazkur loyihalarning mutaxassislar muhokamasi tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalarining, tarmoqlarning vakillari ishtirokida o'tkaziladi. Loyihaning jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasi ishtirokchilari ishlab chiquvchi tomonidan uning matni bilan oldindan tanishtirilishi lozim.

Normativ-huquqiy hujjatning rasmiy matni unga imzo qo'yish yo'li bilan tasdiqlanadi. Ya'ni: qonun – O'zbekiston Respublikasining Prezidenti; Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qarori – Oliy Majlis

Qonunchilik palatasining Spikeri; Oliy Majlisi Senatining qarori – Oliy Majlis Senatining Raisi; Prezidentning farmoni va qarori – Prezident; Vazirlar Mahkamasining qarori – Bosh vazir; vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari – normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ rahbari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari – tegishli hokim tomonidan tasdiqlanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir. Ularni e'lon qilinadigan rasmiy manbalariga quyidagilar kiradi:

Konstitutsiya va qonunlar, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, Prezidentning farmonlari va qarorlari – “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, “O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami”, “Xalq so'zi” va “Народное слово” gazetlari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida;

Vazirlar Mahkamasining qarorlari – “O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to'plami”, “O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami”, “Xalq so'zi” va “Народное слово” gazetlari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari – “O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami”, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, shuningdek vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rasmiy nashrlarida e'lon qilinadi.

Hozirgi kunda qonun hujjatlarining mamlakat iqtisodiyoti, fuqarolarning hayoti va turmush tarzi hamda tadbirkorlik subyektlarining faoliyati va ishbilarmonlik muhitini tartibga solishdagi ta'sirchanligi to'liq baholanmagan. Bu esa fuqarolar va tadbirkorlarga o'zini oqlamagan moliyaviy xarajatlar, davlat va uning organlari oldida asossiz majburiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni rejalashtirish, ishlab chiqish bosqichlarida ularning ta'sirini majburiy baholashni nazarda tutuvchi prinsipial yangi tizim joriy etildi. Unga asosan, endilikda har bir normativ-huquqiy hujjatning ijro etilishi, sodda qilib aytganda, “necha pulga tushishi” tahlil qilinadi. Mazkur qonunda qator yangiliklar bo'lib, ularning barchasi

pirovard maqsad – amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy ta'minlashni takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga, tadbirkorlik subyektlarining kafolatlari, himoyasi va qo'llab-quvvatlashini ta'minlash, ularning fikrlarini to'laqonli hisobga olish va "Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" prinsipini har tomonlama ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Qonun ustuvorligini ta'minlash. Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanganligidir. Shu bilan birga Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi", deb ta'kidlagan edilar. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi. "Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi"¹.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasida "Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir" – deya ta'rif bergan edi.

Qonun ustuvorligining mohiyati Konstitutsiyaning qator moddalarida belgilab berilgan. Konstitutsiyaning III bobi ikkita 15

¹ Каримов И.А. Адолат қонун устуворлигида. Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг олтинчи сессиясидаги маъруза. 2001 йил 29 август. "Хавфсизлик ва тинчлик учун қурашмоқ керак" китобида, 10-ж., -Т., Ўзбекистон, 2002, 28-бет.

va 16-moddalaridan iborat bo'lib, Konstitutsiya va qonun ustunligiga bag'ishlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o'zida yoki tegishli qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Masalan, Konstitutsiya 93-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan tuman va shahar hokimlarini Respublika Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.

Bu borada shuni ham aytib o'tish lozimki, Konstitutsiyaning normasi boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. Chunki Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar uchun poydevordir. Shuning uchun ham Konstitutsiya 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan "Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas". Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida oldimizda turgan 5 ta muhim ustuvor vazifalarni belgilab berildi³¹:

1. Qonunlar ijrosini samarali tashkil etish, tizimli muammolarni oldindan ko'ra bilish, qonun buzilishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bilan birga bunday holatni barvaqt bartaraf etishga qaratilgan tizimni shakllantirish;

2. Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish;

3. Ommaviy axborot vositalari qonuniylikni qaror toptirishda chinakam "jamiyat ko'zgusi"ga aylanishi kerak;

4. Qabul qilinayotgan qonunlar olib borayotgan islohotlarimiz bilan uyg'un bo'lgan taqdirdagina ishlaydi;

5. Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi

³¹Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi - huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasidan

va madaniyati yetarli bo'lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi.

Shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani, ularga davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati va ochiqligi biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart. Shu borada bir fikrni yana takrorlab aytmoqchiman: **xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak.**³²

Konstitutsiya. Konstitutsiya (lotincha "constitution" – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. AQSh Konstitutsiyasi dunyodagi eng kichik va eng o'zgarmas Konstitutsiya hisoblanadi. Uning asosiy matniga hech qanday o'zgartirish kiritilmaydi, balki matn oxiriga alohida ilova sifatida qo'shimcha kiritiladi. AQSh Konstitutsiyasi tarixi davomida unga bor yo'g'i 27 ta tuzatish kiritilgan xalos. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi, Isroil va Yangi Zelandiya kabi davlatlarda konstitutsiya yagona qonun hujjati sifatida mavjud emas. Hindiston Konstitutsiyasi dunyodagi eng katta va murakkab Konstitutsiya hisoblanadi. Mazkur Konstitutsiya hamma ham tushuna olishi juda qiyin bo'lgan tildagi 395 ta modda, 12 ta ilova va 500 ta tuzatishlardan iborat.

O'zbekiston Konstitutsiyasi yaratilishi tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: 1) 1918-yil Turkiston ASSRning Konstitutsiyasidir. Buxoro xalq sovet Respublikasining 1920-yildagi, Xorazm XSRning 1920 va 1923 yillardagi konstitutsiyalari ham qabul qilingan. 2) 1927-yil; 3) 1937-yil 14-fevral; 4) 1978-yil 19-aprel; 5) 1992-yil 8-dekabr.

1990-yil 20-iyunda O'zbekiston Oliy Kengashi mamlakatimizning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish maqsadida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Dastlab Konstitutsiyaning

³² Мирзиёев Ш.М.Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – 1-том. Б. –152.

3 ta muqobil konsepsiyasi yaratilgan: 1. Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi; 2. Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining konsepsiyasi; 3. Prezident devoni yuridik bo'limi konsepsiyasi. Ishchi guruh majlisida uchinchi konsepsiya asos sifatida qabul qilingan. Konstitutsiya loyihasining dastlabki varianti 1991-yilning 3-choragida tugatilib, u muqaddima, olti bo'lim, 158 moddadan iborat edi. 1992-yilning bahorida Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Konstitutsiya loyihasining uchinchi varianti 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha fuqarolar taklif va mulohazalari asosida qayta tuzilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilindi. Konstitutsiya tarkibi preambula (muqaddima), 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

Konstitutsiyaga qabul qilingandan to shu vaqtga qadar jami 14 marotaba qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan:

1. 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq 77-moddasiga (*Oliy Majlis deputatlari soni bo'yicha*);

2. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq XVIII-XX, XXIII boblariga (*ikki palatali parlamentni tashkil etish, prezident vakolati muddatini 5 yildan 7 yilga o'zgartirish bo'yicha*);

3. 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)"gi qonunga muvofiq (*Prezident davlat boshlig'i, tuman va shahar hokimlarini ozod etishi tartibiga*);

4. 2008-yil 25-dekabrda "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston

Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunga muvofiq 77-moddasiga (*Qonunchilik palatasi 150 deputatdan iborat bo'lishi belgilandi*);

5. 2011-yil 18-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida(78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)"gi qonunga muvofiq (*bosh vazir hisobotlarini eshitishi, Prezident ijro etuvchi hokimiyatga rahbarlik qilishi haqidagi norma chiqarildi, ishonchsizlik votumi, siyosiy partiyalarning roli oshirildi*);

6. 2011-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq (*prezident vakolati 7 yildan 5 yilga o'zgartirildi*);

7. 2014-yil 16-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi qonunga muvofiq (*jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi belgilandi*);

8. 2017-yil 6-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq Konstitutsiyaning 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilgan. (*Sudyalar oliy kengashi hamda iqtisodiy va ma'muriy sudlar tuzildi*);

9. 2017-yil 31-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida (80, 93, 108 va 109-moddalariga)"gi qonunga muvofiq (*Konstitutsiyaviy sud mustaqilligini mustahkamlandi*);

10.2017-yil 29-avgustdagi "Toshkent shahar xalq deputatlari tuman kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunga muvofiq Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalariga o'zgartishlar kiritilgan. (*Toshkent shahri tarkibiga kiruvchi tumanlarga hokim tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi Toshkent shahar hokimi vakolatiga kiritildi*);

11.2018-yil 15-oktabrdagi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq (*faqat raisni (oqsoqolni) ikki yarim yil muddatga saylash tartibi kiritildi*);

12.2019-yil 18-fevraldagi "Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba'zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq (*MXX DXXga aylandi*);

13.2019-yil 5-martdagi "Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas'uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq

14.2019-yil 4-sentabrdagi "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunga muvofiq

Zamonaviy AKT imkoniyatlari qonunlarda aks etishi. Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan edi. Shu maqsadda joriy yilning 1-yanvar kuni Internet jahon axborot tarmog'ida pilot loyihasi sifatida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi - "*projekt.gov.uz*" sinov tariqasida ishga tushirildi. Bu boradagi ishlarni samarali tashkil etish maqsadida 20 dan ziyod ilg'or mamlakatlar tajribasi o'rganildi. Binobarin, Yagona elektron tizimni to'liq ishga tushirish va uning imkoniyatlarini oshirish maqsadida Hukumatning 2019-yil 8-apreldagi qaroriga asosan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Yagona elektron tizimda kelishilmoqda. Ilgari birgina normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va kelishishda tashkiliy ishlarni bajarish uchun bir necha hafta yoki oy talab etilgan bo'lsa, bugungi kunda bunday ishlar yagona tizim orqali tezkorlik bilan amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi tizimi - *lex.uz* mamlakatimizda 2000-yilda joriy etilgan bo'lib, 2007-yilda rasmiy ishga tushirilgan, 2016-yilda Milliy bazaga qonun hujjatlari e'lon qilinadigan rasmiy manba maqomi berildi. Ilgari Milliy bazani shakllantirish, hujjatlarga yuridik ishlov berish, ayrim hollarda normativ-huquqiy hujjatlarni Milliy bazada rasmiy e'lon qilish muddatlari buzilar edi. Buning

asosiy sababi kelib tushayotgan qonunosti hujjatlari ba'zilarida imloviy, uslubiy xatolar, davlat va rus tili matnlarida bir-biriga zid jihatlar borligi edi. Bu borada ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Adliya vazirligi tomonidan Milliy bazani 2019-2020-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda Milliy bazani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, texnik mustahkamlash istiqbollari belgilab berildi. Qabul qilingan qonun hujjatlari doimiy tarzda Milliy bazaga bir ish kunida kiritilmoqda. Har yili o'rtacha mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasiga joylashtirilgan har bir normativ-huquqiy hujjatdagi havolaki normalar, sharhlar taqdim etib borilyapti.

Havolaki normalar va sharhlar ularning dolzarbligi, qonunchilikdagi o'zgarishlar, shuningdek, qonunchilikdagi yangi hujjatlarning aks etishi asosida yangilab borilmoqda. Jumladan, Jinoyat kodeksi, Yer kodeksi, Oila kodeksi, shuningdek, yangi tahrirdagi Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar butunlay yangilandi. Hozirgi paytda Milliy bazada 20 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib, ular ingliz tiliga tarjima qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Turizm to'g'risida"gi va "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ingliz tilidagi tarjimasi joylashtirildi. Bugungi kunga kelib, 5 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar lotin alifbosida e'lon qilindi. Umuman, konsepsiyani hayotga izchil tatbiq etish qonun hujjatlarini tizimlashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, muhimi, inson huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlashga zamin yaratmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimi

Sud hokimiyati davlat organlari tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Sud hokimiyatining faoliyati inson huquqlari va erkinligiga bevosita daxldor bo'lib, odil sudlovni amalga oshirish faoliyati natijasida shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlanadi.

Sud hokimiyati, davlat hokimiyatining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, u o'z funksiyasi bo'yicha hokimiyatning qonun

chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlaridan farq qiladi. Sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bilan birgalikda mavjud bo'lishi demokratik davlatning muhim belgisidir.

Konstitutsiya va ushbu qonun asosida mamlakatimizda mustaqil sud hokimiyati shakllandi, uning inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasidagi vakolatlarini yanada kengaytirishga doir huquqiy asoslar takomillashtirilishi uchun zamin tayyorlandi. 1996-yil 29-avgust kuni Prezident I.Karimov Oliy Majlisning 1-chaqiriq VI sessiyasida so'zlagan nutqida O'zbekistondagi huquqiy islohotlarning asosiy maqsadi sudning alohida va mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatidagi mavqeyini qayta tiklashdan iborat ekanini har tomonlama asoslab bergan edi. Prezident Sh.Mirziyoyev 2019-yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasida shunday deydi: "Konstitutsiyaga asosan sudlar o'z faoliyatida mustaqil, lekin ularning chinakam nazoratchisi xalq bo'lishi kerak. Sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash biz uchun eng ustuvor vazifadir. Ayniqsa, sud biron-bir mansabdor shaxsning qo'li yetadigan idoraga aylanib qolishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik shart. Shu sababli sud ishlariga aralashgani yoki sudga bosim o'tkazgani uchun javobgarlikni kuchaytirish lozim". Shu asosda yurtimizda sud hokimiyatining yangi tarmoqlari yaratildi. Sudning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni kafolatlashning huquqiy me'yorlari takomillashtirilmogda.

O'zbekiston Respublikasining odil sudlov organlari davlat hokimiyatining mustaqil bir tarmog'iga kiruvchi va qonun ustuvorligini ta'minlab, tartibga solib turuvchi organdir. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasi sudlarining tuzilmasi va shtat birligi Prezident tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasi hamda 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi

qonunning 2-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
3. Harbiy sudlar;
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;
6. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
7. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;
8. Tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
9. Tumanlararo ma'muriy sudlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi *Konstitutsiyaviy sudi* qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'radi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanadi. Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat'iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi *Oliy sudi* fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. Shuningdek, Oliy sud qonunlar loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladigan qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibi: rais, uning birinchi o'rinbosari – ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati raisi, o'rinbosarlari – fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atlari raislari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalaridan

iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyidagi tarkibda ish yuritadi:

1. *Oliy sud Plenumi*– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi raislaridan iborat tarkibda ish yuritadi. Plenum zaruriyatga qarab, lekin to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Plenumning qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi;

2. *Oliy sud Rayosati*– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudylaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan belgilanadigan miqdorda tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tarkibiga lavozimi bo'yicha kiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati majlislari zaruriyatga qarab, lekin har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi;

3. *Oliy sudi (ma'muriy, fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishlari bo'yicha) sudlov hay'atlari*– ishlarni birinchi instansiyada, apellatsiya va kassatsiya tartibida, shu jumladan kassatsiya instansiyasi sudida takroran ko'radi, sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi, sud amaliyoti obzorlarini tayyorlaydi, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqib, sud statistikasini tahlil qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi– rais, rais o'rinbosarlari: fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atlari raislari, sudyalar, shuningdek xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Mazkur sudlar o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi va apellatsiya instansiyasi sudi sifatida ko'radi; tumanlararo, tuman, shahar sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi; sud amaliyoti va sud statistikasini umumlashtiradi, ularning tizimli tahlilini amalga oshiradi; sud amaliyoti obzorlarini tayyorlaydi; sudyalar malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudi – rais va sudyalardan iborat bo'ladi. U fuqarolik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari – rais va sudyalardan iborat bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni va korporativ nizolarni, shuningdek qonun bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudi – rais, sudyalardan va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. U jinoyat ishlarini va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni, shuningdek qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish haqidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi yoxud ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish haqidagi, murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi, pochta-telegraf jo'natmalarini xtlash haqidagi, amnistiya aktiga asosan mahkumni jazodan ozod qilish to'g'risidagi iltimosnomalarni va qonun bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'rib chiqadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyat, Toshkent shahar ma'muriy sudi – rais, rais o'rinbosari, sudyalardan iborat bo'ladi hamda rayosat va sudlov hay'atlari tarkibida ish yuritadi. Mazkur sud tizimi o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi va apellatsiya instansiyasi sudi sifatida ko'radi; tumanlararo ma'muriy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi; sud amaliyoti va sud statistikasini umumlashtiradi, ularning tizimli tahlilini amalga oshiradi; sud amaliyoti obzorlarini tayyorlaydi; sudyalarning va sud apparati xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi.

Tumanlararo ma'muriy sud – rais va sudyalardan iborat bo'ladi. U davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan shikoyatlar va arizalar bo'yicha ma'muriy nizolarni, shuningdek qonun bilan o'z vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining harbiy sudlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va hududiy harbiy sudlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi viloyat sudi huquqi asosida ish yuritadi hamda rais, rais o'rinbosari, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Hududiy harbiy sudlar tuman sudi huquqi asosida ish yuritadi va rais, xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Harbiy sudlar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyasining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni, davlat sirlariga taalluqli ishlarni ko'radi.

Sudyalarning maqomi. O'zbekiston Respublikasida sudyalar qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega. Sudlar raislari, rais o'rinbosarlari ayni vaqtda sudyalardir. Sudyalar quyidagilarga haqli emas:

– sudyalar maslahatlashuvi sirini va yopiq sud majlislarini o'tkazish chog'ida olingan ma'lumotlarni oshkor qilishga;

– senator, davlat hokimiyati vakillik organlari deputati bo'lishga;

– siyosiy partiya a'zosi bo'lishga, uni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, siyosiy partiyalarning tadbirlarida ishtirok etishga, boshqa siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishga;

– haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga, bundan sudyaning vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilmaydigan pedagogik, ilmiy va boshqa ijodiy faoliyat mustasno;

– shaxsan yoki ishonchli shaxslar orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga, shu jumladan xo'jalik yurituvchi subyektni boshqarishda, uning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ishtirok etishga;

– O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan chet el banklarida hisob varaqlar (omonatlar) ochishga va ularga ega bo'lishga, naqd pul mablag'larini hamda qimmatliklarni saqlashga. Bunday cheklov sudyaning eriga (xotiniga) va voyaga yetmagan farzandlariga nisbatan ham amal qiladi;

– jismoniy yoki yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha sud va vakil bo'lishga (qonuniy vakillik hollari bundan mustasno);

– sud va vakil bo'lishga chiqilayotgan masala yuzasidan sud hujjati qonuniy kuchga kirgunga qadar oshkora mulohazalar bildirishga;

– qonunga muvofiq maxfiy axborot jumlasiga kiritilgan, sudyalik vakolatlarini amalga oshirishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni sudyalik vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda oshkor qilishga yoki foydalanishga haqli emas.

Sudyaning shaxsi daxlsiz. Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha saqlash, olib yurish va undan foydalanish huquqi bilan xizmat quroli hamda shaxsiy himoya vositalari beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi. Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Sudya O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi olinmasdan va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas. Shuningdek, tegishli sudyalar malaka hay'atining xulosasi olinmasdan ma'muriy javobgarlikka ham tortilishi mumkin emas. Sudyaga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishlidir. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudyalarni saylash va tayinlash tartibi. 35 yoshga to'lgan, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sudyalik lavozimiga nomzod bo'lishi mumkin. Quyidagilar sudyalik lavozimiga nomzod bo'la olmaydilar:

– jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs;

– ilgari sudlangan yoki o'ziga nisbatan jinoyat ishi reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha tugatilgan shaxs;

– chet davlat fuqaroligiga ega bo'lgan yoki chet davlat hududida doimiy yashash huquqini tasdiqlovchi yashash guvohnomasiga yoxud boshqa hujjatga ega bo'lgan shaxs;

– sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb e'tirof etilgan shaxs;

– psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxs;

– sudyaning vakolatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan boshqa kasallikka chalingan shaxs.

Oliy sud sudyasi – Sudyalar oliy kengashining tavsiyasi asosida Prezidentning taqdimnomasiga binoan Oliy Majlisning Senati tomonidan saylanadi. Buning uchun nomzod yuridik ixtisoslik bo'yicha kamida 15 yillik ish stajiga, shu jumladan, sudya sifatida kamida 7 yillik ish stajiga ega bo'lgan bo'lishi kerak.

Viloyat, Toshkent shahar sudi, Harbiy sud, viloyat, Toshkent shahar ma'muriy sudi, tumanlararo, tuman, shahar sudi, hududiy harbiy sud sudyasi –Sudyalar oliy kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudi sudyasi –Sudyalar oliy kengashining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Sudya birinchi marta 5 yillik muddatga, navbatdagi 10 yillik muddatga va lavozimda bo'lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda saylanadi yoki tayinlanadi. Sudyaning vakolatlari muddati uning sudyalik lavozimida bo'lgan umumiy stajidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.Oliy sudi sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi 70 yoshni, boshqa sudlar sudyalari uchun – 65 yoshni tashkil etadi. Oliy sudi sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi o'zining roziligi bilan Prezident tomonidan 5 yilgacha, boshqa sudlar sudyasining yoshi esa Sudyalar oliy kengashi tomonidan xuddi shunday 5 yilgacha uzaytirilishi mumkin. Sudya vakolatlari muddati davrida o'zining roziligi bilan Sudyalar oliy kengashi tomonidan boshqa sudyalik lavozimiga o'tkazilishi mumkin. Bir sudning o'zida sudyalik lavozimida bo'lish muddati 2 yildan kam bo'lmasligi kerak.

Sudyalarning vakolatlari quyidagi holatlarda muddatidan avval tugatiladi:

1) u sudyaning qasamyodini buzgan taqdirda;

2) u yozma ariza bergan taqdirda;

3) tegishli sudyalar malaka hay'ati tomonidan ogohlantirish qilinganidan yoki vakolatlari to'xtatilganidan keyin u sudyalik

O'ZBEKISTONNI RIVOILANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK IAMIYATI

lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishni davom ettiravergan taqdirda;

4) u sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan taqdirda;

5) u O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqqan yoki uni yo'qotgan taqdirda;

6) unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;

7) u vafot etganda yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb e'lon qilingan taqdirda;

8) sog'lig'ining holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra u uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifasini bajarishga qodir bo'lmay qolgan taqdirda;

9) sud raisining vakolat muddati tugashi munosabati bilan, agar u boshqa sudyalik lavozimiga o'tishga rozilik bermasa;

10) sudya tomonidan tegishli sudyalar malaka hay'atining qarori bilan sudyaga vakolatlarini tugatish tarzidagi intizomiy jazo chorasi qo'llanilishiga sabab bo'lgan harakatlar sodir etilganda.

Ushbu keltirilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda bu quyidagicha amalga oshiriladi:

Oliy sudi sudyasining vakolatlari - Prezidentning taqdimnomasiga binoan Oliy Majlisining Senati tomonidan;

viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining va rais o'rinbosarining vakolatlari - Sudyalar oliy kengashining taqdimnomasiga binoan Prezident tomonidan;

viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasining, tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy sudlar raisining va sudyasining vakolatlari - tegishli sudyalar malaka hay'ati xulosasiga ko'ra Sudyalar oliy kengashi tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, tumanlararo, tuman, shahar sudlari sudyasining vakolatlari - Sudyalar oliy kengashining xulosasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi kiritgan taqdimnomaga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan muddatidan ilgari tugatiladi.

Sud raislarini saylash va tayinlash tartibi. Oliy sud raisi, Oliy sudi raisining birinchi o'rinbosari, rais o'rinbosari, Oliy sudi sudlov hay'atining raisi – Prezidentning taqdimnomasiga binoan Oliy Majlisning Senati tomonidan saylanadi.

Viloyat, Toshkent shahar sudi, Harbiy sudi, viloyat, Toshkent shahar ma'muriy sudi raisi, rais o'rinbosari – Sudyalar oliy kengashining taqdimnomasiga binoan Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi raisi, rais o'rinbosari – Sudyalar oliy kengashining Prezident bilan kelishib olingan xulosasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudi raisi, rais o'rinbosari – Sudyalar oliy kengashining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tayinlanadi.

Tumanlararo, tuman, shahar sudi, hududiy harbiy sud raisi, rais o'rinbosari –Sudyalar oliy kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Sud raisi, rais o'rinbosarining vakolatlari muddati 5 yil. Shaxs ayni bir sudda ketma-ket ikki muddatdan ortiq rais, rais o'rinbosari lavozimini egallab turishi mumkin emas. Sud raisi, rais o'rinbosari vakolatlari u saylangan yoki tayinlangan muddat o'tgach tugaydi.

O'zbekiston Respublikasi *Sudyalari oliy kengashi* sudyalar hamjamiyatining organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi to'g'risida"gi qonuni bilan belgilanadi. Unga ko'ra Kengash jami 21 nafar kishidan iborat tarkibda sudyalar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantiriladi:

– Kengash raisi Prezidentning taqdimiga binoan Oliy Majlisning Senati tomonidan tayinlanadi;

– Kengash raisining o‘rinbosari Prezident tomonidan tayinlanadi;

– Kengashning 11 nafar a‘zosi Kengash raisining taqdimiga binoan Prezident tomonidan sudyalar orasidan tasdiqlanadi. Kengashning ushbu a‘zolaridan bir nafari Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlarining sudyalari orasidan tasdiqlanadi;

– Kengash kotibi va uning 7 nafar a‘zosi Prezident tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan tasdiqlanadi.

Kengashning raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va sudyalar orasidan tasdiqlangan 11 nafar a‘zosi o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi, Kengashning qolgan 7 nafar a‘zosi o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Sudning asosiy vazifalari fuqarolarning Konstitutsiya va boshqa qonunlar, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta‘minlashga qaratilgan. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyalarning daxisizligi qonun bilan kafolatlanadi. Sudyalarga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas. Sudyalar siyosiy partiyalarning a‘zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda O‘zbekiston

Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Odil sudlovni amalga oshirishda har bir kishiga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida himoyalaniş huquqi ta'minlanadi. Ayblanuvchi himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxonaga, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas. Ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

2. O'zbekistonda sud-huquq tizimini demokratik asosda takomillashtirish

Qonun ustuvorligini hayotimizning barcha jabhalarida ta'minlash, eskicha fikrlash, umuman, qotib qolgan qarashlardan tezroq voz kechish va avvalo, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasini ustuvor vazifa deb qarash va shu asosida yo'l tutish, bu jarayonni tubdan tezlishtirish bugungi kunda biz uchun eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Sud-huquq tizimining liberallasuvi bu shunchaki qonun talabining yumshatilishi yoki zaiflashuvi emas, balki, aksincha qonunlarning insoniylik va demokratik asoslari mustahkamlanishidir.

Sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri fuqarolarda sud va boshqa huquqni muhofaza qilish organlariga nisbatan jazolovchi organ emas, balki

shaxs huquq va manfaatlarini himoya qiladigan organlar sifatida qarashni shakllantirishdir.

Mamlakatimiz Asosiy qonuni – Konstitutsiya asosida sud-huquq sohasidagi islohotlar izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. 1993-yil 2-sentabrda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi sudlarning mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatida shakllanishida muhim asos bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik 2000-yil 14-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonun umumiy yurisdiksiya sudlari va xo‘jalik sudlarining zamon talablari asosida faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos bo‘ldi. “Sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish Konsepsiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi qarori bilan tasdiqlangan)da jazo tizimidan o‘lim jazosini olib tashlash va uni umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirishda ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, “Xabeas korpus” institutining joriy etilishi, ya‘ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o‘tkazilishi prinsipial qadam bo‘ldi. 2008-yil 1-yanvardan qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o‘tkazilishi dastlabki tergov davrida ayblanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatlari himoya qilinishi imkoniyatlarini kengaytirdi, ushbu jarayonning ochiq, demokratik tarzda hal qilinishini ta‘minladi. 2021-yil 28-iyulda yangi qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun orqali oldingi yillarda qabul qilingan qonun o‘z kuchini yo‘qotdi.

Harakatlar strategiyasi asosida 2017-yildan boshlab sud hokimiyati odilligi va mustaqilligini oshirish, sudlar faoliyatini raqamlashtirish, inson huquqlarini samarali himoya qilish borasida jadal ishlar olib borilishi natijasida natijasida fuqarolarning sud orqali himoyalaniş kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta‘minlash bo‘yicha katta ko‘lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

1. Mamlakatimizda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash, malakali kadrlarni tanlash, sudvalik kasbiga tayyorlash va tavinlash tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning odil

sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Xususan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi negizida sud hokimiyati organi sifatida Sudyalar oliy kengashi tuzildi;

Oliy sud va Oliy xo'jalik sudlari birlashtirilib, odil sudlovning eng yuqori organi sifatida Oliy sud qayta tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlarga o'zgartirildi. Ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqish vakolatiga ega 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudi tashkil etildi;

Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar, jumladan, ma'muriy huquqbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiquvchi ma'muriy sudlar faoliyati yo'lga qo'yildi;

Sudlarda ishlarni "bir sud – bir instansiya" tamoyili asosida ko'rish tartibi joriy etilishi natijasida Oliy sudning ishlarni nazorat tartibida ko'rib chiqish vakolati bekor qilindi. Ishlarni sudda qayta ko'rish 3 bosqichga qisqartirildi. Avvallari bu 6 ta bosqichdan iborat edi;

Sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba 5 yillik, keyin 10 yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy va Oliy sudi sudyalari uchun sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi 70 yosh, boshqa sudyalar uchun 65 yosh etib belgilandi. Sudyalik lavozimiga birinchi marta tavsiya etilayotgan nomzodlar uchun yosh senzi qayta ko'rib chiqilib, kamida 35 yosh bo'lishi belgilandi;

"Xabeas korpus" institutini yanada kengaytirish maqsadida pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va murdani eksqumatsiya qilishga ruxsat berish huquqi prokurorlardan sudlarga o'tkazildi;

Shaxsni ushlab, unga prosetsual huquqlarini tushuntirish, himoyachidan voz kechishini majburiy tarzda video tasvirga olish tartibi joriy etildi;

Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirildi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash hamda dastlabki tergovning eng uzoq muddati 12 oydan 7 oyga kamaytirildi;

Sudyalar o'rtasida ishlarni avtomatik ravishda taqsimlash tartibi, sudlarda o'z vaqtida elektron tarzda axborot almashinuvini

ta'minlovchi korporativ aloqa tizimi, shuningdek sudyalarning barcha qarorlarini chop etish tartibi joriy qilindi;

Tergov va sud jarayonida fuqarolarning prosetsual huquqlarini ishonchli himoya qilish maqsadida sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi.

Buni quyida raqamlar orqali ko'rib chiqamiz. Sud hokimiyati mustaqilligining amalda ta'minlanganligi natijasida 1991-2016 yillar mobaynida jami 138 ta oqlov hukmi chiqarilgan bo'lsa, 2017-2020 yillarda 2770 nafar fuqaroga oqlov hukmi chiqarilgan. Sudlarga prokurorlar tomonidan ehtiyot chorasini qo'llash yuzasidan kiritilgan iltimosnomalarni ko'rib chiqishda ham sudlarning mustaqilligi va ta'siri oshayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash bo'yicha 2019-yilda kiritilgan 8117 ta iltimosnomaning 2 tasi rad etilgan bo'lsa, 2020-yilda 185 ta iltimosnomaning 172 tasi rad etilgan. Yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash bo'yicha 2017-yilda kiritilgan 233 taning hammasi qanoatlantirilgan bo'lsa, 2020-yilda 387 ta iltimosnomaning 5 tasi sudlar tomonidan qanoatlantirilmagan.

2017-2020- yillarda 14191 nafar shaxslar sud zalidan ozod qilingan bo'lsa, 26608 nafar shaxsga nisbatan tergov organi tomonidan qo'yilgan ayblov chiqarib tashlangan yoki o'zgartirilgan. 4333 nafar shaxsga kafolat xatlari olinib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlanib, o'z oilalari bag'rida qoldirilgan. Shuningdek, inson huquqlarini qo'pol buzgan 60 nafar huquq-tartibot organi xodimlari jinoiy javobgarlikka tortilgan.

So'nggi 4 yil davomida iqtisodiy sudlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari foydasiga hal qilingan ishlar 144696 tani, ular foydasiga 5163,5 mlrd. so'm undirilgan. Ma'muriy sudlar tomonidan 2019-2020 yillar davomida ko'rilgan arizalarning 68 foizi qanoatlantirilgan. Shuningdek, hokimlarning 2 ming 852 ta qarori noqonuniy deb topilib, fuqaro va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan.

Qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini internet tarmog'i *public.sud.uz* – "qarorlar to'plami" rukni orqali e'lon qilib borilishi yo'lga qo'yildi. Unda jami shu kunga qadar 1,5 mln.dan ortiq sud qarorlari e'lon qilingan.

2. Advokaturaning roli va ahamiyatini kuchaytirish, tergov va sud jaravonlarida ayblov va himoya uchun teng sharoitlar yaratish.

o'zaro tortishuv tamoyilini amalga oshirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan:

Advokatlik faoliyatini litsenziyalash jarayoni soddalashtirildi, litsenziya faqat sud tomonidan to'xtatilishi yoki bekor qilinishi belgilandi. Advokatlar uchun soliq yuki ikki barobarga kamaytirildi. Ularning himoya ostidagi shaxslar bilan uchrashishi va sud-tergov idoralariga kirib chiqishi yengillashtirildi;

Advokatlar jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etish huquqiga ega ekani, bu dalillar tergov hamda sud organlari tomonidan majburiy tekshirilishi va baholanishi shartligi belgilab qo'yildi;

Sud protsessiga tayyorgarlik ko'rish uchun respublika bo'yicha mavjud sud binolarida advokatlar uchun alohida xonalar ajratildi;

Advokatlarning sud binosida kompyuter, mobil va boshqa aloqa vositalaridan hech qanday moneliksiz foydalanishiga yo'l qo'yildi;

Litsenziyalash talab qilinmaydigan tijorat tashkilotlari sifatida yuridik konsalting tashkilotlari faoliyatiga ruxsat berildi. Soliq yukini maqbullashtirish maqsadida advokatlik tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lov va advokatlardan olinadigan daromad solig'i stavkasi kamaytirildi. Advokatlarning davlat idoralari va tashkilotlarda huquqiy maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga ruxsat berildi;

2021-yil 1-yanvardan boshlab sud ishlarini nazorat tartibida ko'rib chiqish instituti tugatilib, Oliy sud raisi, Bosh prokuror va uning o'rinbosarlarining sud hujjatlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqi bekor qilindi.

3. Avbsizlik prezumsiyasi tamovili asosida mahkumlarning huquqlarini himoya qilish borasida quyidagi islohotlar amalga oshirildi:

2017-yil 1-apreldan boshlab jinoiy jazolar tarkibidan qamoq jazosi chiqarib tashlanib, ehtiyot zaruriy chorasi sifatda qo'llanilib kelinmoqda. Shuningdek, majburiy jamoat ishlari tarzidagi yangi jazo turi joriy etildi;

Jinoyat quroli yoki ma'muriy huquqbuzarlik predmeti sifatida mulkdan foydalanishda mulkdorning aybi bo'lmagan hollarda mulkni olib qo'yish va musodara qilish taqiqlandi;

Mahkumlarning huquqlariga rioya qilinishi ustidan parlament nazorati bo'yicha milliy preventiv mexanizm yaratildi. Ularni

jamiyatga moslashishini ta'minlash maqsadida rag'batlantirishning adolatli mezonlari ishlab chiqildi;

Voyaga yetmagan mahkumlarning ota-onasi bilan uchrashishiga qo'yilgan cheklovlar bekor qilindi. Probatsiya xizmati tashkil qilindi;

2017-2020 yillarda prezident farmonlari asosida jinoiy qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan 4869 nafar mahkum afv etildi;

Jazoni ijro etish koloniyalaridagi ilk bor qamoq jazosiga hukm qilingan 709 nafar pensiya yoshidagi mahbusga pensiya berila boshlandi;

Diniy ekstremistik oqimlarga aloqador shaxslarni nazoratga olish maqsadida yuritilgan "qora ro'yxat"larga barham berildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani Jasliq qo'rg'onidagi 19-ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasi tugatildi.

4. Inson huquqlarini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi omillar va cheklovlarga barham berish borasida quyidagi islohotlar amalga oshirildi:

Jamiyat hayotiga daxldor bo'lgan masalalar yuzasidan hokimlar, prokurorlar va ichki ishlar idora rahbarlarining aholi oldida hisobot berish amaliyoti joriy etildi;

Propiska tizimi isloh qilinib, Toshkent shahri va viloyatidan ko'chmas mulk sotib olmoqchi bo'lgan fuqaroning ushbu hududlarda doimiy propiskada turishi talabi bekor qilindi. Vaqtincha turish joyi bo'yicha ro'yxatga olish muddati 1 yildan 5 yilgacha uzaytirildi;

Pasport tizimi takomillashtirilib, xorijga chiqish uchun ruxsatnoma (stiker) rasmiylashtirish tartibi bekor qilindi. Jismoniy shaxslar uchun bojxona postlarida "yashil" va "qizil" yo'laklar yaratildi. Mavjud 60 ta YPX maskanidan 31 tasi va 104 ta blok-postdan 74 tasi qisqartirildi;

2021-yil 1-maydan boshlab mamlakatga 2005-yil 1-yanvarga qadar kelib, doimiy yashayotgan, shuningdek mamlakatda 15 yil davomida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'lmagan (chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan) shaxslar tomonidan istak bildirilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deb tan olish tartibi joriy qilindi. 2020-yilning o'zida 50 mingdan ortiq vatandoshlar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

5. Majburiy mehnatni oldini olish va unga barham berish borasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

Oliy Majlis Senati huzurida Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi tuzildi;

Majburiy mehnatga yo'l qo'yanlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik kuchaytirildi. Natijada 259 nafar mansabdor shaxslar javobgarlikka tortildi;

Qat'iy choralar ko'rilishi natijasida bolalar mehnatiga to'liq barham berildi. Talabalar, o'qituvchilar va hamshiralarni paxta yig'im-terimiga jalb qilish batamom to'xtatildi. Majburiy mehnatga jalb qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. O'zbekiston Xalqaro mehnat tashkilotining "Bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurashishga doir konvensiya"ga qo'shildi. 2020-yil 26-iyunda "Xalqaro mehnat tashkilotining 1930-yildagi Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-sonli konvensiyasiga Bayonnomani (Jeneva, 2014-yil 11-iyun) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Natijada O'zbekistonda har yili 6-7 mln. insonlarni mavsumiy majburiy mehnatga jalb etish amaliyotiga barham berildi.

6. Xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi.

Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of Law index) ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston 2019-yilda 128 davlat ichidan 94-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yilda 92-o'ringa yuqoriladi;

O'zbekiston Respublikasi tarixda ilk bor BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga 2021-2023 yillar uchun a'zo etib saylandi. Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya tashkil etildi;

Hozirgi vaqtda O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80dan ortiq xalqaro hujjatga, jumladan BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan.

Muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilini izohlab bering?

2. O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga qaysilar kiradi?

3. Sudya maqomi, uni tayinlash va saylash tartiblari nimalardan iborat?

4. Sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni bayon eting?

**5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA
LIBERALLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
HAMDA USTUVOR YO'NALISHLARI**

Reja:

- 1. Iqtisodiyotni liberallashtirish: davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash va uning o'ziga xos xususiyatlari**
- 2. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**
- 3. O'zbekistonda iqtisodiy sohasining takomillashuvidagi tub islohotlar**

Tayanch so'zlar: iqtisodiyotni liberallashtirish, erkinlashuvining mohiyati va uning dolzarb ahamiyat kasb etishi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash va uning o'ziga xos xususiyatlari, xususiy mulkning daxlsizligi, erkin bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosqichlari, iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi asosiy strategik yo'nalishlar, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish, samarali fiskal siyosatni yuritish, xususiy sektorni rivojlantirish, O'zbekistonda iqtisodiy sohasining takomillashuvidagi tub islohotlar.

1. Iqtisodiyotni liberallashtirish: davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash va uning o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy hayot kishilik jamiyati hayotining muhim sohalaridan biri bo'lib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tirikchilik ne'matlarini va vositalarini ishlab chiqaradilar. Shuningdek, ular taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishga qaratilgan faoliyatlarida o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy ta'sir etadi.

Sobiq totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida iqtisodiy hayot soxta siyosat, mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilgan edi. Mafkura iqtisodiyotdan ustun bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz-kooperativ mulk shakllaridan iborat umumxalq mulki deb atalmish, egasiz mulk tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortig'iga ega bo'lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o'rnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni, iqtisodiy hayotni bir markazdan ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib, nimani, ya'ni qanday mahsulot va xizmatlarni qancha miqdorda, qanday texnologiyadan foydalanib, kimlar uchun ishlab chiqarishni rejalashtirib, belgilab berar edi.

Jamiyat a'zolari ijtimoiy mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish mulkdorlik huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanish qonun bilan man etilgan edi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar.

Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganliklari tufayli, mehnat motivatsiyasi va ijtimoiy adolat tamoyillari buzilgan edi. Pirovard natijada sobiq ittifoq chuqur tanazzulga uchrab, tarqab ketdi.

Iqtisodiy erkinlashtirish deganda, avvalo, iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvini cheklash, iqtisodiyot tarkibidagi nodavlat sektorni kengaytirish orqali biznesga ko'proq erkinlik berilishi tushuniladi. Milliy iqtisodiyotni liberallashtirish darajasini yurtimizda bir necha davrlarga ajratish mumkin. Misol uchun, 2000-2004-yillar – erkinlashtirishning past ko'rsatkichlari iqtisodiy erkinlik indeksining milliy va 76 ta rivojlanish darajasi O'zbekiston bilan yaqin holatdagi davlatlar o'rtacha natijalari o'rtasidagi farq 20-22 bo'lgan bo'lsa, 2017-yildan hozirgi kungacha bozor islohotlari tezlashishining yangi sikli ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda yuz bergan keng ko'lamli o'zgarishlar iqtisodiy munosabatlarga mos yangi davlat boshqaruvi tizimini yaratishni taqozo etdi. Bu jarayon izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ko'pgina sohalar bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini zamonaviylashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi qonunlar ishlab chiqildi.

Ma'muriy islohotlarning muhim sharti – davlatning xo'jalik ishlarida bevosita ishtirok etishini izchil qisqartirib borishdan iborat.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishga qaratilgan ma'muriy islohotlar bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda va o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Davlat boshqaruvi organlarining vazifalari tubdan qayta ko'rib chiqildi, eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga xos, o'z umrini yashab bo'lgan ortiqcha bo'g'in va vazifalar, birinchi galda, taqsimlash funksiyalari keskin tarzda qisqartirildi. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'rtasidagi vakolatlar aniq chegaralab qo'yildi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ma'muriy apparat ishining samaradorligiga bog'liq. Ulkan byurokratik apparat rivojlanishga to'sqinlik qiladi hamda davlatning bozor islohotlari, ijtimoiy vazifalarni bajarishga doir sa'y-harakatlariga xalaqit beradi. Bunday holat ro'y bermasligi uchun davlat ma'muriy tizimni isloh qilishga hamda uni zamon talablariga moslashtirishga majbur. Yurtboshimiz qayd etganidek, ma'muriy tizimda islohotlarni amalga oshirish payti keldi va ularni zudlik bilan bajarish zarur. Busiz chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2003-yil 9-dekabrda "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2003-yil 22-dekabrda "Xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari bu boradagi muammolarni hal etishni nazarda tutgan edi. Shunga qaramay, iqtisodiyot organlarining amaldagi tuzilmasi, ularning ishini tashkil qilish prinsip va usullari iqtisodiyotni boshqarishning zamonaviy talablariga, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlaridagi tuzilmaviy o'zgartirishlarga javob bermay kelayotgan edi. Xususan, iqtisodiyotning o'zgarishi sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asoslangan maqsadli yo'nalishlarini (indikatorlarini) shakllantirish, shuningdek mavjud ichki va tashqi omillarni hamda islohotlarning strategik ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini aniqlash tizimi mavjud emasligi; iqtisodiyotning hududiy va tarmoq taraqqiyoti, shu jumladan urbanizatsiya salohiyatini amalga oshirish orqali mutanosiblikni

ta'minlash uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish tizimi kerakli darajada yo'lga qo'yilmaganligi; bozor tamoyillarini keng joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, bozorni raqobatbardosh tovarlar bilan to'ldirish va ularni tashqi bozorlarga yo'naltirish hajmlarini oshirish bo'yicha zarur tadbirlar ishlab chiqilmagan edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida 2019-yil 10-yanvar kuni "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish, iqtisodiy jarayonlarda davlat ishtirokini qisqartirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga doir muhim vazifalar belgilab berildi.

O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu o'zgarishlarning tub mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolining keskin qisqarishi, davlat tuzilmalarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga asossiz aralashuviga chek qo'yishdir. Davlat zimmasida uning faol ishtirokisiz amalga oshmaydigan vazifalargina qoladi. Bular, eng avvalo, umumdavlat miqyosidagi strategik masalalar, xususan, makroiqtisodiy barqarorlik, islohotlar dasturlarini hamda iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ijtimoiy sohada, kommunikatsiyalar tizimida ustuvor dasturlarni amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va hokazo.

Ikkinchidan, respublika darajasidagi vakolatlarning bir qismini mahalliy boshqaruv organlariga o'tkazilishi demakdir. Vazifalarning bu tarzda taqsimlanishi, bir tomondan, mahalliy organlarning belgilangan vazifalarni bajarishda mas'uliyatini oshiradi (avvalo, bandlik, ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush farovonligini yuksaltirishga taalluqlidir), ikkinchi tomondan, ularning samaradorligini kuchaytiradi, zero hududlarning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga oladi. Masalan, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa to'lash vazifasining davlat organlaridan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazilishi xalqaro miqyosda tan olingan. Chunki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kimning ijtimoiy yordamga muhtoj ekanligini yaxshiroq biladi.

Uchinchidan, boshqaruv tizimini optimallashtirish, boshqaruvga oid vazifalarning takrorlanishiga barham berish, korxonalar faoliyatini asossiz nazorat qilinishiga chek qo'yish, bozor mexanizmlari hamda shaxsiy tashabbuskorlik va xususiy tadbirkorlik rivojiga xalal beruvchi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, taqsimlash tizimini tugatish jarayonini yakunlashdir.

To'rtinchidan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlari sonini optimal darajagacha qisqartirilishi demakdir.

Beshinchidan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish hamda uning samaradorligini oshirish, zamonaviy ma'muriy-huquqiy baza yaratish, o'quv tizimini qayta ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda kadrlarni tanlash va yollash uslublarini qo'llash, ularni attestatsiyadan o'tkazish va zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ijrosini baholash mezonlarini takomillashtirish orqali davlat xizmatini isloh qilishdir.

O'tkazilayotgan islohotlar doirasida bugungi kunda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari vazifalari va tarkibini qayta ko'rib chiqish ishlari jadallashdi. Bunda boshqaruv tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirish, qabul qilinayotgan qarorlar sifatini yaxshilash hamda boshqaruv apparatiga sarflanayotgan asossiz xarajatlarni qisqartirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, markazda tashkil etilgan har qanday boshqaruv organi odatda viloyatlar va tumanlarda o'z bo'linmasiga ega bo'ladi, bu esa boshqaruv apparatining va texnik xodimlarning ko'payib ketishiga olib keladi. Bu hol qo'shimcha nazorat organlari paydo bo'lishiga, xarajatlar ko'lemi ortishiga, byurokratizmning avj olishiga olib keladi. Natijada, davlat boshqaruvining samaradorligi keskin pasayib ketadi.

Islohotlarning asosini tashkil etuvchi iqtisodiyotni boshqarishning yangi konsepsiyasini vertikal ma'muriy tuzilmalarni aniq vazifalarni bajaruvchi mustaqil tashkilotlarning gorizontaal tarmog'i bilan muvofiqlashtirilishini taqozo etadi. Bunday vaziyatda shartnoma asosida boshqarish, ichki va tashqi audit kabi mexanizmlar yaratiladi. Davlat siyosatini shakllantirish masalalari vazirliklar va davlat qo'mitalarida jamlanadi.

Ularning ijrosini ta'minlash va nazorat qilish agentlik, qo'mita, inspeksiya kabi davlat boshqaruv organlari zimmasiga yuklanadi.

Davlat sektorida xorijda tajribadan o'tkazilgan, xususi kompaniyalarda qo'llaniladigan menejment usullari tobora kengroq joriy etilmoqda. Bunda asosiy e'tibor davlat tuzilmalarining tahliliy, va baholash vazifalarini rivojlantirishga, eng muhimi – qarorlar qabul qilish, avvalo, markaziy boshqaruv organlarida qabul qilinayotgan qarorlarning sifati va ularning tayyorlanishini yaxshilashga qaratiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash va ularga keng huquqiy kafolatlar berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, xo'jalik subyektlarini tekshirishni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar sonini muntazam qisqartirish bo'yicha doimiy ish olib borilmoqda. Jumladan, hukumatning qator maxsus qarorlari bugungi kunda iqtisodiy faoliyat subyektlari xo'jalik ishlariga davlat organlari aralashuvini sezilarli darajada chekladi, natijada xo'jalik subyektlarini davlat nazorat organlari tomonidan tekshirishlar bir necha barobar kamaydi.

Hukumat qarorlariga muvofiq, mashinasozlik, agro-sanoat majmui, umumiy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, qurilish, transport va savdo sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini bajarayotgan 50 dan ortiq respublika darajasidagi vazirliklar va idoralar butunlay qayta tashkil etildi. Dastlab ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyotining asosini tashkil etgan idoralar (Davlat plan qo'mitasi (Gosplan), Davlat ta'minoti (Gossnab), Davlat narx qo'mitasi va b.) tugatildi. Vazirliklardan faqat Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tarmoq yo'nalishini saqlab qoldi. Ayni paytda xo'jalik birlashmalari, konsernlar, kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar tashkil etildi.

Ma'muriy islohotlar jarayonida 20 ga yaqin davlat boshqaruvi organi qayta tashkil etildi va 40 mingdan ortiq shtat birligi tugatildi yoki davlat boshqaruv tizimi xodimlari soni 22 foizga qisqartirildi. Boshqaruv apparati soni va uning ta'minoti xarajatlarining qisqarishi ma'muriy islohotning amaliy natijasi bo'ldi. Bu xarajatlar salmog'ini qisqartirish, demakki, korxonalar va aholining zimmasiga tushadigan soliq yukini kamaytirishga imkoniyat yaratadi.

Ayni paytda, boshqaruvchi kadrlarning soni har ming kishiga 6,1 kishini tashkil etadi yoki ijtimoiy foydali mehnat bilan band aholining 1,6 foizidan oshmaydi. Bu MDHning boshqa

mamlakatlaridagidan ancha kam. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarni keltirish mumkin: Qozog'istonda - 19,2 va 3,4, Ukrainada - 20 va 4,5, Rossiyada -22,1 va 3,9.

Rossiyada davlat apparatini qisqartirish bo'yicha sa'y-harakatlarga qaramay, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari xodimlarining soni so'nggi uch yilda 1141 mingdan 1259 mingga ko'paydi. Ayni paytda, 20 foizga yaqin amaldorlar zarur kasbiy ma'lumotga ega emas. Bunda birinchi navbatda, sun'iy ravishda kengayib ketgan byurokratik apparatni qisqartirishga qaratilgan ma'muriy islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikaning ba'zi mamlakatlarida ish bilan band aholining umumiy sonida boshqaruv tizimi xodimlarining salmog'i 2 foizdan 15 foizgacha yetadi: AQShda - 15, Shvetsiyada - 18, Buyuk Britaniyada - 14, Germaniyada - 6,7, Polshada - 5,8, Turkiyada - 6,3, Yaponiyada - 3,2, Janubiy Koreyada - 2,3 foiz. Janubiy Koreyada 1993-yilda boshlangan va "inqilobiy" deb atalgan ma'muriy islohot 10 ming amaldorni boshqa agentliklarga o'tkazish imkonini berdi.

Ma'muriy islohotni chuqurlashtirish statistik hisobotni yig'ish vazifalari va davlat boshqaruvining tegishli apparati sonini qisqartirish hamda statistik hisobotning muayyan turlari bo'yicha davriylikni qisqartirish, ayni paytda saqlab qolinayotgan hisobot tizimini soddalashtirish va birxillashtirishni ko'zda tutadi.

Eng zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish ma'lumotlar almashish va qaror qabul qilishni tezlashtirish imkonini beradi, davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik subyektlari va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada yaxshilaydi.

Amalda ma'muriy islohotni samaradorligini oshirish fuqarolar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chunki u avvalo iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirish uchun sharoit yaratishga, aholining turmush darajasini yuksaltirishga yo'naltirilgan. Davlat va xo'jalik boshqaruvi tizimi funksiyasini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning sifati va izchilligi boshqaruv tizimining samaradorlik darajasiga, uni jamiyatni isloh qilishning bugungi talablarga moslashtirilishiga bog'liq.

Ma'lumki, shaxsning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlashi, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi demokratik ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta'minlashga qodirdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining ting huquqligini va huquqiy jihatdan babbaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi" deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo'ladi: birinchisi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki, ikkinchisi, ularning shirkat xo'jaliklaridagi paylari, aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ xususiy mulk. Yakka va korporativ (ulushli) xususiy mulk egalari mulkdor hisoblanib, ularning mulkka bo'lgan huquqlari, daxlsizligi davlat tomonidan himoyalandi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksida" "mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishi huquqidan iboratdir. Mulq huquqi muddatsizdir". O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida esa mulkdor huquqining daxlsizligi bilan birga, uning mas'uliyati ham belgilab berilgan. Xususan, unda "mulkdor mulkiga o'z xohishiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart", deb ta'kidlangan. Xususiy mulk miqyoslarining kengayib borishiga olib keladi.

Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida ma'lum sohada xo'jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu

shuningdek, u yoki bu tarmoqqa tadbirkorlarning o'z xohishlariga ko'ra kirishini va undan chiqishini ham anglatadi.

Tanlash erkinligi iste'molchilar huquqlari va manfaatlarining ustunligini, ularning o'z xohishi, istaklari, didi, daromadiga mos tovar va xizmatlarni tanlash erkinligiga ega ekanliklarini ifodalaydi. Buning uchun birinchidan, tovar xizmatlar hamda resurs bozorlari ham qimmat, ham arzon, bir-birlarining o'rnini bosuvchi va to'ldiruvchi tovarlar bilan to'lgan bo'lishi, ikkinchidan, davlat iste'molchilarni ularning hayoti va salomatligiga ziyon va zarar etkazuvchi tovarlardan himoya qiladi. Shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni amalga oshirilmoqda. Unga binoan iste'molchilar tovar (ish, xizmat) va ularni ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi)lar haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish, tovarlarni erkin tanlash huquqiga egadirlar. Tovar, ish, xizmat iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsonga ega bo'lgani hamda ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining g'ayriqonuniy harakati tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi ta'minlanadi.

Tovarning nuqsonlari bo'yicha iste'molchining talablari u kassa yoki tovar chekini kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa tegishli rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko'riladi. Bunday tovarlar boshqa nuqsonsiz tovarlarga almashtirilib beriladi yoki zararining o'rnini pul bilan qoplanadi. Iste'molchi huquqlarining himoya qilinishi, uning tanlash erkinligini ta'minlanishi demokratik iqtisodiy tamoyilining ro'yobga chiqarilishini anglatadi.

Kishilar naf, foyda va daromad olish uchun intilib, o'zlarida bor bo'lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot subyektlari shaxsiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Hech kimning iqtisodiy yakkahokimlik qilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning iste'molchi, xaridorlar manfaati, didi, xohishini inobatga olishga bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovarlar ishlab chiqarish maqsadida yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narx tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida hukumat va davlatning roli cheklangan bo'ladi. Davlat

bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot subyektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, ularning faoliyat, "o'yin" qoidalarini belgilaydi. Aholining turmush darajasining barqaror o'sib borishini, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, boy-kambag'allar o'rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida aholi daromadlarini soliqlar, transfert to'lovlari vositasida qayta taqsimlaydi, makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliq, budjet va pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartiblaydi. Davlat bozor mexanizmi to'la-to'kis bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga olib, raqobat muhitini saqlaydi, iqtisodiyot subyektlarining erkin faoliyatini ta'minlaydi. Hamda jamiyat uchun kerak bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi.

Demak, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishga, kishining erkin tadbirkorlik va mehnat qilish, tanlash erkinligini hamda mulkdor bo'lishdek muhim demokratik huquqlarini ta'minlashga, iqtisodiy hayotni demokratlashtirishga qaratilganidir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, unda demokratiya tamoyillari bo'lgan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va tanlash erkinligini, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy hayotni erkinlashtirishga yo'naltirilganidir.

Erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo'lib, demokratiyaning umumbashariy tamoyili hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining xilma-xil bo'lishida o'z ifodasini topadi. Shu boisdan ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lib, unda turli mulk shakllari va xo'jalik ukladlarining teng huquqligi, muvozanatda bo'lishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi ta'minlanadi.

Demokratik iqtisodiy tamoyillar erkin bozor iqtisodiyotining quyidagi tub belgilarida o'z ifodasini topadi:

- 1) xususiy mulkning mavjud bo'lishi va uning daxlsizligini kafolatlanganligi;
- 2) tadbirkorlik va tanlov erkinligi;

3) shaxsiy manfaatning inson xatti-harakatining bosh motivi ekanligi;

4) halol raqobatni mavjud bo'lishi;

5) erkin narx tizimi amal qilishi;

6) hukumat, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi.

Iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish va uni demokratlashtirish, erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida (1991-1994 yy.) ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yangisi, tanglikka barham berish va iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga kirishildi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirildi:

1) islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini shakllantirish va rivojlantirish. Bu davrda mulkchilik, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlik to'g'risidagi va boshqa ko'plab bozor munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan qonunlar qabul qilingan;

2) kichik xususiylashtirishni amalga oshirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish;

3) ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Bu davrda asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini, uy-joylarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Buning natijasida 69 mingdan ortiq obyektlar davlat tasarrufidan chiqarildi, ulardan 18,4 mingtasi xususiy mulkka o'tdi. 3569 ta aksiyadorlik jamiyatlari tuzildi. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining soni 80 mingga yetdi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazkur birinchi bosqichida qishloq xo'jaligida bozor munosabatlariga mos keladigan yangi xo'jalik tizimini shakllantirish ishlari amalga oshirila boshlandi. Buning oqibatida bu sohada davlatga qarashli bo'lmagan sektor keng rivojlandi. Shuningdek, xalq xo'jaligini, uning tarmoqlari va hududlarini boshqarishning mavjud sharoitlarga mos bo'lgan

tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to'liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy bo'g'inlari, shu jumladan, ikki pog'onali bank tizimi, moliyani va pul-kreditni tartibga soluvchi mutlaqo yangi tizim, tovar, mehnat birjalari tizimlari yaratildi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshlandi. Iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi oqibatida iqtisodiy pasayish boshqa MDH mamlakatlaridek og'ir kechmadi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi (1995-1999 yillar)da davlat mulkini dastlabki, kichik xususiyashtirishni tugallash, mulkni haqiqiy egalari qo'liga topshirish, tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar berish vazifalari belgilandi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari yaratildi, ularning aksiyalarini erkin sotishga chiqarildi hamda keng ko'lamdagi ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozori vujudga keldi. Davlatning aksiyalardagi ulushi 26 foizdan oshmaydigan qilib qo'yildi. Aksiyalarning 50 foizdan ko'prog'i aholiga, milliy va xorijiy investorlarga erkin sotiladigan bo'ldi. Ushbu bosqichda ishlab chiqarishning pasayishiga barham berildi. Makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, 1996-yildan boshlab iqtisodiy o'sish yo'liga o'tildi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish ishlarini amalga oshirilishi natijasida respublika yonilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishildi. Shuningdek, respublika uchun tamomila yangi bo'lgan avtomobilsozlik sanoati vujudga keltirildi. Yengil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta'minlovchi boshqa istiqbolli tarmoqlar xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi.

Demokratik jamiyat qurish uchun davlatning iqtisodiy faoliyatini cheklash, uning vazifalarini bosqichma-bosqich mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlariga uzatish, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish qulay sharoitlar yaratadi. Pirovardida, bozor iqtisodiyotining shakllanishiga, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga va aholining turmush farovonligini oshirishga erishiladi. Mamlakatimiz eksport salohiyatining rivojlanishi va mustahkamlanishi – uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga zamin yaratadi.

2. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb 6 marta o'sdi. Unda sanoatning ulushi 14 foizdan 34 foizga ko'tarildi. Oxirgi 11 yil davomida yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 8 foizdan kam bo'lmagan darajada saqlanmoqda³³. Bugun O'zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan dunyodagi beshta davlat qatoriga kiradi.

Mamlakatimizda xususiy mulkchilik va tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay shart-sharoitlar yaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 56,5 foizga yetdi. Bu sohada ish bilan band aholining 78 foizi mehnat qilmoqda va ular mamlakatimizning gullab-yashnashi uchun munosib hissa qo'shmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan *"Islohot - islohot uchun emas, avvalo inson uchun"* degan ezgu g'oyani amalga oshirish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar aholining hayot darajasi va sifatini sezilarli darajada yaxshilashni ta'minladi.

1991-yilga taqqoslaganda, aholining real daromadlari 12 barobardan ziyod ko'paydi, ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalar salmoqli darajada oshdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan oshirish va aholining ularga bo'lgan talabini qondirish ta'minlanmoqda. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi atigi 2,2 foizni tashkil etadi (AQShda 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foiz)³⁴. Prezident Sh.Mirziyoyev O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot ulushini 30 foizga yetkazish kerakligini aytib o'tdi. Buning uchun xususiy sektor jalb qilinadi va ushbu tarmoq raqamli iqtisodiyotda yetakchi o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, qolaversa, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini yanada oshirish zarurati mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, institutsional va tarkibiy yangilanishlarni davom ettirishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan

³³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot йўлимизни қўлланма билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. - 1-том.Б. - 5.

³⁴ https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-innovacion-iqtisodiyot-tongi_273237

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi bu borada muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatning keyingi besh yillik istiqboli aks etgan mazkur strategiyada belgilangan vazifalar bugun amaliyotda o'z isbotini topmoqda. Ayniqsa uning iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish deb nomlangan uchinchi yo'nalishida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish kabi ustuvor vazifalarga e'tibor qaratilgan.

Prezident Sh.Mirziyoyev "*Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz*" nomli asarida³⁵ kelgusida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida asosiy diqqat-e'tiborni quyidagi strategik yo'nalishlarga qaratish zarurligini ta'kidlab o'tdi:

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va keyingi yillarda erishilgan iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish. Shuningdek, milliy valyutamiz, ichki bozordagi narx-navo barqarorligini ta'minlash. Bunda moliyaviy sohada esa – tarmoq va hududlarni mutanosib rivojlantirish hisobidan mahalliy budjetning daromad bazasini kengaytirish lozim bo'ladi. Eng asosiysi, tuman va shaharlarda mahalliy budjetlar imkoniyatlarining kengayishi – aholining turmush darajasi va sharoitlari yaxshilanishiga, umuman, barqarorlikka va osoyishtalikka xizmat qilishi lozim. Bunda ayniqsa, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan tuman va shaharlarni kompleks va jadal rivojlantirish;

Ikkinchidan, iqtisodiyotimizning jahon bozorida raqobatdoshligini yanada oshirish, uning soha va tarmoqlarini modernizatsiya va faol diversifikatsiya qilishdir. 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyod ko'paytirish, iqtisodiyotimiz tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish bo'yicha o'ta muhim vazifalar belgilab berildi;

Uchinchidan, aholimizning soni va yoshi bo'yicha tarkibini hisobga olib, bandlik muammosiga doir tizimli ishlarni davom

³⁵ Мирзиёев Ш.М. *Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз*. 1- жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – 1-том. Б. –60-73.

ettirishimiz zarur. Aholining real daromadlarini, turmush darajasi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish;

To'rtinchi masala, qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifa – avvalo yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishdir. Bu borada zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish, mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini takomillashtirish hamda chuqur qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilishi belgilab olindi. Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Beshinchidan, oldimizda turgan yana bir vazifa – xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirishga xalaqit berayotgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etishdan iborat. Bunda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining eksportdagi ishtirokini yanada rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish - hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Ya'ni, *xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi*.

Oltinchidan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o'sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda bunga erishish – avvalambor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanishini yaxshi tushunamiz. Bu – bizning ham yaqin, ham uzoq muddatli istiqboldagi vazifamizdir. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va aholining ularga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish,

jumladan, maqbul narxlar bo'yicha keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash oldimizda turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Inson manfaatlarini ta'minlashda iqtisodiyotimizning yuksak sur'atlar bilan barqaror rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada prezident Sh.Mirziyoyev o'zining ma'ruzalarida yana bir nechta muhim ustuvor vazifalarni belgilab berdi:

nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi;

aholini ish bilan ta'minlash biz uchun nafaqat iqtisodiy, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Aholini ish bilan ta'minlash biz uchun nafaqat iqtisodiy, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir;

mamlakatimizda investitsiya siyosatini kuchaytirish masalasiga biz alohida ustuvor ahamiyat qaratamiz. Xorijiy sarmoyalarni va ilg'or texnologiyalarni iqtisodiyotga jalb etish uchun chet ellardagi diplomatik vakolatxonalarimiz jiddiy ish olib borishi lozim;

bundan buyon ham qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, ilg'or texnologiyalarni joriy etishga asosiy e'tiborni qaratamiz;

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir. Chunki **tadbirkor boy bo'lsa, davlat ham, xalq ham boy bo'ladi**. Shu munosabat bilan yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: tadbirkorlik yo'lga qarshi chiqish – davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga qarshi chiqishdir.

ayrim hududlar hanuzgacha subvensiya oladi, lekin prokurorlar va departament xodimlari tegishli mas'ul shaxslar bilan birgalikda hudud iqtisodiyotini ko'tarish, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'liq va o'z vaqtida undirish masalasiga yetarlicha ahamiyat bermayapti. Vaholanki, prokuratura va departament

organlari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan doimiy qiziqishlari, bu borada tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishda faol qatnashishlari kerak³⁶.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 2-sentabrda qabul qilingan *"Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"*gi Farmon dolzarb vazifalarni hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Ushbu hujjat biznes uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi va xo'jalik yuritish sharoitlarini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi bilan g'oyat ahamiyatlidir. Ta'kidlash joizki, erkin konvertatsiyaning mavjud emasligi mamlakatda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan hisoblanardi. Qolaversa, bozor talablariga mos kelmaydigan valyuta siyosati eksportchilar faoliyatiga to'sqinlik qilib, davlatning eksportga yo'naltirilgan korxonalarini qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini ham birmuncha pasaytirar edi. Buning natijasida mamlakatda biznes yuritish borasida teng bo'lmagan shart-sharoitlar vujudga keldi, raqobat tamoyillarining buzilishi kabi holatlar kuzatildi. Bu xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tovar va xizmatlar eksporti, umuman mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Mazkur yo'nalishda ko'zga tashlangan shu va boshqa kamchiliklar ilg'or xorij tajribasini o'rgangan holda mamlakatimizda valyuta siyosatini qayta ko'rib chiqish va shu asosda sohani liberallashtirishni taqozo etdi.

Farmonda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar mamlakat eksport salohiyatini oshirishga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga, ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozorda raqobatdoshligini oshirishga, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga imkon beradi. Eng muhimi, Farmonda belgilangan normalar ijrosi valyuta bozorida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratadi. Shuningdek ushbu Farmon nafaqat valyuta siyosatini shakllantirishning yangi tamoyillarini joriy qilish, balki aholi ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ham nazarda tutadi. Pirovardida, valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha o'zaro bog'liq chora-tadbirlar

³⁶Мирзиёев Ш.М. Халқимиз биздан қонун ва адолат устуворлигини амалда таъминлашни кутмоқда // Прокуратура ходимлари ва фахрийлари билан учрашувдаги маъруза. 2017 йил 7 январь

mamlakatimizda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, real mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqlarning rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi, bu esa aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

2019-yil 8-yanvarda qabul qilingan *"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"*gi Prezident farmonida quyidagi muhim vazifalar belgilandi:

makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish, samarali fiskal siyosatni yuritish, soliqa tortish tizimi va soliq ma'muriyatchiligi tubdan isloh qilish;

asosiy resurslarni taqsimlashda bozor tamoyillarini keng joriy qilish asosida respublikaning raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayonlarini tezlashtirish;

fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va ularga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini mustahkamlash, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarini himoya qilish hajmlari va turlarini ko'paytirish;

davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini yanada oshirish, xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash;

tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish.

Mazkur farmon bilan Iqtisodiy kengash tuzilib, uning huzurida "Islohotlar yo'l xaritasi"dagi aniq chora-tadbirlarning eng muhim yo'nalishlarini ekspertizadan o'tkazuvchi, xorijiy mutaxassislardan iborat Xalqaro ekspertlar guruhi tashkil etildi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni va xatarlarni tahlil qilish va aniqlash, tahlil natijalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida kelgusida amalga oshiriladigan yangilanishlar yuzasidan takliflar tayyorlash; "Islohotlar yo'l xaritasi"ning aniq yo'nalishlari bo'yicha strategiyalar, konsepsiyalar, dasturlar, "yo'l xaritalari" va boshqa hujjatlarning belgilangan muddatlarda ishlab chiqilishini ta'minlash hamda kompleks masalalarni puxta o'rgangan holda hal etib borish ushbu Iqtisodiy kengashning vazifalari etib belgilandi.

2020-yil 29-avgustda qabul qilingan "2020-2021 yillarda iqtisodiy o'sishni tiklash va iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarorida ham iqtisodiy siyosatni amalga oshirish va bozor institutlarini isloh qilishni davom ettirish borasida bir nechta chora-tadbirlar ishlab chiqildi:

birinchi navbatda, inqirozdan keyingi rivojlanish davrida banklarni transformatsiya qilish va bank xizmatlaridan foydalanish samaradorligini hamda ularning sifatini oshirishni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan bank tizimini yanada isloh qilish;

aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini birinchi marta amalga oshirayotgan shaxslarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni kengaytirish orqali ichki talabni rag'batlantirish va kambag'allikni qisqartirish;

sanoat va raqobat siyosatini, jumladan, mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlariga ichki talabni rag'batlantirish, tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, shuningdek, sanoatning strategik tarmoqlari korxonalarida islohotlarni davom ettirish asosida takomillashtirish;

investitsiya jarayonlarini, birinchi navbatda, mahalliy investorlarning infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va qo'shilgan qiymatning ishlab chiqarish "zanjirlari"ni yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishdagi ishtirokini rag'batlantirish uchun ichki manbalarni kengaytirish yo'li bilan faollashtirish;

eksport qiluvchi korxonalarni qo'shimcha moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali, shu jumladan savdoni moliyalashtirishning zamonaviy vositalaridan foydalanishni kengaytirish, mahalliy mahsulotlarni yangi eksport bozorlariga yetkazib berishni kengaytirishda savdo-vositachilik tashkilotlarini rag'batlantirish hisobiga tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash;

davlat xaridlari tizimida xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish, hududlardagi kichik sanoat zonalarini ularga ishlab chiqarish va transport infratuzilmasi obyektlarini o'tkazish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni ajratgan holda

rivojlantirish asosida ishbilarmonlik va raqobat muhitining qulayligini oshirish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

hududlarda aholiga kompleks xizmatlar ko'rsatadigan savdo tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirish, mahalliy mobil aloqa operatorlarining davlat aktivlarini bosqichma-bosqich sotish va qishloq joylarda telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, 2021-yilda barcha ijtimoiy muassasalar, qishloq aholi punktlari va mahallalarni yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'iga ulashni yakunlash hisobiga xizmatlar sohasi korxonalarini qo'llab-quvvatlash va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish.

Mazkur qaror bilan 2020-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishni tiklash va tizimli tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish bo'yicha amaliy harakatlar rejasi va Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni tiklash va davom ettirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Ushbu hukumat tomonidan taqdim etilgan islohotlarning yo'l xaritasi beshta asosiy yo'nalishdan iborat:

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tishni jadallashtirish;
- ijtimoiy himoya va davlat xizmatlarini ko'rsatishni kuchaytirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning rolini kuchaytirish;
- ekologik samaradorlikni oshirish.

Har bir sohada ustuvor islohotlar boshqa mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribasiga asoslanadi, hamda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

2021-yil 29-oktabrda Toshkentdagi Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tgan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdida prezidentlikka nomzod Sh.Mirziyoyev o'z saylovoldi dasturi – Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'ruza qildi. Ma'ruzada so'nggi besh yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 24 foizga, sanoat – 34 foiz, eksport hajmi 1,5 barobarga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 3 barobarga o'sgan, o'rtacha oylik ish haqi 2,2 marta ko'payganligi qayd etib o'tildi. Shu bilan birgalikda iqtisodiy sohadagi islohotlarni amalga oshirishda

quyidagi muhim vazifalarga ustuvor ahamiyat qaratilishi kerakligi ta'kidlandi:

mamlakatda iqtisodiyotni erkinlashtirish, tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini tubdan takomillashtirish;

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash;

qishloq xo'jaligida chuqur va puxta o'ylangan islohotlarni amalga oshirish;

hududlarni rivojlantirish, sanoat va xizmatlar ko'lamini kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

3. O'zbekistonda iqtisodiy sohasining takomillashuvidagi tub islohotlar

2017-yildan buyon bozor islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida qat'iyatli qadamlar qo'yildi. Natijada narxlarni tartibga solish ko'lamini qisqartirish, tijorat banklariga kredit siyosatini yuritishda ko'proq huquq berish, xususiy sektor samarali faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat ixtiyoriga yoki boshqaruviga o'tkazilishining oldini olish borasida choralar ko'rildi. Bu borada qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ularga o'zgartirishlar kiritildi. Misol uchun, Soliq kodeksi, bojxona tartibi, yer ajratish siyosati va moliya tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritdi. Tadbirkorlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri eksport qilishga ruxsat berildi. Shuningdek, tashqi savdoni erkinlashtirish sohasida katta sa'y-harakatlar amalga oshirildi va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilindi. Aksariyat eksport qilinadigan tovar va xizmatlar uchun bojxona to'lovlari bekor qilindi, litsenziyalash va eksport qilish tizimi soddalashtirildi. 60 foizdan ortiq tovarlarga bojxona to'lovlarining nol stavkasi o'rnatildi.

2019-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining *"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"*gi qonuni qabul qilindi. Bu bilan xorijiy investorlarning huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilishning davlat kafolati to'g'risidagi qoidalarni o'z kuchida qoldirdi. Masalan, chet el investitsiyalari uchun huquqiy rejimning kamsitmaydigan normasi to'g'risida band qo'shildi, chet el

investorlari uchun sharoitlar O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslariga yaratilgan sharoitlardan noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

Investitsion muhitni yaxshilash, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishga intellektual mulk sohasidagi huquqlarni mustahkamlovchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Ular zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xizmatlari ko'rsatish samaradorligini oshirish va idoralararo hamkorlikni kuchaytirish, tezkor ekspertiza o'tkazish imkoniyati, intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtini qisqartirish, biznesni ro'yxatdan o'tkazishda xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan.

So'nggi yillarda investitsion faollik darajasi sezilarli darajada oshdi. Agar 2011-2016 yillarda asosiy kapitalga yalpi investitsiya qiymati YalMning 21-24 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yildan boshlab tez sur'atlarda o'sishni boshladi va 2017-2020 yillar oralig'ida yillik o'rtacha 35,5 foizni tashkil etdi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi firmalar soni O'zbekistonda 2015-yilda 5 mingga yaqin bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 7500 dan oshdi. Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya va Kanadadan tobora ko'proq xorijiy investitsiyalar jalb qilinmoqda. Energetika va tog'-kon sanoati bilan bir qatorda savdo, qurilish va turizm kabi sohalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi qayd etildi.

Tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'plab imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi. 2020-yilda tadbirkorlik subyektlariga 100 trillion so'm miqdorida kredit ajratildi. Bu 2016-yilga nisbatan deyarli 4 baravar ko'pdir³⁷.

Bu o'z-o'zidan hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarning raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlashni, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional

³⁷https://uza.uz/uz/posts/iqtisodiy-erkinlashtirish-nima_267736

tizimni joriy etishni talab etadi. 2020-yil 6-martda samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini joriy etishga qaratilgan *"Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Unda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi etib qayta tashkil etildi hamda uning asosiy vazifalari belgilab berildi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 28-aprel kuni *"Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, quyidagilar muhim vazifalar etib belgilandi:

2022-yilga qadar elektron davlat xizmatlari ulushini 60 foizgacha yetkazishni nazarda tutgan holda davlat axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda integratsiya qilish, davlat

O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK IAMIYATI

ma'lumotlar bazalaridagi axborotlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibotlarini optimallashtirish va tartibga solish orqali elektron hukumat tizimini rivojlantirish;

dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik maydonchalar yaratish orqali "raqamli tadbirkorlik"ni rivojlantirish, 2023-yilga kelib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravarga oshirish;

2022-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o'qitish markazlarini ochish.

Shuningdek, Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yilning 5-oktabr kuni "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonining qabul qilinishi muhim voqealik bo'ldi. Mazkur farmon bilan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, 2020 - 2022 yillarda hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari qabul qilindi. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish;

korxonada ta'minotning barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;

zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;

innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;

boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;

2025-yilda korxonalar resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushini 90 foizga yetkazish;

sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, "Buyumlar interneti", "sun'iy intellekt" kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilga kelib, apparat qismini esa 2030-yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliyashtirish;

kommunal xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun "aqli uy" tajribasini joriy etish;

2022-yilda respublikaning barcha yirik shaharlarida jamoat transportlarida yo'l haqi to'lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va naqd pulsiz to'lovlar ulushini 90 foizga yetkazish;

sug'urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug'urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

iqtsodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va amalga oshirish; yirik sanoat korxonalarida uchun robototexnika va muhandislik ixtisosliklarini tashkil etish;

ishlab chiqarish korxonalarida additiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish) texnologiyasi, 3D o'lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish.

Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish ustuvor yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar to'g'risidagi aniq misollarni keltirib o'tsak. Jumladan:

Fiskal siyosatni amalga oshirish bo'yicha:

Yalpi ichki mahsulot hajmi 2,3 barobarga o'sdi. Jahon banki 2021-2022 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi mos ravishda 4,8foiz va 5,5foiz ni, 2021-yilda YeTTB-5,6foiz ni va 2022-yilda 6foiz ni tashkil etishini bashorat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar allaqachon sezilarli ijobiy samara bermoqda, bu esa jahon iqtisodiyotining pandemiyadan keyingi tiklanish o'sishi sharoitidagina ortadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bashoratlari ko'ra, mamlakatning 2030-yilgacha bo'lgan davridagi YalMning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 6-7foiz darajada ta'minlanadi. Yalpi ichki mahsulot hajmi kelgusi 5 yil ichida 100 mlrd.AQSh dollariga yetkazish rejalashtirilgan.

Budjet daromadlari 2,7 barobarga oshdi. 2017-2020 yillarda davlat budjetiga tushumlar miqdori 2,7 barobarga oshdi. Jumladan, to'g'ridan-to'g'ri soliqlardan tushumlar 3,9 martaga, bilvosita soliqlardan tushumlar 1,8 martaga, yer va suv resurslaridan foydalanish va mol-mulk soliqlaridan tushumlar 3,1 martaga o'sdi. Davlat budjetiga tushumlar miqdorining o'sishiga asosiy sabab soliq to'lovchilar sonini sezilarli darajada oshganligidir. Natijada davlat budjetiga tushumlar miqdori 2020-yilda 158,9 trln. so'mdan oshdi.

Soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirishga qaratilgan asosiy islohotlardan biri yangi tahrirdagi Soliq Kodeksining qabul qilinganligi bo'ldi. 2018-yildan boshlab soliq imtiyozlari va preferensiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish boshlandi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida belgilangan tartib va tamoyillarga ko'ra, 2020-yilning birinchi kunidan boshlab, soliq imtiyozlarining aksariyati bekor qilindi. Ammo COVID-19, hukumatni pandemiya sharoitida aholi va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun misli ko'rilmagan rag'batlantirish paketining bir qismi sifatida soliq imtiyozlarini izlashga majbur qildi.

Soliq tekshiruvlari turlari 4 barobarga qisqardi.Foyda solig'i stavkasi 14 foizdan 12 foizga pasaytirildi.Soliq turlarini esa 13 tadan 9 taga qisqartirildi.

Bank-moliya sohasi bo'yicha:

1995-2018 yillarda Markaziy bankning asosiy vazifasi milliy valyutaning ayirboshlash kursini barqaror darajada ushlab turish bo'lgan bo'lsa, 2019-yildan Markaziy bankning asosiy vazifasi narx-navo, bank tizimi va to'lov tizimlari barqarorligini ta'minlash etib belgilandi.

2020-yilda yangi pul-kredit siyosati mexanizmlarini joriy etilishi natijasida yillik inflyatsiya darajasi 2019-yilgi 15,2 foizdan 2020-yilda 11,1 foizga tushdi. 2020-yilda yangi pul-kredit siyosati mexanizmlarini joriy etilishi natijasida yillik inflyatsiya darajasi 2019-yilgi 15,2 foizdan 2020-yilda 11,1 foizga tushirildi. 2020-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan past bo'lmagan darajada o'rnatila boshlandi va 2021-yil 1-yanvardan tijorat banklariga foiz stavkalarini aniqlashda mustaqil huquqi berildi. Bu sohadagi islohotlarning ijobiy ta'sirini Jahon banki tomonidan o'tkazilgan hisob-kitoblar ham tasdiqlaydi, unga ko'ra inflyatsiyaning pasayishi Markaziy bankka bazaviy stavkani 16foiz dan 14foiz gacha pasaytirishga imkon berdi. Iqtisodiyotga imtiyozli kreditlar berishning ko'rsatkichlari 2019-yildagi 52foizdan 2020-yilda 34 foizgacha sekinlashdi. Kapital yetarlilik koeffitsiyentlarining pasayishi va muammoli kreditlarning o'sishiga qaramay, O'zbekiston moliya tizimi kredit zarbalarini yengish uchun yetarli kapitalga ega. 2017-yildan naqd pul muomalasidagi cheklovlar bartaraf etildi. Vaholanki, 2017-yilgacha aholining bankomatlardan naqd pul yechib olish imkoniyatlari deyarli mavjud emas edi.

1991-2016 yillar davomida mamlakatda chet el valyutasining rasmiy, birja va "qora bozor" ya'ni norasmiy kursi mavjud edi. Natijada "naqd pul muammosi" yuzaga keldi. 2017-yil 5-sentabrda milliy valyuta - so'mni erkin ayirboshlash imkoniyati yaratildi. Natijada mamlakatda "naqd pul muammosi" ga barham berildi.

Bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib 2017-2020 yillarda aholi uchun 24 ta, tadbirkorlar uchun 65 ta kreditlar taklif etildi. Shuningdek, 2020-yildan 24/7 rejimida ishlovchi "Tezkor to'lovlar tizimi" ishga tushirildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi bo'yicha:

2020-yilda sanoat 27,4 foiz, xizmatlar 38,8 foiz, qishloq xo'jaligi 33,8 foiz ga o'sdi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

hajmi 3,2 barobarga, sanoatda iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 3 barobarga, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2,9 barobarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,3 barobarga oshdi. Shuningdek, ishlab chiqarish sanoatiga kiruvchi iqtisodiy faoliyat turlari orasida mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish 264,3 foiz hamda boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlar – qurilish materiallari 139,2 foiz va metallurgiya sanoati 124,8 foizga o'sdi.

2016-yilda ham paxtachilik-to'qimachilik klasterlari mavjud bo'lmagan bo'lsa, 2017-2020 yillarda 122 ta paxtachilik-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi. 2017-2020 yillarda O'zbekistonda yiliga 20 mln.tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtirilgan. Mamlakat dunyoda meva va poliz mahsulotlari eksporti bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan: o'rik, sabzi – 2-o'rin, behi, gilos – 3-o'rin, xurmo – 4 o'rinda.

Iqtisodiyotning nodavlat sektorini rivojlantirish va xususiylashtirish bo'yicha: xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari soni 2017-2020 yillarda 3019 tani tashkil etdi. Natijada 1 mln.400 mingta ishchi joylari yaratildi.2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalar sonini bosqichma-bosqich 75 foizga qisqartiriladi. Kichik biznes subyektlari soni 2020-yilda 93 mingtaga yetdi. YaIMdagi ulushi 45,8 foizni tashkil etdi.

YaIMdagi davlatning ulushi 1995-yilgacha 65 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda o'rtacha 18,7 foizga kamayishiga erishildi. 2030-yilgacha davlat tasarrufidagi korxonalar soni 75 foizgacha qisqartirish belgilab olindi. Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan korporativ obligatsiyalar chiqarish hamda birlamchi va ikkilamchi aksiya chiqarish tizimi joriy etiladi.

Infratuzilma va turizmni rivojlantirish bo'yicha: 2020-yilda muntazam xalqaro avtobus yo'nalishlari soni 32 ga yetdi. 2018-yilgacha bunday xizmat turi mavjud bo'lmagan edi. 2016-yilgacha yer usti metro liniyalari qurilmaganligini hisob olsak, 2019-2020 yillarda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib 12 km. yer usti metro liniyalari ishga tushirildi.

Erkin iqtisodiy zonalar 2016-yilgacha 3 ta edi.Hozirda ularning soni 21 taga yetdi. Hududlarda 185 ta "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonaları" tashkil etildi. 2030-yilga borib 30 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar va 220 dan ortiq "Yoshlar sanoat va

tadbirkorlik zonalari" faoliyati yo'lga qo'yilishi va ularning maydonlari yanada kengaytirilishi ko'zda tutilgan.

2016-yilgacha xorij fuqarolarining O'zbekistonga kelish uchun viza olish tartibi juda murakkab bo'lgan. Turizm sohasini isloh qilish natijasida dunyoning 93 mamlakati bilan vizasiz rejim joriy etildi. 57 ta mamlakat bilan esa soddalashtirilgan viza rejimi amal yuritmoqda.

Investitsiya siyosati, tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha: Asosiy kapitalga investitsiyalarning yillik o'rtacha o'sishi qariib 2,1 barobarga, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 3 barobarga, qurilish hajmi 2,3 barobarga, tashqi savdo hajmi 1,5 barobarga, eksportning o'rtacha yillik hajmi 1,6 barobarga ortdi.

Mamlakatda so'nggi yillarda olib borilgan mana shunday samarali iqtisodiy siyosat tufayli respublikaning turli xalqaro reytinglarda mavqeyining yaxshilanishi kuzatish mumkin. Xususan, so'nggi to'rt yil ichida mamlakat Meros jamg'armasining iqtisodiy erkinlik indeksida 52 pog'onaga, Logistika samaradorligi indeksida 19 pog'onaga va Jahon bankining Doing Business indeksida 18 pog'onaga ko'tarilib, 69-o'rinni band etdi. Shuningdek, Jahon banki yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab, "The Economist" O'zbekistonni 2019-yilda eng katta yutuqlarga erishgan mamlakat, deb nomladi. Shuningdek, Jahon bankining "Biznesni yuritish-2020" hisobotida mamlakat ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida eng ko'p yutuqlarni namoyish etgan eng yaxshi 20 ta mamlakat qatoriga kirishga erishdi.

Muhokama uchun savollar

- 1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilarini bayon eting?*
- 2. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi va mazmunini nimalar tashkil qiladi?*
- 3. Prezident Sh.Mirziyoyev iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qanday muhim vazifalarni belgilab berdi?*
- 4. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi qanday yo'llar bilan nomarkazlashtiriladi?*
- 5. Raqobatning fuqarolik jamiyatni barpo etishdagi o'rni qanday?*
- 6. Bozor infratuzilmasi qanday yo'llar bilan shakllantiriladi?*

6-MAVZU: IJTIMOY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

Reja:

- 1. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining xususiyatlari*
- 2. O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning takomillashuvi*
- 3. Ijtimoiy himoya tizimining jahon tajribasi*

Tayanch so'zlar: ijtimoiy soha, ijtimoiy himoya, kuchli ijtimoiy siyosat, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy adolat, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy muammolar va ularni hal etish tadbirlari, ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy himoya tizimining jahon tajribasi, uning modellari: Neoliberal, neokonservativ, kontinental, anglosakson va skandinaviya modellari.

1. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining xususiyatlari

O'zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki yillardayoq, kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan maqsad, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Mamlakat Birinchi Prezidenti I.Karimov "O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir"¹.

Albatta, ijtimoiy himoya tizimining rivoji mamlakat iqtisodining ahvoliga to'g'ridan- to'g'ri bog'liqdir. Avvalo, nodavlat sektorining muayyan darajada taraqqiy etishi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mavqeyining mustahkamlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun tayanch va asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy siyosatning real amalga oshishi uchun zamin yaratadi, ijtimoiy himoya tizimining yanada takomillashib, zamon talabiga mos bo'lib borishiga olib keladi. Bu hol O'zbekiston ijtimoiy siyosatining tadrijiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, ijtimoiy himoyaning davlat siyosatidagi o'rni g'oyat muhimdir. Buning bir qancha sabablari bor.

¹ Каримов И.А. Узбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. –Т.: Ўзбекистон. 322-б.

*Birinchi*dan, O'zbekiston agrar mamlakat bo'lib, uning ko'pgina hududlarida ishlab chiqarishning texnologiyalashuvi endigina oyoqqa turmoqda;

*Ikkinchi*dan, mamlakat aholisining 65% qishloqda yashar edi. Agrar sohaning yaxshi rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko'pligiga sababchi bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ularni ijtimoiy himoyalash vazifasini qo'yadi.

*Uchinchi*dan, mamlakat aholisi orasida yoshlar katta salmoqqa ega, bu esa yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali muhofaza qilishni talab etadi.

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shaxs o'z qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratish, bunda ularning farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish haqi, daromadlari, mukofotlari, unvon-u mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalariga (mehnati, qobiliyati, zakovati, alohida xizmatlari, sarmoyasi va h.k.) mos kelishi shu ma'noda inson rivoji imkoniyatlariga bog'liq.

Albatta, inson faqat non bilan tirik emas. Inson taraqqiyotini hayot darajasigina emas, hayot sifati ham belgilaydi. Hayot sifati esa inson yashaydigan, mehnat qiladigan va bo'sh vaqtini o'tkazadigan sohalarda shakllanadi Ijtimoiy infrastruktura inson hayotida kuchli ta'sirga ega. Sog'liqni saqlash shunday sohalardan biridir. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab birinchi prezidentimiz tashabbusi bilan "Sog'lom avlod uchun" umumxalq harakati boshlangan edi. Sog'lom va barkamol avlod uchun kurash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va o'zining natijalarini bera boshladi.

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini ko'rish davrida o'tish jarayonini oqilona tashkil qilish inson manfaati asosiy o'rinda turadi. o'tish davrida amalga oshiriladigan asosiy vazifalar ijtimoiy himoya tizimini va ijtimoiy adolat tamoyillarini yuzaga chiqarish, uni jamiyat hayotida barqaror qilish maqsadlarini ham nazarda tutadi.

1. *Ijtimoiy himoya* – ayrim ijtimoiy guruhlariga har tomonlama yordam berish uchun yo'naltiriladigan davlat tadbirlari yig'indisi. Ijtimoiy himoya iborasi keng ma'noda va tor ma'noda qo'llaniladi. *Keng ma'noda* mamlakat aholisi ijtimoiy va moddiy muhofaza

qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui tushuniladi. *Tor ma'noda* esa, davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligidir. Masalan, kompensatsiya, turli yangiliklar. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi mavjud iqtisodni, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda aholining moddiy va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qismini himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuini qamrab oladi. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biridir.

Ijtimoiy yordam – qariligi, sog'lig'i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun yetarli vositalar bilan ta'minlanmagani tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to'g'risida davlat va jamiyatning g'amxo'rliligiga ijtimoiy yordam deyiladi. Bu yordam pensiyalar, nafaqalar to'lash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, 16 yoshgacha farzandi bo'lgan, kam ta'minlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga xizmat ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimi ijtimoiy sug'urta deyiladi. Bu tizim davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash, yordam ko'rsatish tizimidir.

Ijtimoiy ta'minot – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi bo'lib, ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot to'g'ridan- to'g'ri davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar, homiylarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lovlari ijtimoiy ta'minotning eng muhim turlari hisoblanadi³⁸.

Ijtimoiy himoyani amalga oshiradigan manbalar:

1) davlat budjeti

2) ijtimoiy sug'urta jamg'armasi

3) korxonalar va jamoat tashkilotlari mablag'laridan tashkil

topadi

³⁸ Жумаев Ш, Шодиев Ф. Ижтимоий ҳимоя – адолат мезони // Маърифат, 2007 йил 17 январь

4) Aholini ijtimoiy himoya qilish masalalarini hal etish bo'yicha xayriya jamg'armalari ishtiroki ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda respublikada mavjud bo'lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam tizimi, pensiya ta'minoti, bolalarga nafaqa, yolg'iz kishilarga xizmat ko'rsatish va boshqalar amalga oshirilishi belgilangan. Ijtimoiy himoya obyektiga: nogironlar, nafaqaxo'rlar, yosh bolalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlar, o'qituvchilar, talabalar va h.k.tashkil etadi. Shu boisdan ham 2007-yil "Ijtimoiy himoya yili" deb belgilanishida katta ma'no mavjud.

2. *Ijtimoiy adolat* masalasi. Ijtimoiy adolat – jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini, inson huquq va erkinliklariga rioya qilish normalarini, millat hayot tarzining axloqiy timsolini belgilovchi davlat siyosati, aholining ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan tabaqalari manfaatini ko'zlab milliy boyliklarni taqsimlash tartibidir. Prezidentimiz iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ichki siyosatdagi besh tamoyilning biri, ikkinchi tamoyil jamiyat hayotida qonun ustuvorligi haqida to'xtalgan edi. Ijtimoiy yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli huquqiy jihatdan ta'minlamasdan turib bunday xo'jalikni shakllantirish mumkin emas. Avvalo huquqiy davlatning elementlari:

- 1) qonun ustuvorligi;
- 2) qonun oldida hammaning tengligi;
- 3) hamma o'z ish faoliyatini qonun doirasida bajarishi;
- 4) hokimiyat organlarining bo'linishi tamoyiliga amal qiladi.

Ijtimoiy adolatning vazifasi

- 1) ijtimoiy munosabatlarning insonparvarligini ta'minlash;
- 2) guruh tabaqalarning manfaatini himoya qilish.

Sharq mutafakkiri Nosiriddin Tusiy ijtimoiy adolatning 3 ta asosiy talabini bayon etgan:

- 1) aholi turli tabaqalarining o'zaro uyg'un bo'lishini ta'minlash;
- 2) teng ta'minlangan fuqaro salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqish lozim;
- 3) har bir inson himoya qilinib, o'z ulushiga ega bo'lishi kerak, degan edi.

Birinchi prezident Islom Karimovning adolat talablari quyidagicha edi:

- 1) aholining, qashshoqlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- 2) halol mehnat qilishi uchun imkoniyat yaratib berish,
- 3) rahbar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish kerak.

3. *Ijtimoiy kafolat* masalasi – fransuzcha ta'minot ma'nosini bildiradi, kafolat - insonning, jamiyatning demokratiya va huquqiy davlat tomon rivojlanish jarayonida qo'lga kiritilgan yutuqlardan biri. Bu albatta aholini ish bilan ta'min etish, yangi yangi korxonalarni ishga tushirib, mamlakatda ishsizlikning oldini olish, ish bilan ta'minlanib ijtimoiy larzalarning oldini olishda asosiy vositadir, buning uchun mamlakatda demokratik siyosat o'tkazish lozim bo'ladi.

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan yildan boshlab O'zbekistonda inson huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan siyosat yuritilib kelinmoqda. Ana shu siyosatdan kelib chiqqan holda 1997-yildan boshlab har yil mamlakatimizda ma'lum bir nom bilan atalib, kuchli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda.

Tan olish kerakki, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirish uchun mustaqillikning dastlabki yillarida qulay sharoit yo'q edi. Shunga ko'ra, 1994-yil 24-avgustda "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, 1994-yil oktabrdan aholini ijtimoiy himoyalash tizimi takomillashtirildi. Negaki, ilgari faqat respublika budjeti yo'li bilanгина 30 ta turli soha va yo'nalishlar bo'ylab ijtimoiy himoya amalga oshirilardi. Bunday holat mablag'larning sochilib ketishiga olib keldi. Natijada yuqoridagi Prezident Farmoniga binoan 1994-yilda ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarning qamrab oladigan tizimga o'tildi. Bu tizim bugungi kunga qadar o'zini oqlamoqda. Ana shu Farmonga muvofiq yoshlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida o'quv yurtlari talabalarining stipendiyalari muntazam ravishda oshirib borilmoqda. Zero, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi aholi soni jihatidan eng yirik mamlakat bo'lib, sanoat va makroiqtisodiyot tizimi bir yoqlama xususiyatga ega edi. Bu murakkablik jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasa-da, ma'lum ma'noda undan chetlab o'tishga muvaffaq bo'lindi. O'zbekistondagi

er usti va er osti boyliklari, intellektual salohiyat bunga imkon berdi. Undan unumli foydalanildi. Shunisi ham e'tiborliki, jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini yaratish o'zaro bog'liq jarayon sifatida rivojlandi.

2007-yil 23-yanvarda Birinchi Prezident I.Karimovning "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 2007-yil martida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ular uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomidir. 2007-yilda O'zbekistonda ijtimoiy maqsadlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larning umumiy hajmi barcha budjet xarajatlarining 55 foizini tashkil etadi, bevosita kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun esa budjetning 9 foiziga yaqin qismi (460 milliard so'm) sarflanadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida shaxsga qo'yiladigan talab ortib borganligi sababli, kishilar ilm o'rganadilar, kasb egallaydilar, zamonaviy texnika, texnologiyani o'zlashtiradilar, kompyuter yoki tilni o'rganish choralari ko'radilar. Bular shunchaki oddiy bir istak bo'lmasdan, bugungi zamon talabi darajasidagi imkoniyatlar ochadi, erkin faoliyatni ta'minlaydi. Shu talablarga javob bera oladigan insonlar hayotda o'z o'rinlarini topib oladilar.

Lekin, O'zbekistonda ijtimoiy o'zini-o'zi himoyalash tizimi batamom yo'lga tushib ketgan emas. Boqimandalik kayfiyatidan ijtimoiy himoya iste'molchilari ham qutulishlari lozim. Fuqarolar endilikda o'zlarini-o'zi ta'minlash usuliga o'tishlari kerak. O'zbekistonda xususiy mulkchilikning qaror topishi bu sohada qat'iy o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi zarur. Shunisi ham muhimki, ijtimoiy himoyani doimiy jarayon sifatida tushunmaslik lozim. Aks holda boqimandalik kayfiyati battar kuchayishi mumkin. Ijtimoiy himoya ayrim fuqarolar uchun imkoniyat, xolos. Har qanday sharoitda ijtimoiy yordam jamiyat a'zolari uchun imtiyozga aylanmasligi lozim. Bu o'rinda jamiyatning o'zini-o'zi ijtimoiy himoyalash tizimiga o'ta borishini ta'minlash uchun ushbu tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- nodavlat, nohukumat tashkilotlar, jamg'armalar, uyushmalar, va turli shakldagi mulk egasi bo'lgan tashkilotlarning moddiy ahvolini yaxshilashni qo'llab-quvvatlash;

- barcha turdagi korxonalar, muassasalar va uyushmalarni zamon talabiga javob beradigan xodimlar va ayniqsa huquqshunos, psixolog va sotsiolog mutaxassislar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berish lozim;

- nomi zikr etilgan muassasalarning xorijiy turdosh muassasalar bilan hamkorligini yo'lga qo'yishda ko'maklashish. Ular o'z yo'nalishlarida zarur tajriba orttirishlari talab etiladi;

- ijtimoiy himoya tizimida iqtisodiy muhofazalanishni asta-sekin ijtimoiy fondlar zimmasiga o'tkaza borish zarur. Bunday holatda odamlarni ijtimoiy muhofazalashning ta'sirchan vositasi yuzaga keladi;

- ijtimoiy muhofazalashda boqimandalik, mas'uliyat-sizlik, befarqlik singari illatlarga barham beruvchi ta'sirchan vosita va usullarni qidirib topish va hayotga joriy eta borish talab etiladi.

Shuni aytib o'tish zarurki, har qanday jamiyat ijtimoiy muhofaza tizimida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Mustaqilikka erishilgandan so'ng oradan o'n uch yil o'tdi. O'zbekistonda nafaqat moddiy farovonlik, jamiyatning demokratlashuvi kabi muhim jarayonlar kuchli ijtimoiy himoya tizimi mexanizmi yaratilgan taqdirdagina ma'no-mazmunga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatda asosiy boylik inson bo'lib qoladi. o'tkazilayotgan islohotlarning mazmuni ham shu bilan bog'liq. Bu haqda Birinchi Prezident I.A.Karimov shunday ta'kidlaydi: "Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz - insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir". Lekin, shunisi ham borki, islohotlar davrida ijtimoiy guruhlarning ham o'zni muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyat qurish sharoitida o'rta mulkdorlar qatlami katta salmoqqa ega bo'ladi. o'rta sinf demokratik jamiyatni rivojlantirishda va uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda asosiy kuchga aylanadi. Zero, davlat bunday sharoitda kuchli muvofiqlashtiruvchi kuchga ega bo'ladi, o'rta sinf esa jamiyat taraqqiyotini texnologik, texnik, ilmiy va ma'naviy ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda islohotlar muqarrarligining g'oyat muhim sharti bo'lmish aholini ijtimoiy himoya qilish uzluksiz ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu holat o'z navbatida quyidagi omillarni belgilab beradi:

– Kuchli ijtimoiy himoya siyosati istiqlol va taraqqiyot yo'liga ishonchni mustahkamlaydi, bu ishonch esa aniq moddiy zamin asosida hosil bo'ladi;

– Kuchli ijtimoiy himoya siyosati eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratadi. XXI asr boshida dunyo taraqqiyotida munosib turmush darajasi inson omilining yetuk sharti bo'lib qolayotganligi e'tiborga olinsa, mamlakatimizda bu masalani hal etishda ijtimoiy himoyalashdan unumli foydalanish masalasi dolzarblashadi;

– Kuchli ijtimoiy himoya siyosati fuqarolarning islohotlar jarayoniga nisbatan manfaatdorligining oshib borishini ta'minlaydi va bu yangilanish jarayonining orqaga qaytishiga imkon bermaydigan ijtimoiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda aholining kam ta'minlangan tabaqalariga, bolalar, qariyalar, nogironlarni, shuningdek sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'at sohalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati o'zining muayyan tajribalariga ega bo'ldi. Ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash vazifalari dolzarb bo'lgan O'zbekiston uchun bu holat katta ahamiyatga ega. Bu tajriba fuqarolarning siyosiy faolligini yanada oshirish, mehnat resurslarini ijtimoiylashtirish, mintaqaviy rivojlanishni avj oldirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar barqarorlashtirish imkonini beradi.

Kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati jamiyatda yangicha fikrlashning, tafakkur qilishning asoslarini yaratishga qodirligi tufayli ham demokratik jamiyat barpo etishga ko'maklashadi. Zero, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yuzaga kelgach, fuqarolar fikrlashga, yangi zamon tartiblarini tuzishga ishtiyoq bilan intiladilar. Chunki, fikrlovchi odam fuqarolik jamiyatiga ta'sir o'tkazish qobiliyatini mumkin qadar ko'proq ro'yobga chiqara olgan taqdirdagina, kuchli bo'la oladi.

2. O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning takomillashuvi

Ijtimoiy sohadagi qayta o'zgartirishlar davlat siyosatining diqqat-e'tibor markazida turibdi. Ayniqsa, qishloq joylarda va chekka hududlarda aholining uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilash, kompleks infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning ijrosi ta'minlab kelinmoqda. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar respublika aholisi turli toifalarining moddiy farovonligi, hayot darajasi va sifati oshishiga muayyan darajada ko'maklashdi.

Mazkur islohotlar bir nechta yo'nalishlar doirasida amalga oshirib kelinmoqda:

Aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha:

2017-yilga qadar bandlik organlarida ishsizlarga xizmat ko'rsatuvchi yangi mexanizmlar ishlab chiqilmagan. Bu o'z-o'zidan aholi bandligini ta'minlashni takomillashtirishga undagan. Shu sababli mamlakatimizda birinchi bor aholi bandligini ta'minlash borasida bir nechta yangi muhim, faol instrumentlar joriy etildi va aniq natijalarga erishildi. Har yili yangi ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanmoqda. Qaror doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng yo'lga qo'yish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosini ta'minlash, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil etilishi, tadbirkorlik uchun keng ko'lamlı kafolatlangan imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda.

Mehnat organlarida jismoniy va yuridik shaxslarga "Yagona oyna" tamoyili asosida xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy qilinib, tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish va tubdan takomillashtirish choralari ko'rishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga va mehnatga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. 2018-yil 1-yanvardan boshlab, xalqaro standartlarga muvofiq ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash har tomonlama tahlil qilish, sifati va xolisona baholash bo'yicha metodologiya amaliyotga

joriy qilindi. So'nggi 4 yil mobaynida jami 1,5 mln.ta doimiy ish o'rinlari tashkil etildi. Shuningdek, 1,2 mln. fuqaro haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilinib, ularning ish haqi to'lovi uchun Jamoat ishlari jamg'armasidan bir trln. so'm moliyalashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi - kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo'ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o'sish hisobiga erishiladi" deya ta'kidlagani bejiz emas. Kambag'allikni qisqartirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davomida aholining ehtiyojmand qismi manzilli qo'llab-quvvatlanadi, zaruriy ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olinadi.

2021-yildan boshlab vaqtincha ishsizlik nafaqasi uch barobar oshirilishi va bunda 6 ta hujjat talab etiladigan eski byurokratik tartibning bekor qilinishi ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirishga e'tibor qaratilayotganining yaqqol namunasidir. Aholi bandligini ta'minlashga ajratilgan mablag'lar hajmi besh yuz barobarga oshirildi. Jumladan, 1991-2016 yillarda 15 mlr. so'm ajratilgan bo'lsa, so'nggi besh yilda 1,5 trln. so'm mablag' yo'naltirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha:

Yaqin yillargacha mamlakatda bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi 30 foizga ham yetmas edi. Sohani tubdan isloh etish maqsadida 2017-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilib, 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlari kengaytirildi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimidagi muassasalar soni uch barobarga oshib, 2017-yildan jami 13 mingdan ortiq yangi bolalar bog'chalari tashkil etildi. Xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari soni uch barobarga oshib, bugungi kunda ular 788 tani tashkil etadi. 2017-yilga qadar mavjud bo'lmagan oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalari soni 10 mingdan ortiqni tashkil etmoqda.

2021-yildan 6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. Hamda YuNESKO va Jahon banki bilan

hamkorlikda uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limni uyda berish modeli yo'lga qo'yildi.

2019-yil 8-mayda Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilindi va unga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabr kuni lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida ham maktabgacha ta'lim sohasiga alohida urg'u berildi. Unda barcha bog'chalar har yili 2 million nusxadagi zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlab borilishi, bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib maqsadda tizimdagi 160 ming nafardan ziyod pedagog kadrlarning malakasi oshirilishi belgilab olindi. Bolalar soni o'sib borayotganini inobatga olib, yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, sohaning barcha bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan Milliy ta'lim dasturi ishlab chiqiladi. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga birlamchi vazifa deb qaralishi ta'kidlab o'tildi.

Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha:

Mazkur sohadagi islohotlar jamiyatda o'qituvchilar maqomini oshirishdan boshlandi. Bunda ularning ish faoliyatini optimallashtirish, oylik maoshini bosqichma-bosqich oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali dars yuklamalarini qisqartirish rejalashtirildi. Xususan, uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlarga 50 foizga, boshqa viloyatga borib ishlasa 100 foiz ustama haq to'lanmoqda. Shuningdek, o'qituvchilar to'ldiradigan hujjatlar soni ham kamaytirildi.

2020-2021 o'quv yilidan 10-11 sinflarda tajriba-sinov tariqasida 12 ta yo'nalishda variativ o'quv rejalari joriy qilindi.

Xalq ta'limi tizimida o'rta maktablar soni ko'payib, so'nggi to'rt yilda 328 ta yangi maktab tashkil etildi. Shuningdek, iqtidorli yoshlar uchun mutlaqo yangi turdagi 4 ta Prezident hamda 9 ta ijod maktabi tashkil etildi.

Xususiy maktab ochish uchun litsenziya olish tartibining soddalashtirilishi hamda bunday maktablarga shahodatnoma va

attestatlar berish huquqi taqdim etildi. Natijada nodavlat umumta'lim muassasalari soni 6 barobarga ortib, 145 taga yetdi.

Xalq ta'limi tizimi raqamlashtirilib, avval mavjud bo'lmagan yagona elektron tizim – kundalik.com tizimi joriy etildi. Undan o'qituvchilar faoliyatiga oid statistika va hisobotlari yuritish maqsadida foydalanib kelinmoqda. Hozirda jami maktablarning 71 foizi internet tarmog'iga ulanib, Wi-Fi qurilmalari o'rnatildi.

2017-yildan 11 yillik majburiy ta'lim tizimi joriy etildi.

2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilindi. Konsepsiyaga muvofiq, xalq ta'limi tizimining strategik maqsadlari etib: umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish; inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish belgilandi.

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini isloh qilish bo'yicha:

10 ta oliy ta'lim muassasalari o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Bunday amaliyot 2017-yilga qadar bo'lmagan. Natijada OTMlarning akademik mustaqilligi ta'minlanmoqda. Pedagoglarning oylik maoshlari 2018-yilga nisbatan 2,5 barobarga oshirildi.

2017-yildan ta'limning xalqaro standart tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan professional ta'lim muassasalari tashkil etildi. Avvallari majburiy 3 yillik kasb-hunar kollejlari bo'lgan edi. Hozirda 15 ta Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi, 14 ta yuridik texnikum va 12 ta agrotexnologiya texnikumlari tashkil etildi.

Oliy ta'lim muassasalari huzurida aniq, tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan 6 ta maktablar tashkil etilib, iqtidorli yoshlarni saralash tizimi yaratildi.

2017-yilga qadar oliy ta'lim tizimiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etilmagan bo'lsa, 2017-2020 yillarda jami 4,3 mlrd. dollar jalb etildi.

Oliy ta'lim muassasalari soni ikki barobarga oshdi. Xususan, oliy ta'lim muassasalari soni 200-yilda 61 tani tashkil etgan bo'lsa,

2020-yilga kelib 141 taga yetdi. Ya'ni oxirgi to'rt yil mobaynida 49 ta yangi OTMLari tashkil etildi. Ma'lumki, xususiy OTMLar 2016-yilga qadar mavjud bo'lmagan edi. 2017-yildan to shu kunga qadar jami 10 dan ortiq xususiy OTMLar ochildi. Xorijiy OTMLar (filiallari) soni 4 barobarga oshirilib, bugungi kunda ularning soni 26 tani tashkil etmoqda.

Bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrov darajasi uch barobarga oshirildi. 2016-yilda 9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 28 foizga yetkazildi. Kelgusi besh yil ichida uni 50 foizga yetkazish maqsad qilib belgilandi. Ta'limning bakalavriat, magistratura va sirtqi shakllari uchun kvotalar oshirilib, kechki ta'lim shakli joriy etildi. Shuningdek, davlat grantlari soni 47 mingtaga ko'paytirildi. Ehtiyojmand oilalarga 2 mingta alohida grantlar ajratildi.

Oliy ta'lim tizimi avvallari mavjud bo'lmagan raqamlashtirish ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Xususan, raqamli universitet loyihasi doirasida "Ma'muriy boshqaruv", "O'quv jarayoni", "Ilmiy faoliyat" va "Moliyaviy boshqaruv" modullaridan iborat "Oliy ta'lim tizimlarini boshqarish axborot tizimi" joriy qilinib, oliy ma'lumot olganlik to'g'risidagi diplom ma'lumotlarining yagona elektron bazasi yaratildi. Davlat oliy ta'lim muassasalarining 50 foizi o'quv jarayonlari kredit-modul tizimiga o'tkazildi.

2016-yilga qadar o'qituvchilardan qishloq xo'jaligi va obodonlashtirish ishlarida faol ishtiroki talab qilib kelingan. 2017-yildan boshlab o'qituvchilar kasbga taalluqli bo'lmagan ishlardan ozod qilindi.

Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi yaratildi va u orqali pedagog va rahbar xodimlar xohlagan vaqtda va xohlagan joyda turli mobil qurilmalar orqali uzluksiz malakalarini oshirib borish imkoniyati yaratildi. Oldinlari o'qituvchilar har 5 yilda va rahbar xodimlar har 3 yilda malakasini oshirib kelar edi.

Ilm-fan tizimida davlat siyosati rivojlantirib kelinmoqda. Jumladan, 2019-yil 8-oktabrda Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, 2020-yil 29-oktabrda Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, 2019-yil 29-oktabrda "Ilm-fan va ilmiy-faoliyat to'g'risida"gi qonun, 2020-yil 24-iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, 2017-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tuzildi. 2017-2020 yillarda jami 18 ta ilmiy tashkilot, 10 ta ilmiy markaz, 4

ta texnopark, 1 ta jamg'arma va 1 ta milliy venchur fondi tashkil etildi.

Tibbiyot sohasidagi islohotlar:

Tibbiyot muassasalarini moddiy texnika bazasi mustahkamlanib, tez yordam shaxobchalari soni ikki barobarga oshdi. 2100 dan oshiq tez tibbiy yordam avtotransportlar xarid qilindi.

Reanimobillar soni 18 barobarga ko'paydi. 2017-yildan telemeditsina tizimi rivojlandi. Telemeditsina orqali onlayn maslahatlar tashkil qilinib, konsultatsiyalar, onlayn namoyishli jarrohlik amaliyotlari o'tkazilmoqda. 2016-yiga qadar bunday amaliyot mavjud bo'lmagan edi.

2017-yildan boshlab transplantatsiya operatsiyalarining o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Natijada shu kunga qadar 600 ga yaqin shunday operatsiyalar o'tkazildi. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib bosh miyaning qon tomir nuqsonlarini diagnostika qilish va xirurgik davolash bo'yicha operatsiyalar ham o'tkazila boshlandi. Bunday operatsiyalar oldin o'tkazilmagan.

Bolalar o'limi 12 foizga kamayishiga erishildi.

Xususiy tibbiyot muassasalari soni deyarli ikki barobar oshirilib, bugunki kunda ularning soni 6,5 mingtani tashkil etmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosati takomillashtirildi. Xususan, 2018-yil 7-dekabrda 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilindi va uning asosiy maqsadlari etib: - Kasalliklarning va ko'pchilik hollarda bevaqt o'lim va nogironlikka olib keladigan holatlarning oldini olish va ularni davolash natijalarini yaxshilash orqali kutilayotgan umr ko'rish davrini oshirish; - sog'liqni saqlashning boshqaruv organlari salohiyatini kuchaytirish, ularning rahbarlari roli va javobgarligini oshirish belgilandi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantirish bo'yicha:

2017-yilda 30-iyun sanasi "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi, 2020-yilda yoshlarga doir soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi "Yoshlar ishlari agentligi" tashkil etildi.

2020-yilda Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat "Yoshlar parlament"lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari

bo'yicha komissiya tashkil qilindi. Jahon parlamentlarida 30 yoshgacha bo'lgan deputatlar 2 foizdan sal ko'proqni tashkil qiladi. Dunyo miqyosida 30 yoshgacha bo'lgan deputatlar 2016-yilda 1,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib bor yo'g'i 2,2 foizga yetgan. Parlament yuqori palatalarining 76 foizida 30 yoshgacha bo'lgan deputat yoki senat a'zolari umuman mavjud emas. 2016-yildan bugungi kunga qadar yosh erkak parlament vakillari soni yosh ayol parlament vakillariga nisbatan keskin o'sgan. Bizda bu ko'rsatkich 6 foizni tashkil etadi.

2019-yilda ilk marotaba O'zbekiston yoshlari forumi o'tkazildi. Shu yildan boshlab "Besh muhim tashabbus" amalga oshirilib kelinmoqda.

2020-yildan boshlab viloyat, tuman va shahar hokimlari, vazirlar va mas'ul rahbarlar yoshlar bilan uchrashuvlarni yo'lga qo'yildi. Natijada hokimlar yoshlarning muammolarini hal etishga qaratilgan "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqib, ijrosini ta'minlaydi. Shu masala bo'yicha har 6 oyda mahalliy kengashlarga hisobot beradi va kelgusi yarim yillik uchun rejalarni belgilab oladi.

"Yoshlar: 1+1" dasturi qabul qilindi va uning doirasida ishsiz va uyushmagan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tashkil etildi. "Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor" tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni birlashtirish tashabbusi ko'plab tadbirkorlarimiz tomonidan faol qo'llab-quvvatlandi.

Yoshlarga oid davlat siyosati takomillashtirildi. Xususan, 2017-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi, 2018-yildan boshlab OTMlarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o'tkazilgan saylovlarda 9 nafar (deputatlarning 6 foizi) yoshlar deputat etib saylangan bo'lsa, mahalliy kengashlar deputatlarining 10 foizini yoshlar tashkil etmoqda.

2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasi, 2021-yil 18-yanvarda O'zbekistonda yoshlarga oid

davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilindi.

Aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash borasida:

O'zbekistonda aholi soni muttasil ortib borayotganligi sababli, oilalarni uy-joy bilan ta'minlash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Misol uchun, 2001-yilda aholi soni 24,8 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugungi 2021-yilga kelib 35 mln. nafardan oshib ketdi. O'tgan 4 yil mobaynida 140 mingdan ortiq uy-joylar qurildi. Bu o'tgan 10 yil davomida qurilgan turar-joy binolari sonidan ikki barobar ko'p deganidir. Biroq, arzon uy-joylarga bo'lgan talab yuqori darajada qolmoqda. Shuning uchun bu borada tizimli chora-tadbirlar olib borilmoqda.

So'nggi uch yilda 155 mingta xonadon foydalanishga topshirildi. Har yili foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uy-joylarning soni 9 barobarga oshdi.

2020-yilda Ijtimoiy himoya yagona reestri axborot tizimi tuzilib, unga 1,7 milliondan ortiq a'zosi bo'lgan 400 mingdan ortiq oila kiritildi.

Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir:

Pensiyalarni to'lash tizimi takomillashtirildi. Xususan, 1991-2018 yillarda ishlovchi pensionerlarga pensiyalar 50% miqdorda to'langan bo'lsa, 2019-yildan barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar 100% to'lanmoqda.

23 mingdan ziyod nafar yakka-yolg'iz qariyalar va nogironlarga jami moddiy yordam hamda "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashovchilarga muruvvat yordamlarini muntazam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi.

2020-yil 15-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Shu kunga qadar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud bo'lmagan edi.

Bugungi kunda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan asosiy oziq-ovqat va gigiyena vositalari soni 19 tani (oldin 15 ta edi), nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul beriladigan protez-ortopediya buyumlari va

reabilitatsiya texnik vositalarining turlari 27 tani (oldin 22 turdan iborat bo'lgan) tashkil etmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha:

Yaqin kunlarga qadar mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish bilan shug'ullanadigan alohida davlat idorasi bo'lmagan. 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, 2020-yida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi.

fuqarolarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer ajratib berish tizimi yo'lga qo'yildi.

tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsizlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hunarmandchilik uyushmasiga a'zo bo'lish badallarini to'lab berish tizimi hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan shaxslarga tegishli uskunalarni xarid qilish uchun 7 mln. so'mgacha subsidiyalar ajratish yo'lga qo'yildi.

kambag'al oilalarni maktabgacha ta'lim tashkilot to'lovlaridan ozod etish, maktabda tahsil olayotgan kambag'al oila farzandlarini mavsumiy kiyim kechak bilan ta'minlanmoqda.

Monomarkazlar va kasbga o'qitish markazlari va mahallarda kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etilib, ular orqali ishsiz fuqarolar, ayniqsa yoshlar va ayollar bepul tarzda zamonaviy kasblarga o'qitilib, malakasi oshirib kelinmoqda.

Mahallabay tizimi tashkil qilindi va uning asosida "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tashkil etildi. "Mahallabay" ishlash tizimining asosiy yo'nalishlari:

- aholida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga oid qiziqish va intilishlarini aniqlash va ularning mazkur faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga qaratilgan o'quv kurslarini tashkil etish;

- yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini amalga oshirishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish orqali kambag'allikni qisqartirish. Natijada, ularning o'zini-o'zi band qilishiga erishish;

- mahallarning "o'sish nuqta"larini aniqlash, aholining mazkur o'sish nuqtalari asosida yangi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, mavjud tadbirkorlik subyektlari kooperatsiyalarini yo'lga qo'yish.

“Mahallabay” ishlash tizimida har bir mahallada har bir xonadonning daromad manbalari, mavjud shaxsiy tomorqa xo'jaligidan foydalanishda holatini “xonadonbay” tartibda o'rganiladi.

“Temir daftar” ro'yxatiga quyidagi toifadagi oilalar kiritiladi:

- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan a'zolari mavjud oilalar;
- kam ta'minlangan yakka-yolg'izlar va keksalar;
- boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar;
- ko'p (4 va undan ortiq) farzandli moddiy ko'makka muhtoj oilalar;
- mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalar;
- tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand oilalar (surunkali yoki og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan a'zolari mavjud yetarli daromad manbaiga ega bo'lmagan oilalar);
- noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan ehtiyojmand oilalar.

“Ayollar daftari” ro'yxatiga 30 yoshdan oshgan quyidagi toifadagi xotin-qizlar kiritiladi:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar;
- boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand xotin-qizlar;
- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lganlar;
- uy-joyini ta'mirlashga muhtoj I guruh nogironligi bo'lganlar;
- noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zining yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy mavjud bo'lmaganlar;
- qaramog'ida bir va undan ortiq I yoki II guruh nogironligi bo'lgan bolalari mavjud yolg'iz ayollar;
- tibbiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar;
- huquqiy yordam olishga muhtoj xotin-qizlar;
- psixologik maslahatga muhtoj xotin-qizlar.

“Yoshlar daftari” – 18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan ishsiz yoshlarning manzilli ro'yxati qayd etiladigan elektron dastur

tuzildi. "Yoshlar daftari"ga bitiruvchi yoshlar, hozirda ishsiz bo'lgan yoshlar, ishga muhtoj nogiron yoshlar, xorijdan qaytgan yoshlar, JIEM ozod etilgan yoshlar, harbiy xizmatdan qaytgan yoshlar kiritiladi.

3. Ijtimoiy himoya tizimining jahon tajribasi

Dunyoda hozirgi davrda aholini ijtimoiy himoya qilishda bir qator modellar mavjud. Ulardan biri Skandinaviya mamlakatlarida (Finlandiya, Shvetsiya) qo'llanilayotgan *sotsial-demokratik model* bo'lib, bunday modelga ko'ra *davlat ijtimoiy himoyaning barcha mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi*.

Neoliberal modelga ko'ra esa (AQSH) ijtimoiy himoyaning aksariyat qismini tadbirkorlar va kasaba uyushmalari bajaradilar.

Neokonservativ modelga ko'ra (Germaniya) ijtimoiy himoya davlat kafolatlari javobgarligida xususiy tadbirkorlar va davlat federal budjeti asosida olib boriladi.

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot asosan davlat budjeti hisobidan tashkil etilgan bo'lib, bu tizim qator rivojlangan chet el davlatlarining ijtimoiy tizimidan qolishmaydi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy yordamdan tashqari respublikamizda norasmiy ijtimoiy yordam ko'rsatishning an'anaviy qadriyat turlari ham mavjudki, ularning negizini qarindoshchilik, qo'shnichilik, mahallachilik, yoru birodarchilik yordamlari, ya'ni xalqimizning milliy urf-odatlarini tashkil etadi. Mahalliy idoralar, korxonalar, jamoa va xo'jaliklar hamda boshqa tadbirkorlik tashkilotlaridan fuqarolar pensiyasiga qo'shib berilayotgan qo'shimchalar, muhtojlarga ko'rsatilayotgan otaliq yordamlari, bayram va Hayit kunlari bemorlarni ziyorat qilish, turli xayr-ehsonlar ham milliy urf-odatlarimizning zamonaviy ko'rinishlaridir. Bulardan tashqari, ijtimoiy yordam ko'rsatishda nodavlat jamoat birlashmalari va xayriya tashkilotlari ham ishtirok etmoqda.

Albatta, muammolar ham mavjud. Jahon tajribasi bilan qiyoslaganda, avvalo, mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiladigan nodavlat tashkilotlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish lozim. Xususan, kasaba uyushmalari rivojlangan mamlakatlarda xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish uchun korxonaga egalariga, ish

beruvchilarga doimo ta'sir o'tkazib keladilar. Bizda esa hali bunday tajriba mavjud emas. Birinchi navbatda jamoat tashkilotlari, xususan kasaba uyushmalari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularni mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiluvchi kuchga aylantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning ijtimoiy himoya tizimi rivojini umumiy tarzda qarab o'tish o'rinlidir. Ma'lumki, 1991-yilda sobiq totalitar tuzum inqirozga uchragach, uning o'rnida vujudga kelgan yangi mustaqil mamlakatlar demokratiyaga asoslangan jamiyat barpo etishda turli yo'llarni tanladilar.

Birinchi, Yevropa va Amerika davlatlari tajribasida ko'rilgan "falaj qilib davolash" yo'li edi. Ko'pgina mamlakatlar ushbu "tezkor" yo'lni tanladilar. Bu mamlakatlarda mustahkam qonunlar majmui ishlab chiqilmasdan, jamiyatni keskin tarzda demokratlashtirishga o'tildi. Oqibatda bu o'z navbatida ko'plab murakkab muammolarni keltirib chiqardi.

Ikkinchi, jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilib borish yo'li bo'lib, bunda O'zbekiston tashabbuskor bo'ldi. O'zbekistonda avval qonunlar majmui yaratildi, so'ng bozor infrastrukturasi tizimini shakllantirishga e'tibor qaratildi va iqtisodiyotni isloh qilishga kirishildi. Natijada jamiyat keskin ijtimoiy larzalarni chetlab o'tdi. Bu birinchi navbatda ijtimoiy himoya tizimiga ham tegishli edi. Aytaylik, 1992-yilda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang holatda edi. Shunday sharoitda kam ta'minlangan fuqarolar davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilinishi zarurligi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu siyosat davlatning islohotchilik roliga tayangan holda amalga oshirildi. Shu tariqa bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlat nazoratining bo'lishi ijobiy natijalar berdi.

O'z o'rnida demokratiyaning sharqona shakli xususida fikr bildirib o'tish lozim. Yaxshi bilamizki, Sharq qadriyatlari "inqilobiy sakrash" dan ko'ra tadrijiylikni ustun biladi. Shu sababli azaldan Sharq jamiyatlarida iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'pirilishlar nisbatan kam. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish jarayoni Sharq va g'arb demokratiya tamoyillari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi sababli ham, taraqqiyotda bosqichma-bosqichlik, harakatda esa qonun ustuvorligi asosiy xususiyat kasb etdi va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda.

o'z navbatida ijtimoiy sohaning ahvoli to'g'risida umumiy jahon standartlari nimadan iborat, degan savol tug'iladi.

Mutaxassislar fikricha, bu sohada ham bir necha modellar amal qiladi. Ularni umumiy tarzda kuchli ijtimoiy himoya tizimining ayrim elementlarini o'zida ifoda etuvchi skandinaviyacha model, Bismark modeli va Beverij modeli tariqasida tasniflash mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy himoya modellari

Skandinaviya (aralash) modeli (<i>Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya</i>)	Kontinental (Bismark) modeli (<i>Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya</i>)	Beverij (anglosakson, liberal) modeli (<i>Irlandiya, Angliya</i>)
<i>Asosiy qoidasi:</i>		
Mamlakatlarda yashovchi barcha fuqarolar ijtimoiy ta'minlanish huquqiga ega	Jamiyat a'zolariga ijtimoiy ta'minot uchun zarur vositalarni ishlab topishga imkoniyat berish	Har bir fuqaro favqulodda holatlarda (kasallik, pensiya yoshi, o'lim, tug'ish va h.k.) ijtimoiy sug'urtali nafaqa va pul yordami bilan qamrab olinishi zarur
<i>Bosh siyosiy maqsad</i>		
To'la-to'kis bandlikka erishish (davlat mas'uliyati)	Daromadlarni himoyalash (xodim mas'uliyati)	Minimal darajadagi daromadlarni himoyalash

Davlat hukumati ijtimoiy siyosatini mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boradi. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya asosiy 3 ta model xususiyatlariga moslab qurilgan: Bismark (kontinental, konservativ), Beveridj (anglosakson, liberal) modeli va xususiy-korporativ (aralash, skandinaviya) modeli.

Kontinental model. Bismark modeli ijtimoiy sug'urta mexanizmiga asoslangan bo'lib, u mehnat qobiliyati yo'qolishi bilan sug'urtalanuvchilarga to'liq yoki qisman kompensatsiya beriladi. Ijtimoiy ta'minot budjet badallari, ishchi va ish beruvchining sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlar ushbu model asosida ish olib borishadi. Ijtimoiy sug'urtaning Bismark modelining afzalligi ish stajiga va daromad miqdoriga qarab ijtimoiy nafaqalarning o'sishi va bu orqali

fuqarolarning mehnat faoliyati rag'batlantiriladi. Bo'sh mablag'larni qo'shimcha ravishda ijtimoiy sug'urta fondlariga jalb qilish orqali, ijtimoiy to'lovlar miqdorini ko'paytirish mumkin. Ushbu modeldan foydalanishda ijtimoiy xarajatlarni davlat tomonidan moliyalashtirishning qoldiq tamoyiliga amal qilinadi. Bismark modelining kamchiligi ishchilar soni va ijtimoiy sug'urta to'lovlari miqdoriga bog'liqligidadir. Ishchilar sonining kamayishi bilan ijtimoiy to'lovlar darajasi pasayadi yoki ijtimoiy ajratmalar miqdori oshadi.

Kontinental model quyidagi uch asosiy xususiyatdan iborat:

– Ushbu model insonning kasbiy faoliyati davomiyligi va ijtimoiy ta'minot darajasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni tavsiflaydi.

– Asosiy tamoyil sifatida bozor va davlat nazorati ostida ijtimoiy sug'urta tamoyiliga e'tibor qaratiladi.

– Jamoat tashkilotlari va xayriya fondlari fuqarolarning ijtimoiy ta'minotida juda faol hisoblanadi.

Germaniya kontinental modelning barcha tamoyillarini amaliyotga to'liq joriy eta olgani bilan ajralib turadi. Bu davlatda sug'urta qonunchiligining asoschilaridan bo'lib, mamlakat hayotida muhim siyosiy rol o'ynagan kansler Otto fon Bismark hisoblanadi. U birinchi bo'lib mamlakat aholisiga ma'lum ijtimoiy kafolatlar beradigan bir qator qonunlarni qabul qildi. Ulardan asosiylari "Sanoat xodimlarining kasalligini sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun (1884), "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun (1885) hamda "Nogironlik va qarilikni sug'urtalash to'g'risida"gi qonun (1891).

Ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu qonunlar orqali shaxsning o'z mustaqilligi, jamoatchilikning qo'llab-quvvatlanishi va hukumatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uch tomon o'rtasida o'zaro manfaatli kelishuvlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Hozirgi kunda Germaniyada ijtimoiy sug'urtaning 4 ta turi amal qiladi: pensiya sug'urtasi, majburiy tibbiy sug'urta, ishsizlik sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urta. Ijtimoiy ta'minot tizimi shuningdek, bolalarga nafaqa (bola tug'ilganda bir martalik to'lovlar, kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali oilalarga dotatsiyalar), qochqinlarga yordam, ta'lim uchun nafaqalar, davolanish uchun nafaqalar, pensiya subsidiyalari, urush qurbonlariga, nogironlarga

yordam, kam ta'minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam shaklida ajratilgan davlat mablag'larini qamrab oladi. Germaniya sug'urta tizimida birinchi o'rinda mehnatga layoqatli aholi uchun yaxshi va mos iqtisodiy sharoitlar yaratishga urg'u beradi. Ijtimoiy siyosatning ushbu shakli muvaffaqiyatli bo'ldi. Lekin undagi muhim bir kamchilik – davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy himoyaga sarflanadi. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun ishlayotganlardan olinadigan soliqlarni doimiy ravishda oshirishga to'g'ri kelmoqda. Soliqlarning ko'pligi tufayli odamlar ishlash uchun rag'batni yo'qotadilar. Chunki odamlarning soliqlardan ajratib qolgan mablag'i ishga yaroqsiz odam oladigan ijtimoiy himoya mablag'iga teng bo'lib qoladi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun hozirgi vaqtda siyosiy jihatdan ham bir qator tadbirlar amalga oshirilmogda, ulardan asosiysi sifatida ijtimoiy yordam oluvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishni tashkil etilayotganini aytib o'tish mumkin.

Anglosakson modeli. Davlatning ijtimoiy ta'minlashning anglosakson (liberal) modeli yuqorida tavsiflangan kontinental modeldan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu model asoschisi 1941-1942 yillarda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sug'urta islohotlari bo'yicha ishchi guruhni boshqargan ingliz iqtisodchisi Uilyam Beveridj hisoblanadi. Beveridj ijtimoiy sug'urta tizimiga badallarning yagona miqdorini va ijtimoiy ta'minotning har xil turlari uchun to'lovlarning bir xil miqdorini belgilashni taklif qildi. Olingan badallar va to'lovlar miqdori oluvchining ijtimoiy sug'urta tizimidagi ishtiroki va u tomonidan o'tkazilgan badallar miqdoridan qat'i nazar, ma'lum bir guruhga mansubligi asosida belgilandi. Yashash minimumi belgilash taklif qilindi. Agar fuqaro o'zini yashash minimum bilan ta'minlay olmaydigan bo'lsa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

O'sha davrdagi aksariyat mutaxassislarning fikriga ko'ra, Beveridj modeli urushdan keyin iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni tiklashga, mehnat unumdorligini va umuman iqtisodiyotni tiklash uchun sharoit yaratishga imkon berdi. Bundan tashqari, ob'yektiv sabablarga ko'ra (homiladorlik, nogironlik va hokazo) sug'urta badallarini to'lay olmaganlar uchun ijtimoiy ta'minot olish imkoniyatini saqlab qolishga imkon berdi. Beveridj modeli dolzarbligi sababli mamlakat tashqarisida ham faol qo'llab-

quvvatlandi. Bu modelning muvaffaqiyatli tarzidagi amaliyotga tatbig'ini AQSh, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya kabi mamlakatlarida ko'rish mumkin.

Anglosakson modelining ba'zi bir asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- ijtimoiy xizmatlar "umumiylik" tamoyiliga asoslanadi va bir xil miqdordagi nafaqalar beriladi (hamma sug'urta badali to'laganlarga teng miqdordagi nafaqa beriladi);

- hukumat faqat aholi daromadlarining minimal miqdorini saqlash va zaif qatlamlar farovonligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shu orqali ijtimoiy sohada minimal ishtirok etadi;

- ushbu model aniq sug'urta dasturlari uchun alohida sug'urta mukofotlarini hisobga olmaydi. Yagona ijtimoiy to'lovlar yordamida daromadlar yig'iladi va ma'lum ijtimoiy ta'minot sohasining zarur ehtiyojlariga taqsimlanadi;

- ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning moliyaviy asosi bo'lib birinchi navbatda davlat budjeti emas, balki xususiy sug'urta badallari hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada zamonaviy ijtimoiy sug'urta tizimida ikkita tarmoq mavjud:

- a) milliy ijtimoiy sug'urta, unga pensiya sug'urtasi dasturlari, nogironlarni sug'urtalash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, onalikni qo'llab-quvvatlash, kasallik uchun nafaqalar;

- b) mamlakat rezidentlariga, shuningdek, Angliyada uzoq vaqt yashagan chet elliklarga tibbiy xizmat ko'rsatadigan milliy sog'liqni saqlash tizimi.

Dastlab AQShda ijtimoiy sug'urta to'g'risidagi qonuni 1935-yil 14-avgustda qabul qilingan edi. Vaqt o'tishi bilan ushbu qonun ijtimoiy sug'urtaning yangi qoidalari bilan to'ldirildi va qo'shimchalar qilindi. Qo'shma Shtatlarda yagona, umummilliy, markazlashgan ijtimoiy ta'minot tizimi mavjud emas. U federal qonun yoki shtat qonuni bilan tartibga solinadigan har xil dasturlardan tashkil topgan. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi davlat ijtimoiy ta'minoti tizimi aniq ikki sohaga bo'linadi: ijtimoiy sug'urta (to'lovlar ishchilardan olinadigan ijtimoiy sug'urta badallaridan hosil bo'lgan sug'urta mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi) va ijtimoiy yordam (to'lovlar budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu federal yoki shtat budjeti bo'lishi mumkin). Shuningdek, bugungi kunda AQShda tibbiy sug'urtadan tashqari

ijtimoiy sug'urta tizimi ham ancha rivojlangan bo'lib, ijtimoiy sug'urta orqali ishsizlik, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik, boquvchisini yo'qotganlik, qarilik kabi sug'urta hodisalari sug'urta qilinadi.

Tizimning tashkil qilinishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir fuqaro ijtimoiy sug'urtalanish huquqiga egaligini tasdiqlovchi muhim hujjat – "Social security number" ga ega. Shuningdek, u fuqarolarning hisob kartochkasi bo'lib xizmat qiladi. Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda, nafaqa miqdori ish stajga, daromadga va hokazolarga bog'liq holda hisoblab chiqiladi. Shu bilan birga sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan kambag'allarga, yetim va boshqa ehtiyojmandlarga davlat tomonidan to'lanadigan ijtimoiy ta'minot mablag'lari (masalan, ayrim toifalarga maktabda bepul ovqatlanish, uy-joy va boshqalar beriladi) alohida hisoblanadi.

Boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha ijtimoiy sug'urta. Boquvchisini yo'qotish bilan bog'liq sug'urta hodisasi yuz berganda, agar vafot etgan shaxs sug'urta qilingan bo'lib, uning asosiy ish faoliyatidan kelayotgan daromadi orqali oilasi ta'minlanayotgan bo'lsa, oila asosiy daromad manbaini yo'qotgan hisoblanadi va qo'shimcha moddiy yordamga muhtoj bo'lgan taqdirda marhuming oila a'zolariga (odatda turmush o'rtog'i) nafaqa to'lanadi.

Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha ijtimoiy sug'urta. Bunda ishlayotgan xodimning bajarayotgan mehnatiga bog'liq bo'lmagan ravishda vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishi natijasida sug'urta hodisasi yuz beradi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini olish uchun xodimning besh yillik ish staji va ish beruvchi tomonidan belgilangan sug'urta badallarining to'lovi talab qilinadi.

Ishsizlik nafaqasi bo'yicha sug'urta. Bunda sug'urta badallari yillik daromadning 6,2 foizini tashkil qiladi, lekin bu raqamni korrektyrovka qilishda shtatlar tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Umumiy qoida bo'yicha, ular ish beruvchilar tomonidan to'lanadi. Ushbu badallarni to'lash sug'urtalangan shaxslarga ishsizlik holatida, tegishli nafaqalarni to'lashda kafolat berishga imkon beradi.

Skandinaviya modeli. Shvetsiya, Daniya, Norvegiya singari shimoliy mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining skandinaviya modelidan foydalaniladi. Bugungi kunda aynan zamonaviy, yetuk va

rivojlangan ijtimoiy tizimga ega davlat sifatida aynan skandinaviya modelidan foydalangan mamlakatlar misol qilib ko'rsatiladi. Bu model o'zida bismark va Beveridj modellarining elementlarini jamlaydi. Ushbu model quyidagi xususiyatlarga ega:

- ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni amalga oshirishda yetakchi rol mamlakat hukumatiga tegishli bo'lib, barcha ijtimoiy dasturlar davlat budjetidan moliyalashtiriladi;

- hukumat ishsizlikka qarshi faol kurash olib boradi, uning oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko'rmoqda;

- skandinaviya modeli aholining turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlarning tengligi bilan tavsiflanadi;

- mamlakat aholisi uchun turli xil hayotiy vaziyatlarda turli xil ijtimoiy kafolatlar beriladi.

Ijtimoiy siyosatni tartibga solishning eng yorqin, skandinaviya modeliga misol - Shvetsiya. Bugungi kunda u ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Shvetsiya aholisining ijtimoiy ta'minoti butun mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda davlat kafolati asosida amalga oshiriladi. U soliq va transfert siyosati orqali amalga oshiriladigan aholining barcha qatlamlari daromadlarini qayta taqsimlashga qaratilgan.

Shved modelining asosiy xususiyatlari inson hayotining barcha sohalarida doimiy ijtimoiy himoya va 100 foiz bandlikka erishish, kambag'allar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yo'qligi, yuqori siyosiy va ijtimoiy barqarorlikdir. O'tgan asrning 80-90 yillarida og'ir iqtisodiy vaziyatga qaramasdan skandinaviya modelidan foydalanayotgan hech bir davlat o'z tanlagan yo'lidan voz kechmadi. Biroq, umumiy farovonlikka erishish va yuqori darajada ta'minlangan ijtimoiy kafolatlar mavjudligi davlat budjetidan katta xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun ushbu davlatlarda soliqlar yuqori foizligi bilan ajralib turadi. Hozirgi paytda hukumatlar tomonidan munisipal budjetda katta miqdordagi mablag'larni to'plash imkoniyatini beradigan zamonaviy soliq konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda, shu orqali mablag'larni to'plash va samarali sarflash yo'lga qo'yilmoqda.³⁹

Nazarimizda, ushbu modellarning har biri o'z yutuq va kamchiliklariga ega. Ularni shunchaki tatbiq qilib bo'lmasligi ham

³⁹ <https://review.uz/uz/post/ijtimoiy-sugurta-modellari-jahon-tajribasi-va-ozbekiston-amaliyoti>

aniq. O'zbekiston ijtimoiy ta'minot sohasida o'z modeliga ega va u ijtimoiy kafolat tizimining o'zgaruvchan xususiyatiga mos tarzda takomillashib boradi.

Quyida ayrim mamlakatlardagi ijtimoiy ta'minot tizimini mexanizmlarini qisqacha keltirib o'tsak.

Shvetsiyada tovon puli xarajatlarining aksariyati korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy va markaziy hokimiyat organlari ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirishda ishtirok etishadi. Sug'urtalangan shaxslarning sug'urta badallari ahamiyatsiz. *Germaniyada* ish haqining yo'qolishi bilan bog'liq to'liq yoki qisman tovon puli to'lash mavjud. Bunda sug'urta hodisalari uchun tovon puli davlat tomonidan emas, balki notijorat kompaniyalar (xodimlar va ish beruvchilar tomonidan boshqariladigan maxsus tuzilmalar) tomonidan amalga oshiriladi. *Irlandiyada* asosan yashash minimumini ta'minlashga e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy sug'urta budjeti davlat budjetiga kiritilgan. Sug'urta hodisasi natijasida davlat fuqarolarga kafolatlangan daromad bilan ta'minlash majburiyatini oladi. *AQShda* ijtimoiy ta'minot mamlakat yoki davlat darajasida amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urta dasturlari bilan ta'minlanadi. Yagona ijtimoiy ta'minot tizimi mavjud emas. Ijtimoiy sug'urta xodimlar va ish beruvchilarning soliqlari hisobiga shakllanadigan sug'urta fondlari hisobidan amalga oshiriladi. *Xitoyda* ijtimoiy xarajatlar davlat, korxonalar, kasaba uyushmalari, xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. *Rossiyada* sug'urta to'lovlari (bir martalik va oylik) Rossiya Federatsiyasining Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda shikastlanish holatlarida, masalan yetkazilgan ma'naviy zarar uchun ish beruvchi tomonidan tovon puli to'lanadi.

O'tish davrida sotsial muammolarning yuki ortadi. Yo'lga tushgan karvon kabi sotsial sohaning muammolari ham borgan sari ortib boradi. Shu ma'noda sotsial sohada yuzaga keluvchi muammolarning yechimini modellashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda eng muhim muammolar rivojlanishi tendensiyalari o'z vaqtida aniqlanishi katta ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston sotsial hayotida yuz berayotgan yirik o'zgarish va muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim.

O'zbekistonda hozirgi kunda ijtimoiy ta'minot tizimida boshqaruv idoralari hisoblangan ijtimoiy ta'minot tizimlari mavjud. Shuningdek, yolg'iz nogironlarga va qariyalarga mo'ljallangan o'nlab

internat uylari, nogironlik sababi va guruhini belgilovchi tibbiy ekspertiza komissiyalari, xususan, nogironlikni ekspertiza qilish va nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklash bo'yicha bitta ilmiy-tekshirish instituti faoliyat yuritmoqda. Pensionerlarning davolanishi va dam olishiga mo'ljallangan bir qancha maxsus sanatoriyalar ishlab turibdi.

Kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali muhtoj oilalarga moddiy yordam to'lovlarini moliyalashtirishning asosiy manbai respublika va mahalliy budjet vositalari hisoblanadi.

Ma'lumki, mustaqil taraqqiyotimizning ilk davridanoq "inson - jamiyat - davlat" o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona yechimini topish alohida ahamiyat kasb etdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa mamlakatlari, Osiyoning Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlari aynan shu g'oya asosida taraqqiyot yo'lini belgilab, tarixan qisqa davr ichida yuksak taraqqiyotga erishgan edilar. Ikki asrlik demokratik rivojlanish tarixiga ega bo'lgan AQSH ham inson manfaatini taraqqiyotning asosi sifatida qabul qilgan edi. Ma'lum bo'ladiki, O'zbekiston demokratik taraqqiyotning jahon tajribasini sinchiklab o'rgandi. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish va buning tayanchi sifatida insonparvar tuzumni shakllantirish yo'lida islohotlarni amalga oshirish "inson - jamiyat - davlat" tizimidek kuchli uyg'unlikni talab etmoqda.

Muhokama uchun savollar

- 1. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya siyosatining mazmun va mohiyatini gapirib bering?*
- 2. Prezident Sh.Mirziyoyevning asarlarida, ma'ruza va nutqlarida ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya masalalari qanday ifoda qilib berilgan?*
- 3. Ijtimoiy adolat prinsiplarini bayon eting?*
- 4. Ijtimoiy himoya tushunchasiga bo'lgan qanday munosabatlar mavjud?*
- 5. Ijtimoiy himoyaning qanday xorijiy modellari mavjud?*
- 6. O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan muhim islohotlar to'g'risida so'z yuriting?*

**7-MAVZU: XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY
BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH**

Reja:

1. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash

2. O'zbekiston Respublikasining diplomatik aloqalarida demokratik tamoyillar

3. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish

Tayanch so'zlar: xavfsizlik, tolerantlik, millatlararo totuvlikni ta'minlash, diniy bag'rikenglik, diniy tashkilotlar, mudofaa salohiyatini oshirish, milliy xavfsizlik konsepsiyasi, mudofaa doktrinasi, davlatning mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari, davlatning mudofaa sohasidagi siyosati quyidagi prinsiplar, kiberxavfsizlik, etnik guruhlar, millatlararo bag'rikenglik, millatlararo munosabatlar, diplomatik aloqalarida demokratik tamoyillar, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyati yo'nalishlari, maqsadi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi.

1. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash

Xavfsizlikni ta'minlash va mudofaa salohiyatini oshirish. Bugun tez o'zgarayotgan dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash eng muhim masala hisoblanadi. Har bir davlat ushbu yo'nalishda o'ziga xos ichki va tashqi siyosat yuritadi. O'zbekiston Respublika Milliy xavfsizlik konsepsiyasida mamlakatdagi vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan tashqi va ichki tahdidlarga javob berish bo'yicha yangicha yondashuvlar aks ettirilgan. Amaldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida"gi qonun 1997-yilda qabul qilingan edi. Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish 2018-yilgi Davlat dasturi loyihasidan o'rin olgan. Konsepsiyada milliy xavfsizlikka tahdidlar va xalqaro vaziyatning o'zgarishlariga adekvat javob qaytarilgan.

1995-yil 30-avgustda "O'zbekiston Respublika harbiy doktrinasi to'g'risida"gi Oliy Majlis qarori qabul qilinadi. Parlament mamlakatning davlat va milliy xavfsizligini mustahkamlash bilan bog'liq vazifalarni hal etishni ta'minlovchi mazkur qonun katta siyosiy va harbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Harbiy doktrina davlatimizning tinchliksevar tashqi siyosiy yo'lini yana bir bor namoyon etdi. U O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tibori va jahon maydonidagi mavqeini oshirdi. Mazkur qaror 2018-yil 9-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotadi. Mazkur doktrinaga asosan O'zbekiston hech bir davlatni o'zining dushmani deb hisoblamaydi va barcha mamlakatlar bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda, o'zaro naf ko'rish, teng huquqlilik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo'li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning buzilmasligi va o'zgarmasligini tan olish asosida quradi.

Ushbu Doktrinada quyidagi asosiy tushunchalarga izohlar berilgan:

davlatning harbiy tashkiloti – davlat boshqaruvi va harbiy boshqaruv organlarining, Qurolli Kuchlarning, urush davri uchun tuziladigan boshqa organlar, muassasalar va maxsus tuzilmalarning, shuningdek mudofaa sanoati kompleksi majmui bo'lib, ularning birgalikdagi faoliyati harbiy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi;

mamlakat mudofaasi – O'zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta'minlovchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborotga oid, tashkiliy va boshqa tUSDagi chora-tadbirlar tizimi;

milliy xavfsizlikka harbiy sohadagi tahdidlar – O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy kuch qo'llanilishi haqiqatan mumkinligini tavsiflovchi omillar;

noqonuniy qurolli tuzilmalar – milliy va xalqaro qonunchilikka xilof ravishda shakllantirilgan, terrorchilik, ekstremistik, jinoiy yoki

boshqa maqsadlarni ko'zlovchi qurolli birlashmalar, otryadlar, guruhlar;

tahdid soluvchi davr – vaqtning turli muddat davom etadigan, qoida tariqasida, harbiy mojaro boshlanishidan oldinga to'g'ri keladigan hamda harbiy-siyosiy vaziyat o'ta keskinlashganligi bilan tavsiflanadigan davri;

favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof-muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat;

qurolli mojaro – davlatlar o'rtasidagi (xalqaro qurolli mojaro) yoki bir davlat hududi doirasidagi (ichki qurolli mojaro) qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, milliy, etnik, diniy va boshqa ziddiyatlarni hal etish maqsadidagi miqyosi cheklangan qurolli to'qnashuv (harakat, janjal) bo'lib, bunda urush holati e'lon qilinmaydi;

harbiy mojaro – davlatlar o'rtasidagi yoki davlatning ichki qarama-qarshiliklarini harbiy kuch qo'llagan holda hal etish shakli bo'lib, bu qurolli kurash olib borishning barcha turlarini, shu jumladan urushlar va qurolli mojarolarni qamrab oladi;

harbiy tajovuz – O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va davlat mustaqilligiga qarshi harbiy kuchni qo'llash;

harbiy xavfsizlik – milliy manfaatlarning harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo'lgan tahdidlardan himoyalanganlik holati.

Mudofaa doktrinasiga ko'ra, davlatning mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. mustaqillikni, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish;

2. davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlash;

3. Markaziy Osiyoda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni, xavfsizlikni, barqarorlikni va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash;

4. davlatning harbiy tashkilotini muntazam ravishda rivojlantirish, uni O'zbekiston Respublikasini qurolli himoya qilishga shay holatda saqlab turish.

Mudofaa doktrinasiga ko'ra, davlatning mudofaa sohasidagi siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

– boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, bundan harbiy tajovuzning oldini olish va uni daf etish hollari mustasno;

– xavfsizlikning bo'linmasligi, o'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi;

– boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ehtimol tutilgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

– harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, har qanday davlatlararo tuzilmadan, agar u harbiy-siyosiy blok etib o'zgartirilsa, chiqib ketish huquqini o'zida saqlab qolish;

– mudofaaning yetarli darajada bo'lishi;

– harbiy qurilishning zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga monand bo'lishi;

– yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini ishlab chiqarish, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechish;

– Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi shartnoma prinsiplariga sodiqlik;

– o'z hududida chet el harbiy bazalari va obyektlarining joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaslik;

– Qurolli Kuchlarning xorijdagi tinchlik o'rnatish bilan bog'liq operatsiyalarda va harbiy mojarolarda ishtirok etmasligi;

– xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga va o'ziga xos madaniy tamadduniga tayanish.

*"Mudofaa to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi qonuni dastlab 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan. So'ng unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahrirda 2001-yil 11-mayda tasdiqlanadi. Mazkur qonunda mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari ko'rsatib o'tiladi:

boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tegishli shartnomalar bilan bog'langan davlatlarga yordam ko'rsatish hollari bundan mustasno;

xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish;

harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;

harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning xususiyatiga monand bo'lishi;

yadroviy va boshqa turdagi yalpi qirg'in quollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, olishni, saqlashni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish;

Qurolli Kuchlarning, iqtisodiyotning, aholining, hududning tajovuzni daf etishga doim shay turishi;

mudofaaning yetarli darajada bo'lishi;

harbiy xizmat sharafligi ekanligini ta'minlash.

Qurolli Kuchlar urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar va qismlarni, shuningdek boshqa harbiy tuzilmalarni o'z ichiga oladi. Qurolli Kuchlar o'z faoliyatini qonun ustunligi, markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik borasida doimiy shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida quradi va amalga oshiradi. Harbiy obyektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog', harbiy texnikaning barcha turlari, boshqa harbiy mol-mulklar davlat mulki hisoblanadi va Qurolli Kuchlar tasarrufida bo'ladi. Mudofaaga va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni amalga oshiradi. Urush davrida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri bir paytning o'zida Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni o'rinbosari hisoblanadi. Qurolli Kuchlar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga tezkor rahbarlikni Qurolli Kuchlar Bosh shtabining boshlig'i amalga oshiradi.

Urush davri urush holati e'lon qilingan vaqtdan yoki harbiy harakatlar amalda boshlanib ketgan paytdan e'tiboran boshlanadi hamda harbiy harakatlar to'xtatilganligi e'lon qilingan vaqtdan e'tiboran, lekin bunday harakatlar amalda to'xtatilganidan keyin tugaydi. Urush davri sharoitida Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni tomonidan Qurolli Kuchlarga va mamlakat iqtisodiyotiga rahbarlikni amalga oshiradigan vakolatli organ tuzilishi mumkin. Cheklangan doiradagi harbiy nizolar (harakatlar va qurolli to'qnashuvlar) qurolli mojarolar deb hisoblanadi, bunda urush holati e'lon qilinmaydi. Qurolli mojarolar kelib chiqqan va O'zbekiston Respublikasi bu mojarolarga tortilgan taqdirda Qurolli Kuchlar darhol ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'radi.

“Mudofaa to'g'risida”gi qonunga ko'ra quyidagilar mudofaa sohasida alohida vakolatlarga ega:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
4. Qurolli Kuchlarning Bosh shtabi;
5. Harbiy okruglar;
6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar;
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Bundan tashqari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hamda fuqarolar O'zbekiston mudofaasini ta'minlashda ishtirok etadilar.

Bugungi kunda kiberxavfsizlik masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2020-yilda dunyo miqyosida 1120 ta keng ko'lamli kiberhujum qayd etilgan. 20 milliarddan ortiq ma'lumotlarga buzib kirilgan. O'zbekistondagi holat 2020-yilda “Uznet” manzilidagi veb-makonda 27 milliondan ortiq zararli va shubhali xurujlar, axborot tahdidlari aniqlandi. Kiberxavfsizlikka oid 342 ta holat qayd etildi. Shuning uchun ham mazkur soha xavfsizligiga e'tibor berish dolzarblashmoqda. Kiberxavfsizlik hozirda yangi kirib kelgan tushunchalardan biri bo'lib, unga berilgan turlicha ta'riflar mavjud. Xususan, CSEC2017 Joint Task Force manbasida kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif berilgan: kiberxavfsizlik – hisoblashlarga asoslangan bilim sohasi bo'lib, buzg'unchilar mavjud bo'lgan sharoitda amallarni to'g'ri bajarilishini kafolatlash uchun o'zida texnologiya, inson, axborot va jarayonlarni mujassamlashtiradi. U xavfsiz kompyuter tizimlarini yaratish, amalga oshirish, tahlilash va testlashni o'z ichiga oladi. Kiberxavfsizlik ta'limning mujassamlashgan bilim sohasi bo'lib, qonuniy jihatlarini, siyosatni, inson omilini, etika va risklarni boshqarishni o'z ichiga oladi. Tarmoqlar sohasida faoliyat yuritayotgan Cisco tashkiloti esa kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif bergan: Kiberxavfsizlik – tizim, tarmoq va dasturlarni raqamli hujumlardan himoyalash amaliyoti. Ushbu kiberhujumlar odatda maxfiy axborotni boshqarish, almashtirish yoki yo'q qilishni; foydalanuvchilardan pul undirishni; normal ish faoliyatini buzishni maqsad qiladi.

Axborot xavfsizligi tushunchasi bilan kiberxavfsizlik tushunchasi o'zaro bir-biridan farq qiladi. Axborot xavfsizligi sohasi

axborotning ifodalanishidan qat'iy nazar – qog'oz ko'rinishdagi, elektron va insonlar fikrlashida, og'zaki va vizual aloqada intellektual huquqlarini himoyalash bilan shug'ullanadi. Kiberxavfsizlik esa elektron shakldagi axborotni (barcha holatlardagi, tarmoqdan to qurilmagacha bo'lgan, o'zaro birga ishlovchi tizimlarda saqlanayotgan, uzatilayotgan va ishlanayotgan axborotni) himoyalash bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, hukumatlar tomonidan moliyalashtirilgan hujumlar va rivojlangan doimiy tahdidlar (Advanced persistent threats, APT) ham aynan kiberxavfsizlikka tegishlidir. Qisqacha aytganda, kiberxavfsizlikni axborot xavfsizligining bir yo'nalishi deb tushunish uni to'g'ri anglashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrda PQ-4024-sonli Qaroriga muvofiq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, apparat vositalari va dasturiy mahsulotlar, himoya vositalari va boshqa texnik vositalarga texnik topshiriqlar bo'yicha xulosalar "Kiberxavfsizlik markazi" DUK bilan majburiy tartibda kelishilishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Yuqoridagidan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda "Kiberxavfsizlik markazi" DUK tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, apparat vositalari va dasturiy mahsulotlar, himoya vositalari uchun ishlab chiqilgan texnik topshiriqlar ekspertizadan o'tkaziladi.

2020–2023 yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi. Bu haqda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi va 2020 yil Davlat dasturi loyihasida qayd etilgan.

Hujjatga asosan xavfsizlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek, tashqi siyosat sohasida:

2020-yil 1-sentyabrga qadar kiberxavfsizlikning huquqiy asoslarini shakllantirish bo'yicha choralar ko'rilishi, shu jumladan 2020–2023 yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilishi belgilangan edi. Mazkur qonun loyihasida:

- axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish;

- kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari
- va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiyalash nazarda tutiladi.

Diniy bag'rikenglik ta'minlash. Mamlakatimizda turli dinga mansub qadriyatlar birdek e'zozlanadi. Fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan bo'lib, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Avvalo, diniy bag'rikenglik tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Diniy bag'rikenglik – bu g'oya xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda buyuk g'oya va niyatlar yo'lida hamjihat, hamkor bo'lib yashashini, faoliyatini anglatadi⁴⁰.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida jami 35 mln.dan ortiq aholi istiqomat qilmoqda. Ular o'z e'tiqodini amalga oshirishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, yurtimizda bugungi kunda jami 2282 ta diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Shundan, 2072 tasi islomiy, 166 tasi xristian tashkilotlari, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoasi, bittadan Krishna jamiyati va Budda ibodatxonasi hisoblanadi. O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur diniy tashkilotlar orasida diniy ta'lim muassasalari ham o'rin olgan.

Yurtimizda Xalqaro Islom akademiyasi, Toshkent Islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, yana 9 ta madrasa, jumladan 2 ta ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar bilim yurti, qolaversa, Toshkent provaslav diniy seminariyasi, Toshkent protestant seminariyasi kabi diniy bilim yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida hamda tasavvuf ilmi maktablari ochilgan. Islom sivilizatsiyasi markazi va 2 ta xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston to'liq Injil xristianlari markazi, O'zbekiston Injil xristianlari-baptistlar cherkovlari ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda.

Islomiy ta'lim muassasalari soni 11 taga yetkazildi. Buxoroda Oliy madrasa tashkil etildi. Toshkent islom institutida 3 yillik

⁴⁰ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Falsafa qomusiy lug'at, Milliy istiqlos g'oyasi A.Абдуллаев

maxsus sirtqi bo'lim ochildi, diniy o'quv yurtlari qoshida o'quv kurslari yuritildi, Qur'oni karim qiroati bo'yicha "Tahfizul Qur'on" guruhlari faoliyat boshladi, qabul kvotalari 150 foizga oshirildi. Mamlakatimiz bo'yicha 15 ta masjid qaytadan barpo etildi, 55 ta masjid kapital ta'mirlandi. Birgina Surxondaryo viloyatining olis hududlarida 4 ta yangi masjid ish boshladi, yana 4 tasini ochish rejaga kiritildi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi islomiy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organi bo'lib, musulmonlarni ma'naviy birlashtirish, Respublika fuqarolariga ma'naviy ko'mak va xayriya ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Uning huzurda "Vaqq" xayriya jamoat fondi tuzildi..

Bugungi kunda mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Konfessiya bu - (lot. confessio - mazhab, dinga e'tiqod qilish) - alohida olingan biron-bir din (masalan islom) doirasida o'zining diniy ta'limotiga ega bo'lgan, ibodat qilishning o'ziga xos xususiyatlariga hamda ma'lum bir ichki tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan ibodat qiluvchi, xudoga sig'inuvchilarining birlashmasidir.

Mamlakatimizdagi diniy konfessiya vakillari ahil-inoq yashab, jamiyat hayotini ravnaq toptirish yo'lida samarali mehnat qilmoqda. Ular o'z diniy bayramlari va e'tiqod amallarini emin-erkin ado etmoqda. Respublika Baynalmilal madaniyat markazi barcha fuqarolarning milliy qadriyatlarini rivojlantirish, ularning o'zaro ahilligi va hamjihatligini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda. Amaliy natijalar qatorida aytish mumkinki, Respublikada Yunesko rahnamoligida "Jahon dinlari-tinchlik va madaniyat yo'lida" mavzusida dinlararo muloqot xalqaro Kongressi, musulmon va xristian ilohiyotchilari hamkorligida "Bir samo ostida" xalqaro xristian-musulmon konferensiyalari o'tkazildi. Mazkur konferensiyalar natijasida mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan Rus pravoslav cherkovining 125 yilligi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining 130 yilligi, Yevangel-Lyuteran jamoasining va Rim-katolik cherkovining hamda Arman apostollik cherkovining 100 yilliklari keng miqyosda nishonlandi. 1998-yildan e'tiboran Toshkent Pravoslav hamda Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikada Qur'oni karim, Qadimgi Ahdning 16 kitobi va Yangi Ahd to'liqligicha o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. O'zbekiston musulmonlari idorasi rahbarligi ostida Misrdagi "Dorus-salom" nashriyoti va Azhari sharif huzuridagi ilmiy akademiya bilan Qur'oni karimni chop etish bo'yicha kelishuvga erishilib, o'zimizda Qur'oni karim chop etilmoqda. Shu o'rinda qayd etish kerakki, ko'zi ojiz mo'min-musulmonlar uchun brayl yozuvidagi Qur'oni karim nusxasini chop etish bo'yicha O'zbekiston dunyodagi uchinchi davlat hisoblanadi. Yuzlab masjid, cherkov va ibodatxonalar, shu jumladan, Toshkent, Samarqand va Navoiydagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkentdagi katolik kostyoli, Samarqanddagi Arman cherkovi qurildi va ta'mirlandi. O'zbekiston musulmonlari idorasining oyda ikki marta chiqadigan "Islom nuri" gazetasi va oylik "Hidayat" jurnallarini chop etilmoqda, shuningdek, idora huzurida mustaqil "Movarounnahr" nashriyoti ham faoliyat yuritmoqda.

Masjid imom-xatiblarning maxsus o'quvlarini tashkil etish hamda buyuk ajdodlarimizning merosini puxta va chuqur o'rganish maqsadida, 2008-yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro markazi ta'xis etildi.

Har yili umra va muqaddas Haj safariga borayotgan ziyoratchilarimizga safar bilan bog'liq viza hujjatlari, aviachiptalarni rasmiylashtirish, Saudiya Arabistonida joylardagi sharoitlar, mehmonxona va boshqa masalalarda mutasaddi tashkilotlar bilan uyushqoqlikda ishlar amalga oshirilmoqda. 1992-yilda 370 nafar, 2000-yilda 1380 nafar, 2016-yilda 6 ming, 2018-yilda 10 ming nafardan ziyod fuqarolarimiz bahorgi mavsumda Umra ziyoratini amalga oshirib kelishga muvaffaq bo'ldilar. 2019-yildan esa mazkur kvotalar butkul olib tashlandi. Shuningdek, 1992-yilda 500 nafar, 2000-yilda 3840 nafar, 2016-yilda 5200 nafardan ziyod, 2017-yilda 7200 nafar, 2018-yilda 5 ming fuqarolarimiz Haj safariga borib keldilar.

Bulardan tashqari yurtimizdan noislomiy tashkilotlar tomonidan ham xristian va yahudiylar uchun muqaddas qadamjolariga ziyoratlar tashkil etilib kelinmoqda. Har yili 1500 dan ortiq noislomiy konfessiya vakillari Toshkent va O'zbekiston

yeparxiyasi tomonidan Isroil, Gretsiya, Rossiyadagi muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil etish yaxshi an'anaga aylandi⁴¹.

YuNESKO Bosh konferensiyasining 1995-yil 16-noyabrda bo'lib o'tgan 18-yig'ilishida "Bag'rikenglik bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi" shiori ostida "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" qabul qilingan edi. 1997-yil BMTning Bosh Assambleyasida esa mazkur Deklaratsiya qabul qilingan kun – 16 noyabr Xalqaro diniy bag'rikenglik kuni deb e'lon qilindi. 1998-yil 6-noyabrda Toshkentda o'tkazilgan YuNESKO Ijroiya kengashining 155-sessiyasida "Tinchlik madaniyati" qabul qilindi. Mazkur konsepsiya BMT tomonidan ma'qullanib, 2000-yil "Xalqaro tinchlik madaniyati yili", 2001-yil esa "Xalqaro madaniyatlararo muloqot yili" deb e'lon qilindi. Bugungi kunda uning normalari respublikamiz qonunlariga to'liq implementatsiya qilingan va hayotimizga samarali tatbiq etilmoqda.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekani ta'kidlanadi. Jumladan, 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 18-moddasida "Har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir", deb ta'kidlangan. 1966-yili qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"da ham "Biror odam ham o'z ixtiyori bilan o'z dini va e'tiqodiga ega bo'lish yoki ularni qabul qilish erkini kamsitadigan majburiy xatti-harakatlarga duchor bo'lmasligi kerak", deb ko'rsatilgan. Bu diniy bag'rikenglik xalqaro huquqiy normalar muhofazasida ekanligidan dalolat beradi.

Bosh qomusimiz – Konstitutsiyaning 31-moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egaligi va diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. 34-moddasida esa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egaligi qayd etilgan. 58-moddasida ko'rsatilishicha, davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga

⁴¹ Саидов А.Х. Религиозная толерантность и светская государства в Узбекистан по прав человека, 2002. Б. 57.

rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar yaratib beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning madaniyati, tili, urf-odat va an'analari hurmat qilinishi qator qonun hujjatlarida ham aks ettirilgan. Masalan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning "Bilim olish huquqi" deb nomlangan 4-moddasida har kimga uning milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, bilim olishda teng huquqlar kafolatlanishi alohida qayd etilgan. Yoki "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunni olaylik. Mazkur qonunning "Murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda kamsitishga yo'l qo'yilmasligi" deb nomlangan 10-moddasida davlat organlariga murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda jismoniy shaxsning millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodiga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda faoliyat yuritadigan barcha diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, 2021-yil 5 iyulda qabul qilingan qayta qabul qilingan, jami 35 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuniga va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi. Mazkur qonun bilan quyidagi asosiy tushunchalarga huquqiy ta'riflar berildi:

diniy ta'lim muassasasi – muayyan konfessiyaga mansub bo'lgan, diniy tashkilotlarning professional xizmatchilarini va ular uchun zarur bo'lgan diniy xodimlarni tayyorlash uchun diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruv organi tomonidan tashkil etilgan muassasa;

diniy tashkilot – fuqarolarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan, birgalikda dinga e'tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni bajarish maqsadida tashkil etilgan, daromad (foyd) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan ko'ngilli birlashmasi (mahalliy diniy tashkilot, diniy ta'lim muassasasi va diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruv organi);

missionerlik – aniq maqsadga qaratilgan mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali shaxsni (bir guruh shaxslarni) o'z diniga kiritish

maqsadida unga (ularga) diniy qarashlarni majburan singdirishga va diniy ta'limotni tarqatishga doir faoliyat;

qonunga xilof diniy faoliyat – diniy tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish, diniy tashkilot tomonidan faoliyatni o'zi turgan joydan, shu jumladan ibodat qilinadigan binolardan va diniy tashkilotga tegishli hududlardan tashqarida amalga oshirish, shuningdek diniy ta'lim muassasalaridan tashqarida xususiy tartibda diniy ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish;

prozelitizm – missionerlik faoliyatining bir konfessiyaga e'tiqod qiluvchilarni boshqa konfessiyalarga o'tkazishga qaratilgan shakli.

Diniy bag'rikenglik g'oyalari, dinlararo do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bunday keng qamrovli tadbirlar yurtimizda diniy rasm-rusumlarning emin-erkin bajarilishiga omil bo'lmoqda. Biroq bunday holat ogohlilikni susaytirish, bexavotirlikka berilishga asos bo'la olmaydi. Zotan, yaratilgan erkinliklar, qulay shart-sharoitlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishga, noto'g'ri ta'limot orqali aholi, ayniqsa, yoshlarni haqiqat yo'lidan adashtirishga urinayotganlar ham uchrayotgani kishini tashvishga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuj qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi, – deya belgilab qo'yilgan.

Axborot tarqatish osonlashgan bir paytda missionerlar o'z mutaassib qarashlarini turli shakl va usullarda yoyishga urinmoqdalar. Farzandlarimizni ularining qabih istaklari qurboniga aylantirishda internet tarmog'i ular uchun har jihatdan qulay va samarali vosita bo'lib xizmat qilayotgani ham bor gap. Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning 30 foizini behayolik, 23 foizini diniy-ekstremistik, 14 foizini ijobiy ma'lumotlar, 12 foizini o'z joniga qasd qilish, 11

foizini shafqatsizlik va zo'rvonlik, 10 foizini millatlararo nizo chiqarishga qaratilgan axborotlar tashkil etadi.

Yurtimizda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lishiga qaramay, ular yashirin sektalar tuzib, fuqarolarni turli usullar bilan to'g'ri yo'ldan og'dirishga urinishlarining o'zi jaholat belgisi emasmi? Vaholanki, vijdon erkinligi hukm surgan respublikamizdagi diniy tashkilotlar mustaqil huquqiy shaxs sifatida yer maydoni va binolarga ega bo'lishlari, diniy adabiyotlar nashr etishlari, diniy mutaxassislar tayyorlashlari, turli tadbirlar o'tkazishlari, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil etishlariga keng yo'l ochilgan.

Birinchi Prezident I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" deb nomlangan asarida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida to'xtalar ekan: "Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlaridan, tarixiy va madaniy merosidan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon dinning davlat hokimiyati uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki, bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz", - deb ta'kidlagan edi. Yoxud "Oллоh qalbimizda, yuragimizda" nomli risolasidagi quyidagi fikrlarida yaqqol ifodasini topgan: "...Biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz".

Prezident Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida: "Biz muqaddas dinimizni zo'rvonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi", deb yuksak jur'at bilan aytgan mana shu chiqishlari katta jasorat bo'ldi. Shunday ekan, bugungi kunda dinning asl mohiyatini asrash va targ'ib etish, uni turli noto'g'ri qarashlardan himoyalash, dinning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlarni kuchaytirish - davr talabiga aylandi.

2017-yil 14-fevral kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Imom Termiziy Xalqaro ilmiy-tadqiqot Markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori turli mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda ajdodlarimizning ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ulardagi ezgu g'oya va ta'limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog'lom dunyoqarashni kuchaytirish, ularni azaliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu markaz tomonidan Imom Termiziy, Hakim Termiziy va termizlik boshqa olimlarning 20 dan ortiq asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Adashib yoki aldanib taqiqlangan tashkilot va guruhlarga kirib qolgan fuqarolarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibi tasdiqlandi. Davlat rahbari tashabbusi bilan turli diniy oqimlarga a'zolar ro'yxatida bo'lgan 16 ming nafardan ziyod kishi ro'yxatdan chiqarildi.

Diniy sohada olib borilgan islohotlar tufayli AQShning Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha komissiyasi (USCIRF) O'zbekistonni diniy erkinlik sohasidagi alohida xavotirga molik davlatlar hamda "diniy erkinlikni tizimli, davomiy va jiddiy ravishda buzish"da ishtirok etuvchi davlatlar ro'yxatidan chiqardi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlash. Bugungi kunda ko'p millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekiston uchun ham millatlararo totuvlik g'oyat muhim masaladir. Millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Hozirgi kunda yer sharida 1600 dan ortiq etnik guruhlar ma'lum. Ushbu etnoslarning ko'pchiligi o'z milliy davlatchiligiga ega emas. Dunyo siyosiy xaritasida ikki yuzdan ortiq davlat borligi ham buning isbotidir.

So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri — jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Bundan yuz yil avval mamlakatimiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926-yilda yurtimizda 90 millat va elat yashagan bo'lsa, 1959-yilda ularning soni 113 taga, 1979-yilda 123 taga yetgan. Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar sur'atini, keng ko'lamlı demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O'zbekiston xalqi yagona g'oya – O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olijanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatları va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi" – deb belgilab qo'yilgan bo'lsa, 8-moddasida esa O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi, deb mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, 18-moddasida ham "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini,

ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar" deb qayd etilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillaridan iborat qariyb 146 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, 10 dan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda.

Ma'lumki, Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida 1992-yil yanvarda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilgan edi. Ushbu markaz jamiyatimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, milliy va umumbashariy an'analarni ravnaq toptirish, ularning mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Tashkil etilayotgan ko'plab tadbirlar, konsert dasturlari, kechalar, festivallar, ko'rik-tanlovlar, konferensiyalar shular jumlasidandir. Masalan, "O'zbekiston - umumiy uyimiz", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "Qudratimiz - birlik va hamjihatlikda" kabi shiorlar ostidagi festivallar ko'p millatli aholimizning chinakam do'stlik bayramiga aylanib ulgurdi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish marosimidagi nutqida ham mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek saqlash hamda mustahkamlashni o'zining ustuvor vazifasi, deb hisoblashini alohida ta'kidlagan edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev uchrashuvda ushbu muhim masalaga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratib, milliy madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur barcha ishlar amalga oshirilishini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yiliga bag'ishlangan uchrashuvda nutq so'zladi. Unda poytaxtimizdagi ilgari "O'zbekiyengilsanoat" aksiyadorlik jamiyatiga tegishli bo'lgan Bobur ko'chasidagi binoni Respublika baynalmilal madaniyat markaziga berishni va uni *Do'stlik saroyi* deb nomlashni hamda ana shu binoning yonida joylashgan va mustaqillik yillarida Respublika

baynalmilal madaniyat markazi o'zining ko'plab tadbirlarini o'tkazib kelayotgan bog'ni "Do'stlik bog'i" deb nomlashni taklif etdi. Shuningdek, Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida Navro'z bayrami arafasida ochiladigan yangi bog' esa endi buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan ataladigan bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-yanvarda qabul qilingan farmoniga muvofiq Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan milliy madaniy markazlarning bir guruh faollari faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandi. Mustaqillik yillarida Respublika baynalmilal madaniyat markazi va milliy madaniy markazlarning 100 dan ortiq faollari faxriy unvonlarga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi. Turli millatlar vakili bo'lgan 14 nafar fuqaromiz O'zbekiston Qahramoni degan yuksak unvon bilan mukofotlanganini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 5.1-bandida Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishida millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash alohida vazifa etib belgilab berilganligi ham bejiz emas. 2019-yil 15-noyabrda "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston

Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash va xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori va imijini oshirish;

O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Shuningdek, mazkur farmon bilan millatlararo bag'rikenglik va millatlararo munosabatlar tushunchalariga huquqiy ta'rif berildi:

millatlararo bag'rikenglik — fuqarolik jamiyatining ijtimoiy normasi bo'lib, boshqa millat va elatlar vakillarining umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lmagan nuqtai nazarlariga, dinlari, urf-odatlari, an'analari va madaniyatiga nisbatan murosai madorada namoyon bo'ladi;

millatlararo munosabatlar — mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o'rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlardir.

Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar fuqarolarning teng huquqlari va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash;

ko'p millatli O'zbekiston xalqining birligini, millat va elatlarning tiliga, huquqiy maydon doirasidagi urf-odatlari va

an'analariga izzat-hurmat munosabatini mustahkamlash, ularning to'la huquqli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, jipslik, insonparvarlik va bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash;

respublikaning barcha millat va elatlari sa'y-harakatlarini olijanob g'oya — mamlakat suverenitetini mustahkamlash va barqaror rivojlantirish, davlatning hududiy yaxlitligini mustahkamlash maqsadlariga erishish g'oyasi atrofida birlashtirish, kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatini va demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayonlarida ularning faol ishtirokini ta'minlash;

millatchilik va shovinizm namoyon bo'lishi ehtimoliga qarshi kurashish, fuqarolarning millatiga qarab kamsitilishiga hamda Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'ymaslik.

Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning teng huquqliligi;

- ijtimoiy adolat;

- qonun ustuvorligi;

- millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, shu jumladan chet ellarda yashovchi fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi.

2008-yil 12-fevralda Belgiyada "Konfessiyalararo uyg'unlikni ta'minlashda O'zbekiston tajribasi" mavzusiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro seminarda Leven katolik universiteti professori Yu.Yansening "O'zbekiston tolerantlik va diniy sabr-toqatlik ruhini asrash va rivojlantirish bo'yicha boshqa ko'pgina davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin"- deya, ta'kidlashi O'zbekistonda bu sohada olib borilayotgan ishlar muayyan natijalar berayotganligini ko'rsatadi. Binobarin, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash va mustahkamlash, mamlakat milliy g'oyasi – "Ozod va obod Vatan,

erkin va farovon hayot barpo etish"ning muhim tarkibiy qismi va shartidir.

O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida olib borayotgan faol harakatlari natijasida 2018-yilning 12-dekabr kuni O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining maxsus "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi. Rezolyutsiyaning asosiy maqsadi barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berish hamda jamiyatda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan ushbu hujjat loyahasini BMTga a'zo barcha mamlakatlar qo'llab-quvvatladi. Rezolyutsiya Shimoliy va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alardagi 50 dan ortiq mamlakatlarning hammuallifligida qabul qilindi.

Hujjatda quyidagilar o'rin olgan:

- Ma'rifat, tinchlik, inson huquqlari, bag'rikenglik va do'stlikni targ'ib qilishning muhim roli ta'kidlangan;
- Integratsiya, o'zaro hurmat, inson huquqlarini himoya qilish, bag'rikenglik va o'zaro tushunishning dunyoda xavfsizlik va tinchlikni mustahkamlash yo'lidagi ahamiyati tan olingan;
- Dinlararo, madaniyatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirishga va shaxslarga nisbatan din yoki e'tiqod asosida kamsitishlarga qarshi kurashishga qaratilgan barcha xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar qabul qilingan.

Shuningdek, hujjat barcha a'zo davlatlarni fikr, vijdon, din yoki e'tiqod erkinligini himoya va targ'ib qilish bo'yicha say-harakatlarni faollashtirishga chaqiradi. A'zo davlatlarga OAV, Internetda keng miqyosli targ'ibot ishlarini olib borish va bag'rikenglik, zo'ravonlikka qarshi qaratilgan hamda din yoki e'tiqod erkinligi to'g'risida ma'rifiy ma'lumotlarni tarqatish taklif etilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari orasida ahil qo'shnicilik hamda millatlararo totuvlikni ta'minlash maqsadida 2019-yilning 15-noyabr kuni Toshkent shahrida xorijiy mamlakatlar ekspertlari va olimlari ishtirokida "Markaziy Osiyo - umumiy uyimiz" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorligini mustahkamlash,

madaniy-gumanitar sohada almashinuvni kengaytirish, ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda xalq diplomatiyasi rolini kuchaytirish, xalq diplomatiyasini amalga oshirishda milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarining ahamiyati va ular oldida turgan vazifalar va boshqa dolzarb masalalar muhokama qilindi. Shu bilan bir qatorda, 2019-yilning 11-16 noyabr kunlari O'zbekistonda "Bag'rikenglik haftaligi" doirasida "Xalqaro bag'rikenglik kuni"ga bag'ishlangan tadbirlar majmuasi bo'lib o'tdi. Haftalik davomida "O'zbekiston - umumiy uyimiz" mavzusidagi festivalning yakuniy qismi va rassomlar asarlari ko'rgazmasi, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarining fuqarolik forumi, san'at ustalari va milliy madaniy markazlar qoshidagi badiiy jamoalarning katta konserti, "Markaziy Osiyo - umumiy uyimiz" mavzusidagi xalqaro konferensiya hamda respublikaning umumta'lim maktablari va akademik litseylarida Bag'rikenglik festivali o'tkazildi.

Shuningdek, 2019-yil davomida O'zbekistonda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali" (5-10 aprel, Termiz shahri), "Sharq taronalari" (26-30 avgust, Samarqand shahri) va "Xalqaro hunarmandchilik festivali" (10-15 sentyabr, Qo'qon shahri) o'tkazildi. Ushbu yirik tadbirlar mamlakatlar orasida do'stona va madaniy gumanitar aloqalarni mustahkamlash, o'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, Sharq mamlakatlari xalqlari milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash hamda mamlakatda xalq amaliy san'atini rivojlantirish, uning milliy qadriyatlardagi davomiyligini saqlash maqsadida tashkillashtirildi.

Qolaversa, 2019-yilda O'zbekiston yaqindan hamkorlik o'rnatgan xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda mamlakat Prezidenti topshirig'iga binoan 2 ta - "Mehr" va "Mehr-2" insonparvarlik aksiyalari o'tkazilib, ular doirasida 261 nafar O'zbekiston fuqarosi - asosan xotin-qizlar va bolalar Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli mojarolar kechayotgan hududlardan o'z vataniga qaytarildi. 2020-yilning dekabrda "Mehr-3" operatsiyasi bilan Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 2021-yilda "Mehr-4" operatsiyasida esa 24 nafar fuqaro Afg'onistondan, "Mehr-5" operatsiyasi doirasida 24 nafar ayol va 69 nafar bolalar Suriyadan

O'zbekistonga qaytarildi. Aldov oqibatida o'zga yurtga borib qolib, og'ir davrni boshidan o'tkazgan bu insonlarga Hukumat tomonidan tibbiy, psixologik, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Ularning tinch hayotga qaytib, jamiyatga moslashishlari, ta'lim va ijtimoiy dasturlarda ishtirok etishlari uchun zarur sharoitlar yaratildi, ularni boshpana va ish bilan ta'minlash choralari ko'rildi.

Shuningdek, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY doimiy kengashining 37-majlisida 2020-yilda Xiva shahri turk dunyosining madaniy poytaxti, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti – AYSESKO tomonidan esa "Buxoro – 2020 yilda islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilindi.

2.O'zbekiston Respublikasining diplomatik aloqalarida demokratik tamoyillar

Mustaqillikning ilk yillari, jumladan 1992-yil yanvar oyining oxiriga kelib, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi rasman jahonning 83 mamlakati tomonidan tan olindi⁴². Diplomatik munosabatlar 8 ta xorijiy mamlakat bilan o'rnatildi⁴³. Mustaqillikning bir yilligiga kelib, uni 125 davlat tan oldi va 40dan ortiq mamlakat bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi⁴⁴.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari, 1 ta bosh konsullik, 8 ta faxriy konsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi. O'zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilindi. 1993-yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi.

⁴² Тюриков В., Шагулямов Р. Независимая Республика Узбекистан: Памятные события и даты (1991-1996). – Т.: Узбекистон, - С.18.

⁴³ Узбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги жорий архиви (бундан кейин: ЎЗР ТИВ ЖА). Сиёсий таҳлил ва истиқболни белгилаш бошқармаси материаллари.

⁴⁴ Каримов И.А.А. Узбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. - Т.: Узбекистон. 1992. 6 бет.

BMT Nizomi va Xalqaro huquq tamoyillari bo'yicha qabul qilingan deklaratsiyada 7 ta asosiy tamoyillar qayd etilgan. Ularga quyidagilar kiradi: 1) Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik; 2) Ziddiyatlarni tinch yo'l bilan bartaraf etish; 3) Aralashmaslik; 4) Xalqlarning teng huquqliligi va o'z huquqlarini o'zlari belgilashi; 5) Hamkorlik; 6) Davlatlarning suveren tengligi; 7) Xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish.

Bular YeXHKning 1975 yildagi Yakuniy aktida ro'yxatga olinib, yana 3 ta tamoyil bilan to'ldirildi: 1) Chegaralarning daxlsizligi; 2) Hududiy yaxlitlik; 3) Inson huquqlarini hurmat qilish prinsiplari.

Birinchi Prezident I.Karimov "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" nomli ma'ruzasida (2005-yil 28-yanvarda) tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib o'tgan edi:

1) Davlatimiz tashqi siyosatining ma'no-mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir;

2) Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash. Albatta bunda mintaqada strategik mavhumlik saqlanib qolayotganligini ham tan olish kerak;

3) "Qo'shning tinch – sen tinch" hayotiy naqliga rioya etish;

4) BMT doirasida hamkorlikni rivojlantirish. Shuningdek, YeXHT, Yevropa Ittifoqi, NATO, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bilan demokratik tamoyillar asosida aloqalarni rivojlantirish;

5) Xalqaro terrorism va radikalizmga qarshi kurashda birdamlikni ta'minlash va h.k.

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-bob, 17-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari ishlab chiqilib, asoslab berildi:

1. Suveren tenglik;
2. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;
3. Chegaralarning daxlsizligi;
4. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
5. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

6. Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalariga rioya qilish.

Bu prinsiplar O'zbekistonning manfaatdorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirildi. Birinchi Prezident I.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirish 6 ta amaliy prinsiplarini ishlab chiqdi. Ular:

1) Milliy davlat manfaatlari ustun bo'lgan holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

2) Umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash mojarolarni tinchi yo'l bilan hal etish;

3) Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik, tenglar orasida teng bo'lish;

4) Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar ochiq-oydinlik, barcha davlatlar bilan keng aloqani o'rnatish;

5) Ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan olish;

6) Ham ikki tomonlama ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng o'z tashqi siyosatimizni xalqaro hamjamiyatning to'laqonli subyekt sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi. Endilikda tashqi siyosat mustaqil tarzda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatining strategik yo'li, asosiy qoidalari va maqsadlari, uning ustuvor va mintaqaviy yo'nalishlari, xususiyatlari negizida respublikaning milliy manfaatlari joy olgan. Har qanday siyosat aql-idrok bilan ish tutishni taqozo etadi. Rivojlanayotgan, tez taraqqiy etish uchun kuchli ilmiy, sanoat kuch-quvvatiga ega bo'lgan mamlakatning tashqi siyosati ehtirolardan xoli bo'lishi lozim. Respublikamiz ana shunday davlatlar sirasiga kiradi. Yangi xalqaro iqtisodiy tartib uchun harakat qilish qoidalari O'zbekiston uchun ham diqqatga molik masaladir. Bu xomashyo va sanoat mahsulotlari narx-navolarining adolatli bo'lgan nisbati, rivojlanayotgan davlatlarning fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyati va hokazolardir.

Tashqi siyosat faoliyat uchun huquqiy negiz yaratish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagilar amalga oshirildi:

- yangi xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi;
- sobiq Ittifoq ishtirokchi bo'lgan xalqaro huquqiy hujjatlar majmuasi respublika manfaati nuqtai nazaridan o'rganildi;
- O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos tushadigan hujjatlar ratifikatsiya qilindi;
- mamlakat xalqaro faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

Tashqi siyosat faoliyat uchun huquqiy negiz yaratilishida BMT ustavi, Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari to'g'risidagi boshqa xalqaro paktlar, Xelsinki bitimlari, Parij va Madrid xartiyalari qoidalari Konstitutsiyamizdagi xalqaro huquq prinsiplari va normalariga asos bo'ldi. Bunday konstitutsiyaviy yondashuv, ayniqsa Konstitutsiyaning muqaddimasida, 4- va 26-boblarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu boblarning tegishli ravishda "Tashqi siyosat", "Mudofaa va xavfsizlik" deb nomlanishi ham fikrimizning dalilidir. Xususan, uning 4-bob 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin." - deya keltirib o'tilgan bo'lsa, 26-bob 125-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi".

Manfaat, bu zaruriy ehtiyojdir. Ehtiyojlar esa birinchi galdagi O'zbekiston uchun taraqqiyotning muayyan jug'rofiy va tabiiy, iqlimiy, demografik holatimiz, xalqimizning ko'p millatli tarkibi, uning tarixiy va madaniy merosi, ma'naviyat omili, ishlab chiqarish

kuchlari taraqqiyotining darajasi, xom ashyo va zamonaviy texnologiya bilan ta'minlanganlik, davlatning xalqaro munosabatlardagi o'rni va hokozolardir. Bu omillar O'zbekistonning ehtiyojlarini belgilaydi. Ehtiyojlar esa manfaatlarda o'z ifodasini topadi. Davlat manfaatlari uning tashqi siyosiy faoliyatini belgilaydi. Shu jihatdan, O'zbekistonning tashqi siyosiy manfaatlari xalqaro aloqalarni rivojlantirayotgan, uning tuzilmalari va faoliyatini belgilab berayotgan kuchdir.

Barcha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilishda davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqiladi. Tabiiyki, bunda sheriklarimiz manfaatlari, ular tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisobga olinishi zarur. Zero, o'zaro uzviy bog'liqliksiz tashqi siyosatni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalar faoliyatidagi ishtiroki respublika tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tashkilotlar jahon hamjamiyatiga kirish, xo'jalik aloqalarini o'rganish, ekologiya, tibbiy muammolarni hal etish, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda katta yordam bermoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi tashqi diplomatik aloqalarda amalga oshirilayotgan demokratik siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- 2) davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- 3) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- 4) kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- 5) inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- 6) ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- 7) tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- 8) davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik ustunligi;

9) tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik va boshqalar.

Bu tamoyillarga davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari asos qilib olinadi.

1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi 7 moddadan iborat qonun O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotdi. Mazkur qonun davlat tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad hamda vazifalarni, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda O'zbekistonning milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimini o'rnatdi.

O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillardan iborat:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi harbiy mojarolarga va tang vaziyatlarga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek, o'z hududida xorijiy davlat harbiy bazalari va obyektlari joylashtirilishiga yo'l qo'ymaydi;

Uchinchidan, O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi;

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga, "Mudofaa to'g'risida"gi qonuniga va Harbiy doktrinasiga muvofiq,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faqat davlat suvereniteti va mamlakat hududining yaxlitligini himoya qilish, aholining tinch hayoti va xavfsizligini asrash maqsadidagina tuziladi hamda xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi.

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashishi barqaror ichki rivojlanish uchun qulay tashqi muhit shakllantirishni tezlashtirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatini samarali ilgari surish va jahon bozorida milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini izchil ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya" sini yanada takomillashtirib, uning yangi tahririni ishlab chiqishni ta'kidlab o'tdi. Yangi tahrirdagi "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya" sining asosiy maqsad va vazifalari, deb quyidagilar belgilangan:

- zamonaviy xalqaro sharoitlardagi tashqi siyosiy, tashqi iqtisodiy sohalarda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ilgari surish;

- 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining samarali bajarilishini ta'minlash;

- mamlakatimizning milliy xavfsizligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini mustahkamlash;

- O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi – Markaziy Osiyoda doimiy tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, mintaqa davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, barcha mintaqaviy va ikki tomonlama muammolarni konstruktiv yondashuv, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olgan holda, oqilona murosa va umumiy javobgarlik asosida birgalikda hal etishni ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imiji, o'rni va obro'sini mustahkamlashga qaratilgan barcha davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik va do'stlik munosabatlarining barqaror tizimini barpo etish.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konsepsiyada tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy vazifalarning iyerarxiyasi kengaytirilib, bir qator quyidagi masalalar, ya'ni:

- jahon siyosatining madaniy-sivilizatsiyaviy va gumanitar qismi, diniy omil, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash;

- O'zbekistonning xorijdagi fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan muloqot va hamkorlikni rivojlantirish;

- yangi muhim xalqaro tendensiyalar, shu jumladan, iqtisodiy, tabiiy-xomashyoviy, texnologik va axborot omillarining ahamiyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi tahrirdagi Tashqi siyosiy faoliyat Konsepsiyasi xorijda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini tizimli ravishda ilgari surishga; xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli munosabatlarni va o'zaro manfaatli hamkorlikni muttasil va izchil rivojlantirishga; mamlakatni xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga chuqur integratsiyalashuvi va xalqaro raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yuksaltirish uchun qulay tashqi shart-sharoitlarni yaratishga; mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda samarali mintaqaviy hamkorlik tizimini shakllantirishga; xorijdagi fuqarolari va yuridik shaxslarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish faoliyatini tubdan yaxshilashga hamda davlatning xalqaro imiji va nufuzini yanada mustahkamlashga mo'ljallangan.

Respublika Prezidenti davlatimiz o'z qiyofasini yo'qotmasdan xalqaro talablarga rioya etishga tayyorligini qat'iy tasdiqladi. Bu talablarga rioya etmasdan, xalqaro jahon hamjamiyatiga kirib bo'lmaydi. Bu yerda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosidagi kafolatlar, BMT Nizomi va Xelsinki kelishuvi qoidalari, hujum qilmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, xalqaro huquq qonunlarining milliy qonunlardan ustuvorligi va hokazolar to'g'risida gap bormoqda. Jahondagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar xuddi shunday yondashuv tarafdoridir.

O'zbekiston butun dunyo ko'z o'ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarining boy tarixiga ega bo'lgan, mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro huquq jihatidan O'zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo'lib kelgan

davlatlar ham, davlatchilik tarixi biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham bab-baravardir.

O'zbekiston taraqqiyotning konstitutsiyaviy asosi sifatida inson huquqlari tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviy imkoniyati, uning katta tabiiy va texnik zaxiralari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari demokratik taraqqiyot va inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjudligiga ishonch tug'diradi. Natijada mamlakatimiz amalda diplomatik tan olinishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish uchun yo'l ochildi.

3. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining *bosh maqsadi* – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'zni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Respublika harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik kursiga sodiq bo'lib, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va obyektlarni joylashtirishga, shuningdek, mamlakat harbiy xizmatchilarining chet eldagi tinchlikparvarlik amaliyotlarida yoki harbiy mojaralarda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbekiston barcha qarama-qarshiliklar va nizolarni faqat tinch siyosiy yo'llar bilan hal qilish tarafdori.

Tashqi siyosatimizning *bosh ustuvor yo'nalishi* Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston mintaqa davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettiradi. O'zbekiston tomoni Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'mak berishda davom etadi. Barqaror va ravnaq topayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikning kafolatidir.

MDH mamlakatlari bilan hamkorlik ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tenglik, o'zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini qurishni davom etadi.

O'zbekiston Rossiya bilan 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik hamkorlik, 2005-yil 14-noyabrda Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar hamda 2012-yil 4-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Strategik hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya asosida do'stona munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash va tadrijiy rivojlantirish ikki mamlakat manfaatlariga to'liq mos keladi hamda mintaqadagi tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikki tomonlama munosabatlarning eng muhim vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 4-5-aprelda Rossiyaga davlat tashrifi hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V.Putinning 2018-yil 18-19 oktyabrda O'zbekistonga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni to'liq amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydigan, yaqin mintaqaviy qo'shni Xitoy bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish tarafdori. Xitoy bilan

munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyundagi Strategik hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, 2013-yil 9-sentyabrdagi ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyasi hamda 2017-yil 12-maydagi Har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonotga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 24-27 aprelda "Bir makon, bir yo'l" Ikkinchi xalqaro forum doirasida ilgari surgan tashabbus va takliflarni to'liq va o'z vaqtida amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan 2002-yil 12-mart oyida imzolangan O'zbekiston va AQSh o'rtasida Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi deklaratsiyasi asnosida o'zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston AQSh bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan modernizatsiya jarayoni va islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy-texnologik va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlari Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, transmilliy tahdid va xatarlarga qarshi kurashga ko'maklashishdan iboratdir.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikni asosiy sohalari savdo-sotiqni rivojlantirish, investitsiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilar hisoblanadi. O'zbekiston asosiy e'tiborini Yevropaning ilg'or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e'tibor beradi.

O'zbekiston Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar – Hindiston, Pokiston Malayziya, Indoneziya, Singapur, Vetnam kabi davlatlar bilan hamkorligini rivojlantiradi.

O'zbekiston BMT ishida faol ishtirok etishni davom ettiradi, hamda uni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, tezkor globallashuv jarayonida davlatlarning barqaror rivojlanishida ko'maklashishga mas'ul bo'lgan yagona universal tashkilot sifatida ko'radi.

Mamlakatimiz Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotlari bilan ushbu tuzilmalarning mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashishda, ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish maqsadida o'zaro sherikchilikni yanada rivojlantiradi.

O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banklari bilan energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni olib boradi.

Tashqi siyosatdagi tub burilish davri. So'nggi yillarda Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalarida muhim va dolzarb ulkan islohot hamda o'zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda.

2017-yilda davlat rahbarining oliy darajadagi 21 ta tashrifi amalga oshirildi, 60 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Natijada 400 dan ortiq bitim va kelishuvlarga erishildi, qariyb 60 mlrd. AQSh dollari hajmidagi savdo va sarmoyaviy shartnomalar imzolandi. Qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o'z vaqtida to'liq bajarish maqsadida 40 ta "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Tashqi siyosiy faoliyatimizni ustuvor tamoyillari, birinchi navbatda, mintaqamizda, xususan, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Turkmaniston bilan hamda jahonning yetakchi mamlakatlari (Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, shuningdek, Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqdagi qator davlatlar) bilan ochiq, pragmatik va amaliy yondashuv asosida, ikki hamda ko'p tomonlama, barcha yo'nalishlardagi munosabatlarimizni rivojlantirish va kengaytirishdir.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi, birinchi navbatda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi qo'shni davlatlar bilan uzoq muddatli va manfaatli munosabatlarni kengaytirish va rivojlantirish hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadida "O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo'nalish" tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishildi. Natijada mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosidagi aloqalar mustahkamlanmoqda. Birgina 2017-yilning o'zida Qozog'iston bilan temir yo'l qatnovi, Qirg'iziston bilan chegara shartnomasi va Strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya imzolandi. Tojikiston bilan savdo iqtisodiy aloqalar kengayib, avia qatnov yo'lga qo'yildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasi so'nggi yigirma yil ichidagi eng yuqori ko'rsatkichga erishildi. Turkmaniston bilan strategik sheriklik o'rnatildi. Avtomobil va temir yo'l ko'priklari foydalanishga topshirildi. Natijada mintaqada mutlaqo yangi, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan siyosiy muhit va geosiyosiy reallik shakllandi.

Markaziy Osiyo davlatlari yuzaga keladigan har qanday muammolarni tinchlik yo'li bilan, muzokaralar asosida va o'zaro manfaatli tarzda hal qilish mumkinligini butun dunyoga namoyon etdilar. Bunday yutuqning asosida, tabiiyki, mintaqa davlatlari rahbarlari o'rtasida siyosiy muloqot va o'zaro ishonch yotadi.

O'zbekiston Respublikasining nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi ham yangi bosqichga chiqdi. Jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki bilan aloqalar qayta tiklandi, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan hamkorlik munosabatlari yangi mazmun-mohiyat bilan boyidi. O'zbekiston bilan Yevropa investitsiya banki, Fransiya rivojlanish agentligi o'rtasida hamkorlik o'rnatildi. O'zbekiston yangi tuzilgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining teng huquqli a'zosiga aylandi

2017-yilning 19-sentabr kuni Sh.Mirziyoyev ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlad. Mazkur nutq O'zbekistondagi islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, yoshlar masalasi, diniy bag'rikenglik, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy

hamkorlik, ekologiya va umuman, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish masalalarini qamrab oldi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang bo'ldi. Unda BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi, BMT Bosh Assambleyasining maxsus "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

2018-yilda O'zbekiston Prezidentining 18 ta davlatlararo rasmiy tashrifi amalga oshirilib, 52 mlrd. dollarlik 1080 ta loyiha bo'yicha bitimlar imzolandi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yilning 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

2018-yilning 27-mart kuni Toshkent shahrida "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyaga jami 25 davlat va yirik xalqaro tashkilotlar vakillari tashrif buyurdi. Ushbu anjuman davomida ishtirokchilar Afg'onistonda tinchlik o'rnatishning samarali usullari, uni Markaziy Osiyo iqtisodiy xabiga integratsiya qilish, mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga doir masalalar muhokama qilindi. Konferensiya yakuniga ko'ra, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish uchun Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. 2018-yil 22-23 noyabr kunlari Samarqand shahrida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 70 yilligiga bag'ishlangan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi bo'lib o'tdi. Anjuman yakunida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

2018-yilning 15-17 may kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlariga tarixiy tashrifni amalga oshirdi. Ushbu tashrif O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi davrini boshlab berdi. Tashrif doirasida ikki davlat rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida AQSh Prezidenti D.Tramp Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarasi va yutuqlarini qayd etib o'tdi. Tashrif davomida ikki mamlakat vazirlik va kompaniyalari o'rtasida savdo, energetika, moliya, qishloq

xo'jaligi, fan-ta'lim sohalariga doir umumiy qiymati 4,8 mlrd. AQSh dollari miqdorida 20 dan ortiq hujjatlar imzolandi.

Prezident Sh.Mirziyoyev 2018-yilning 9-10 iyun kunlari Xitoyning Sindao shahrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining o'n sakkizinchi majlisida ishtirok etdi. Sammitda Prezident Sh.Mirziyoyev nutq so'zlab, ShHTning mintaqaviy va global siyosatni shakllantirish, Yevroosiyo qit'asi xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim mexanizmi sifatidagi roli kuchayib borayotganini ta'kidladi. Shuningdek, davlat rahbari Hindiston va Pokiston davlatlarining ShHT faoliyatida to'la huquqli a'zo sifatida ishtirok etishi keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishini qayd etdi.

2019-vilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijga 18 ta oliy darajadagi tashrifi amalga oshirildi. Bulardan Hindiston, Germaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Belarus, Ozarbayjon, Yaponiya va Rossiya Federatsiyasiga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Oliy va yuqori darajadagi tadbirlar doirasida 122 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolanib, ulardan 4 tasi davlatlararo bitim, 31 tasi hukumatlararo bitim, shuningdek, 35 tasi tashkilotlar va mintaqalar orasida imzolangan boshqa hujjatlardir. 2019-yil dekabr oyida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-2022 yillarda O'zbekiston va xorijiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun 52 ta yangi "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

2019-yilning 15-mart kuni Toshkent shahrida birinchi Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi o'tkazildi. 2019-yilning 24-26 mart kunlari Prezident Sh.Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifni amalga oshirdi. O'zbekiston rahbari Abu-Dabi shahrida mazkur Amirlik valiahdi, Birlashgan Arab Amirliklari Qurolli kuchlari Oliy bosh qo'mondoni o'rinbosari Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan, Dubay shahrida BAA vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum va boshqa rasmiy shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Uchrashuv yakunida umumiy qiymati 10 mlrd. dollardan ziyod investitsiya kelishuvlari imzolandi.

2019-yilning 19-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan taklif qilingan

“Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Prezident Sh.Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening taklifiga binoan 2019-yil 17-20 dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Tashrif chog'ida ikki tomon o'rtasida oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tdi. Ushbu muzokaralar natijasida O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida Strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risida Qo'shma bayonot imzolandi. Hamkorlik bo'yicha 10 dan ziyod hujjat qabul qilindi

2020-yilning birinchi yarim yilligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta davlatga, shuningdek, 10 ta xorijiy mehmonlarning O'zbekistonga tashrifi amalga oshirildi. Pandemiya sharoitida 20 dan ortiq oliy darajadagi, 80 dan ortiq yuqori darajada hamda idoralararo tashrif va uchrashuvlar, onlayn-muloqotlar tashkillashtirildi. onlayn-muloqot tashkillashtirildi.

Xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va uni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2020-yilning 19-20 fevral kunlari Prezident Sh.Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'anning taklifiga binoan, rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Shu yilning 23-iyun kuni Prezident Sh.Mirziyoyev Ikkinchi jahon urushida erishilgan g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan g'alaba paradida ishtirok etish uchun Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskva shahriga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida Prezident Sh.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin bilan uchrashuv o'tkazdi.

2020-yilning 2 mart kuni O'zbekiston Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Haaga konferensiyasi Ustavini ratifikatsiya qildi. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Haaga konferensiyasi xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lib, 1893 yilda tashkil etilgan. Haaga konferensiyasiga a'zolik O'zbekistonda qabul qilinayotgan qonunlarni xalqaro qonunlarga unifikatsiya qilishga yordam beradi. Shuningdek, mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yaxshilash, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

2021-yili ham mazkur yo'nalishdagi proaktiv diplomatik faoliyat davom ettiriladi. Qo'shni mamlakatlar bilan siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni har tomonlama kengaytirish, hududlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalarni

jadallashtirish, davlatlararo chegaralar bo'yicha muzokaralarni davom ettirish yo'lida jadal ishlarni olib boramiz. Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Prezidentining tashabbusi asosida 2020-yili mintaqamizda yagona bo'lgan Markaziy Osiyo xalqaro ilmiy-tadqiqot institutiga asos solindi.

2021-yilning 15-16-iyul kunlari Toshkentda "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. 2021-yil 30-mart kuni O'zbekiston va Vengriya o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, 16-iyul kuni O'zbekiston va Pokiston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalari. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Markaziy Osiyo ulkan geostrategik va geoiqtisodiy ahamiyatga ega mintaqa. Bu yerda 74 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ularning tarixi va madaniyati, mamlakatlarimizning iqtisodiyoti va infratuzilmasi bog'lanib ketgan. Bu 5 davlat tarixi, madaniyati, tili va dilining birligidan, tomirlarining tutashib ketganligidan kelib chiquvchi jiddiy siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lidir. 1991-yil 13-dekabrda Ashxobodda o'rta Osiyo va Qozog'iston davlat boshliqlarining uchrashuvida Tajan-Seraxo temir yo'l qurilishi bo'yicha bitim imzolandi. 1993-yil yanvarida Toshkentdagi uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Shu tariqa "Markaziy Osiyo" degan yangi atama paydo bo'ldi. 1993-yilning mart oyida Qizil o'rdada Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiya davlat vakillari ishtirokida "Orol muammosi bo'yicha" birgalikdagi harakatlar bitimi imzolanib, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlari 1993-yil 26-martda Qozog'iston Raisining Qizil o'rda shahrida, 1994-yil 11-yanvarda Nukus shahrida, 1995-yil 3-martda Toshovuz shahrida, 1995-yil 20-sentyabrda yana Nukus shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlab amaliy uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek 1997-yil 28-fevralda Almatida, 1999-yilda Toshovushda Orol masalasiga bag'ishlab uchrashuvlar o'tkazildi. 2018 yilning 27-28 sentyabr

kunlari Prezident Sh.Mirziyoyev Dushanbe shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisida ishtirok etdi.

2018-yilning 15-mart kuni Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Oliy darajadagi uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Majlisi raisi Akja Nurberdiyeva ishtirok etdi. Anjumanda mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

2019-yilning 29-noyabr kuni Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev, Qozog'istonning birinchi Prezidenti N.Nazarboyev, Qirg'iziston Prezidenti S.Jeenbekov, Tojikiston Prezidenti E.Rahmon va Turkmaniston Prezidenti G. Berdimuhamedovlar ishtirok etdi. Uchrashuv yakunida mamlakat rahbarlari tomonidan Qo'shma bayonot qabul qilindi hamda maslahat uchrashuvlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish reglamenti ma'qullandi. Ushbu oliy darajadagi tadbirda Markaziy Osiyo davlat rahbarlari bunday maslahatlashuv uchrashuvlarini "mintaqadagi hamkorlikning dolzarb masalalarini va umumiy muammolarni hal qilishda konstruktiv va ochiq muhokama qilish uchun muzokaralar maydoni sifatida" muntazam ravishda tashkil etishga kelishib oldilar.

2021-yil 6-avgust kuni Turkmanistonning Avaza milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov raislik qilgan sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, shuningdek, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz rahbari Natalya German ishtirok etdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti mamlakatlarimizning iqlim o'zgarishlariga moslashishiga, resurs tejovchi texnologiyalarning yana keng joriy etilishiga xizmat qiladigan "Markaziy Osiyo uchun "yashil" kun tartibi" mintaqaviy dasturini ishlab chiqish hamda Toshkent shahrida Mintaqaviy parlament forumini o'tkazishni taklif qildi.

O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlari. Turkmaniston prezidenti G.Berdimuxamedovning 2009-yil 24-25 fevral oyida O'zbekistonga rasmiy tashrifi mobaynida tomonlar qo'shma bayonot qabul qilishdi. Turkmaniston rahbari O'zbekistonning mintaqadagi transchegaraviy daryolar suv resurslaridan foydalanish borasidagi pozitsiyasini qo'llab-quvvatladi. 2017-yilda Turkmaniston bilan strategik sheriklik o'rnatildi, ikki davlat o'rtasida Amudaryodan o'tuvchi avtomobil va temir yo'l ko'priklari foydalanishga topshirildi, qishloq xo'jaligi texnikalarini yetkazib berish sohasida o'zaro aloqalar mustahkamlanmoqda 2018-yilning 23-aprel kuni Prezident Sh.Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. Tashrif doirasida ikki davlat rahbarlari turli sohalaridagi o'zaro hamkorlikning istiqbollarini muhokama qildilar hamda Qo'shma bayonot imzoladilar. Tashrif yakuniga ko'ra, ikki tomonlama hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, ta'lim va sport sohalarida yanada mustahkamlashga va o'zaro aloqalarni izchil rivojlantirishga doir 17 ta hujjat imzolandi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari o'rtasida va axborot-kommunikatsiya sohalariga oid 15 ta hujjat ham imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 24-avgust kuni Turkmanboshi shahrida bo'lib, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisida ishtirok etdi. Tashrif doirasida Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. O'zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining bu galgi uchrashuvi o'zaro manfaatli, samarali va faol muloqotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Sh.Mirziyoyev Turkmanistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga raisligi davridagi tashabbuslarini yuqori baholab, ikki davlatning bu boradagi loyiha va sa'y-harakatlari bir-birini to'ldirishini qayd etdi. Majlis yakuni bo'yicha davlat rahbarlarining Qo'shma bayonoti qabul qilindi.

Amudaryo orqali o'tadigan avtomobil va temir yo'l ko'priklari barpo etildi. So'nggi yillarda ikki mamlakat tadbirkorlari ishtirokida 150 dan ortiq qo'sha korxonalar tashkil etildi. Turkmanistonga bevosita chegaradosh Xorazm viloyatida "Do'stlik uyi" ochildi.

O'zbekiston - Qozog'iston munosabatlari. 1994-yil 10-yanvarda Qozog'iston Respublikasi bilan yagona iqtisodiy makonni tashkil etish haqida shartnoma imzolandi. 1994-yil 8-iyulda Almatida mazkur uch davlat rahbarlari uchrashuvda murojaatnoma qabul qildilar. 1995-yil 14-aprelda Chimkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Prezidentlarining uchrashuvida Tojikiston va Afg'oniston chegarasidagi vaziyat haqida kelishildi. 2008-yili Olmaota shahrida Orolni qutqarish bo'yicha xalqaro fondning tashkilotchi davlatlari ekspertlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. 2009-yil 28-aprelda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Olmaotaga tashrif buyurgan edi.

1994-yil 23-mayda O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi kunlari o'tkazildi va unda O'zbekiston-Qozog'iston Markazini tuzish kelishib olindi. 1995-yil 20-mayda Qozog'istonda O'zbekiston kunlari tantanali o'tkazildi. Mazkur yig'ilishda birinchi prezident I.Karimov nutq so'zlab, "Turkiston - umumiy uyimiz" g'oyasini ilgari surgan edi.

2017-yilda Qozog'iston bilan M-39 trassasida joylashgan "Oq oltin" va "Malik" chegara o'tkazish punktlari faoliyati qayta tiklandi. "Toshkent-Oлмаota" yo'nalishi bo'yicha temir yo'l qatnovi yo'lga qo'yildi. 2 mlrd. AQSh dollaridan ortiq hajmdagi savdo va sarmoyaviy bitimlar imzolandi, hududlararo aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan 2018-yilning 6-iyul kuni Qozog'istonga tashrif buyurib, Ostona shahrining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda ham ishtirok etdi.

2020-yilning 17-21 fevral kunlari esa Olmaota shahrida Qo'shma demarkatsiya komissiyasida O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hukumatlari delegatsiyalarining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati va Qozog'iston Respublikasining Qizilo'rda va Turkiston viloyatlari chegaralari tutashgan uchastkada davlatlararo chegarani demarkatsiya qilishning yakuniy hujjatlari

loyihalari tayyorlandi. Qozog'iston bilan davlat chegarasi chiziqclarini delimitatsiya qilish ishlari to'liq yakunlandi.

O'zbekiston - Qirg'iziston munosabatlari. 1994-yil 16-yanvarda Qirg'iziston bilan yagona iqtisodiy makon to'g'risida bitim imzolandi. 2017-yilda Qirg'iziston bilan Davlat chegarasi to'g'risida shartnoma, Chegara hududida ishonch choralari to'g'risida bitim va Strategik sheriklik to'g'risida deklaratsiya imzolandi. O'zbek-Qirg'iz davlat chegarasida "Do'stlik", "Kosonsay", "Rishton" o'tkazish punktlari ochildi. Qirg'iziston bilan chegaradagi cheklovlar olib tashlanishi natijasida har kuni o'zbek-qirg'iz chegarasidan o'tuvchi fuqarolar soni 30 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ikki mamlakat aholisi o'rtasidagi qo'shnichilik, turizm va savdo munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2018-yilning 3-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeebekovning taklifiga binoan tashrif bilan Qirg'izistonda bo'ldi va Cho'lpon ota shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitida ham ishtirok etdi.

2021-yil 11-martda Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'rtasida O'zbek-Qirg'iz taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi bitim imzolandi. Bugungi kunda Qirg'iziston bilan umumiy chegaraning 80 foiz qismi kelishib olindi.

O'zbekiston - Tojikiston munosabatlari. 2017-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasi 240 mln. AQSh dollarini tashkil etib, so'nggi 20 yil ichidagi eng yuqori ko'rsatkichga erishildi. Toshkent va Dushanbe o'rtasida avia qatnov yo'lga qo'yildi, ikki mamlakatda madaniyat kunlari o'tkazildi. Ikki davlatning qonun chiqaruvchi organlari o'rtasidagi munosabatlarini rivojlantirish maqsadida 2017-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Tojikiston Parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha Parlamentlararo guruhi tuzildi. Prezident Sh.Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmonning taklifiga binoan 2018-yilning 9-10 mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tashrif davomida ikki davlat rahbarlari Do'stlik va yaxshi qo'shnilikni mustahkamlash to'g'risida Qo'shma bayonot hamda O'zbekiston-Tojikiston davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shart nomani imzoladilar. Tashrif natijasiga ko'ra, savdo, iqtisodiyot, investitsiya, moliya, transport va tranzit, qishloq

xo'jaligi, suv-energetika, soliq, bojxona, turizm, fan-ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohalaridagi hamkorlik hamda hududlararo aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan jami 27 ta hujjat imzolandi.

2018-yilning 17-18 avgust kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmon O'zbekistonda davlat tashrifi bilan bo'ldi. Tashrif davomida ikki tomon o'rtasida bir nechta oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tdi. Ushbu muzokaralar natijasida O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma hamda ikki davlat rahbarlarining Qo'shma bayonoti imzolandi. Shuningdek, sanoat, standartlash va sertifikatlash, chegaradan o'tkazish, ta'lim hujjatlarini tan olish, geodeziya va geologiya, qishloq xo'jaligi, madaniyat va boshqa sohalardagi hamkorlikka doir 27 ta hujjat imzolandi. Surxondaryo viloyati bilan Xatlon viloyati, Samarqand viloyati bilan So'g'd viloyati o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik to'g'risida bitimlar ham qabul qilindi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo'shni mamlakatlar bilan davlat chegarasini demarkatsiya qilish maqsadida 2020-yilning 7-yanvar kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi Qo'shma demarkatsiya komissiyasining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston - Tojikiston davlat chegarasini demarkatsiya qilish uchun asos bo'ladigan normativ-huquqiy va texnik hujjatlar tasdiqlandi. Tojikiston bilan umumiy chegaraning 99 foiz qismi kelishib olindi.

O'zaro manfaatli amaliy tashqi siyosat. Xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida 2017-yildan to bugunga qadar 130 dan ortiq "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, amalga oshirilmoqda. Jami 48 ta parlamentlar hamda xalqaro tashkilotlar darajasidagi tashrif va uchrashuvlar, onlayn-muloqotlar tashkillashtirildi. 64 ta ikki tomonlama Hukumatlararo hamkorlik komissiyalari tuzildi.

O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va tegishli Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O'zbekiston hukumati rasmiylari va tashkilotlari delegatsiyalarining 48 ta xorijiy davlatga tashrifi tashkillashtirildi. Ular doirasida hamda O'zbekiston

vakolatxonalarining kundalik faoliyati mobaynida tegishli savdo-sotiq, iqtisodiy idoralar rahbarlari va vakillari bilan 252 dan ziyod uchrashuv va maxsus ahamiyatga ega bo'lgan sarmoyaviy tadbirlar, biznes-forumlar, O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati taqdimotlari uyushtirildi. Shuningdek, vazirlik darajasidagi delegatsiyalarning 15 dan ortiq xorijiy davlatlarning savdo-iqtisodiy vazirlik va mutasaddi tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlari uyushtirildi.

Parlamentlararo hamkorlik sohasida 268 ta tadbirlar o'tkazildi. Ko'rsatilayotgan konsullik xizmat turlari soni 11 taga yetdi. 90 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etildi. Interaktiv tizim orqali elektron viza berish joriy etildi. Xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalar soni 53 taga yetdi.

Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik 2019-yil 2-noyabr kuni Toshkentda Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari Hukumat rahbarlari kengashining 18-majlisi bo'lib o'tdi. Yakunda 14 ta hujjat va Qo'shma kommyunike imzolandi. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakat o'z tarixida birinchi marta Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi raisligini qabul qildi. Shuningdek, O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari Sanoat xavfsizligi kengashining to'laqonli a'zosiga aylandi. O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'ldi.

BMT shafeligida 13 ta tadbir o'tkazildi. YeXHT bilan hamkorlikda 25 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. SHHT doirasida Orol dengizi mintaqasi uchun ko'p sheriklik ishonchli fond, Samarqand shahridagi "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti va SHHTning O'zbekistondagi Xalq diplomatiyasi markazi tashkil etildi.

Muhokama uchun savollar:

1. *O'zbekiston davlatining jahon hamjamiyati bilan aloqalari qanday huquqiy va amaliy prinsiplarga tayanadi?*

2. *Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda Xalqaro terrorizmga birgalikda kurashda O'zbekistonning roli qanday?*

3. *Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekistonni jahon hamjamiyati bilan tanitishda, hamkorlik aloqalarini o'rnatishda qanday roli bor deb bilasiz?*

4. *O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarning yangi davrini bayon eting?*

8-MAVZU: KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI

Reja:

1. Korruptsiya tushunchasi, shakllanishi va uning salbiy oqibatlari

2. Korruptsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi

3. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi.

Tayanch so'zlar: korruptsiya, korruptsiyaning shakllanishi, korruptsiyaning salbiy oqibatlari, korruptsiyani yuzaga keltiruvchi omillar, korruptsiyaga qarshi kurashning usullari, korruptsiyaning miqyosi va qamrovini belgilovchi omillarning guruhlari, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davri, korruptsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy asoslar

1. Korruptsiya tushunchasi, shakllanish omillari va usullari

Korruptsiya – ijtimoiy fenomen, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar natijasi, ijtimoiy va xo'jalik faoliyatini boshqarish funksiyasining o'ziga xosligidan kelib chiqib vujudga keladi va mavjud bo'ladi, ya'ni aynan shunday holatda mansabdor shaxsda jamiyat va davlat manfaatlarini emas, balki o'z shaxsiy g'araz niyatidan kelib chiqib resurslarni tasarruf etish va qarorlar qabul qilish imkoniyati vujudga keladi. Demak, korruptsiya murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, uning ko'rinishi, shakli o'zgarishi bilan hajmi qisqarmaydi.

Hozirgi vaqtda korruptsiya milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan asosiy xavf bo'lib, iqtisodiyot rivojlanishiga asosiy to'siq, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarga qaramay ijtimoiy barqarorlikning saqlanishi va chuqurlashuviga ta'sir qiluvchi omildir. Korruptsiya iqtisodiy qonunlarning erkin harakatlanishini cheklaydi, mamlakat nufuzini xalqaro hamjamiyat oldida tushiradi.

Haqqoniy va ijtimoiy yo'naltirilgan biznes bozordan siqib chiqariladi, chunki korrupsiya bunday biznesni norentabel qilib qo'yadi. Korrupsiya iqtisodiyot rivoji, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to'siqlardan biridir. Tahlillarga ko'ra, bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltirmoqda.

Korrupsiya o'ta moslashuvchan xususiyatga ega bo'lib, shaklini o'zgartirib takomillashib, ijtimoiy huquqiy tizimdagi bo'shliqlar, kamchiliklardan ustalik bilan foydalanadi. Chop etilgan ma'lumotlarga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqiqiy korrupsiya holatlarining 1-2 % aniqlaydilar, javobgarlikka tortilganlar soni undan ham kamroqdir.

Ushbu ijtimoiy salbiy hodisa milliy davlat chegaralaridan chiqib, global masshtab kasb etmoqda. Undan olingan daromadlar legallashtirilganidan so'ng xalqaro va milliy moliyaviy tizimga joylashtirilib, davlat va xalqaro hokimiyat hamda iqtisodiyot institutlarini yemirmoqda. Transmilliy korrupsiyaga qarshi kurash XX asrning so'nggi choragida faollashdi, chunki shu davrda u aniq institutsional xususiyat kasb eta boshladi. Korrupsiya qonun ustuvorligi, demokratiya, inson huquqlariga, jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, hokimiyatga ishonch, davlat boshqaruvi prinsiplari, tenglik, ijtimoiy adolatga tahdid soladi, raqobatga to'sqinlik qiladi. Amaliyotni o'rganish korrupsiya davlat boshqaruvining butun tizimini izdan chiqarib, davlat hokimiyati avtoriteti (obro'si)ning, davlat xizmati nufuzining tushib ketishiga sabab bo'layotganligini ko'rsatmoqda. U iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilib, ayniqsa iqtisodiyot sohasiga uyushgan jinoyatchilikning o'sishiga imkon beradi.

Korrupsiya fenomenini tushunishga oid turli metodologik yondashuvlar bor. Qadimdan uning bir nechta: ijtimoiy, siyosiy, kriminologik, huquqiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Xususan, Aflotun va Arustu korrupsiyani siyosiy kategoriya; N.Makiavelli davlat umumiy kasalligining ko'rsatkichi; J.Monteske esa uni disfunktsional jarayon ekanligi sababli yaxshi siyosiy tartib yoki tizim yaroqsiz bo'lib qoladi, deb baholashgan.

Inson tarixida korrupsiyani tugatish yo'llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan "Artxashastra yohud Siyosat ilmi" kitobi davlatni boshqarish va

xo'jalik yuritish mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari deb qarash ham mumkin. Kitob muallifi sifatida brahman Kautile nomi zikr etilgan. "Artxashastra"ning 26-bo'limi korrupsiyaga bag'ishlangan. Bo'limda korrupsiya "o'zlashtirish" iborasi orqali izohlanadi.

Hozirgi zamon ilmiy, o'quv va ijtimoiy publitsistik adabiyotlarda korrupsiyaga turlicha ta'riflar berilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashning universal usulini aniqlash uchun asos hisoblanuvchi uning yagona tushunchasini ishlab chiqish murakkab evolyutsion yo'ldir. Korrupsiyaning integral xususiyatga ega ekanligi tufayli ushbu hodisaning yagona tushunchasi ishlab chiqilmagan.

Korrupsiya (lot. *corrumpere* – buzish, sotib olish) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Quyida korrupsiya atamasiga berilgan turli xil ta'riflarni ko'rib chiqamiz:

1. 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksida:

korrupsiya – mansabdor shaxs o'z mansab vakolatlari sohasida har qanday shakldagi haq evaziga mazkur haqni beruvchining manfaatlarida, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligidir.

2. BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Ma'lumotida: *korrupsiya* – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko'rish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir.

3. Jahon banki hisobotida: *korrupsiya* – bu shaxsiy naf ko'rish yo'lida davlat hokimiyatini suiste'mol qilishdir;

4. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining 3-moddasida: *korrupsiya* – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qur'oni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmagiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmagizlar" deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impichmentga tortish mumkin bo'lgan

ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi:

1. *Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar* – ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma'muriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya'ni, sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z xohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi. Masalan, Qozog'iston Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2020-yilda qonun hujjatlaridagi 3400 dan ortiq korrupsion omillarni bartaraf etilishi natijasida, davlat va jamiyat manfaatlariga 2 mlrd. 200 million tangadan ortiq zarar keltirilishining oldi olingan. O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish masalasiga 2006-yildan e'tibor berila boshladi. 2011-yilda korrupsiyaga qarshi ekspertiza bo'yicha dastlabki uslubiyot yaratildi, 2015-yilda esa bu yo'nalishda dastlabki normativ-huquqiy hujjat Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish uslubiyoti davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

2. *Aholi huquqiy savodxonligining pastligi* – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi.

3. *Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi* – mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi – aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

- aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo'lgan daromatlardan kamligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
- inflyatsiyaning yuqori darajasi;
- mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
- mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud:

Ichki nazorat – bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqozo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat – bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya'ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish OAVlariga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish – demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya'ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu

davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan.

Korrupsiyaning miqyosi va qamrovini belgilovchi omillarning quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatiladi:

Antropologik omillar: insonning ziddiyatli tabiati, ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi, insonning kam kuch sarflab ko'proq foyda olishga intilishi va h.k.;

Iqtisodiy omillar: tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajadagi transaksiyaviy xarajatlari, bozor xo'jaligi doirasidagi raqobat, iqtisodiyotning turli sektorlarini notekis rivojlanishi, inflyatsiya, almashinuv kurslarining keskin o'zgarib turishi, soliqqa tortish tizimi va boshqalar;

Ijtimoiy omillar: jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, "xavf guruhlariga"ning mavjudligi, mehnat qonunchiligining buzilishi, ayollar va o'smirlar mehnatidan foydalanishda ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etilmaslik va h.k.;

Huquqiy omillar: tadbirkorlikning huquqiy asosi mukammal emasligi, bozor xo'jaligining o'zgarib boruvchi shart-sharoitlari bilan mavjud qonunchilik bazasi o'rtasida ziddiyat mavjudligi, uy xo'jaligining tartibga solinmasligi va h.k.;

Axloqiy omillar: qonunchilik va tadbirkorlikning axloqiy asoslari o'rtasidagi ziddiyatlar, davlat va jamiyat, davlat va individ manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyatlar; milliy an'analarning hisobga olinmasligi, diniy qoidalarining ta'siri va boshq.;

Siyosiy omillar: hokimiyat va yirik kapital o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oligarxiyaning shakllanishi, hokimiyat kuchi hamda iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatishning kuchga asoslangan usullari o'rtasidagi nisbat. Iqtisodiyotni rivojlantirishning obyektiv ehtiyojlari va davlat siyosati o'rtasidagi ziddiyat va h.k.

Korrupsiya rivojlangan jamiyatlarda uning quyidagi turlari tez-tez uchraydi:

Maishiy korrupsiya – asosan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida, fuqarolar bilan munosabatlarida manfaatlar to'qnashadi;

Ishbilarmonlik korrupsiyasi – hokimiyat vakillarining tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarida uchraydi;

Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi – demokratik jamiyatlarda siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida ko'zga tashlanadi.

Amaliyotda korrupsiyadan boyib ketish manbalari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- *Yirik investitsion loyihalar* (asosan katta pora evaziga xorijiy korporatsiyalarga tanlovda "g'olib" bo'lib, ichki bozorda monopol savdo qilish huquqi beriladi);

- *Davlat xaridlari* (qoida bo'yicha, mansabdor shaxs davlat nomidan vakil sifatida ochiq tanlovda eng yaxshi tijoriy taklif bilan g'olib chiqqan tijorat tashkiloti bilan shartnoma tuzadi, ammo, katta pora evaziga tanlovlar haqidagi ma'lumotlar oshkor etilmaydi hamda oldindan kelishilgan tijorat tashkiloti bilan summasi sun'iy oshirilgan "otkat" shartnoma tuziladi);

- *Budjetdan tashqari jamg'armalar* (odatda, pensiya yoki yo'l jamg'armalari kabi fondler faoliyati ustidan kuchsizroq nazorat o'rnatiladi va ushbu fondler budjetining daromadlar qismi xarajatlar qismiga qaraganda bir necha baravar ko'p bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida mazkur tashkilot rahbarlari uchun kuchli jinoiy motiv beradi).

Korrupsiyaga qarshi kurashish qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplardan iborat.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid

huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari hisoblanadi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi mumkin.

Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlardan iborat:

1. Davlat boshqaruvi sohasida;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida;
3. Manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishda;
4. Ma'muriy tartib-taomillar sohasida;
5. Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida;
6. Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasida.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi

Bugungi kunda korrupsiya butun dunyoda o'zining salbiy oqibatlari tufayli yomon illatga aylanib ulgurgan. Unga qarshi jahon hamjamiyati kurash olib bormoqda. Jumladan, yirik xalqaro tashkilotlar, uyushmalar va davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishni bosh maqsad etib belgilaganlar. Mazkur faoliyatni tartibga solib turuvchi ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan.

BMT korrupsiyaga qarshi kurash borasida quyidagi hujjatlarni qabul qilgan:

O'ZBEKISTONNI RIVOILANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK JAMIYATI

- 1979-yil 17-dekabrda BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi";

- 1989-yil 24-mayda BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar;

- 1996-yil 12-dekabrda BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi;

- 1996-yil 16-dekabrda BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi;

- 1999-yil 9-dekabrda BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya;

- 2000-yil 15-noyabrda BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi;

- 2000-yil 30-31-martdagi BMT Forumining ofshorlar bo'yicha Kommyunikesi (Kayman orollari)

- 2001-yil 8-17-maydagi Vena BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma'ruzasi;

- 2001-yil iyundagi Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar to'plami;

- 2002-yil 15-aprelda BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviga javoblar to'g'risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasi;

- 2003-yil 31-oktabrda BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi.

Shuningdek, Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqi korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi ko'plab huquqiy normalar va xalqaro hujjatlar qabul qildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)

doirasida korrupsiyaga qarshi kurashga doir quyidagi huquqiy normalar qabul qilindi:

– 1996-yil 2-noyabrda MDH Parlamentlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan *"Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"*gi tavsiyaviy qonunchilik akti;

– 1998-yil 25-noyabrdagi Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga ishtirokchi davlatlarning hamkorligi to'g'risidagi Kelishuvi;

– 1998-yil 8-dekabrda MDH Parlamentlararo assambleyasining XII plenar yig'ilishida qabul qilingan *"G'ayriqonuniy yo'ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to'g'risida"*gi Namunaviy qonuni;

– 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining *"Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"* gi Konvensiyasi

– 1999-yil 3-apreldagi Parlamentlararo assambleyasining XIII plenar yig'ilishida qabul qilingan *"Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"*gi Namunaviy qonun;

– 1999-yil 4-noyabrdagi *"Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida"* gi Konvensiyalari;

– 2003-yil 15-noyabrda MDH Parlamentlararo assambleyasining XXII plenar yig'ilishida qabul qilingan *"Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"*gi Namunaviy qonuni;

– 2011-yil 16-iyun kuni Moskvada qabul qilingan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevrosiyo guruhi to'g'risidagi Bitim va boshqalar.

Barcha xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy normalari BMTning *"Korrupsiyaga qarshi konvensiya"*si tomonidan muvofiqlashtiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni 2008-yil 7-iyulda ratifikatsiya qilgan: O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan *"BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi"*ga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni 2008-yil 24-iyunda qabul qilindi va 2008-yil 27-iyunda O'zbekiston

Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma'qullandi va 2008-yil 28-avgustdan e'tiboran kuchga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shildi. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilanganligi keltirildi. Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi Davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to'la javob beradi.

Mamlakatimizda ham bu illatga qarshi keskin kurashish choralari ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 24-iyulda qabul qilingan "Qonunchilik ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida Qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bosh boshqarmasi tashkil etilishi prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurash va nazorat faoliyati kuchayishining muhim omiliga aylandi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish bilan bog'liq huquqiy asoslarni takomillashtirishga qaratilgan qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Budget, Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Mamlakatimizda 2017-yilga qadar korrupsiyaga qarshi kurashni muvofiqlashtiradigan, bu kurashning qonuniyligi va shaffofligini ta'minlaydigan maxsus qonun qabul qilinmagan edi. Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi 2017-yil 4-yanvardan kuchga

kirgan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni bu jarayonda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Prokuratura to'g'risida"gi va boshqa qonunlar ham bevosita jamiyatimizda korrupsiyaga chek qo'yish, tamagirlik, tanish-bilishchilik kabi illatlarga barham berishni nazarda tutadi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, uning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur qonunda korrupsiya, ya'ni poraxo'rlik, mansabdan foydalangan holda qonunni suiiste'mol qilish, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, iste'dodli kadrlarning o'sishiga to'siq bo'lish, inson huquqlarini buzish, tama'girlik qilish kabi jirkanch holatlarga yo'l qo'yanlik uchun qat'iy jazo muqarrarligini aniq-ravshan ko'rish mumkin.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Uning 2-yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini o'z ichiga olib, uning 4-bandida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yildi. Xususan, unda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy - huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 27-mayda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmonni imzoladi. Mazkur farmon bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi. Dasturda ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga korrupsiyaga qarshi

kurashish maxsus kurslarini kiritishning tashkiliy chora-tadbirlar rejasi belgilab berildi. 2019-yildan boshlab dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta'lim sohalarida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirilib, 2020-yildan boshlab barcha sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalar; Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etildi.

3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Mana, shuncha pullar ajratyapmiz, lekin bular adolatli ishlatilishi uchun jamoatchilik nazorati kerak. Chunki korrupsiya yo'q desak yolg'on bo'ladi, korrupsiya ichimizda yuribdi. Korrupsiyaga qarshi butun jamoatchilik bilan kurashishimiz zarur", - dedi Shavkat Mirziyoyev⁴⁵. Oxirgi ikki yilda korrupsiya oqibatida mamlakatimiz iqtisodiyotiga 2 trillion so'mlik zarar yetkazilganligi, 2020-yilning o'zida 2123 nafar shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilgani bu masala naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi⁴⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan

⁴⁵ 2021-yilning 28-sentabr kuni prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning Farg'ona viloyatida O'zLiDeP tomonidan tashkillostirilgan saylovchilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvidagi nutqidan.

⁴⁶ <https://antikorruption.uz/uzc/item/2021/04/23/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-agentligi-direktori-aburxonovning-tashkent-law-spring-ii-xalqaro-yurtdik-forumidagi-tartibga-solish-tasirini-baholash-va-korrupsiyaga-qarshi-ekspertiza-mavzusida-sessisidagi-maruzasi>

*Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"*⁴⁷.

O'zbekiston 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli *"O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida *Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi* tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarining amalga oshirilishini ta'minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni

⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январ куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. <https://www.press.uz/>. – Ўзбекистон Республикаси Президенти Матбуот хизмати расмий веб-сайти.

muvofiglashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanganligi ahamiyatlidir, xususan:

- 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplaens-nazorat")ni bosqichma-bosqich joriy etish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi *E-Anticor.uz* elektron platformasini joriy etish;

- korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish⁴⁸.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyunidagi ПФ-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bуйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.06.2020-й., 06/20/6013/1002-сон.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020-yil 4-fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir.

"Transparency international" (bundan buyon TI) korrupsiyani qabul qilish indeksi esa davlatlarda korrupsiya darajasi va unga qarshi kurashish borasida hukumatlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni baholab boruvchi eng ommaviy indeks sifatida tanilib bormoqda. Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida *Transparency International* xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan "*Korrupsiyani qabul qilish indeksi*"da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017-yilda 157-o'rin, 2018-yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019-yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi⁴⁹. 2020-yil uchun TI ning korrupsiyani qabul qilish indeksi yangi reytingida O'zbekiston 7 pog'onaga ko'tarilib, indeks bahosida qatorasiga 4 yil davomida barqaror o'sishiga erishildi.

Bundan tashqari, *Jahon odil sudlov loyhasining Huquq ustuvorligi indeksidagi "Korrupsiyadan xolilik" indikatorida* O'zbekiston 2019-yilda 0,38 ball bilan 95-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yil bo'yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o'rinni egallab, 6 pog'onaga ko'tarilganligi⁵⁰ malakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

Korrupsiyani qabul qilish indeksi ekspertlar va ishbilarmon doiralarning davlat sektoridagi korrupsiyaga doir aniq masalalar bo'yicha baholarini aks ettiruvchi 13 manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Mazkur manbalar mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotining barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Mazkur manbalardagi deyarli barcha indekslarda O'zbekiston barqaror o'sishni qayd etmoqda. Masalan, "Bertelsmann foundation transformation index" da 3.73 (2018) balldan 4.08 (2020) ballga; "The economist intelligence unit country report"da o'tgan yilga

⁴⁹ <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>

⁵⁰ <https://worldjusticeproject.org/sites/default/files/documents/Uzbekistan>

nisbatan 1,6 foizga (pandemiya sharoitida juda kam davlatlarda o'sish qayd etilgan); Jahon bankining davlat tizimi va instituti reytingida 2.5 (2016) ballan 4.0 (2019) ballga o'sish qayd etilgan⁵¹.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, *2017-2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning* pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, *2019-yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga* nisbatan korrupsiya bilan bog'liq 590 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi, korrupsiyaga qo'l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning *25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi* vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta'lim, davlat xizmati ko'rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruxsat berish bilan bog'liq sohalarda⁵² hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-son Farmon ilovasining 34-bandi ijrosini (Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish) ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2025 yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

Hozirda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimini joriy etish yuzasidan vazirlik va idoralarda "Yo'l xaritalari" ishlab chiqilib, unda belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida boshqarma xodimlariga 26 ta vazirlik va idoralar taqsimot asosida biriktirildi. "Yo'l xaritasi"da belgilangan

⁵¹<https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/02/05/transparency-international-korrupsiyani-qabul-qilish-indeksi-ozbekiston-4-jildan-beri-osish-qajd-etmoqda>

⁵² Бош прокуратура коррупция етказган зарар миқдорини маълум қилди // <https://www.gazeta.uz/oz/2019/07/31/corruption/>.

chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan har oy yakunida tegishli vazirlik va idoralardan hisobotlar qabul qilinib, tahlil qilib borilmoqda.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoqda.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ –Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko'plab sohalarda korrupsiya va suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan tizimli choralarga qaramasdan, budget mablag'laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlarini ajratish, ishga qabul qilish kabi yo'nalishlarda korrupsiya holatlari saqlanib qolmoqda. Mazkur salbiy holatlarni oldini olish maqsadida 2021-yil 6-iyulda *"Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilindi. Farmonning 1-ilovasiga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur dasturda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda davlat organlari faoliyati

ochiqligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish yo'nalishlari bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

Ushbu farmonda davlat boshqaruvini korrupsiyadan holi sohaga aylantirish maqsadida Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning "ochiq elektron reestri" yuritilishi belgilandi. Reestrda kiritilgan shaxslarga quyidagilar taqiqlandi: davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi; saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko'rsatilishi; davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a'zosi bo'lish; ular tomonidan ta'sis etilgan yoki ular ishtirokchisi hisoblangan tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ishtirokchi sifatida qatnashish, davlat aktivlarini xususiylashtirish bilan bog'liq tender va tanlov savdolarida ishtirok etish; davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar hamda davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish.

2022-yil 1-yanvardan boshlab, davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlari va o'rinbosarlari, ularning turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimi joriy etiladi. Shuningdek, davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag'larini saqlash, ko'chmas va boshqa mol-mulkka ega bo'lish taqiqlanadi. "Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to'g'risida"gi hamda "Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish to'g'risida"gi qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi belgilandi. Bundan tashqari quyidagi yangi tartiblar belgilandi:

– Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxatini belgilash;

– korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarini uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasigacha keskin kuchaytirish;

– daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o'rnatish;

– korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyiy jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalar qo'llanilishiga cheklovlar belgilash.

2021-yil 6-iyulda "*Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2021-yil 1-sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonolari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etildi. 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular 2021-yil 6-sentabrda tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi Namunaviy nizom asosida ish olib boradi. Mazkur korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish uchun mas'ul hisoblanadi.

2021-yil 1-avgustdan boshlab davlat xaridlari sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida davlat xaridlari sohasida o'tkazilayotgan tender (tanlash) natijalarini majburiy tarzda ochiq e'lon qilish amaliyoti joriy etildi. Shuningdek, 2022-yil 1-yanvarga qadar mutasaddi vazirlik va idoralarning axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi bilan Elektron hukumatning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali integratsiyalashgan Korrupsiyaviy xavflarni baholash elektron tizimini ishga tushirish belgilab qo'yildi.

2022-yil 1-yanvarga qadar Qurilish sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida "*shaffof qurilish*" milliy axborot tizimi, yo'l qurilishi va ekspluatatsiyasi sohasiga shaffoflik standartlarini joriy qilish

maqsadida "shaffof yo'l" onlayn axborot platformasini ishga tushirish belgilab qo'yildi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab "halollik vaksinasi" tamoyili asosida davlat xizmatchilarini muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo'yicha maxsus o'quv kurslarda o'qitish tizimini joriy etiladigan bo'ldi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda, xususan *Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh* kabi rivojlangan mamlakatlarda "Davlat xizmati to'g'risida" gi, "Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me'yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

E'tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo'lgan sovg'a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo'yilgan. Masalan, AQShda ushbu miqdor 20 AQSh dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar qabul qilishi qat'iy qabul qilinadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi ta'lovlarni olishi ta'qiqlangan⁵³.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg'alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg'alar, vazirlikka o'tkaziladigan tartib joriy qilindi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi xarajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni

⁵³ Б.Исмоилов., У.Абдурахмонов. Таъсирчан жамоатчилик назорати коррупцияга қарши курашишда қай даражада муҳим? <https://uza.uz/oz/posts/>

oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda *150 dan ortiq mamlakatda* qo'llanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e'tirof etilgan.

Bu borada *Daniya* tajribasiga ko'ra, 2002-yilda qabul qilingan "Korrupsiya to'g'risida"gi Daniya qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta'sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo'lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi. Daniya Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 180 ta davlat orasida har yili e'lon qilib boriladigan "Korrupsiyani qabul qilish indeksi"da eng yuqori ijobiy natijani ko'rsatib kelmoqda. Eng yomon ko'rsatkich Sahroi-Sahroi Afrikasi (Somali), Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlariga to'g'ri keladi.

Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga egaligi, ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari kabi omillar korrupsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, *Xitoy*dagi jazo turi boshqa hech bir davlatda uchramaydi. Bu mamlakatda korrupsiya jinoyati sodir etgan kishiga nisbatan o'lim jazosi tayinlanadi. *Janubiy Koreyada* esa

barcha rahbarlarning faoliyati ishdan ketgandan so'ng ham chuqur taftish qilinadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish organining samarali faoliyatida mahalliy bo'linmalarning roli muhim ahamiyatga ega. Xususan, Germaniya va Avstriya tajribasi ham korrupsiyaga qarshi kurashishda mahalliy tuzilmalarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Germaniyaning davlat apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy bo'g'ini, bu, federal va yer vazirliklari, idoralaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalar (odatda bo'limlar)dir. Avstriyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan maxsus prokuratura shug'ullanadi. Uning shtab-kvartirasi Vena shahrida bo'lib, Avstriyaning barcha yirik shaharlarida o'z filiallariga ega⁵⁴.

Bundan tashqari, *Finlyandiya*da korrupsiyaga qarshi kurashish bilan Adliya ombudsmani shug'ullanadi, u Finlyandiya Prezidenti tomonidan tayinlanadi va boshqa davlat organlaridan mutlaqo mustaqil hisoblanadi. Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg'alarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korrupsiyani oldini olish maqsadida *yilda ikki marotaba* markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi.

Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash o'zining qat'iyligi va davomiyligi bilan ajralib turadi. Singapur mustaqillikka erishgan 1965-yilda korrupsiya avjiga chiqqan edi. Uni kamaytirish uchun bir qator choralar ko'rildi. Amaldorlar xatti-harakatini cheklab qo'yish, byurokratik protseduralarni soddalashtirish kabi choralar shular jumlasidandir. Asosiysi, qonunchilikda bu illatga qarshi og'ir jazolar tayinlandi. Hozirgi kunda Singapur korrupsiya eng kam mamlakatlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Yuqoridagi tahlillar, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdagi jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatmoqda:

⁵⁴ <https://strategy.uz/index.php?news=986&lang=uz>

birinchidan, "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, hali hamon mazkur qonun qabul qilinganicha yo'q. Shu sababdan "Davlat xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda davlat xizmatchilarining o'z faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan hamda korrupsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan me'yorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir;

ikkinchidan, xalqaro va ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi xarajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkiidagi o'zgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkoniyatini beradi, deklaratsiyalarning ommaviyligi, ya'ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yanada oshirishi shubhasizdir.

Muhokama uchun savollar

- 1. Korrupsiya atamasiga izoh bering?*
- 2. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi omillar nimalardan iborat?*
- 3. Jahon va mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan qanday huquqiy hujjatlarni bilasiz?*
- 4. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan muhim islohotlar to'g'risida so'z yuriting?*

**9-MAVZU: SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI – FUQAROLIK
JAMIYATINING SHARTI**

Reja:

- 1. Saylov tushunchasi mohiyati, uning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'рни*
- 2. Saylov tizimlari, kampaniyasi, uning asosiy bosqich va texnologiyalari*
- 3. O'zbekistonda saylov kodeksining qabul qilinishi va saylov jarayonlari bilan bog'liq ro'y bergan o'zgarishlar*

Tayanch so'zlar: saylov tushunchasi, saylovning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'рни, saylov tizimlari: majoritar, proporsional, aralash saylov, saylov funksiyalari, aktiv va passiv saylov huquqlari, saylov senzlari, Absenteizm, Saylovoldi tashviqoti, targ'ibot, saylov kampaniyasi, saylovning asosiy bosqichlari, saylov texnologiyalari, O'zbekiston Respublikasi saylov kodeksi, saylov jarayonlari bilan bog'liq ro'y bergan o'zgarishlar.

1. Saylov tushunchasi mohiyati, uning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'рни

Saylovlar mamlakatimizning siyosiy hayotida o'ta muhim o'rin egallaydi. Ular yordamida fuqarolarning siyosiy irodasi ifodalanadi, hokimiyat va boshqaruv institutlari shakllanadi. Saylovlar natijasida saylangan nomzodlar hokimiyat vakolatlariga ega bo'ladilar. Ular turli demokratik tashkilotlarda, kooperativlarda, aksioner jamiyatlarda va hokozalarda foydalaniladi.

Saylovlar – davlat hokimiyati organlari, siyosiy. tizimni yaxlitligicha yangilanishining eng ma'qul va samarali uslubi hisoblanadi. Bu uslub orqali hokimiyat, tinch yo'l bilan, qon to'kilmasdan, qurbonlarsiz va vayronaliksiz yangilanadi. Saylovlar asosan hokimiyatni legitimlashtiradi, fuqarolar saylovlar vositasida o'zining vakillarini aniqlaydi va o'zlarining suveren huquqlarini amalga oshirish maqsadida bu vakillarni mandatlar bilan ta'minlaydi. Shu yo'l bilan fuqarolarning siyosiy huquqlari hayotda amalga oshiriladi. Saylovlarning statistik tahlili bilan shug'ullanuvchi alohida fan ham bo'lib, u psefologiya deyiladi.

Saylovlar odatda Konstitutsiya va boshqa qonunlarda mustahkamlangan davlat institutlari tarkibini muntazam, davriy ravishda saylash jarayoni sifatida tushuniladi. Ovoz berish esa har doim ham saylovlar bilan bog'liq emas. U to'gridan-to'gri demokratiyaning turli shakllari: referendumlarda, so'rovlarda, yig'ilishlarda qarorlar qabul qilishda foydalaniladi. Saylovlar jahonning deyarli barcha mamlakatlarida o'tkaziladi. Lekin, ularning barchasini ham demokratik, raqobatli saylovlar deb bo'lmaydi. Mustabid tuzum va bir partiyaviylik tizimdagi hokimiyatlar, avtoritar rejimlar o'zlarining nodemokratik hukmronliklarini niqoblash va unga qonuniylik tusini berish uchun raqobatsiz, soxta saylovlar jarayonlarini sahnalashtiradilar. Bunday saylovlarda bitta nomzod ko'rsatilib, saylovchilar muqobil nomzodlar tanlash imkoniyatidan mahrum qilinadi. Ko'p hollarda muqobil nomzodlar ham qo'yilishi mumkin, lekin, turli nayrangbozliklar, firibgarliklar, soxtalashtirishlar natijasida rasmiy hokimiyatni qoniqtirgan, qo'llagan mute nomzodlarga saylanadi.

Saylovlar demokratiyaning ajralmas elementi sifatida o'zida uning turli shakllarining ta'sirini aks ettirmasdan qolmaydi hamda uning turli modellarida turlicha rol o'ynaydi. Demokratiyaning to'g'ridan-to'g'ri shakllariga, fuqarolarning muhim davlat qarorlarini tayyorlash va qabul qilishda bevosita ishtirokiga asoslangan siyosiy tizimlarda saylovlarning ahamiyati nisbatan pastroqdir. Bunday hollarda fuqarolar tomonidan saylanadigan davlat rahbarlarining vakolatlari cheklangandir. Bu esa saylovlarning siyosiy ahamiyatini pasaytirilmasdan qolmaydi. Bunga qadimgi Yunon Afina respublikasining faoliyati misol bo'la oladi. Unda ko'pchilikning bevosita boshqaruvi davrida, maydonlarda xalq tomonidan soliqlarning hajmi, urush va tinchlik, sudyalar va harbiy boshliqlarni almashtirish masalalarining hal qilinishi saylovlarning ahamiyatini pasaytirgan edi.

Hozirgi demokratiya sharoitida saylovlar – xalq suvereniteti ko'rinishining, uning hokimiyat manbai sifatida siyosiy rolining asosiy shaklidir. Ular turli ijtimoiy manfaatlarining hokimiyat institutlarida ifodalanishining muhim kanali bo'lib ham xizmat qiladi.

Saylovlar ayrim mamlakatlarda ko'pchilik fuqarolarning siyosatda real ishtirok etishining yagona, birdan-bir shakli

hisoblanadi. Ular hokimiyatga ko'proq ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishga: parlament va hukumatni saqlab qolish va almashtirishga, ularning xalq oldidagi mas'uliyatini ta'minlashga, siyosiy kursni o'zgartirishga va hokozolarga imkon beradi.

Jahonda saylovlarning ko'rinishlari xilma-xildir. Ular turli-tuman milliy institutlar institutlar va boshqaruv darajalari: parlament, prezident, federatsiya subyektlarining vakillik va ijro organlarini, hokimiyatning mahalliy organlarini shakllantirishda o'tkaziladi. Siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlariga saylovlar mazkur xilma-xillikni yanada boyitadi.

O'zbekiston Respublikasida saylovlarni uyushtirish va o'tkazishda umumiylik, tenglik, yashirin saylovlar, to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish, erkinlik, muqobil nomzodlarning mavjudligi, davriylik va muntazamlilik kabi demokratiya tamoyillariga asoslanadi.

Saylov tizimi boshqa ilg'or mamlakatlardagi saylov tizimi singari o'z oldiga xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi, erkin va mustaqil davlat hokimiyati organlarining samarali tizimini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, u bir qator vazifalarni bajaradi:

- aholining xilma-xil manfaatlarini himoya qilish;
- hokimiyat institutlari ustidan nazorat qilish;
- hilma-xil fikrlarni birlashtirish va umumiy irodani shakllantirish;
- siyosiy tizimni legitimlashtirish va barqarorlashtirish;
- hokimiyat institutlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirish;
- saylov korpusini dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishga safarbar qilish;
- aholining siyosiy onggi va siyosiy ishtirokini rivojlantirish;
- siyosiy elitani rekrutlashtirish;
- samarali muxolifatni shakllantirish va boshqalar.

Saylovlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'rsatadigan hal qiluvchi ta'sirini u bajaradigan vazifa-funksiyalarga qarab baholash mumkin. Bular:

a) *davlat boshqaruv organlarining asosiy qismini to'ldirish funksiyasi.* Demokratik jamiyatda saylov siyosiy va nosiyosiy institutlar, avvalo, davlat organlari tarkibini aniq ko'rsatilgan muddatlarda yangilab, to'ldirib borishga xizmat qiladi;

b) *manfaatlar artikulyatsiya funksiyasi*. Saylov davrida aholining xilma-xil talab, e'tirozlari, manfaatlari umumlashtirilib, ular siyosiy partiyalarning, deputatlikka nomzodi ko'rsatilgan kishilarning nafaqat saylovoldi dasturi, balki undan keyingi faoliyatining bosh yo'nalishiga aylanadi;

c) *hokimiyat institutlari faoliyati ustidan nazorat o'rnatish funksiyasi*. Saylovlar natijasida hukumat faoliyatini muntazam nazorat ostiga oluvchi institut - parlament, shuningdek, Konstitutsiya va qonunlar bajarilishini butun vujudi bilan kuzatib boruvchi muxolifat tarkib topadi. Bunda parlament nazorati faqatgina o'z kuchiga emas, balki sud tizimi va eng muhimi - bevosita saylovchilar tomonidan bildirilgan fikr, talab, e'tirozlarga tayanadi. Bundan tashqari saylovning o'zi ham muhim nazorat instituti vazifasini bajaradi. Chunki ular orqali saylovchilar hukumat va muxolifatga o'z munosabatlarini bildiradilar, hokimiyat organlari tarkibini yangilaydilar, davlatning siyosiy kursiga o'zgartirishlar kiritadilar;

d) *legitimlik funksiyasi*. Jamiyat siyosiy sistemasining legitimligi, barqarorligi, shuningdek, hokimiyatning muayyan institutlari-parlament, hukumat, Prezident va boshqa saylangan tuzilmalar legitimligini tasdiqlab berish funksiyasi. Odatda fuqarolarni saylovlarda ishtirok etishi siyosiy tizim, siyosiy rejim va hokimiyat organlarini shakllanishi, tarkib topish formalarini qo'llab-quvvatlaganidan dalolat beradi.

Saylovning yana bir muhim tomoni shundan iboratki ular jamiyat a'zolariga nomaqbul hukumat yoki deputatni qayta saylash, ularni kishilar ishonchi, hurmatini qozongan odamlar bilan almashtirish imkonini beradi. Saylovlar yordamida nafaqat bir butun siyosiy tizim, balki parlament, hukumat va hokimiyat tizimidagi ayrim tuzilmalar legitimligi, balki ularning davlatni idora etishga bo'lgan huquqini ham tan olish amalga oshiriladi;

e) *siyosiy elitaning qayta to'ldirish funksiyasi*. Saylovlar fuqarolarni siyosiy elita tarkibiga kirib borishi, mansab-lavozim egallash, siyosiy hukmronlikni barqarorlashuvi yoki uning inqiroziga olib keluvchi jarayon, voqelikdir. Saylov natijasida hukmron va muxolifatdagi elitaning tarkibi yangilanadi, partiyalar va ular vakillarining obru-nufuzi o'zgaradi;

f) *aholining siyosiy ongi, madaniyati va faolligini oshirish funksiyasi.* Saylov jarayonida fuqarolar tomonidan siyosiy qadriyat va normalarni o'zlashtirish suratlarini jadallashuvi, ularning siyosiy malaka va tajribalarini ortib borishi, siyosiy-ma'rifiy, targ'ibot ishlari ko'lamining keng avj olishi, kishilar diqqat e'tiborida siyosiy muammo va ular yechimi masalalarining markaziy o'rin olishi kabi jarayonlar xuddi shu davrga to'g'ri keladi. Saylovchilar ovoz berish bilan bir vaqtda o'zlarini ta'sirchan siyosiy kuch ekanliklarini his etadilar. Bu esa o'z navbatida ularning siyosiy faollik va mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

g) *muqobil, raqobatdosh siyosiy dasturlar yordamida jamiyat yangilanishini ta'minlash funksiyasi.* Saylovlar institutlashgan tarzda davlat va jamiyatga jiddiy ta'sir o'tkazishning o'ziga xos vosita, mexanizmidir. Ular turli siyosiy kuchlarga jamiyatda yuzaga kelgan muammoli masalalarga o'z munosabatlarini bildirish va ularning yechimini izlab topish, hayotga tatbiq etish imkonini beradi. SHunday qilib, saylov jamiyat taraqqiyotining optimal, qulay yo'lini ishlab chiqish, siyosiy qadriyat va qarama-qarshi yo'l-yo'riqlardan eng maqbulini tanlab olish, samarasiz siyosatdan voz kechishga shart-sharoit yaratadi⁵⁵.

Albatta, saylovlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan funktsiya vazifalarini saylovning demokratik talab-tamoyillar asosida tashkil etilganidagina bajara oladi. Ta'kidlash joizki saylov demokratik qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, demokratiyani amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Saylovlarning eng muhim ijtimoiy maqsad-vazifasi - bu turli ijtimoiy guruh vakillarini hokimiyat vakillik organlarida ishtirok etishi va unumli faoliyat ko'rsata oladigan hukumat tarkibini tuzishdan iboratdir. Ana shunday maqomga mos kelishi uchun saylovlar muayyan tamoyil-prinsiplarga asoslanishi kerak bo'ladi. Ularni ikkita guruh-birinchisi, har bir fuqaroni saylovda qatnashish huquqini belgilovchi nizomga asoslanish tamoyili va ikkinchisi, saylovlarning tashkiliy asoslarini xarakterlovchi yalpi-umumiy tamoyillarga ajratiladi:

yalpi, umumiylik tamoyili. Barcha fuqarolar jinsiy, irqiy, milliy, diniy mansubligi, siyosiy e'tiqodi, sinfiy, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar saylovda aktiv va passiv ishtirok etish huquqiga egadirlar;

⁵⁵ Каралсин: Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. Стр. 402-405.

tenglik tamoyili. Har bir saylovchi faqat bitta ovozga ega va bu ovoz kimga tegishligidan qat'iy nazar bir xil baholanadi. Saylov tengligi saylov okruglarining ham taxminan tengligini bildiriladi. Bu holat deputatlarni saylash jarayonida saylovchilarning bir xil shart-sharoitga ega bo'lishliklaridan kelib chiqadi;

saylovlar yashirinligi tamoyili. Har bir saylovchining qarori hech kimga tayin, ma'lum bo'lib qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu tamoyil saylov erkinligini ta'minlaydi va fuqarolarni u yoki bu tomonga ag'darish, uni ta'qib ostiga olishdan saqlaydi;

to'g'ridan-to'g'ri, bevosita saylash tamoyili. Saylanayotgan nomzodga, ovoz berishni saylovchini o'zi hal qiladi. Saylovchi va nomzodning erkin xohish-irodasi, istagini bildirishga xalaqit beruvchi bironta ham instansiya (bosqich, vosita) bo'lishi mumkin emas.

Saylovlarni demokratik yo'llar bilan tashkil etishning umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– saylovchilar, jamoatchi faollar, nomzod va saylov tashkilotchilariga siyosiy, ma'muriy, ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy va informatsion bosim tazyiq o'tkazilishi mumkin emasligi tamoyili. Saylovoldi targ'ibot-tashviqot jarayonlari mobaynida qonun doirasida yo'l qo'yiladigan ba'zi bir axloqiy chegaralanishlar bundan mustasno;

– nomzodlarni muqobilik asosida tanlab olish tamoyili. "Saylov" tushunchasining o'zi taklif qilinganlardan birini tanlab olishni bildiradi. Agar saylanishga bitta nomzod yoki partiya ko'rsatilgan bo'lsa unda saylovchilar tomonidan uni manzur tutish, qo'llab-quvvatlash to'g'risida so'z yuritilishi mumkin xolos. Uni tanlab olish haqida emas. Bunday vaziyatda saylovlarning demokratik imkoniyatlari anchagina chegaralangan bo'lib qoladi. Siyosiy plyuralizm, xilma-xillik sharoitida nomzodlarning muqobilik asosida qatnashuvi demokratik saylovlarning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi⁵⁶.

Ko'rsatib o'tilgan erkin saylov printsip-tamoyillarini hayotga tatbiq etilishi bevosita siyosiy tuzum shakliga, demokratiya talab qoidalari-hokimiyatni tarmoqlarga bo'linganligi, jamiyatda mustaqil muxolifat, sud tizimini shakllanganligi, fuqarolarning siyosiy ongi, madaniyati, faollik darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Aks holda saylovlar demokratik maqsadlarga emas, boshqa g'arazli maqsad-

⁵⁶ Каралсин: Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. Стр. 407-408.

muddaolarga xizmat qilishi mumkin. Masalan avtoritar, totalitar tuzumga mansub davlatlarda avvallari ham, hozir ham saylovlar orqali manfaatdor doiralar xalqaro hamjamiyat fikrini chalgitish, firibgarlik uslub-yo'llari bilan o'z siyosiy hukmronliklarini mustahkamlashga intiladilar.

Totalitar tuzumlarda saylov ro'yxatiga hukmron guruh yoki partiya tomonidan bitta nomzod ko'rsatiladi. Bunday holatda raqobatdoshlik, siyosiy plyuralizmga o'rin qolmaydi. Totalitar kommunistik siyosiy sistemada saylovlar, asosan, jamiyat oldida turgan maqsad-vazifalarni targ'ib qilish vositasi bo'lib, xalq va partiya, omma va doxiy-rahbarning mustahkam birligi, saylovda ishtirok etish esa siyosiy tuzumning demokratligidan dalolat beruvchi soxta tushunchalar bilan sug'orilgan spektaklni eslatadi.

Avtoritar davlatlarda saylovlar tor doiradagi kishilar guruhi yoki alohida bir shaxs tomonidan monopollashtirib olingan hokimiyatga chiroy berib turuvchi bezak, pardaga o'xshab ketadi. Bunday saylovlar raqobatsiz yoki yarim raqobatli tus oladi va saylovga hokimiyat, partiyaga sodiq kishilar nomzodi qo'yiladi. Ana shunday tarzda saylangan mamlakat parlamenti vakolatlari chegaralangan, itoatkor siyosiy institut, hokimiyat mexanizmiga aylanib qoladi.

Umumqabul qilingan ushbu tamoyillar asosida saylov huquqlarini amalga oshirishda dunyo davlatlarning saylov qonunlarida turli cheklovlar ham nazarda tutilishi mumkin. Bunday cheklovlar saylov senzleri deb ataladi. Bu senzlar tegishli qonunlarda saylov huquqlarini olish yoki amalga oshirish uchun o'rnatilgan shartlar bo'lib ular turli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Bu senzlar ichida eng ko'p uchraydigani yosh va fuqarolikka tegishli bo'lsa, ba'zi davlatlarda mulkiy holati, jinsi, irqi, tiliga qarab belgilanadigan demokratik prinsiplarga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan cheklovlar ham uchrab turadi.

Fuqarolarning saylov huquqlarini o'z navbatida aktiv va passiv saylov huquqlariga bo'lish mumkin.

Aktiv saylov huquqi ya'ni saylash huquqi bevosita demokratiyaning bir ko'rinishi bo'lib, u xar bir fuqaroning davlatni boshqarishda o'z vakillarini saylash bilan ishtirok etishini ko'zda tutadi. Bu huquqqa qonunda belgilangan ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli mamlakat fuqarolari ega bo'ladilar.

Yosh senzi turli mamlakatlarda turlicha belgilanishi mumkin. Braziliya va Eronda fuqarolar 16 yoshdan, Indoneziyada 17 yoshdan saylash huquqiga ega bo'lsa, ayrim mamlakatlarda saylash huquqini olishga bo'lgan chegara yosh ancha yuqori qo'yilgan. Masalan, Malayziya, Marokash, Boliviya fuqarolar 21 yoshga to'lganidan keyingina saylash huquqiga ega bo'lishadi. Fransiya, Germaniya, Rossiya, Qirg'iziston va O'zbekistonda saylov kunigacha saylov huquqiga ega bo'lish uchun belgilangan yosh 18 yosh qilib belgilangan.

O'troqlik senzi ham mavjud bo'lib, bunda saylov kuniga qadar saylovchi belgilangan ma'lum bir vaqt mazkur hududda istiqomat qilgan bo'lishi yoxud ushbu davlat hududida tug'ilgan bo'lish kerak. Misol uchun, Fransiyada saylovchilar ro'yxatiga kommuna kamida 6 oy yashagan shaxslar kiritiladi.

Fuqarolik senzi barcha davlatlarda odatiy shartga aylangan bo'lsa-da, ba'zi xollarda bunday senzning yo'qolib ketishini ham kuzatish mumkin. Masalan, o'ziga xos tuzilma bo'lgan Yevropa Ittifoqining Parlamentiga saylovlar paytida Fransiyada bo'lgan Germaniya fuqarosi Fransiyaning Yevropa Ittifoqi Parlamentiga nomzodi vakili uchun ovoz berish huquqiga ega. Bu qoida Yevropa Ittifoqiga asos solgan 1992 yilgi Maastrixt Shartnomasida ko'zda tutilgan. Germaniyada esa saylovda faqat mahalliy hokimliklar saylov reestriga kiritgan fuqarolargina ishtirok etadi. Shuningdek, saylovdan oldin sud hukmi bilan saylash huquqidan mahrum qilingan yoki mazkur shaxsning barcha ishlarini hal qilish vakolatiga ega vasiy tayinlangan, sud qaroriga muvofiq ruhiy kasalliklar shifoxonasiga yuborilgan shaxslarga ruxsat berilmaydi.

Rossiyada esa sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan fuqarolar saylash va referendumda ovoz berish huquqiga ega emas.

O'zbekistonda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi.

Passiv saylov huquqiga, ya'ni saylanish huquqiga ham ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli fuqarolar ega bo'ladilar. Turli davlatlarda turli davlat organlariga saylanish uchun belgilangan yosh chegarasi turlicha bo'lishi mumkin.

Aktiv saylov, ya'ni saylash huquqidagi yosh senzi turli davlatlarda aholining barcha qatlami uchun bir xil belgilansa, passiv saylov huquqida yosh senzi nomzodning qaysi organga saylanayotganligiga qarab turlicha belgilanishi mumkin. Masalan, Fransiyada Milliy Majlis deputatligiga va Yevropa Parlamentiga nomzodi qo'yilgan shaxs 23 yoshga to'lgan bo'lishi, Senatga saylanish uchun esa 35 yoshga to'lgan bo'lishi shart⁵⁷. Undan tashqari barcha nomzodlarning harbiy xizmatni to'liq o'tagan bo'lishi ham talab qilinadi. Rossiyada Davlat Dumasiga deputat bo'lib saylanish uchun nomzod saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Saylanish huquqi ham ba'zi mamlakatlarda ancha yuqori bo'lishi mumkin. Masalan, Italiyada senator bo'lish uchun nomzodning 40 yoshga to'lgan bo'lishi talab qilinadi. O'zbekistonda mahalliy kengash deputatligi uchun 21 yosh, parlamentga saylanish yoshi 25 yosh etib belgilangan.

Saylanish huquqiga ega bo'lish uchun yana *mulkiy senz* kabi boshqa shartlar ham qo'yilishi mumkin. Masalan, Yevropa Parlamentiga nomzodi qo'yilgan fransuz fuqarosidan 1500 yevro garov summasi talab qilinadi. Qirg'iziston Prezidentligi lavozimi uchun bo'ladigan saylovda ham ma'lum bir miqdordagi to'lov summasini amalga oshiriladi. Bizning mamlakatda bunday talab kiritilmagan.

Bundan tashqari jinsiy, tabaqaviy va irqiy senzlar ham mavjud bo'lgan. *Jins senzida* ayollarning saylov huquqini amalga oshirishiga ruxsat berish yoki cheklash bo'lib, dastlab saylov huquqi faqat erkaklarga berilgan. Lekin XX asrga kelib erkaklar va ayollar huquqi tenglashtirilgan. Muayyan tabaqa vakillari (ishchilar, dehqonlar, harbiy xizmatchilar va boshqalar)ning saylovlarda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmagan. Jinsiy, irqiy va tabaqaviy senzlar demokratiya tamoyillariga to'g'ri kelmasligi uchun ulardan voz kechilgan.

Erkin saylov huquqining amalga oshirilishi fuqarolar ijtimoiy faolligining oshib borishiga xizmat qiladi. Bunday jamiyatda fuqarolar turli sohalarda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarga befarq bo'lmaydilar. Turli qatlamdagi aholi manfaatlarini hisobga olmasdan yuritiladigan davlat siyosati salbiy oqibatga olib kelishi mumkin. Buning natijasida fuqarolarning faolligi pasayib, ularning saylovlarda qatnashishi kamayib ketishi, natijada absenteizm holatiga olib kelishi mumkin. *Absenteizm* deb

⁵⁷ Каранс: Droit constitutionnel et libertes, Edition SIREY, 1998, pp 50-52.

ataladigan bunday holat saylovlarda ovoz berishda va referendumda ixtiyoriy qatnashmaslikni bildiradi. Bunda saylovchilar o'z ixtiyorlari bilan saylovlarda qatnashmaydilar, chunki kim deputat bo'lishi, kim davlat boshlig'i bo'lishi, qo'yilgan masalaning qanday hal qilinishi ularni qiziqitirmaydi. Bu esa davlat barqarorligiga xavf soladigan darajadagi oqibatlariga olib kelishi mumkinki, buni 2002-yilda o'tkazilgan Fransiya Prezidenti saylovlari misolida ko'rish mumkin⁵⁸. Bunday holatni boshqa xorijiy mamlakatlar tajribasida ham uchratish mumkin. Ayrim mamlakatlarda saylov jarayonlarida ishtirok etish majburiy etib belgilangan. Masalan, Avstraliyada saylovlarda ishtirok etmaganlarga jarima qo'llanilsa, Pokistonda qamoq jazosigacha bo'lgan jazo choralari belgilangan.

2. Saylov tizimlari, kampaniyasi, uning asosiy bosqich va texnologiyalari

Saylov jarayonining asosiy bosqichlari. Saylov muddatlari va saylovdan ko'zlangan maqsad-vazifalarga qarab saylov jarayoni bir necha bosqichga bo'linadi:

- 1) tashkiliy chora-tadbirlardan iborat tayyorlov bosqichi;
- 2) nomzodlarni ko'rsatish va ularni ro'yxatga olish bosqichi;
- 3) targ'ibot-tashviqot kampaniyasi;
- 4) ovoz berish va saylov yakunlari.

Saylovlar hamma vaqt haqiqiy demokratik yoki qalbaki, xo'jako'rsin uchun tashkil etilgan aniq bir ijtimoiy-siyosiy muhitda amalga oshiriladi. Saylov jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan omillar quyidagilardan iborat:

– jamiyatda hamjamiyatlik, o'zaro ishonch muhitining qaror topganligi va fuqarolarning katta qismi manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiyalar tomonidan saylov natijalarini hurmat qilinishi;

– davlatda inson shaxsi, ko'pchilik xohish-irodasi va ozchilik huquqlarini, shuningdek, saylovchilar va nomzodlar erkinliklarini turli tahdid, xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan shart-sharoitlarning yaratilganligi;

– saylov mohiyat - mazmuni, qoidalari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar, ularning dastur va nomzodlaridan fuqarolarning xabardorligini belgilovchi siyosiy ma'lumotlilik

⁵⁸ Бу тўғрида батафсилроқ қаранг: L'Etat du monde, Annuaire economique et geopolitique 2003, Paris, Decouverte, page 497.

darajasi. Bu ko'rsatkich saylovchilar hukmini (kim uchun ovoz berish) naqadar ongli va mas'uliyat bilan qabul qilinganini bildiradi. Faqat shundagina saylovlar xalq xohish-irodasiga mos ravishda o'tkazilgan bo'lishi mumkin. Aks holda ular elitaning o'z maqsadlariga erishishlaridagi xiyla-nayranglari, quroliga aylanib qoladi;

– saylovchilarni ro'yxatga olish jarayonida milliy, irqiy, mulkiy va boshqa ko'rinishlardagi cheklash, kamsitishlarga yo'l qo'yilmaslikni ifodalovchi demokratik tartibot mavjudligi;

– partiyalarni ro'yxatga olishning demokratik tartibi va partiyalarning o'zaro munosabatlari. Partiyalar saylovchilar faolligi va safarbarligini ta'minlashning bosh subyekti hisoblanadilar. Zotan ular mamlakat parlamenti va hukumatini shakllantirishning asosiy davogarlari bo'lib maydonga chiqadilar. erkin saylovlarning muhim jihati shundaki demokratik konstitutsiyani tan oladigan barcha partiyalar, deputatlikka nomzodlar ro'yxatga olinishlari va saylovdagi kurashda qatnashish imkoniga ega bo'lishlari shart;

– saylov jarayonini xolis va omilkorlik bilan uddalay oladigan mustaqil boshqaruv organlarni shakllantirish. Bu eng avvalo saylov komissiyasidir. Uning vazifasi saylov haqidagi qonunni xalq ommasiga etkazish, tushuntirish, saylov o'tkazish tartib - qoidalarini belgilash, saylov uchastkalarini tashkil etish, nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi imzolar haqiqiyiligini tekshirib chiqish, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni tartibga solish, saylovchilar va nomzodlarni ro'yxatga olish, zarur saylovgi hujjat, materiallarni tayyorlash va mas'ul xodimlarni tayinlash, saylov natijalari bilan bog'liq ma'lumotlarni jamlash va ularni o'z vaqtida e'lon qilish, saylov o'tkazish jarayoni ustidan umumiy nazorat o'rnatishdan iborat bo'ladi.

Saylov o'tkazish muddatlarini belgilash, tayyorgarlik ishlarini nihoyasiga yetkazish bilan *saylov kampaniyasi* boshlanadi. Davlat saylovlarni o'tkazish, nomzodlar, partiyalarning g'alaba qozonishini ta'minlaydigan keng ko'lamdagi tashkiliy, siyosiy, axborot, targ'ibot va tashviqot chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Saylov kampaniyasi nomzod va partiyalarni ko'rsatish va ro'yxatga olish bilan boshlanadi. Buning uchun: a) nomzod yoki partiyani qo'llab-quvvatlovchi imzolar to'planadi; b) nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi hujjatlar bilan birga ro'yxatga olish uchun

zarur bo'lgan badal, mablag' to'langanligi haqidagi ma'lumotnoma taqdim etiladi.

Ko'pchilik hollarda saylovda qatnashish uchun talab qilinadigan imzolarni to'plagan nomzodlar, partiya, ommaviy tashkilot, harakatlar, fuqarolar guruhi tomonidan ko'rsatiladilar. Nomzodlarni ro'yxatga olinishi uchun kerakli imzolar soni saylov darajasi, prezidentlik, parlament, hududiy, shuningdek, saylov to'g'risidagi qonun bilan belgilanadi.

Nomzodlarni ko'rsatish jarayoni ularni ro'yxatga olish bilan poyoniga yetadi. Shundan keyin saylovchilarga jiddiy ta'sir o'tkazuvchi saylovoldi targ'ibot-tashviqot kampaniyasi boshlanadi. Kampaniya tarkibiga bosh boshqaruvchi, moliyaviy agent (vakil), siyosiy tashkilotchi, texnik kotib va yordamchilardan tashqari nomzodni ishonchli vakillari, uni qo'llab-quvvatlovchi guruh a'zolari, saylovni ijtimoiy - siyosiy tashkil etish guruhi, shuningdek, jamoatchi faollar, agitatorlar, kampaniya homiylari va boshqalar kiradilar.

Ko'rinib turganidek saylovlar bir qancha moddiy, (mablag', bino va h.k.) vaqt va kishilik resurslarini talab qiladi. Ularsiz saylovlarni tashkil qilish mumkin bo'lmaydi yoki ular hukmron guruh, yirik kapital, ommaviy axborot vositalari tomonidan uyushtiriladi va ular vakillarini saylovlarda g'olib chiqishni ta'minlaydi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki targ'ibot - tashviqot kampaniyasining demokratik xarakteri saylovlar uchun ajratilgan resurslarni barcha nomzodlar, partiyalar o'rtasida teng, hech bo'lmasa, xolis, haqqoniy taqsimlanganligi bilan belgilanadi. Bu saylov fondlarini davlat tomonidan moliyalashtirish yordamida tenglashtirish va ayni bir paytda shaxsiy badallar miqdorini chegaralash, korporatsiyalar, chet el fuqarolari va boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni ta'qiqlab qo'yish imkonini beradi.

Targ'ibot - tashviqot kampaniyasining demokratik prinsiplar asosida tashkil etilganligini tasdiqlovchi faktorlar qatoriga nomzodlarni ommaviy axborot vositalaridan, ayniqsa elektron vositalaridan foydalanishlarga teng sharoitlar yaratilishi, saylovlar uchun ajratilgan mablag'lardan imtiyozli foydalanishga yo'l qo'ymaslik va nihoyat, davlat rahbarlari, yuqori mansabdagi

amaldorlarni saylov jarayonida o'z lavozimlarini suistemol qilishlarini oldini olish choralari kiradi.

Saylovoldi tashviqoti — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir. Saylovoldi tashviqoti nomzodlarni ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e'tiboran boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish taqiqlanadi. Noto'g'ri axborotni, shuningdek nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Quyidagilarning saylovoldi tashviqotini olib borishi taqiqlanadi:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, sudyalarining;

- saylov komissiyalari a'zolarining;

- diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining.

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o'z mansab va xizmat mavqeyidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiyaning yoki nomzodning foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi.

Tashviqot quyidagicha tarzda olib boriladi:

- siyosiy partiyaning dasturi va saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni o'zining deputatlikka nomzodlarini yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning dasturi va saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni nomzodni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;

- nomzod to'g'risidagi axborotni uni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish.

Tashviqot omma oldida ochiq munozaralar, bahslar, matbuot konferensiyalari, fuqarolarning yig'ilishlari, intervyular, ommaviy

axborot vositalarida chiqishlar, roliklarni joylashtirish shaklida olib borilishi mumkin.

Tashviqot quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'i orqali;

- bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chiqarish hamda tarqatish orqali;

- saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish va unga yakun yasash saylov jarayonining eng so'nggi, shuning bilan birga, yuqori bosqichi hisoblanadi. Saylov komissiyasi ovoz berish jarayonini tugashi bilanoq saylov natijalarini hisob - kitob qilishga kirishadi. Ovoz berish va saylov natijalarini hisoblash o'rtasida uzilish, to'xtalish mumkin emas. Zero bu holat saylovlarda uchrab turadigan noxush hodisalar – saylov natijalarini soxtalashtirish, buzib ko'rsatilishiga olib keladi. Shuning uchun ham ovoz berish va saylov natijalarini to'g'ri hisob-kitob qilish jarayoni ustidan qat'iy nazorat o'rnatiladi.

Saylov jarayoni mamlakat Konstitutsiya va Saylov kodeksida belgilangan norma va qoidalarga asoslanadi. Saylov tizimining eng muhim vazifasi xalq, saylovchilar xohish-irodasi, vakilligini ta'minlash, layoqatli, samarali faoliyat ko'rsata oladigan hokimiyat organlarini shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Demokratik davlatning asosiy prinsiplaridan biri erkin va adolatli saylov tizimini joriy qilinganligidadir. "Saylov tizimi" tushunchasi birinchidan, saylanadigan (avvalo vakillik) davlat organlarini shakllantirish tartibi, ikkinchidan, saylovda ovoz berish natijalari aniqlangandan keyin, saylangan organlarda joylarni (masalan, parlamentdan joy, o'rin olgan partiyalar o'rtasida) taqsimlashni bildiradi.

Jahon tajribasida saylov tizimining *majoritar* (muqobil), *proporsional* (vakillik, mutanosiblik) va *aralash* turlari qo'llaniladi.

Majoritar saylov tizimi (fransuzcha «majorite» so'zidan olingan bo'lib, ko'pchilik degan ma'noni anglatadi) – tarixan birinchi saylov tizimi hisoblanadi. Unda ko'ra, tegishli saylov okrugi bo'yicha saylovchilarning eng ko'p ovozini to'plagan nomzod saylangan hisoblanadi. Darajasiga qarab *nisbiy*, *mutlaq* va belgilab qo'yilgan

ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovoziga asoslanuvchi majoritar tizimlar bir-biridan farqlanadi.

Nisbiy ko'pchilik ovozga asoslanadigan majoritar saylov tizimi - eng soddada tizim bo'lib, bunda tegishli saylov okrugida boshqa nomzodlarga nisbatan saylovda ishtirok etgan saylovlarning eng ko'p ovozini olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi (masalan, AQSh, Buyuk Britaniya). Bu tizimda ko'pincha saylovchilarning qullab-quvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p o'ringa ega bo'lishi mumkin.

Saylovchilar mutlaq ko'pchiligining ovoziga asoslanadigan majoritar tizimda berilgan ovozlarning umumiy sonining 50 foizidan bitta ortiq ($50\% + 1$) ovoz olgan nomzod saylangan deb e'tirof etiladi (masalan, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston). Agar nomzodlardan biron-tasi ham yetarlicha ovoz olmasa, qayta ovoz berish o'tkaziladi, bunda nomzodlar ro'yxatida nisbatan ko'p ovoz olgan ikkita nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish o'rniga ikkinchi tur ovoz berish o'tkaziladi. Buning natijalari boshqacha tizim bo'yicha aniqlanadi. Masalan, Fransiyada Milliy majlis - parlament saylovlarida mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim, ikkinchi tur ovoz berishda esa nisbatan ko'pchilikning ovoziga asoslangan majoritar tizim qo'llaniladi.

Ba'zi mamlakatlarda majoritar tizimning kamdan-kam hollarda qo'llaniladigan yana bir turi - ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovoziga asoslanadigan majoritar tizim amal qiladi. Bunda umumiy ovozlarning uchdan ikki yoki to'rt dan uch qismini olgan nomzodlar saylovda g'olib chiqqan deb hisoblanadi. Bugungi kunda Chili va Ozarbayjon kabi davlatlarda shunday tartib amal qiladi. Masalan, Chilida parlamentning quyi palatasi - Deputatlar palatasiga saylovlarda shunday tizim qo'llaniladi. Biroq, bunda faqat juda o'z nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bo'lganligi uchun, mandatlar, odatda, vakillikning proporsional tizimi bo'yicha taqsimlanadi.

Shuningdek, har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki ko'p mandatli majoritar saylov tizimlari bo'lishi mumkin. *Bir mandatli* majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi. *Ko'p mandatli* majoritar tizimda bir okrugdan bir necha deputat saylanadi. O'zbekistonda bir mandatli majoritar tizim amal qiladi.

Majoritar tizimda saylovlar o'tgan deb hisoblash uchun saylovchilarning mazkur jarayonda ishtirok etishining eng kam miqdori belgilanishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda saylovlar haqqoniy bo'lishi uchun saylovchilarning 33 foizi ishtirok etishi talab etiladi. O'zbekistonda saylovlarning majoritar mutlaq ko'pchilik tizimi amal qiladi, ya'ni saylovda ishtirok etayotgan saylovchilarning yarmidan ko'prog'ining ovozini olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi. Agar hech bir nomzod mutlaq ko'pchilik ovozini olmasa, unda eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod o'rtasida takroriy saylovlar o'tkaziladi.

Majoritar saylov tizimining *ijobiy tomoni* shundaki hukumat shakllanishi va barqarorligi nisbatan oson kechadi. Ya'ni tashkiliy jihatdan yaxshi uyushgan yirik partiya saylovda osongina g'alaba qozonadi va mamlakatda bir partiyali hukumat tarkib topadi. Masalan, Rossiyadagi "Yedinaya Rossiya" partiyasi bir necha saylovlar davomida parlamentdagi ko'pchilik mandatlarni qo'lga kiritadi va Dumada yakka hukmronlik qiladi.

Bu saylov tizimining *zaif tomoni* shundaki, birinchidan, mamlakat saylovchilarning kattagina (ayrim hollarda 50 % gacha) qismi hokimiyat organlarida o'z vakillarisiz qoladilar. Ikkinchidan, saylovda oz ovoz olgan partiya raqiblariga nisbatan parlamentda ko'p o'rin olishi mumkin. Chunki saylovda o'z raqiblariga nisbatan ko'p ovoz olgan partiya g'olib chiqadi. Uchinchidan, saylovda deyarli teng yoki unga yaqin ovoz olgan partiyalar parlamentda bir xil bo'lmagan o'rinlarga ega bo'lishi mumkin.

Proporsional saylov tizimi – ko'p mamlakatlarda qo'llaniladigan saylov tizimining bir turidir. Proporsional saylov tizimida ovoz berish partiya ro'yxatlari yoki saylov koalitsiyalari bo'yicha o'tkaziladi. Bunda har bir partiya, koalitsiya o'z nomzodlari ro'yxatini ilgari suradi. Saylovchi esa o'zi yoqtirgan partiya yoki koalitsiya ro'yxati uchun ovoz beradi. Ushbu saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi hisoblanadi. Bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya

rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Ushbu saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Umumiy tarzda uning mazmuni quyidagilardan iborat: davlat yoki vakillik organlari xuddi yagona saylov okruglari deb e'lon qilinadi. Siyosiy partiyalar va harakatlar, ularning ittifoqlari (saylov uyushmalari, bloklari) o'z nomzodlari ro'yxatini ilgari surishadi. Saylovchi siyosiy partiya, harakatlar ularning rahbar va a'zolariga bo'lingan munosabatidan kelib chiqqan holda, shunday ro'yxatlardan biriga ovoz beradi. Bunday holatda g'alaba qozonish saylov uyushmalarining taqdim etgan ro'yxati uchun berilgan ovoz soniga qarab proporsional bo'ladi, ammo ovozlarni hisoblash 5 % ko'p ovoz yiqqan ro'yxat bo'yicha olib boriladi. (Masalan, Rossiya 5 %, Shvetsiyada 4 %, Argentinada 3 %, Daniyada 2 %, Isroilda 1 %ni tashkil qiladi). Saylovlarda ishtirok etgan saylovchilar ovozining umumiy soni proporsional saylov tizimi bo'yicha deputatlar mandatining umumiy soniga bo'linadi va buning natijasida xususiy saylov degan ma'no hosil bo'ladi. So'ng har bir nomzod uchun berilgan ovozlarni soni xususiy saylovga bo'linadi. Shunday qilib, partiyalar, harakatlar vakillik organida qancha o'rin olganliklarini bilib oladilar. Ro'yxat ichidagi o'rinlarni (mandatni) nomzodlar birinчисidan boshlab navbatga ko'ra oladilar. Agarda ro'yxat markaziy qism va mintaqaviy guruhlariga taqsimlangan bo'lsa, unda birinchi bo'lib parlamentga markaziy qism nomzodlari o'tishadi. Mintaqaviy guruhlardan nomzodlar tegishli mintaqada mazkur ro'yxat uchun saylovchilar bergan ovozlarga proporsional bo'lgan holatda o'rinlarni (mandatni) olishadi.

Proporsional saylov tizimining *ijobiy tomoni* shundaki, birinчidan, saylovchilarning ovozlari yo'qolmaydi, proporsional holatda partiya va harakatlar (faqat 5 % li yoki boshqa o'rnatilgan chegaradan o'ta olmaganlardan tashqari) vakillik organida mandatga ega bo'ladilar. Ikkinчidan, shakllangan hokimiyat organlarida, jamiyat siyosiy hayotining real holati, siyosiy kuchlarning mavqeyi, ularning joylashishida ko'zga tashlanadi.

Proporsional saylov tizimining *salbiy tomoni* shundaki, saylovchi absrakt shaxslarni saylaydi, ya'ni u faqat partiya, harakatlarning liderlari va bir necha faollarini bilishi mumkin, qolganlari esa unga noaniq, shu sababli ham saylovchi kimga ovoz berayotganligini aniq bilmaydi. Bu hukumatni shakllantirish

jarayonidagi murakkablikda ko'zga tashlanadi: ovoz berish aniq bir nomzod uchun emas, partiyaga berilganligi tufayli saylovchilar va deputatlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar yetarli darajada bo'lmaydi; saylangan deputatlarni o'z partiyalaridan mustaqilligi muhim masalalarni muhokama qilishda qiyinchiliklar tug'diradi (deputat va partiya qarashlari bir-biriga mos kelmay qoladi)⁵⁹. Bundan tashqari, saylangan deputatlarning ularni saylagan aniq okrugning saylovchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi yo'q. Bu holatning aksini majoritar saylov tizimida ko'rishimiz mumkin.

Aralash saylov tizimi o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi. Masalan Germaniyada Bundestagga saylovlarida aralash tizim qo'llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizim bo'yicha, ikkinchi yarmi esa, ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya subyektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi. Aralash saylov tizimi Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya, Rossiya, Misr va boshqa mamlakatlarda ham qo'llaniladi.

3. O'zbekistonda saylov kodeksining qabul qilinishi va saylov jarayonlari bilan bog'liq ro'y bergan o'zgarishlar

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda demokratik saylovlar o'tkazish, tom ma'noda, muhim ijtimoiy-siyosiy an'anaga aylandi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Saylov jarayonlarida barchamizning, avvalo, dunyoqarashimiz, siyosiy va huquqiy madaniyatimiz, grajdanlik pozitsiyamiz yana bir bor namoyon bo'ladi".

Birinchidan, mamlakatimizda saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonlari xalqaro normalar hamda demokratik prinsiplarga to'la javob berishida milliy qonunchilik va saylov amaliyotimizning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun davlat rahbari 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan ilk Murojaatnomasida O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish vazifasini kun tartibiga qo'ydi;

⁵⁹ Qaralсин: Политология. Под ред. М.А.Василика. стр. 286-289.

Ikkinchidan, Saylov kodeksi loyihasini tayyorlash vazifasi 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini 2018 yil – "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga kiritildi;

Uchinchidan, Prezidentimizning 2018-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan "Saylov qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi;

To'rtinchidan, ushbu Dasturga muvofiq Saylov kodeksi loyihasini tayyorlash va uni jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish, muhokama natijalariga ko'ra loyiha matnini takomillashtirish va Saylov kodeksini qabul qilish, shuningdek, boshqa qonun hujjatlari va Markaziy saylov komissiyasi hujjatlarini Saylov kodeksiga muvofiqlashtirish rejalashtirildi;

Beshinchidan, davlat rahbarining 2018-yil 4-oktabrda qabul qilingan "Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shubhasiz, saylov qonunchiligi sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Bu qaror mamlakatimiz saylov tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Tayyorlangan Saylov kodeksi loyihasining keng jamoatchilik o'rtasida muhokamasi va loyiha ekspertizasi amalga oshirildi. Saylov kodeksi loyihasi bo'yicha jami 400 tadan ortiq taklif va tavsiyalar kelib tushdi. Ilk bor Saylov kodeksi xalqaro ekspertizadan o'tkazildi. Xalqaro tashkilotlarning ekspertlari ishtirokida 2018-yilning 16-17 noyabr kunlari Buxoro shahrida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Saylov kodeksi loyihasi yuzasidan kelib tushgan takliflar atroflicha muhokama qilindi. Yevropadagi xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi, Islom hamkorlik tashkiloti, Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan kodeks loyihasi o'rganilib, tavsiyalar berildi. Shu asosda tayyorlangan jami 18 bob, 103 moddadan iborat Saylov kodeksi O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti tomonidan 2019-yil 25-iyun kuni imzolaniib, rasmiy e'lon qilingan kundan kuchga kirgan.

Saylov kodeksining dolzarbligini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi raisi A.Saidov bir nechta sabablar bilan izohlab o'tadi:

Birinchi sabab, saylov jarayonlari borasida qabul qilingan qonunlar va bir qator qonunosti hujjatlari haligacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmagan edi. Shu kodeks qabul qilingunga qadar saylov jarayoniga oid jami 5 ta qonun qabul qilingan edi. Bular: 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi va 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar edi.

Ikkinchi sababi: saylovlarga doir ana shu beshta qonunning barchasida fuqarolarning saylov huquqlari bilan bog'liq deyarli bir xil normalar takrorlangan edi. Saylovga doir qonunlarning ko'pligi ham fuqarolar tomonidan ularni qo'llashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotgandi.

Uchinchi sababi: shu vaqtga qadar yurtimizda saylov jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartib-qoidalari qonun darajasida emas, balki Markaziy saylov komissiyasining nizom va yo'riqnomalari bilan tartibga solinardi. Masalan, "Senat a'zolarini saylash to'g'risidagi Nizom"ni keltirish o'rinli. Bunday voqelik, o'z-o'zidan, Prezidentimiz oldimizga qo'ygan, ya'ni qonunlar to'g'ridan-to'g'ri ijro etiladigan bo'lishi kerak, degan muhim talabga ziddir.

To'rtinchi sababi: hozirgi kunda dunyoning 40 ta davlatida Saylov kodekslari qabul qilingan. O'zbekistonda ham xalqaro norma va standartlarga javob beradigan yagona Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish zarurati tug'ilgan edi.

Beshinchi sababi: keyingi davrda amaldagi 17 kodeksdan 6 tasi, ya'ni Budjet, Soliq, Bojxona, Yer, Uy-joy, Shaharsozlik kodekslarining qabul qilingani islohotlarning hozirgi bosqichida mamlakat

hayotining eng muhim sohalarini kodekslar bilan tartibga solishga o'tilganidan dalolat beradi. Saylov kodeksi loyihasining ishlab chiqilishi ushbu qonun ijodkorligi an'anasining uzviy davomidir.

Oltinchi sababi: Saylov kodeksida bugungi kunga qadar tarqoq holda amal qilgan saylov to'g'risidagi qonunlar va qonunosti hujjatlarini xalqaro norma va standartlar hamda ilg'or xorijiy tajriba talablaridan kelib chiqib kodifikatsiya qilish, saylov jarayoniga nisbatan yagona shaffof va samarali yondashuvlar nazarda tutilgan.

Saylov kodeksining qabul qilinishi, o'z navbatida, beshta yaxlit qonun va ularga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi 17 ta qonun o'z kuchini yo'qotishini anglatadi. Saylov kodeksini tayyorlashda 3 ta asosiy manbalardan foydalanilgan:

Birinchi manba – saylovlar to'g'risidagi milliy qonunchilik va saylov amaliyoti. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, saylovga doir 5 ta Qonun va Markaziy saylov komissiyasining 40 ga yaqin qonunosti hujjatlari, shuningdek, demokratik saylovlar o'tkazish borasidagi qariyb 30 yillik milliy saylov amaliyotimiz asosida ish olib borilganini qayd etish lozim.

Ikkinchi manba – saylovlarga doir ilg'or xorijiy tajriba. Kodeks loyihasini tayyorlash davomida dunyodagi 50 dan ortiq davlatlar, xususan, Fransiya, Niderlandiya, Kanada, Italiya, Shvetsiya, Belgiya, Polsha, Albaniya, Belarus, Ozarbayjon kabi mamlakatlarning saylov kodekslari va qonunlari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda Fransiya, Belgiya, Polsha, Albaniya, Armaniston, Ozarbayjon, Bolgariya, Gruziya singari 40 ta davlat o'zining yagona Saylov kodeksiga ega.

Uchinchi manba – saylovlarga doir xalqaro standartlar va demokratik prinsiplar. Saylovga doir 10 dan ortiq xalqaro hujjatlar atroflicha tahlil qilinib, ularning asosiy g'oya va standartlari O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi loyihasi normalariga imkon qadar chuqur singdirildi. Bunday hujjatlar jumlasiga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt, YEXHTning insoniylik mezonlari to'g'risidagi hujjatlari, jumladan, 1990-yilgi Kopengagen hujjati, Parlamentlararo Ittifoqning Adolatli saylovlar to'g'risidagi deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar kiradi.

Saylov kodeksi ilgari saylov qonunchiligimizda mavjud bo'lmagan yangi tartib va qoidalar bilan yanada takomillashtirildi⁶⁰. Xususan:

1) Saylov uchastkalari bilan bog'liq o'zgarishlar:

Uchastka saylov komissiyasi a'zolarining yarmidan ko'pi bitta tashkilotdan tavsiya etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Bu esa, saylovlarni o'tkazish va tashkil etishda xolislik tamoyilining hayotga tatbiq etilganidan dalolatdir;

Uchastka saylov komissiyalarining ovoz berish jarayoni tugagandan keyin amalga oshiradigan aniq harakatlari (ovozlarni sanash, bayonnomalarni tuzish, okrug saylov komissiyalari bilan o'zaro aloqalari va h.k) qonun darajasida mustahkamlandi. Ilgari bunday normalar Markaziy saylov komissiyasining hujjatlarida aks etgan edi;

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarida muhokama etiladigan va tavsiya etiladigan uchastka saylov komissiyalari a'zolari nomzodlari bo'yicha jamoat birlashmalari va tashkilotlarining takliflari olinishi tartibi o'rnatildi. Natijada, komissiya faoliyati yanada xalqchil ahamiyat kasb etishi ta'minlandi;

Avvallari Qonunchilik palatasiga, mahalliy Kengashlarga saylov bir vaqtda o'tkazilgan taqdirda, yagona saylov uchastkasini tuzish tartibi qonunchilikda belgilanmagan edi. Saylov kodeksida mazkur masalalar o'zining huquqiy yechimini topdi. Endilikda, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazuvchi yagona saylov uchastkalari tuzish tartibi o'rnatildi;

Uchastka saylov komissiyalari joylashgan binolarni, xonalarni va ovoz berish xonalarini jihozlashga doir talablar qonun darajasida belgilandi.

2) Nomzodlar bilan bog'liq o'zgarishlar:

Ma'lumki, ilgari xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ega edi. Endilikda, Saylov kodeksiga muvofiq, nomzodlarni xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan ko'rsatish tartibi bekor qilindi. Mazkur yangilik mahalliy Kengashlarda partiyaviy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi;

Kiritilgan yana bir muhim o'zgarishlardan biri nomzodlar ishonchli vakillarining mamlakatimiz bo'ylab safar xarajatlari

⁶⁰ https://uzbekembassy.com/my/uzh/news/press/saylov_kodeksining_yaratilishi_tuzilishi_va_yangiliklari.html

saylovni o'tkazish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan to'lanishi tartibi joriy etilganligidir. Bu ishonchli vakillarning o'z vazifalarini sidqidildan bajarishiga xizmat qiladi;

Endilikda siyosiy partiya u yoki bu shaxsni nomzod etib ko'rsatish to'g'risidagi o'z qarorini saylovga kechi bilan 15 kun qolganida bekor qilishi mumkin. Avvallari esa, siyosiy partiyaning bunday qarori saylovga kechi bilan 5 kun qolganda bekor qilinishi mumkin edi. Ushbu holat saylov kuniga yaqin tig'iz paytda birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqarar edi;

Saylovoldi tashviqoti nomzodlarni ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e'tiboran boshlanishi belgilandi. Avvalgi amaliyotda, saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanar edi. Bu esa, nomzodlarga teng imkoniyatlarni ta'minlashga to'sqinlik qilar edi;

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzod besh nafarga qadar (avval 3 nafar edi) ishonchli vakilga ega bo'lish tartibi yo'lga qo'yildi. Ishonchli vakillar sonining oshganligi saylov kampaniyasini o'tkazish, saylovoldi tashviqotlari olib borish, davlat organlari va jamoat birlashmalari, saylov komissiyalari bilan bo'ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatlarini ifodalashda qulayliklar yaratadi.

3) Ovoz berish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar:

Mazkur yo'nalishdagi o'zgarishlarda, avvalo, saylov byulletenidagi bo'sh kvadrat ichiga saylovchilar tomonidan nomzodga yoqlab ovoz berishda bir qancha belgilar (+, \sqrt{x}) qo'yish imkoniyati yaratilganligida ko'rishimiz mumkin. Bu saylovchilarga yanada qulaylik yaratishga qaratilgan amaliyotning tatbiq etilganligidan dalolatdir;

Muddatdan oldin ovoz berish va saylov kuni ovoz berish uchun mo'ljallangan saylov byulletenini joriy qilish bilan "saylov varaqasi" tushunchasi chiqarib tashlanligi va saylovchilar yagona elektron ro'yxatining amal qilish mexanizmi tartibga solinganligi ham e'tiborga molik jihatlardandir;

Ilgari saylov kuni ovoz berish vaqti 06:00 da boshlanar va uchastka saylov komissiyasi a'zolariga muayyan qiyinchiliklar tug'dirar edi. Saylov kuni ovoz berish vaqti 08:00 dan 20:00 gacha etib belgilanganligi komissiya a'zolari va saylovchilar uchun ham qulaylik yaratdi;

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarning saylovda ishtirok etishi bilan bog'liq qoidalarning kiritilishi Saylov kodeksining xalqchil hujjat ekanligidan dalolatdir;

Avvallari ovoz berish kuniga qadar 3 kun ichida jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari taxminlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga (e'lon qilishga), shu jumladan ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'iga) joylashtirishga yo'l qo'yilmas edi. Endi esa, ushbu harakatlar faqat saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan 1 kun oldin amalga oshirilmasligi qoida tariqasida kiritildi;

Saylov byulletenlari Brayl alifbosi asosida tayyorlanishi joriy qilinib, imkoniyati cheklangan shaxslarning saylovga oid huquqlari kafolatlandi.

4) Siyosiy partiyalar bilan bog'liq o'zgarishlar:

Siyosiy partiyalar tomonidan imzo yig'ishda saylovchilarga bir qancha partiyalarni yoqlab imzo qo'yish imkoniyati berildi. Ilgari mavjud bo'lgan bir saylovchining faqatgina bir siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlab imzo berishi mumkinligi haqidagi qoida turli siyosiy partiyalarga imzo toplash jarayonida muayyan ma'noda murakkabliklar keltirib chiqarar edi;

Ayni paytda, siyosiy partiyalar o'zlarining saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish to'g'risidagi axborotni saylov yakunlari e'lon qilinganidan keyin 1 oy ichida o'z rasmiy veb-saytlarida va bosma nashrlarida e'lon qilishi qonun darajasida belgilandi. Ilgari mazkur tartib mavjud emas edi. Bu esa, saylov jarayonlari yanada shaffof o'tishiga zamin yaratadi;

Yana bir yangilik shundan iboratki, avvallari imzo varaqalaridagi imzolar soxtalashtirilgan taqdirda, Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyaning saylovda qatnashish huquqini rad etishi belgilangan edi. Yangi tartibga ko'ra, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tanlab olingan imzo varaqalarining chorak qismidan ko'prog'ini tekshirish natijasida qonun buzilish holati aniqlansa, mazkur imzo varaqalari siyosiy partiyaning vakolatli vakiliga qaytariladi. Unga kamchiliklarni bartaraf etish uchun ikki kunlik muddat beriladi.

5) *Shuningdek, bundan boshqa o'zgarishlarni ham ko'rish mumkin:*

Saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini yuritish tartibi belgilandi. Bu esa, bir saylovchining bir nechta ro'yxatlarda nazarda tutilishini oldini olib, bir saylovchi bir ovozga ega bo'lishini to'liq ta'minlaydi;

Saylovchilarning ro'yxatlariga o'zgartishlar kiritish saylovga 3 kun qolganida to'xtatilishi belgilandi. Ilgari bunday normaning aniq belgilanmaganligi bu borada turli chalkashliklarga olib kelar edi;

Saylov okruglarini tuzishdagi yangiliklardan yana biri shuki, endilikda saylov okruglaridagi saylovchilar sonining yo'l qo'yiladigan eng ko'p chegarasining chetga chiqishi 10 foizdan oshmaydi. Bu esa, saylovchilarning barcha okruglarda teng taqsimlanishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda Prezidentimizning 2018-yil 4-oktabrdagi "Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini shakllantirish va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" rejasi asosida izchil ish olib borilmoqda. Shu ma'noda, bu oldimizda turgan saylovlar nafaqat qonunchilik nuqtai nazaridan, balki texnik-texnologik jihatdan ham mutlaqo yangicha formatda bo'lib o'tishini ta'minlaydi.

2021-yil 8-fevral kuni qabul qilingan "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga binoan saylovlar oktabr oyida o'tkazilishi belgilandi. Ya'ni Prezidentlikka saylov, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkazilishi belgilandi (ilgari dekabr oyida edi). Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tayyorlangan qonunning konsepsiya variantida saylovlarni mart oyiga ko'chirish haqidagi taklif ham bo'lgan. Fuqarolar bilan o'tkazilgan seminar tadbirlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali kelib tushgan takliflarda ham mart, may, avgust va sentabr oylari qayd etilgan. Biroq

saylovlarni oktabr oyida o'tkazish bo'yicha 70 foizdan ortiq taklif fuqarolardan kelganligi bois shu oyga ko'chirilgan.

2021-yil 31-maydagi Prezident qarori bilan Saylov kodeksiga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

Nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi saylov byulleteniga uning tug'ilgan yili va uni nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiya ko'rsatilgan holda alifbo tartibida kiritiladi. Nomzodning egallab turgan lavozimi (mashg'ulotining turi), ish joyi ko'rsatilishi kerak bo'lgan talab olib tashlandi;

Saylovchilar bilan uchrashuvlar kabi ommaviy tadbirlar ularning o'tkazilish joyi va vaqti haqida tegishli tuman (shahar) hokimliklari kamida uch kun oldin yozma ravishda xabardor qilingan holda o'tkaziladi. Bunda ushbu ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnoma talab qilinmaydi. Avvalgi tahrirda saylov komissiyasiga xabar berilishi va u saylovchilarni xabardor etishi belgilangan edi;

Nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar organlari, nomzodlar, ishonchli vakillar, kuzatuvchilar va saylovchilar saylov komissiyalarining qarorlari ustidan ushbu qarorlar qabul qilinganidan keyin 5 kun ichida faqat sudga shikoyat qilishi mumkinligi kiritildi. Oldin sud va yuqori saylov komissiyaga shikoyat qilish mumkin edi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi saylov kodeksi mamlakatimizda xalqaro norma va standartlarni hayotga izchil tatbiq etish, saylovga oid qonunchilik normalarining unifikatsiyasiga, nomuvofiqlik va kolliziyalarning bartaraf etilishiga, eng muhimi fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishni ta'minlashga mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Muhokama uchun savollar

- 1. Saylov tushunchasining mazmun-mohiyatini izohlab bering?*
- 2. Saylov tizimi turlari va ularning xususiyatlarini aytib bering?*
- 3. Saylovoldi tashviqotni amalga oshirish usullarini bilasizmi?*
- 4. Saylov kodeksi qabul qilinishining zaruriyati nimalardan iborat edi va uning ahamiyatli jihatlarini keltiring?*

**10-MAVZU: O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI
INSTITUTLARI VA MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH**

Reja:

- 1. Jamoat tashkilotlarining demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati**
- 2. Siyosiy partiyalar – fuqarolik jamiyatining asosiy siyosiy instituti sifatida**
- 3. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning ahamiyati va o'rni**

Tayanch so'zlar: jamoat birlashmasi, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra turlari, kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoqi, "Yuksalish" umummilliy harakati, "Nuroniylar" jamg'armasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, "Vatandoshlar" jamoat fondi, "Ijtimoiy fikr"ni o'rganish jamoatchilik markazi, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, diniy tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiya, siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari, partiyaviy tizimlar, ko'ppartiyaviylik, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, uning modellari, mahalla-fuqarolikning o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida.

1. Jamoat tashkilotlarining demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati

Nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab jamiyatni o'zini o'zi boshqarishi va uni mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo'ldi. XX asrning o'rtalariga kelib esa nodavlat va notijorat tashkilotlar demokratik jamiyatning muhim va asosiy institutlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda fuqarolar demokratik ishtirokini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hayotdagi nufuzi va ta'sirini oshirishdir. Negaki, mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish, fuqarolar, turli ijtimoiy guruhlarning o'sib borayotgan ehtiyojlari va manfaatlarini ta'minlash, boshqaruv institutlari faoliyatining samaradorligini oshirish aynan, ana shu masalaning

hal etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu masalaga e'tibor qanchalik ortsa, mamlakatda ijtimoiy muammolar shunchalik tez va samarali hal etiladi, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi tezlashadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning jamoat tashkilotlarining rivojlanishiga katta e'tibor berganligi bejiz emas. U 2005-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" ma'ruzasidagi ham ushbu masala ustida to'xtalib, shunday deydi: "Men shu borada aholining turli ijtimoiy va sotsial guruhleri manfaatlarini ifodalovchi, mamlakatimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari bo'lgan nohukumat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta'sirini oshirishga katta e'tibor berayotganimizni ham alohida ta'kidlamoqchimiz". Prezident Sh.Mirziyoyevning ma'ruza va nutqlarida nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, qonunlar qabul qilish va amalga oshirishda har bir fuqaroning xabardorligini ta'minlash borasida alohida ta'kidlab o'tiladi.

Ma'lumki, xalq, jamoat nazorati yurtimizda bugun paydo bo'lgan hodisa emas, balki u azal-azaldan mavjud bo'lgan. Bu hodisa tashkiliy jihatdan shakllangan bo'lmasa-da davlat idoralari faoliyatining sharti sifatida yurtimizda asrlar davomida muntazam amal qilib kelgan.

Jamoatchilik, ijtimoiy guruhlar, hammaslaklar har doim hukmdor, hokimlar oldida doimo o'z talablarini qo'ygan. U yoki bu muammo atrofida har bir guruh o'zining fikr-mulohazalarini bildirgan, bahs-munozaralar qizigan, oqsoqollar, obro'li kishilar tomonidan hukmdorlarga maslahatlar, nasihatlar berilgan, yaxshilikka undalغان.

Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish va uning muhim institutlari bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Konstitutsiyaning alohida "*Jamoat birlashmalari*" bobi respublikada fuqarolik jamiyati va ko'p partiyaviylik tizimini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham amaliy jihatlardan shart-sharoitlar yaratdi. Unga binoan jamoat

birlashmasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar kabi tushunchalarga huquqiy aniqliklar kiritiladi. Endi ular demokratik talqinlar asosida ta'riflana boshlandi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 58-moddasidagi "Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi", 34-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas", degan fuqarolik jamiyat mustaqilligini ta'minlashga doir huquqiy prinsipni e'tirof etilishi respublikadagi jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynida tajribalaridan va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini bildiradi.

Istiqlol yillarida yurtimizda jamoatchilik nazoratini qaror toptirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Bu yillarida jamoat tashkilotlari faoliyatini isloh qilish va yangilash, ularning nufuzi va ta'sirchanligini oshirish yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Mazkur tashkilotlarning faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi qonunlar, farmonlar, qarorlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ayni vaqtda jamoat tashkilotlari tarkibini tubdan qayta qurish, ularning ixtisoslashuvini, aholiga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirishga qaratilgan ishlar olib borildi.

Hozirgi davrga kelib O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni (1991-yil 15-fevral), O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonuni (2019-yil, 6-dekabr), O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni (1996-yil 26-dekabr), O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari

to'g'risida" yangi tahrirdagi qonuni (2013-yil 22-aprel), O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni (1999-yil 14-aprel), O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" qonuni (2021-yil 5-iyul), "Jamoat fondlari to'g'risida" (2003-yil 29-avgust), "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi (2007-yil 3-yanvar) O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarida va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida jamoat tashkilotlarining faoliyatini isloh qilish va yangilashga qaratilgan o'ta muhim qoidalar va me'yorlar o'z aksini topdi. Bu hujjatlar mamlakatimizda demokratik institutlarni qaror toptirish, fuqarolarni davlat va jamoat ishlarini boshqarishga keng jalb qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 1-moddasidan *jamoat birlashmasi* tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Jamoat birlashmasi biron-bir shaxsni yoki oilani yoxud ayrim guruhlarning shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g'oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi-jamiyatni takomillashtirish. Ular o'z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini qo'ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirish yo'nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o'zlariga o'zlari

yordam berishlari, o'z hayotlarini jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilashlari imkonini beradi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolarining ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini-o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik tamoyillari asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Jamoat birlashmalari o'zlarining ustav faoliyatiga hamda tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra uchta turga bo'linadi:

1. Xalqaro miqyosdagi jamoat birlashmasi
2. Respublika miqyosdagi jamoat birlashmasi
3. Mahalliy miqyosdagi jamoat birlashmasiga

Xalqaro jamoat birlashmalari deyilganda – o'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan jamoat birlashmalari tushuniladi. Chet elda tuzilgan va faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro jamoat birlashmasining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxona yoki filiali ham xalqaro jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Respublika jamoat birlashmalariga o'z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarini butun O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari tushuniladi.

Mahalliy jamoat birlashmalariga – ustavlarida belgilangan maqsad va vazifalarni butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa shahar hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari tushuniladi.

Tuman (shahar) hududida faoliyat ko'rsatadigan jamoat birlashmalari tuman (shahar) jamoat birlashmalari tushuniladi. Zaruriyat bo'lgan hollarda viloyatlararo va tumanlararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin. Xalqaro, respublika hamda viloyatlararo maqomdagi jamoat birlashmalarining ustavi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Mahalliy miqyosda faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavlari esa tegishli ravishda Toshkent shahar yoki viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Jamoat birlashmalarining ustavlari ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab, o'z faoliyatlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'ladilar hamda yuridik shaxs deb e'tirof etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga binoan "*Nodavlat notijorat tashkiloti* – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi"⁶¹.

Shuningdek, O'zbekistondagi amaldagi qonunchilikka binoan nodavlat notijorat tashkilotlarga quyidagi huquqlar berilgan:

o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;

ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;

o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish;

qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish.

Konstitutsiya va boshqa qonunlar va qarorlarning talablari asosida sobiq Sho'ro jamoat tashkilotlari tizimiga barham berildi va ularning o'rnida mustaqillik davriga mos jamoat tashkilotlari tizimi

⁶¹ "Нодавлат нотижорат ташкилотлар туғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига шарҳлар. –Т.: 2002, 14-бет.

yuzaga keldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar Ittifoqi harakati, Faxriylar tashkilotlari uyushmasi, Respublika baynalmilal madaniyat markazi, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Ijtimoiy fikr"ni o'rganish jamoatchilik markazi, olimlar, adiblar, jurnalistlarning uyushmalari va boshqalar qaror topdi. Bu tizimda "Mahalla", "Sog'lom avlod uchun", "Nuroniylar" va boshqa qator jamg'armalar paydo bo'ldi. Shuni ta'kidlash joizki, istiqlol yillarida mamlakatimizda faqat an'anaviy, byurokratik jamoat tashkilotlarini qayta qurish bilan cheklanilmadi, balki yangi qonunlarga tayanilib ilgari noma'lum bo'lgan jamoat (nodavlat) tashkilotlari ham vujudga keltirildi. Bularga: hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, "Ekosan" xalqaro jamg'armasi, "O'zbekiston tadbirkor ayollari uyushmasi", O'zbekiston savdo-sanoat palatasi va boshqalar kiradi. 2005-yilda NNTlarni rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston NNT Milliy assotsiatsiyasi tashkil etildi. Bundan tashqari Oliy Majlis huzurida Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat Fondi va ushbu Fond mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi tashkil qilindi. Vaqt o'tishi bilan jamoat (nodavlat) tashkilotlarining safi kengayib bormoqda. Ularning qatoriga yangi-yangi tashkilotlar kelib qo'shilmogda.

Agar 1990-yillarning boshida O'zbekistonda NNTlarning soni bor-yo'g'i 200 ta bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda⁶². 2017-yilda "Nuroniylar" jamg'armasi, Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Shunday qilib, istiqlol yillarida mamlakatimizda jamoat tashkilotlari tarkibini, faoliyatini isloh qilish va yangilash yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar ijobiy natijalarga olib kelmasdan qolmadi. Respublikamizda mustaqil jamoat tashkilotlari

⁶² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрда Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасидан

tizimi qaror topdi. Bu mustaqillikning eng muhim yutuqlaridan biri desak xato bo'lmaydi.

Jamoat tashkilotlarining qaror topishini ko'rib chiqish bilan birga ularning o'ziga xos xususiyatlariga ham e'tiborni qaratish lozim. Mamlakatimiz jamoat tashkilotlarining nizomi va dasturi, faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular bir xil emas, balki xilma-xildir. Ular faoliyat yo'nalishiga ko'ra jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Xayriya, ijtimoiy-iqtisodiy, inson huquqlari himoyasi, sport, ekologiya, madaniy-ma'rifiy, kasbiy va hokazo. Professor Akmal Saidovning fikricha, jamoat tashkilotlari quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Birinchi guruh: aholi muayyan yirik toifalarning ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab ishlashga ixtisoslashgan hukumatga qarashli bo'lmagan umummilliy tashkilotlardir. Bu tashkilotlar jumlasiga: "Mahalla" jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Nogironlar uyushmasi, "Nuroniy" jamg'armasi kiradi.

Ikkinchi guruh: ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg'armalar: "Ekosan", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi va chet elda ta'lim olish uchun iste'dodli yoshlarni qo'llab - quvvatlash "Iste'dod" jamg'armasi, Amir Temur madaniy tarixiy jamg'armasi, Matbuotni demokratlashtirish va jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Orolni qutqarish jamg'armasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va fan arboblari anjumani kiradi.

Uchinchi guruh: hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar: shaxs huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi, huquqiy yordam ko'rsatish kiradi.

To'rtinchi guruhni: ijodkor ziyolilar milliy jamiyati tashkilotlari: yozuvchilar, artistlar, rassomlar, bastakorlar, arxitektorlar, kinematografchilar, shuningdek, sudyalor va advokatlarning jamoat tashkilotlari tashkil etadi.

Beshinchi guruh: milliy madaniyat markazlari kiradi. Ular O'zbekistonda yashovchi milliy (ozchilikni tashkil etuvchi) jamoalar vakillari madaniyati, urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida tuzilgan.

Oltinchi guruh: umummilliy xayriya jamiyatlari va xilma-xil jamg'armalar: jumladan, Bolalar jamg'armasi, Bolalar uylari

tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish jamg'armasi, Respublika talabalar jamg'armasi va hakazolar.

Yettinchi guruh: ijtimoiy ahamiyatli va ijodiy qiziqishlar bilan bog'liq bo'lgan, asosan, ekologiya masalalari bo'yicha mahalliy birlashmalar, sayyohlik va badiiy havaskorlik klublari, nogiron bolalar ota-onalarining birlashmalari kiradi.

Sakkizinchi guruh: jamoatchilik muassasalari: "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi, jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, ayollar va o'smirlarga ruhiy yordam ko'rsatadigan "Sabr" ishonch markazi kabi hukumatga qarashli bo'lmagan mahalliy ijtimoiy muassasalardir.⁶³

Bulardan tashqari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan 13 ta nohukumat xalqaro tashkilotlari O'zbekistonda faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizning jamoat tashkilotlarini turkumlash bu bilan cheklanmaydi, balki u yana davom etadi. Ular faoliyat ko'lami va xarakteriga ko'ra yirik va kichik, an'anaviy va zamonaviy mavqeyiga ko'ra esa nooqilona va oqilona tashkilotlarga bo'linadi.

Jamoat tashkilotlarini tashkil etilishi manbalariga ko'ra nominal va real jamoat tashkilotlarga bo'lish mumkin. Nominal jamoat tashkilotlarining faoliyati muayyan darajada davlat organlariga bog'liqdir. Ularning faoliyati davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Real jamoat tashkilotlari esa davlat organlaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi va o'zini-o'zi boshqaradi. Nominal jamoa tashkilotlari guruhlar manfaatini ifodalash, o'z faoliyatining maqsadi, deb bilsa-da, ular eng avvalo, davlat manfaatiga bo'ysundiriladi.

Endi respublikamiz jamoat tashkilotlarining ba'zilar faoliyati bilan batafsilroq to'xtalamiz.

Mamlakatimizdagi eng ommaviy jamoat tashkilotlaridan biri bo'lgan tashkilot bu – **Kasaba uyushmalaridir**. Ular turli kasb egalarini jinsi, diniy-e'tiqodlari, irqiy va milliy mansubliklaridan qat'iy nazar ixtiyoriy birlashtiradi. Kasaba uyushmalarining asosiy vazifasi mehnatkashlarning ish va turmush sharoitlarini yaxshilash, madaniy va sog'lom dam olishlarni tashkil etishdir. 1990-yilda respublika kasaba uyushmalari tomonidan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasini tashkil etish haqida Deklaratsiya qabul qilinib, uni tashkiliy jihatdan rasmiylashtirish ishlari 1991-yilda

⁶³ Каранг. Саидов А. Фуқаролик жамияти ва сиёсий ислохотлар. «Мулоқот», 2000, 5-сон.

Federatsiya Ustavini qabul qilish bilan yakunlandi. Hozirgi kunda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 14 ta tarmoq kasaba uyushmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalarini, 6,1 mln.dan ortiq kasaba uyushmalari a'zolarini birlashtiradi⁶⁴. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining oliy organi Qurultoy hisoblanib, har 5 yilda bir marta chaqiriladi. Qurultoylar oralig'ida Federatsiya faoliyatiga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi rahbarlik qiladi. Kengash a'zolari tarmoq kasaba uyushmalarining Qurultoylari, kasaba uyushmalari tashkilotlari hududiy birlashmalarining konferensiyalari, shuningdek Federatsiya Qurultoyida saylanadilar. "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun orqali, ularning huquqiy maqomini belgilab berdi.

Kasaba uyushmalari tashkilotlariga mehnatkashlardan tushayotgan murojaatlarning 60 foizdan ortig'i mehnat munosabatlariga oid bo'lib, Federatsiya tizimida tashkil etilgan 30 ta "Ishonch telefonlari" mazkur murojaatlarini tezkor qabul qilish va ko'rib chiqish, ular yuzasidan huquqiy maslahatlar berish va aniq choralarni ko'rish imkoniyatini yaratdi.

Bugungi kunda respublikada 91 ta tarmoq, 14 ta hududiy kelishuvlar imzolangan. Bevosita korxonalar, tashkilot, muassasalarda tuzilgan 111 mingdan ortiq jamoa shartnomalari orqali xodimlarga asosiy uzaytirilgan va qo'shimcha ta'tillar berish, turli ustama va qo'shimcha to'lovlar, tovon pullarini to'lash, ayollar va yoshlar bandligini ta'minlash, ularga qulay va bexatar mehnat sharoitlarini yaratish, qo'shimcha imtiyozlar berish, Xalqaro Mehnat Tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalariga rioya etish masalalari tartibga solinib kelinmoqda.

Kasaba uyushmalari tomonidan korxonalar, tashkilot, muassasalarda ishlayotgan, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning, shuningdek ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini kuchaytirish, ular bilan ishlashni tizimli yo'lga qo'yish maqsadida Federatsiya Kengashi qoshida Yoshlar va Xotin-qizlar kengashlari tashkil qilingan.

⁶⁴ <https://kasaba.uz/uzbekiston-kasaba-uyushmalari-federatsiyasining-tarixi/>

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi, xorijiy davlatlarning kasaba uyushmalari markazlari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

Yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi yirik nodavlat notijorat tashkilotlardan biri bu **Yoshlar ittifoqi** hisoblanadi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko'maklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, O'zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir.

Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat.

Ittifoqqa yuridik va jismoniy shaxslar Ustavda belgilangan tartibga asosan a'zo bo'lish mumkin. Ya'ni, Ittifoqning maqsadini qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida muntazam yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar Ittifoqning a'zosi bo'lishi mumkin. Hozirda uning a'zolari soni 6,5 mln.dan ortiq yoshlarni tashkil etadi.⁶⁵

Shu bilan birga yoshlar sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar sohasiga oid korxonalar, muassasa va tashkilotlar hamda ta'sis hujjatlari Ittifoqning Ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar ham Ittifoqqa a'zo bo'lishi mumkin.

⁶⁵ www.yoshlarittifoqi.uz

Ittifoqning rahbar organlariga quyidagilar kiradi: Qo'mita; Markaziy Kengash; Markaziy Kengash Ijroiya qo'mitasi; Markaziy nazorat-taftish komissiyasi.

Ittifoqning tuzilmasiga quyidagilar kiradi: Ittifoqning Markaziy apparati; Ittifoqning hududiy tuzilmalari; Ittifoqning mahalliy tuzilmalari; Ittifoqning boshlang'ich tashkilotlari; Ittifoqning to'liq muassisligidagi yoki qoshidagi korxonalar, tashkilot va muassasalar, shu jumladan ommaviy axborot vositalari.

Shuningdek, Ittifoq va uning alohida bo'linmalari qoshida tegishli ravishda bolalar yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib boruvchi "Kamalak" shubalari tashkil qilinadi. Ular Ittifoq va uning alohida bo'linmalarining shubasi hisoblanadi.

Tashabbus, hamjihatlik, taraqqiyot kabi tamoyillarga asoslangan yana bir nodavlat tashkilotlardan biri bu **"Yuksalish" umummilliy harakati**dir. Yuksalish" umummilliy harakati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi farmoniga muvofiq tashkil etilib, 2019-yilning 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida nodavlat notijorat tashkiloti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. "Yuksalish" umummilliy harakati O'zbekiston taraqqiyotiga befarq bo'lmagan barcha fuqarolar, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar, biznes hamjamiyati, akademik doira vakillarini amalga oshirilayotgan islohotlar atrofida ixtiyoriylik asosida birlashtirish maqsadida ta'sis etilgan. 12 mingdan ziyod a'zolarga ega⁶⁶.

Xalq va biznes hamjamiyati bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning sa'y-harakatlari va kuchlarini safarbar etish Harakatning asosiy vazifalari hisoblanadi.

"Yuksalish" umummilliy harakati islohotlarning amalga oshirilishi jarayonini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida muhokama qilishda faol ishtirok etish, shuningdek Parlament, Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga tahliliy axborot va takliflarni muntazam ravishda kiritib borish vakolatiga ega.

Harakat quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi:

⁶⁶ <https://yumh.uz/?lang=uz>

- aholi va ishbilarmonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish;
- keng jamoatchilik va biznes hamjamiyatini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi yuzasidan xabardor qilish, fuqarolarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish;
- davlat organlariga fuqarolarning islohotlarning amalga oshirilishi, shu jumladan davlat va milliy dasturlarning bajarilishi bo'yicha murojaat va so'rovlarini kiritish;
- davlat dasturiga kiritilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida ijro etilishini o'rganish.

Harakat mamlakatni rivojlantirish bo'yicha ilg'or innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va ilgari surish, xususan bunday jarayonlarga ishbilarmonlar, biznes va akademik doiralari, fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro tashkilotlar vakillari va keng jamoatchilikni jalb etish hamda ular ishtirokida tadqiqotlar, muzokaralar, munozaralar, teledebatlar o'tkazish, mavjud masala va muammolarni muhokama qilish, ularning yechimi bo'yicha takliflar ishlab chiquvchi o'ziga xos maydon vazifasini bajaradi.

O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash **"Nuroni"** jamg'armasi - Respublika faxriylarining ko'ngilli, o'zini-o'zi boshqaruvchi nohukumat, xayriya tashkilotidir. Bu tashkilot 1996-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi faxriylar tashkilotlarining tugatilgan kengashi va korxonalar urush va mehnat faxriylari respublika uyushmasi "Uzveteran"ning huquqiy merosxo'ri sifatida tashkil etilgan. Mazkur tashkilot mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish, qariyalarni ijtimoiy himoyalash va yosh avlodni tarbiyalash ishida, ularning faolligini kuchaytirish maqsadida tashkil qilingan. Uning vazifalari: urush va mehnat faxriylari, nogironlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarda faol ishtirok etish, ularga moddiy, ma'naviy, tibbiy yordam ko'rsatishdan iboratdir. Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlar va tumanlarda bo'linmalari bor. Yirik korxonalar va tashkilotlarda, mahallalarda "Nuroni" jamoatchilik markazlari ish olib boradi. So'nggi yillar mobaynida respublikada yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamni kuchaytirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Misol tariqasida, faqatgina 2010-2015-yillar

mobaynida keksalar va pensionerlar uchun mo'ljallangan 12 ta Saxovat va Muruvvat internat uylari moddiy-texnika bazalari, 14,6 ming yolg'iz keksalar, pensioner, nogironlarning turar joy sharoitlari yaxshilandi, 5,4 ming odam rehabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlandi, 6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriylarda sog'liqlarini tiklashdi. Ko'rsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiy hajmi 132,2 milliard so'mni tashkil etdi⁶⁷. O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek keksa yoshdagi fuqarolarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini yanada oshirish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'la huquqli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, katta avlodning jamiyat, oilalar va mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, shuningdek yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi rolini oshirish maqsadida 2016-yil 29-dekabrda "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni va 2016-yil 28-dekabrda "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

Davlat rahbarining 2017-yil 14-fevraldagi Farmoyishi bilan Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari belgilandi. Mazkur farmoyish asosida, Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan tadbirlarning ekspertlik va jamoatchilik muhokamasini samarali tashkil etish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, ularni mukammal amalga oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ekspertlar va olimlarni mamlakatimizni demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish jarayonlariga faol jalb etish maqsadida "**Taraqqiyot strategiyasi**" **markazi** tashkil etildi. Markaz – nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib, Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston advokatlar palatasi, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O'zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari, Nodavlat notijorat

⁶⁷ <https://president.uz/oz/lists/view/161>

tashkilotlar milliy assotsiatsiyalari muassisligida tashkil etilgan. Markaz Harakatlar strategiyasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va natijalarini izchil muhokama qilish, davlat organlari va xalq o'rtasidagi ochiq muloqotni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini samarali tashkil etishda o'ziga xos zamonaviy media-maydon vazifasini o'taydi.

Markaz Harakatlar strategiyasi doirasidagi tadbirlar bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba, xalqaro standartlar, xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning baholari, fikr-mulohazalarini o'rganmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan tadbirlarning ekspertlar va jamoatchilik o'rtasida keng muhokama etilishini tashkil qilib, Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan qonun, qonunosti va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash yuzasidan aniq chora-tadbirlar bo'yicha takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Uning yana bir asosiy vazifasi – Harakatlar strategiyasi va uning asosidagi davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar bo'yicha aholining fikr-mulohazalarini o'rganish, ular yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi 2017-yilning 14-fevralidan aql markazi sifatida ish boshlagan bo'lsa, qisqa vaqt ichida o'zida Harakatlar strategiyasining 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha tajribali, tahlilchi va kuchli ekspertlarni jamlay oldi. 170 ga yaqin davlat organlari va tashkilotlari bilan aloqa o'rnatgan markaz xorijiy tajribani o'rganish bilan birga xalqaro aql markazlari bilan hamkorlik qiladi va tajriba almashadi. Xususan, 2019-yilda Markaz dunyodagi eng yaxshi yigirmatalik reytingidan mustahkam joy olgan Italiyadagi “European House – Ambrosetti”, 700 dan ortiq ekspertlarni o'zida jam etgan Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlar institutlari hamda Fransiyadagi 46 yillik tajribaga ega va o'z safida kuchli mutaxassislarni jamlagan Tahlil, prognozlash va strategiya Markazi (CAPS) kabi aql markazlari bilan o'zaro hamkorlik memorandumlarini imzolagan⁶⁸.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi 2017-2018-yillarda Davlat dasturi bo'yicha turli infografik roliklarni OAV bilan hamkorlikda tayyorlagan edi. 2019-yildan esa Markaz mustaqil ravishda barcha turdagi media mahsulotlarni kreativ va zamonaviy yondashuv asosida tayyorlab davlat va nodavlat tele va radiokanallar efirlariga

⁶⁸ https://strategy.uz/index.php?static=deyatelnost_centra&lang=uz

uzatishni boshladi. Ushbu media materiallar strategy.uz rasmiy sayti va uning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga ham joylashtirilmoqda.

Har yili Davlat dasturi qabul qilinishidan avval "Taraqqiyot strategiyasi" markazining maxsus saytiga (2017.strategy.uz, 2018.strategy.uz, 2019.strategy.uz, 2020.strategy.uz) hamda regulation.gov.uz joylashtiriladi. Mana shu jarayonda har bir yo'nalish bo'yicha ekspertlar takliflarni saralab, o'rganadi va kunlik takliflar to'plamini tegishli davlat organlariga va davlat dasturi yuzasidan shakllantirilgan Komissiyalarga taqdim etadi. Bu orqali Davlat dasturida xalq fikri, ishonchi va irodasining aks etishiga erishiladi.

2021-yil 11-avgust kuni Xorijda vatandoshlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida prezident qarori bilan "**Vatandoshlar**" jamoat **fondi** tashkil etildi. Jamg'armani tashkil etishdan asosiy maqsad – dunyoning 100 ga yaqin mamlakatlarida istiqomat qilayotgan 10 milliondan ortiq vatandoshlar, ular tomonidan tashkil etilgan 170 dan ortiq madaniy markazlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Uning asosiy yo'nalishlari:

- xorijda vatandoshlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- xalqaro huquq normalariga amal qilgan holda, xorijdagi vatandoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga ko'maklashish;
- xorijda o'zbek tili, madaniyati va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni qo'llab-quvvatlash;
- O'zbekistonning boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish va ommalashtirish;
- vatandoshlar tomonidan tashkil etilgan jamoat birlashmalari faoliyatini rag'batlantirish, ularga xorijda o'zbek milliy madaniy markazlarini tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish;
- xorijdagi vatandoshlarning chet eldagi ilmiy va ijodiy, O'zbekistondagi tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmiy, madaniy-ma'rifiy faoliyatiga ko'maklashish;
- xorijiy davlatlar bilan migratsiya va ta'lim sohasida shartnomaviy-huquqiy hamkorlikni kengaytirish va boshqalar.

Fond faoliyatini moliyalashtirish davlat subsidiyasi va davlat ijtimoiy buyurtmalari, muassislar ajratadigan mablag'lar, homiylik xayriyalari, grantlar va boshqa manbalar hisobidan amalga

oshiriladi. Kengash mashhur shoir va yozuvchilar, san'at, teatr va sport arboblari, milliy madaniy markazlar vakillari, sohaga mas'ul davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar rahbarlaridan shakllantiriladi. Fondning oliy organi - "Vatandoshlar" jamoat fondining vasiylik kengashidir.

Hukumatga qarashli bo'lmagan **"Ijtimoiy fikr"ni o'rganish jamoatchilik markazi** 1997-yil 9-iyulda tashkil etilgan. Bu markaz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlarini ta'minlash, fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarini tadqiq qilishga chaqirilgan. Markaz o'zini-o'zi boshqaruvchi tashkilotdir. Uning asosiy vazifasi: davlat hokimiyati muassasalarining jamiyat bilan O'zaro aloqalari, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish; siyosiy - huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy o'zgartirishlar va boshqa ijtimoiy munosabatlarning dolzarb muammolari bo'yicha; kishilarning dunyoqarashi, ularning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy ongini shakllantirishning asosiy tamoyillar va jarayonlarini aniqlash; aholining siyosiy-huquqiy madaniyati darajasini o'rganish va uning rivojlanish asosiy tendensiyalarini aniqlash bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganishdir. Mazkur markazning jamiyatni boshqarishdagi ahamiyati shundaki, u ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning butun murakkabligi, xilma-xilligi va aniqligini ochishda yordam beradi. Boshqaruv organlariga ishonchli axborotlar yetkazadi, boshqarish tizimining samaradorligiga baho berish, zarur bo'lib qolgan taqdirda esa yangi faktlar, hodisalarga, ma'lum bo'lib borayotgan tendensiyalarga muvofiq tarzda uni o'zgartirishning to'g'ri yo'lini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu markaz ijtimoiy jarayonlardagi o'zgarishlarni umumlashtirish, yangi qonuniyatlarni o'rganish uchun materiallar beradiki, ular, o'z navbatida boshqarish tizimini isloh qilish va yangilashda foydalaniladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qaror topgan yirik jamoat tashkilotlaridan yana biri **Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazidir**. U 1994-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan xalq ma'naviyatini yuksaltirish, kishilarni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek ezgu va ulug'vor maqsadlar sari safarbar qilish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, yoshlarni; vatanparvarlik, fidoyilik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan. Markazning asosiy

vazifasi – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yishdan iborat. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qaroriga asosan, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo'li bilan ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi. Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) hokimlari tegishli ravishda hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qiladilar.

Diniy tashkilotlar - mustaqillik ne'mati hisoblanadi. Aynan, mustaqillik yillarida dinlarga ehtirom va e'tibor qaratildi. Aynan, ushbu yillarda ko'plab diniy tashkilotlar yangidan tuzildi va qaytadan qurildi. Minglab masjidlar namozxonlarga eshik ochdi.

2018-yilning dekabr holatiga ko'ra, respublikada 16 konfessiyaga mansub 2258 ta diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. 130 dan ziyod millatga mansub aholining 94 foizidan ziyodi islom, 3,5 foiziga yaqini provaslav diniga mansub, qolganlarini boshqa diniy konfessiya vakillari tashkil etadi. Shuningdek, diniy ta'lim sohasida 12 ta islom bilim yurti hamda Provaslav va Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsatmoqda⁶⁹. Ushbu diniy tashkilotlar mamlakatimizda tinchlik-totuvlik yaxshilik va ezgulikka xizmat qilmoqda. Bu tashkilotlar yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarga yaqindan yordam bermoqda. Mazkur tashkilotlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik yo'lni qo'llab-quvvatlamoqda. Bu tashkilotlarning vakillari masjidlar, cherkovlar, matbuot, radio va televideniye eshittirishlarida chiqishlar qilib, odamlarni yomon, buzg'unchilik yo'lga yurmaslik,

⁶⁹ Каримов Ж. Жаҳолатга қарши маърифат: уқув қўлланма / Ж. Каримов. –Т.: "Ўзбекистон халқаро ислом академияси", 2021. –Б. 49.

spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik, giyohvandlikka berilmaslik va boshqa shular singari inson salomatligiga zararli bo'lgan illatlarga qarshi kurash yo'lida faol ishtirok etmoqda.

So'nggi vaqtlarda diniy sohadagi davlat siyosatini yanada samarali tashkil etilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Xususan, Prezidentning 2017-yilning 14-fevral kuni imzolagan "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Shuningdek, 2018-yil 16-apreldagi "Diniy ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chor-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga muvofiq O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi.

Respublikamizdagi *jamoat tashkilotlari* – bu demokratik institutlar hisoblanadi. Ular orqali fuqarolar o'z-o'zini boshqaradi, jamiyatda o'z o'rnini topadi. Ular orqali fuqarolar manfaatlari uyg'unligi qaror topib, mustahkamlanadi. Bu institutlar tizimi davlat institutlari tizimini muayyan ma'noda to'ldiradi, jamiyatda muvozanatni ta'minlovchi vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, *jamoat tashkilotlari* – inson erkinligi va huquqlarini himoya qilish va ta'minlash muammolari bilan shug'ullanadigan institutlardir. Ular umuman ijtimoiy guruhlarining emas, balki eng kam ta'minlangan, himoyalangan, davlat nazaridan chetda qolgan ijtimoiy guruhlarining talab va ehtiyojlarini qondirishga, xizmat ko'rsatishning eng yuqori ko'rsatgichlariga erishishga chaqirilgandir. Aksariyat hollarda jamoat tashkilotlari hayotdan qoniqmagani, g'azabga to'lgan yoshlar, nochor ahvolga tushib qolgan ishchilar va dehqonlar, yolg'iz qariyalar, bemor, uysiz, qarovsiz qolgan bolalar, huquqi toptalgan kamsonli millatlarning so'nggi umidi bo'lib xizmat qiladi.

Jamoat tashkilotlari o'z maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimiz jamoat tashkilotlarining faoliyati ham miqdor, ham sifat jihatidan aholining talab va ehtiyojlariga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi. Bu borada O'zbekiston rivojlangan davlatlardan ancha orqada qolmoqda. Agar hozirgi vaqtda O'zbekistonda 1 million aholi soniga 17 nodavlat va jamoat tashkilotlari to'g'ri kelsa, Shvetsiyada 1 million aholiga 20 ming

nodavlat va jamoat tashkilotlari xizmat ko'rsatadi.⁷⁰ Shu munosabat bilan "huquq trening – markaz" nodavlat-notijorat tashkiloti rahbari, YeXHTning inson huquqlari bo'yicha xalqaro eksperti Gulnoza Hidoyatovaning "Turkiston" gazetasining 2006-yil 4-yanvar sonida ushbu masala bo'yicha bildirilgan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Uning fikricha, haqiqiy fuqarolik jamiyati NNTlar miqdori bilan belgilanmaydi.⁷¹ Albatta, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining qurilishi jamoat tashkilotlarining soni bilan emas, balki ular tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarining sifati bilan o'lchanadi. Biroq, fuqarolik jamiyati institutlarining miqdorini ham inkor etib bo'lmaydi. Bu tashkilotlarning miqdori ham fuqarolik jamiyatiga munosib bo'lishi shart.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishni avj oldirishda Yangi O'zbekistonni rivojlanishida tub burilish davri muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekistonni yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da adolatli demokratik jamiyat qurishning konseptual nazariy asoslarini yanada boyitildi. Ayniqsa, Harakatlar strategiyasidagi jamoatchilik boshqaruvi sohasini isloh qilish borasidagi vazifalar mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning eng asosiy yo'nalishlari va maqsadlarini belgilab berdi. Boshqacha qilib aytganda, bu – "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasida (14.04.1999) jamiyat hayotida nodavlat jamoat tizimlarining mavqeyi o'sib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu sessiyada "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ular faqat aholi fikrining turli ko'rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta'sir ko'rsatmoqda. Bu tashkilotlar xayriya va muruvvat muassasasiga aylanib qolmasligini aytgan edi. Ularning bosh vazifasi, eng avvalo, demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy – haq huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Nodavlat va jamoat birlashmalarini rivojlantirishdan maqsad jamiyat a'zolarining manfaatlarini muvozanatini ta'minlash va himoya qilish. Siyosiy va ijtimoiy sohada esa davlat tizimlariga muqobil kuch

⁷⁰ Қаранг. Ўзбекистон: фуқаролик жамият сари. Масъул мух. Р.Алимов. – Т.: «Шарқ», 2003. 73-бет.

⁷¹ Қаранг. Гулноза Хидоятова. Ҳақиқий фуқаролик жамияти ННТлар миқдори билан белгиланмайди. "Туркистон". 2006. 4 январь.

sifatida ular adolat tarozisini hayotda hukmron qilishga hissa qo'shishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida⁷² yettinchi ustuvor vazifa sifatida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish ekanligini ta'kidlab o'tdi. Darhaqiqat, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratish zarur. Ayniqsa, mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo'yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb etiladi. Bunday hamkorlikni, eng avvalo, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi muammoli sohalarida keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishlarni tashkil etish uchun 2022-yilda budjetdan 60 milliard so'm yo'naltirilishi belgilandi. Shu bilan birga, prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etish taklif qilindi. Ushbu vakil quyi palata yig'ilishlarida ishtirok etish, qabul qilinayotgan qonunlarga ta'sirchan jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik masalalarini kiritish bo'yicha takliflar berish vakolatiga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

2. Siyosiy partiyalar – fuqarolik jamiyatining asosiy siyosiy instituti sifatida

Siyosiy partiyalar: kelib chiqishi, mohiyati, funksiyalari. Odamlar o'z manfaatlarini himoya qilish va hokimiyatga erishish uchun hamma davrlarda birlashganlar. Shu ma'noda siyosiy partiyalar juda qadimdan mavjud. Zamonaviy partiyalar Angliyada XVII asrda vujudga kelgan, ammo 1832-yil saylov islohotidan keyingina hozirgi ko'rinishini olgan. AQSHda partiyalar 1830-yillarda, prezident Jekson davrida, tashkil topa boshlagan. Fransiya va Yevropaning

⁷² <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

boshqa mamlakatlarida parlament guruhlar va siyosiy klublarning ommaviy tashkilotlarga aylanishi 1848-yil inqilobi bilan bog'liq. G'arb institutlarini birinchilardan bo'lib import qilgan Sharq mamlakatlaridan biri - Yaponiyada partiyalar birinchi jahon urushigacha bo'lmagan.

Siyosat nazariyasida siyosiy partiyalar tarixini bosqichlarga bo'lishda M.Veber tomonidan taklif etilgan quyidagi davrlashtirish qabul qilingan: aristokratik koteriyalar (to'garak); siyosiy klublar; ommaviy partiyalar. Amalda yuqorida sanab o'tilgan davrlarni faqat ikki ingliz partiyasi - liberal partiya (viglar) va konservativ partiya (torilar) o'tgan. Tori va viglarning koteriyalari XVII asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Ular o'rtasidagi farqlar, asosan, diniy tabiatga egaligi (viglar-puritanlar, torilar - anglikanlar) va turli sulolalarga moyillik bilan belgilanar edi. Siyosiy klub bosqichi siyosatga burjuaziya kirib kelishi bilan boshlanadi. 1831-yilda torilar "Charlton klub", 1836 yilda viglar "Reform klub" tashkil etdilar. Torilar yirik yer egalari, viglar esa - liberal burjuaziya manfaatlarini ifodalar edi. Boshqa siyosiy partiyalar tarixi ancha qisqa. Ularning ko'pchiligi bir yo'la ommaviy partiya sifatida shakllangan. Shuning uchun ham, koteriya va klub bosqichlarini siyosiy partiyalar tarixining ibtidosi, deb hisoblash mumkin. Birinchi ommaviy siyosiy partiya (liberal partiya) yana Angliyada, 1861-yilda tashkil topgan. 1863-yilda Olmoniyada Lassal boshchiligidagi umumiy german ittifoqi tuziladi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib G'arbiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida ommaviy partiyalar mavjud edi. Ommaviy partiyalarning tashkil topishiga bu mamlakatlarda joriy qilinayotgan umumiy saylov huquqi va kengayib borayotgan ishchilar harakati sabab bo'ldi.

Shu o'rinda, har bir mintaqada partiyalar tashkil topish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz.

AQSH avval boshdanoq burjua davlati sifatida shakllangan. Bu yerda taraqqiyot yo'li masalasida yakdillik mavjud bo'lgani holda, ichki siyosatda respublikachilar fermerlarga tayansalar, federalistlar savdo - sanoat va moliya kapitaliga tayanganlar. Tashqi siyosatda respublikachilar Fransiyaga moyillik ko'rsatsalar, federalistlar - Angliya bilan ittifoq tarafdori edilar.

Yevropada vaziyat boshqacharoq edi: bu yerda taraqqiyot yo'li haqidagi munozaralar juda keskin kechgan, ko'tarilib kelayotgan burjua sinfiga iqtisodning feodal ukladi, feodal an'analar va kuchli hukmron elitalar qarshi turgan. Shuning uchun, siyosiy hayotdagi kurash qattiq bo'lgan va mafkura juda muhim omil rolini o'ynagan.

O'zbekiston va O'rta Osiyoda partiyalar shakllanishi ham o'z yo'lida borgan. Ularning paydo bo'lishi, asosan, jadidlar bilan bog'liq. XX asr boshlariga kelib shakllangan "Ittihad va taraqqiy", "Erk", "Birlik", "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" haqidagi matbuotdagi munozaralardan shunday xulosaga kelish mumkinki, asoschilari ularni partiya sifatida qaragan taqdirda ham, ular klub bosqichidagi partiyalar edi.

"Partiya" lotinchadan "qism", "guruh" sifatida tarjima qilinadi. Agar qadimgi ma'nolarida partiyalar ayrim manfaat shaxs atrofida uyushgan kishilar guruhini anglatssa, zamonaviy ma'nosida partiyalar ko'proq mafkura, hokimiyat masalalarida tashkilotga birlashgan odamlar guruhini bildiradi. Shu ma'noda siyosiy partiyalar fuqarolar jamiyati negizida shakllanadi va siyosiy tizimning eng muhim elementi vazifasini o'taydi.

Siyosiy partiyalarning ilk tadqiqotchisi ingliz siyosiy arboblardan biri **Jon Toland**dir (1670-1722). U o'zing "Partiyalar vositasida boshqarish san'ati" nomli traktatida ingliz siyosiy tizimining ustun tomonlariga to'xtalib, shunday deb yozadi: "Erkin boshqaruv kishilarning turli xil chaquvchilik va gap tashishlaridan qo'rqmasdan erkin fikrlashlarini ta'minlaydi. Hattoki, eng kambag'al fermer ham qirol va uning yaqinlari o'zboshimchaligidan qonun vositasida saqlana oladi. Siyosiy barqarorlikning kafolati ham shundadir."⁷³ Ingliz siyosiy arbobi Genri sent **Jon Bolingbrok** (1658-1751) "Partiyalar haqida fikrlar" asarida "partiya avvalambor, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun kerak, partiyaning bosh vazifasi xalqni korrupsiya tuzumiga qarshi birlashtirishdir"⁷⁴, deb tushuntiradi va "partiyaning millatning ovozi" deb ataydi. U partiyaning maqsadini hokimiyatni egallash va hukumatni shakllantirish, deb talqin qiladi. Shuningdek, partiya

⁷³ Просветительское движение в Англии. /Под ред. Н.М. Мещеряковой. – М, Изд-во МГУ, 1991, с. 221-222

⁷⁴ Болингброк Г. Рассуждение о партиях. - В кн: Письма об изучении и пользе истории. М, "Наука", 1978, с.195-196; Просветительское движение в Англии, с. 286-288

hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini tashkil qilish lozim, degan fikrni ham bildirgan edi.

R. Douz siyosiy partiya "jamoat tashkilotlarining eng siyosiyi"⁷⁵, deb atagan edi. XVIII asrning mashhur ingliz siyosiy arbobi va faylasufi E.Berk partiyani qo'yidagicha ta'riflagan edi: "Partiya milliy manfaatlar uchun hamkorlik qilish maqsadlarida uyushgan, ba'zi-bir prinsiplar yuzasidan bir xil qarashlarga ega kishilarning tashkilotidir". Nemis tadqiqotchisi V.Xasbax esa partiyani qo'yidagicha tushungan: "Partiya bir xil siyosiy qarashlar va maqsadlarga ega bo'lgan, o'z shaxsiy manfaatlarini qondirish maqsadida siyosiy hokimiyatni egallashga intilayotgan kishilarning ittifoqidir". Hozirgi davrga eng yaqin partiya tushunchasini M.Veber ochib bergan edi: "Partiyalar a'zolikka qabul qilishning ixtiyoriyligiga asoslangan, o'z oldiga faol a'zolarining moddiy foyda yoki shaxsiy imtiyozlar olish uchun ma'naviy va moddiy sharoitlar yaratish hamda o'z rahbariyati uchun siyosiy hokimiyatni egallash maqsadini qo'ygan jamoat tashkilotlaridir".⁷⁶ Siyosatshunos S.Eldersveld partiya "demokratiya davri saylovlardagi kurashlar, ijtimoiy manfaatlarini safarbar qilish va mafkuraviy nuqtai nazarlarni himoya qilish vositasida siyosiy hokimiyatni egallash uchun raqobatlashadigan, shu tarzda fuqarolarni siyosiy tizim bilan bog'laydigan guruhlardir. Partiya ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini tan olish, ifoda etish va nazorat qilishga intilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar majmuasidan tashkil topadi"⁷⁷, deb ta'riflagan edi.

G'arb siyosatshunos olimlarining talqinicha, "siyosiy partiyalar – rasman institutlashgan va davlat hokimiyati va boshqaruv tizimi ustidan nazorat qilish uchun kurashda ishtirok etish maqsadlariga funksional ixtisoslashgan tashkilotdir". Mazkur masalani tadqiq etgan taniqli olim J.Sartori partiyalar faoliyatiga doir quyidagi aniqlikni kiritgan edi: "Saylovlarda ishtirok etuvchi va saylov natijasida o'z nomzodlarini davlat organlariga o'tkaza olishga qodir bo'lgan har qanday siyosiy guruh – partiyadir". XX asrning so'nggida J.Lapalambara va J.Andersonning "Boshqaruv va siyosat ensiklopediyasi" asarida quyidagi ta'rif keltiriladi: "Partiya rasmiy

⁷⁵ Dowser R/ Political Sociology, N. Y., 1983, a Z.P.7

⁷⁶ Гаджиев К. С. Политическая наука, с. 135.

⁷⁷ Eldersveld S. Political Parties in American Society. N. Y., 1982. P. 11; Political Parties. A Behavioral Analysis. Chicago, 1964. P. 6.

maqomga ega bo'lish va rasmiy tashkilot bo'lish bilan bog'liq, markazni chekka joylar bilan bog'lovchi va davlat organlariga o'z nomzodlarini saylovlar vositasida o'tkazishga qodir bo'lgan istalgan guruhdir"⁷⁸.

G'arb mualliflarining partiyalar haqidagi fikrlari rang-barang bo'lishiga qaramay, ular funksiyalarini umumiy ijtimoiy-siyosiy jihatlardan tavsiflash, bu funksiyalarning haqiqiy ijtimoiy mohiyatini ochib berish maqsadida ularning turlicha nuqtai nazarlarda ta'riflangan xususiyatlarini e'tiborga olgan holda guruhlash imkoniyati tug'iladi. Misol tariqasida taniqli amerikalik siyosatshunos D.Epterning izlanishlariga murojaat qilish mumkin: "partiyalar jamoatchilik va hukumat o'rtasida ularni bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanadi. Partiya ko'pchilik kishilar qo'llab-quvvatlaydigan manfaatlar va e'tiqodlar majmuasidan iboratdir. Ular ochiqchasiga raqobatlashish bilan mashg'ul bo'lib, bu bilan tizimning harakatchanligini ta'minlaydilar".⁷⁹ Shuningdek, muallif shakllangan partiyaning birlamchi funksiyasi va asosiy vazifasi saylovlarda g'alabani ta'minlash ekanligini ham ta'kidlaydi.

Siyosiy partiyalar jamiyatda muayyan funksiyalarni bajaradi. Siyosiy partiyalarning bosh funksiyasi - fuqarolar ijtimoiy qatlamlar, manfaat guruhlarining ko'plab xususiy manfaatlarini yagona siyosiy manfaatga keltirishdan iborat.

Shu ma'noda ular jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanganlar. Ular mavjud siyosiy tizim doirasida jamiyat taraqqiyotiga oid raqobatlashuvchi dastur egalari sifatida chiqadilar.

Jamiyat siyosiy tizimida partiyalar turli ijtimoiy guruhlar manfaatini ifodalabgina qolmay, bu manfaatlarni shakllantirishda ham faol qatnashdilar. Partiyalar vakolat vazifasi bilan bir qatorda, vositachilik vazifalarini ham bajaradilar. Ular davlat darajasida qaror qabul qilish jarayonini muvofiqlashtiruvchi va nazorat etuvchi institut sifatida shakllangan.

Partiyalar fuqarolik jamiyatini davlat bilan bog'laydi, ular o'rtasidagi tabiiy ziddiyatlarni yumshatadi. Partiyalar vakolat tizimi orqali parlament va hukumat faoliyatida ishtirok etadi. Ta'kidlash lozimki, kuchli partiyalar jamiyat va davlat aloqalarini mustahkamlash, davlat ustidan nazoratni ko'paytirish orqali

⁷⁸ Кирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафқуралар, маданиятлар. Т.: Шарқ, 1998, 30-32 б.

⁷⁹ Apter D. Introduction to Political Analysis Cambridge (Mass), 1977.p.157.

davlatni kuchaytiradi, zaif partiyalar – davlatni ham zaiflashtirishi mumkin.

Partiyalar jamiyatning ham vertikal, ham gorizontal bo'yicha barcha sohalarini qamrab u yerda axborot tarqatish va tashviqot faoliyatini olib boradi, tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, siyosiy arboblarni tayyorlaydi. Barcha siyosiy institutlarni qamrab olgan holda partiyalar davlat hokimiyatining barcha darajalari va shahobchalari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi, kompromissga asoslangan siyosiy qarorlarni ishlab chiqadi, o'z saylov bazalarini tashkil etgan turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. Ayni vaqtda, partiyalar ijtimoiy fikrni safarbar etadilar, saylov kampaniyalarini g'oyaviy va tashkiliy jihatdan ta'minlaydilar, hokimiyatning barcha darajalariga nomzodlarini ilgari suradilar.

Har bir jamiyat oldida undagi bir-biriga qarama-qarshi manfaatlarni muvofiqlashtirish vazifasi turadi. Partiyalar ana shu ziddiyatli manfaatlarni bayon etishning doimiy kanallaridan biri sifatida jamiyat barqarorligi oshishiga olib keladi.

Ko'p davlatlarda partiyalarning maqomi va faoliyati maxsus qonunlar yoki konstitutsion me'yorlar bilan tartibga solinadi. Dunyo Konstitutsiyalarida siyosiy partiyalarning roli masalasiga besh xil yondashuv mavjud:

1) birinchi yondashuvda partiyalarga "fuqarolar klubi" tarzida qarash ustunlik qiladi. Kanada, AQSH, Avstraliya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya v.h. davlatlarning Konstitutsiyalarida partiyalar to'g'risida hech narsa yozilmagan. Ularda siyosiy partiyalar faoliyati va tuzilishini tartibga soluvchi maxsus qonunlar ham yo'q. Avval Britaniya mustamlakasi bo'lgan ayrim mamlakatlarda ham shunday ahvol mavjud. Masalan, Hindistonda birinchi marta siyosiy partiya tushunchasi Konstitutsiyaga 52 – tuzatishda 1985-yilda ishlatilgan. U ham bo'lsa, parlament ichki tartibiga oid bo'lgan tuzatishdir. Shu bilan birga, keyingi yillarda, Buyuk Britaniya, Kanada va AQSHda partiyalarning saylov kampaniyasida ishtiroki, ularning moliyaviy ta'minotiga doir ayrim qonunlar qabul qilindi.

2) ikkinchi yondashuvda Konstitutsiyalarda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi roli to'g'risida batafsil to'xtab o'tildi. GFR (1949), Fransiya (1958), Portugaliya (1976), Ispaniya (1978), Bolgariya (1991), Ruminiya (1991), Belorussiya (1996), O'zbekiston (1992) yilgi Konstitutsiyalari. Ularda, shuningdek, partiyalarni

tashkil etish va faoliyatiga doir ayrim tamoyillar aks etgan. Masalan, "partiyalar milliy suverenitet va demokratiya tamoyillarini hurmat qilishi lozim" (Fransiya Konstitutsiyasi); "davlatning hududiy yaxlitligi va huquqiy tartibini hurmat qilishlari lozim" (Ruminiya Konstitutsiyasi); "etnik, diniy, irqiy asosda yoki hokimiyatni zo'rluk bilan egallash maqsadida partiyalar tashkil etish mumkin, emas (Bolgariya Konstitutsiyasi). Bu holatlar partiyalar to'g'risidagi maxsus qonunlarda kengaytirilgan.

3) totalitar yandoshuv asosida bir partiyaviylik yotadi. Odatda, bu davlat Konstitutsiyalarida boshqa partiyalarni tashkil etish ta'qiqlanmaydi. Ammo, amalda ularning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish mexanizmlari mavjud bo'lmaydi. (Sobiq SSSR, XXR Konstitutsiyasi).

4) ayrim islom davlatlarida (Qatar, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Omon, Saudiya Arabistoni singari) har qanday siyosiy partiyalar ta'qiqlangan. Islom qonunchiligiga ko'ra, partiyalarga birlashish - umma (jamoat) birligiga ziyon yetkazadi, deb hisoblanadi.

5) ayrim avtoritar davlatlarda qo'llaniladigan beshinchi yondashuvning mohiyati shundaki, ularda Konstitutsiya yoki maxsus qonunlarda aniq ko'rsatilgan partiyalargina amal qilishi mumkin. Masalan, Braziliyada 1964-yilgi harbiy to'ntarishdan so'ng, o'tgan 25 yil ichida faqat ikki partiya faoliyati ruxsat etilgan: ulardan biri - hukumat partiyasi, ikkinchisi unga nisbatan xayrixoh muxolifat rolini o'ynagan. Indoneziyada 1975-yil qonuni bilan davlat mafkurasi - parchalanishini tan oluvchi uchta partiya faoliyatigina ruxsat etilgan v.h.

Partiyaga berilgan huquqiy ta'rif ham umumiy, ham alohida belgilarni o'z ichiga oladi. Bu belgilardan eng muhimlari: saylovlarda ishtirok etishning majburiyligi, partiyalar faoliyatining doimiyliigi, siyosiy ishtirok etishning, uyushganlikning darajasi, a'zolarining soni va partiyaning nomidir. Bu ta'rifga ko'ra, faoliyati doimiy bo'lmagan tashkilotlar, masalan, faqat saylovoldi davrida faoliyat yurituvchi saylovchilar ittifoqi kabi tashkilotlar partiya, deb hisoblanmaydi. Partiyaning rasmiy tan olinishini ko'rsatuvchi, unga davlat himoyasini beruvchi muhim adolat - bu ro'yxatdan o'tkazishdir. Partiya ro'yxatdan o'tgandagina unga saylovlarda ishtirok etish huquqi va moliyaviy imtiyozlar beriladi.

Partiyalarni ro'yxatdan o'tkazish shartlari tufayli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida partiyalar Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladi va buning uchun ma'lum muddatgacha 8 ta viloyatda yashovchi partiya a'zolarining 5 mingdan kam bo'lmagan imzosi to'planishi zarur. Ispaniya, Italiya, Fransiya kabi davlatlarda partiyalar, ichki ishlar vazirligida, Belgiya va Niderlandiyada – Adliya vazirligida, Portugaliyada – Oliy sud, Braziliyada – Oliy saylov sudida ro'yxatdan o'tadilar v.h.

Shunday qilib, siyosiy adabiyotda partiyaning xilma - xil ta'riflari mavjud ekan: Ana shulardan kelib chiqib, siyosiy partiya quyidagicha ta'rif berish mumkin: siyosiy partiya – siyosiy hokimiyatni egallash yoki unga doimiy ta'sir o'tkazish maqsadida mafkuraviy asosda tashkil topgan ixtiyoriy ittifoq.

Odatda, zamonaviy siyosiy partiyalar quyidagi ichki tuzilishga ega:

- yetakchi (yetakchilar) va rahbarlar guruhi;
- apparat;
- faol a'zolar;
- passiv a'zolar.

Samarali faoliyat ko'rsatish uchun partiya siyosiy faoliyat bilan faol va maxsus shug'ullanuvchi "malakali siyosatchilar" rahbarligiga muhtoj. Ular partiya faoliyatini tashkil etadilar va muvofiqlashtiradilar.

Partiyalar, odatda, byurokratik apparatga ega. U tashkilotda ishlovchi va o'z mehnati uchun haq oluvchi odamlardan iborat.

Partiyaning faol a'zolari – uning rahbariyati yoki byurokratik apparatiga kirmagan holda tashkilot faoliyatida doimo ishtirok etuvchi shaxslardir. Partiyaga kirishga ularga turli sabablar ta'sir etadi: siyosiy manfaatlar, moddiy omillar, hokimiyat, obro'ga intilish v.h.

Partiyaning passiv a'zolariga tashkilotga kirgan, ammo uning faoliyatida dam-badam qatnashib turadigan shaxslar kiradi.

Partiyaga xayrixoh guruh mavjud bo'lishi mumkin. Ular tashkilotga kirmagan holda uning mafkuraviy va pirovard maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydilar. U xayrixohlarning roli saylov kampaniyalari davrida, ayniqsa, beqiyos ortadi.

Partiyalar hayotida moliyaviy jihatdan ularni qo'llab-quvvatlaydigan tashkilot yoki alohida shaxslarning roli juda muhim.

Ularga yirik kapital egalari yoki milliy, chet el tadbirkorlik, kasaba, diniy va madaniy tashkilotlar kiradi. Partiyalarga ko'rsatgan moliyaviy yordamlari tufayli homiylar unga ta'sir eta olish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Siyosiy partiyalar asosan 4 ta funksiyani bajaradi:

1) *nazariy* - mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlantirishning nazariy jihatlarini ishlab chiqish. Partiyalar rahbarlari tomonidan ishlab chiqiladigan g'oyaviy-siyosiy konsepsiyalar partiya organlari tomonidan qabul qilinadi, partiya dasturida, syezdlar, konferensiyalar qarorlarida va boshqalarda aks ettiriladi;

2) *siyosiy* - bu hokimiyat uchun kurashning strategiya va taktikasini aniqlash, shundan so'ng davlatning tashqi va ichki siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirish jarayoni, boshqa siyosiy partiyalar bilan hamkorlik qilish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

3) *tashkiliy* - partiya dasturini bajarish, saylov kampaniyalarini o'tkazish, parlamentdagi partiya fraksiyasi faoliyatiga ko'mak berish, kadrlar masalalari bilan shug'ullanish;

4) *mafkuraviy* - o'zining dasturiy maqsad va vazifalarini, dunyoqarashi va qadriyatlarini aholi orasida targ'ib qilish, partiyaning ijtimoiy bazasini kengaytirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish.

Siyosiy partiyalarni turkumlash. Siyosiy partiyalarni turkumlashning ko'plab asoslari mavjud. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz: *Dasturining ijtimoiy yo'nalishi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra siyosiy partiyalar:*

- sotsial - demokratik, liberal-demokratik, kommunistik, milliy, irqiy, diniy, davlat - vatanparvarlik, xalq partiyalariga ajratiladi.

Faoliyatining g'oyaviy asoslariga ko'ra siyosiy partiyalar quyidagicha bo'linadi:

- doktrinal (o'z mafkurasini himoya qiluvchi);
- pragmatik (maqsadga muvofiqlikdan kelib chiquvchi);
- xarizmatik (muayyan siyosiy yetakchi atrofida birlashuvchi).

Dasturni amalga oshirish uslublariga ko'ra:

- inqilobiy (jamiyatni tubdan qayta isloh qilishga intiluvchi);

- islohotchi (ijtimoiy hayotni keskin tarkibiy o'zgarishlarsiz o'zgartirish tarafdori).

Siyosiy faoliyat tabiatiga ko'ra siyosiy partiyalar:

- reaksiyon; konservativ; radikal; ekstremistik; mo'tadil bo'lishi mumkin.

Hokimiyatda ishtirokiga ko'ra siyosiy partiyalar:

- hukmron;

- muxolif (oshkora, yashirin)larga bo'linadi.

Siyosat maydonida joylashishiga ko'ra:

- markaz partiyalari;

- o'ng partiyalar;

- so'l partiyalar mavjud.

Tashkiliy tuzilishiga ko'ra siyosiy partiyalar:

- parlament partiyalari (birlamchi tashkilotlari sifatida hududiy qo'mitalar kiradi);

- leyboristik partiyalar (parlament partiyalarining bir ko'rinishi bo'lib, kollektiv a'zolik, shu jumladan, mehnat jamoalarining partiyaga kollektiv a'ziligiga ruxsat etadi);

- avangard partiyalar (demokratik sentralizm va a'zolarning hududiy - ishlab chiqarish asosida birlashtirish tamoyiliga asoslanadi).

Parlament partiyalari o'z navbatida parlamentdagi ta'siri nuqtai nazaridan:

- majoritar, ya'ni eng ko'p mandat oluvchi va hukumat tuzuvchi partiyalar;

- ustun partiyalar, ya'ni nisbatan ko'p mandat egalari;

- minoritar partiyalarga bo'linadi (kam mandatli). A'zolik tabiatiga ko'ra partiyalar:

- kadrlar partiyalari (kam sonligi, a'zolikning erkinligi, tashkiliy bo'shligi);

- ommaviy (ko'proq a'zolarga ega bo'lishga intiluvchi, qattiqqo'l intizomga asoslanuvi) bo'linadi.

XX asrning 60 - yillarida ko'pgina mamlakatlarda sinflar yoki hatto mafkuralararo dasturlar ishlab chiqib, to'liq elektoratga qaratilgan "saylovchilar" partiyalari shakllandi. Hozirgi kunda ko'p ommaviy partiyalar o'z dasturlarini "saylovchilar" partiyalariga moslab o'zgartirmoqda. "Saylovchilar" partiyalarining bosh g'oyasi -

turli ijtimoiy kuchlarni birlashtirishga imkon beruvchi maqsadlarni ilgari surishdan iborat.

"Milliy partiyalar" tushunchasi. Milliy partiya hududiy chegaralarda emas, butun davlat miqyosida amal qiluvchi partiya bo'lib, u parlamentga saylovlar mobaynida (ba'zan prezidentlikka to'g'ridan - to'g'ri saylovlar mobaynida) doimiy ravishda muayyan foiz ovoz oladi (odatda 2 - 3% dan kam bo'lmagan), o'z nizomi, dasturiga ega, ro'yxatdan o'tgan, muayyan miqdorda a'zolarga ega (masalan, Meksikada 1947-yil qonuniga ko'ra shtatlarning yarmidan 65 mingdan kam bo'lmagan a'zolar soni). Milliy deb e'tirof etilgan partiyalar (odatda bu - markaziy saylov qo'mitasi tomonidan qilinadi) saylovlarda bir qator ustunlikka ega bo'ladi. Masalan, ular uchun ushbu partiya nomzodlarini quvvatlovchi imzolar yig'ish shart emas. Milliy partiyalar konsepsiyasi saylov tizimini bir muncha soddalashtirish, ortiqcha harakat va sarflardan qochish, vaqtni tejash imkonini beradi. Ba'zi mamlakatlarda partiyalarni milliy deb tan olinishi ikki bosqichga ega. Birinchi bosqichda partiya umummilliy saylovlarda belgilangan miqdorda ovoz olishi kerak. (masalan, Meksikada 1,5 %). Shunda u milliy partiya sifatida shartli ravishda ro'yxatdan o'tadi. Keyingi umummilliy saylovlarda qatnashib, shu partiya yana belgilangan ovozlarni miqdorini olsa, u umummilliy, deb e'tirof etiladi.

Partiya tizimlari. Siyosat nazariyasida partiya tizimi deyilganda, hokimiyat uchun kurashda va uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi barcha partiyalar birligi tushuniladi. Partiya tizimlari shakllanishiga va uning o'ziga xosligiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Xususan, amaldagi Konstitutsiya, qonunchilik, saylov turi, shuningdek, jamiyatda amal qiluvchi siyosiy madaniyat, an'analar, milliy, diniy omillar, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar - partiya tizimi tabiatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Tarixan partiyaviy tizimlarning quyidagi turlari shakllangan: bir partiyaviy, ikki partiyaviy (ba'zi adabiyotlarda "mukammal ikki partiyaviy tizim" va ikki yarim partiyaviy tizim) hamda ko'ppartiyaviy tizim (ba'zi adabiyotlarda "mukammal ko'ppartiyaviy tizim" va "hukmron partiyali ko'ppartiyaviy tizim").

Bir partiyali tizimda yagona partiya davlat hokimiyatiga ham egalik qiladi. Yorqin misoli - sobiq SSSR Kommunistik partiyasi.

Umummilliy saylovlarga mamlakatda amal qilayotgan partiyalarning faqat ikkita – yetakchisigina – ovozlarning 90% va undan ortig'ini to'plasa – "mukammal ikki partiyaviy tizim" to'g'risida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Bunday tizim – AQSda mavjud.

"Ikki yarim" partiyaviy tizimda ikki yirik partiya saylovchilar ovozlarning 75-80% ga ega bo'lib, "uchinchi" partiya saylov natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsata oladigan darajada ovoz to'plagan bo'ladi. Yirik partiyalar "uchinchi" partiya bilan, yoki o'zaro bir-biri bilan ittifoqlar tuzishga majbur bo'ladilar. Bu tizim, masalan, GFRda amal qiladi.

Ammo, vaziyat butunlay qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin: mamlakatda amal qilayotgan partiyalar ichida birining mavqeyi shunchalik yuqori-ki, unga birorta boshqa partiya yetib ololmaydi. Ba'zan u saylovda mag'lub bo'lishi mumkin. Chunki, qolgan partiyalar unga qarshi ittifoqda chiqadilar. Ammo, juda qisqa vaqt ichida bu partiya yo'qotgan mavqeyini tiklab olish qobiliyatiga ega. Bunday tizimlar "hukmron partiyali ko'p partiyaviy tizimi" deb ataladi. Bunday tizimlar hozirgi kunda bir qator g'arb demokratiyalarida uchraydi: Shvetsiya, Norvegiya, Daniya. Bu yerda hukmron sotsial-demokratik partiyalar o'z mavqelarini muxolifatning ko'p sonligini va uyushmaganligi tufayli ham uzoq vaqt davomida saqlab qola olayaptilar. Shu jihati bilan bu partiyalar bir partiyaviy tizimdagi yagona partiyadan farq qiladi.

Ko'pgina mamlakatlarda mavjud ko'p partiyaviy tizimlarda bir qator partiyalar hokimiyat uchun kurashda deyarli bir xil imkoniyatlarga ega. Shuningdek, ular turli ittifoqlar, partiya bloklari tuzishlari mumkin. Bunday tizimlardagi partiyalarning sonlari turlicha bo'ladi: 3 tadan (Belgiya, Avstriya) 12 ta (Niderlandiya) va undan ortiq.

Ko'ppartiyaviylik shakllanishiga bir qator omillar ta'sir etadi. Ko'p qatlamlar, sinflarga ega mamlakatlarda ko'ppartiyaviylik shakllanishi oson (Rossiya). G'arbiy Yevropa mamlakatlarida mafkuraviy va diniy, shuningdek, tarixiy va milliy omillar ko'ppartiyaviylik shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Partiyalar soniga saylov tizimining turi ham ta'sir etadi. Xususan, M.Dyuverje uch sotsiologik qonunni bayon etgan:

1) proporsional vakillik ko'ppartiyaviylikka olib keladi;

2) majoritar tizim asosidagi ikki bosqichli saylovlar ittifoqlar bilan yumshatiluvchi ko'ppartiyaviylikka olib keladi;

3) bir bosqichli majoritar tizimdagi saylovlar ikki partiyaviylikka olib keladi.

Xo'sh, sanab o'tilgan partiyaviy tizimlardan qaysi biri mukammal? Albatta, bu savolga uzil – kesil javob berib bo'lmaydi. Bir partiyaviy tizim demokratiyaga mutlaqo yotligini nazarda tutib, ikki va ko'ppartiyaviy tizimlarning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida to'xtalib o'tamiz:

Ikki partiyaviy tizimda g'olib chiqqan partiya hukumatni tuzadi va o'zi faoliyat ko'rsatgan muddatdagi barcha yutuqlar va kamchiliklar uchun yakka o'zi mas'uldir. Bunday hukumat barqaror bo'ladi, negaki, hukumat a'zolari bir partiya vakillari bo'lishi bilan birga, shu partiya parlamentdagi mandatlarining ham, ko'pchiligiga ega bo'lishi mumkin. Aholi ishonchini oqlamagan taqdirda ham norozilik siyosiy tartibga emas, hokimiyat partiyasiga qaratilgan bo'ladi. Ikki partiyaviy tizim partiyalar o'rtasidagi mafkuraviy ixtiloflarni yumshatishga xizmat qiladi, deb hisoblanadi. Bu esa siyosiy tizimni ancha barqarorlashtiradi. Faqat ikki partiyaviy tizimgina mas'uliyatli boshqaruv talabiga javob beradi. Partiyalardan biri hokimiyat tepasida turadi, ikkinchisi – muxolifatda. Saylovchilar saylovlardan partiyalarni nazorat etish uchun foydalanishadi. Ikki partiyaviy tizimlar, haqiqatan ham, barqarorligi va samaradorligini namoyon etdilar.

Ko'p partiyaviy tizim ikki partiyaviy tizimdagi muhim bir kamchilikni to'ldiradi – u jamiyatdagi barcha manfaatlarning bayon etilishini ta'minlaydi va shu tariqa davlat hokimiyatiga, kim tomonidan bo'lmasin, ta'sirning monopollashishiga yul qo'ymaydi. Bu esa, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda demokratik islohotlarning yana bir kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ammo, ko'ppartiyaviylikning bir qator kamchiliklari ham bor: har bir partiya faqat o'zi bayon etayotgan tabaqa manfaati bilan cheklanib, jamiyatdagi talablarni uyg'unlashtirishga intilmaydi. Shu tariqa, u jamiyatdagi manfaatlarni saralash funksiyasini yaxshi bajarmaydi. Ko'p partiyaviylik uchun siyosiy hukumat inqirozlari xos. Ko'ppartiyaviylikda – yetarlicha siyosiy madaniyatga ega bo'lmagan odam to'g'ri qarorga kelishi qiyin, negaki u xilma-xil

partiyalarning dasturlaridagi barcha qirralarni chuqur anglab yetish, tushunishi, ularni farqlashi kerak bo'ladi.

Siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari.

1) 1996-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 7-sessiyasida *"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun* qabul qilindi (ungacha siyosiy partiyalar faoliyati 1991-yil 15-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonun mavjud edi). Yangi qonun 17 moddadan iborat. Bunda Prezidentlik vakolatlarini bajarish davrida siyosiy partiya a'zo bo'lmasligi aytilgan. Yangi qonunda quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'lmaydi: sudyalalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, militsiya xavfsizligi xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. Siyosiy partiya xar yili barchaning e'tibori uchun o'z budjetlarini e'lon qilib boradi. Bu haqida Oliy Majlis yo vakolat beruvchi organga hisobot taqdim etadi. Hozirgi vaqtda davlat ro'yxatidan o'tib faoliyat ko'rsatayotgan 5 ta siyosiy partiyalar mavjud.

2) 2004-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 14-sessiyasida *"Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunni* qabul qildi. Barcha demokratik davlatlarda bo'lganidek, bizda ham partiyalarning o'zaro kurashi g'oya va qarashlarning raqobati, saylovchilar ovozi uchun kurash bo'lishi shart. Endilikda bu harakatlarni amalga oshirishda davlatning o'zi moliyaviy jihatdan ta'minlashi qonunan hal etildi. Bu masala siyosiy kasb etadi. Bu qonun o'zida partiyalar moddiy manbalarni aniq ko'rsatadi. Partiyaning moliyaviy faoliyati barchaning ko'zi oldida ochiqqligini, mablag'lari qaysi yo'llar orqali kelayotganini ko'rsatadi. Shu bilan moliyaviy huquq buzarlilik uchun yuridik javobgarlikni keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda jahonda partiyalarning moliyaviy manbalari uch guruhga bo'linadi: partiyalarning o'z mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya ehson va badallari hamda davlat tomonidan moliyalashtirishdan iborat.

3) 2007-yil 11-aprelda *"Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi qonun* qabul qilindi (qonun 2008-yil 1-yanvaridan kuchga kirgan). Bu qonun siyosiy tizimni takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning

tadrijiy davomi bo'lib, bunda siyosiy partiya fraksiyasi va mahalliy kengash partiya guruhlarining faolligi, mavqeyi va ta'sirini kuchaytirish hamda muxolifat masalasining huquqiy asoslarini o'z ichiga olgani bois barcha deputatlarda qiziqish uyg'otdi.

O'zbekistonda partiyaviy tizim shakllanishi xususiyatlari.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy asoslar Konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiya quyidagicha izohlanadi. *Siyosiy partiyalar* turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar. Shuningdek, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunda siyosiy partiyalarni tuzish, ularning faoliyat ko'rsatish prinsiplari, partiyaga a'zolik, siyosiy partiya faoliyatining kafolatlari, ustavi, ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha huquqiy maqomlarning mujassamlashgani O'zbekistonda ko'p partiyaviylik tizimini qaror toptirishning kafolatlaridan biriga aylandi. Uning 1-moddasiga ko'ra, *siyosiy partiya* O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashma hisoblanadi. Mazkur qonunlarga binoan siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy irodalari shakllanishini ta'minlash uchun erkinlik huquqiga ega bo'ldilar, partiyalarning o'zaro huquqiy tengligi, shuningdek, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyati qonunlashtirildi.

Ayniqsa, siyosiy partiyalar va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroklarini ta'minlash va avj oldirish uchun ham barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini

ro'yobga chiqarishga intiladi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashadi.

O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari siyosiy partiyalarining a'zolari bo'lishlari mumkin. Bir siyosiy partiyaning a'zosi ayni vaqtda boshqa siyosiy partiyaning a'zosi bo'la olmaydi.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalaridan tashqari jamoat birlashmalarining faoliyatida ularning ustavlarida ko'zda tutilgan hollarda jamoa a'zolari: korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mehnat jamoatlari, fuqarolarning birlashmalari ishtirok etishlari mumkin.

Siyosiy partiyalardan tashqari jamoat birlashmalarining ustavida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning birlashmaga a'zo bo'lishlari ko'zda tutilishi mumkin. Partiyalarning dasturiy hujjatlari bo'ladi, ular ommaning e'tibori uchun matbuotda e'lon qilinadi.

Siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko'rsatish, saylovoldi tashviqot ishlarini olib borish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida fraksiyalar va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlarini tuzish huquqiga egadir.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarining faqat yakka tartibda ro'yxatga olinadigan a'zolari bo'ladi. Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish idoralarida lavozimni egallab turgan shaxslar o'z xizmat faoliyatida qonun talablariga amal qiladilar va siyosiy partiyalar hamda siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi ommaviy jamoat harakatlarining qarorlari bilan bog'liq bo'lmaydilar.

O'zbekiston 1991-yildan keyingi o'tgan mustaqillik yillarida bir partiyaviylik tizimidan ko'ppartiyaviylik tizimiga yo'l tutdi. Hozirgi vaqtda Respublikamizda 5 ta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatmoqda, bu partiyalar haqida qisqacha to'xtalamiz:

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP) – 1991-yil 1-noyabrda tashkil topgan. Partiya siyosatining asosiy ustuvorligi iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samaradorligini oshirishdir. Xalq demokratik partiyasi – bu so'l yo'nalishdagi (sotsialistik tamoyillarga moyil bo'lgan) partiya hisoblanadi. U endi butun xalqning manfaatini emas, balki kam ta'minlangan, ijtimoiy

muhofazaga muhtoj kishilarning manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi. XDP ko'proq ijtimoiy tenglikka moyildir. Barcha fuqarolar o'zining imkoniyati bo'lmagan taqdirda ham moddiy boyliklarning kafolatlangan minimumini olishlari lozim. Bu partiya hokimiyat partiyasiga aylanish, kuchli ijtimoiy siyosat, inson huquqlari, demokratiyani hurmat qilish, aholining to'laqonli bandligi va uning mehnatiga munosib haq to'lashni ta'minlash, mehnatkashlar qadr-qimmatini munosib o'ringa qo'yish uchun kurash olib boradi.

2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, partiya a'zolarining umumiy soni 520 ming kishidan ziyodni tashkil etadi. Partiya a'zolarining 49 foizi ayollar, 51 foizga yaqini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Partiya ko'p millatli tarkibga ega va 47 millat va elat vakillarini birlashtiradi. Partiya tuzilishiga ko'ra, 1 ta markaziy, 14 ta hududiy – Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahar hamda 22 shahar va 179 tuman tashkilotlari, shuningdek, 10 mingdan ziyod boshlang'ich tashkilotlari mavjud⁸⁰.

2005-yil 17-fevralda O'zbekiston XDP fraksiyasi Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP, "Fidokorlar" XDP va "Adolat" SDP fraksiyalarining Demokratik blokka birlashishiga, ya'ni parlamentdagi ko'pchilikni tashkiliy rasmiylashtirilishiga javoban o'z zimmasiga parlamentdagi ozchilik muxolifat rolini olishi haqida e'lon qildi. 2015-yil XDPning parlamentdagi fraksiyasi o'zini O'zLiDeP va O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalarini birlashtiruvchi va parlament ko'pchiligini tashkil etuvchi Demokratik kuchlar blokiga nisbatan muxolifat deb e'lon qildi.

Partiya rahbari: 1991–1994 yillarda Mahmudjon Rasulov, 1994–2003 yillarda Abdulhafiz Jalolov, 2003–2004 yillarda Asliddin Rustamov, 2005–2012 yillarda Latif G'ulomov, 2013-2019 yillarda Xotamjon Ketmonov, 2019-yildan Ulug'bek Inoyatov yetakchilik qilmoqda.

XDPning oliy organi qurultoy bo'lib, u besh yilda bir marta chaqiriladi. *XDPning maqsadi:* ijtimoiy tenglik va xalq demokratiyasi mezonlariga mos keladigan davlat va jamiyat barpo etish. Partiya siyosiy mafkurasining asosiy ustuvor yo'nalishlarini ijtimoiy adolat va tenglik, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy demokratiya va kuchlik ijtimoiy siyosat tashkil etadi.

⁸⁰ <https://xdp.uz/uz/history>

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va himoyaga muhtoj fuqarolarining manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Eng avvalo, bular iqtisodiyotda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlardir. Bular – pedagoglar, vrachlar, boshqa ijtimoiy sohalarining xodimlari va mutaxassislari, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, pensionerlar hamda, imkoniyatlari cheklangan kishilar. O'zbekiston XDP davlat tomonidan ushbu toifa kishilarining manfaatlarini ko'zlab izchil siyosat olib borilishiga harakat qiladi, ularni o'zining elektorati deb hisoblaydi va saylov kampaniyalarida ularning qo'llab-quvvatlashiga umid bog'laydi. Partiyaning ijtimoiy ideali bu ijtimoiy demokratik davlat barpo etishdir.

Partiya o'zining ommaviy axborot vositalariga ega. Uning markaziy nashrlari: o'zbek tilida chop etiladigan "O'zbekiston ovozi" gazetasi; rus tilida chop etiladigan "Голос Узбекистана" gazetasi.

2. O'zbekiston "Adolat" sotsial demokratik partiyasi – 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. "Adolat" SDP – so'l markaz yo'nalishdagi partiya hisoblanadi. U o'rta hol va ehtiyojmand aholi tabaqalariga tayanadi, ularning siyosiy va ijtimoiy irodalarini namoyon etishga intiladi⁸¹. 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, partiya safiga 430496 nafar a'zolar birlashgan bo'lib, ularning 46 foizini xotin-qizlar, 39 foizini yoshlar tashkil etadi. Bugungi kunda joylarda 6250 ta boshlang'ich partiya tashkilotlari, 204 ta tuman (shahar) Kengashlari va 14 ta hududiy partiya Kengashlari faoliyat yuritib kelmoqda⁸².

Partiya elektorati keng omma tabaqasini o'zida birliktirgan bo'lib, o'rtahol va ehtiyojmand aholi tabaqalariga tayanadi. *Shiori*: "Kuch – adolatda!" g'oyasini ilgari surgan. *Partiyaning asosiy maqsadi* – huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va

⁸¹ Доминов Т. Куч – адолатда. Ўзбекистон «Адолат» социал демократик партияси сайловолди ҳаракат дастурининг асосий йуналишлари. «Халқ сўзи», 2004 йил, 1 декабрь.

⁸² <https://adolat.uz/history>

erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jipslashgan jamiyatni taraqqiy toptirishda faol ishtirok etishdir.

Partiya faoliyati ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti negizida fuqarolik jamiyatini qurish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar jarayoniga aholining barcha qatlamlarini jalb etish, hokimiyatning vakillik organlari orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish, fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, mamlakat hayotining muhim masalalari yuzasidan o'z tarafdorlarining fikr va mulohazalarini yuzaga chiqarish va bu masalalar bo'yicha partiya pozitsiyasini keng jamoatchilikka va barcha pog'onadagi davlat hokimiyat organlariga yetkazishga qaratilgan.

Partiya rahbari: 1995-1996 yillarda Anvar Jo'raboyev, 1996-2005 yillarda Turg'unpo'lat Daminov, 2005-2008 yillarda Dilorom Toshmuhammedova, 2008-2013 yillarda Ismoil Saifnazarov, 2013-2020 yillarda Narimon Umarov, 2020-yildan Bahrom Abduhalimov rahbarlik qilib kelmoqda.

Partiyaning oliy organi Qurultoy hisoblanadi. Siyosiy Kengash Plenumlari har yilda kamida ikki marta o'tkaziladi. "Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi O'zbekiston "Adolat" SDPning rasmiy bosma nashri hisoblanadi. 1995-yil 22-fevralda gazetaning ilk soni nashr etilgan.

3. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi – 2008-yil 20-iyun kuni O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashish Qurultoyi bo'lib o'tib, ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'zMTDP) tashkil topdi.

"Milliy tiklanish" – bu mo'tadil konservativ ruhdagi o'nglar partiyasi hisoblanadi. Bu partiya milliy ziyolilar, mulkdorlar va tadbirkorlar, istiqloq g'oyasiga sadoqatli yoshlarga va partiyaning dasturiy maqsadlariga xayrihoh boshqa ijtimoiy tabaqalarga suyanadi. Konservativ fikrdagi, asliyatga sodiq, milliy an'analarni qadrlaydigan, hayotni tartib-intizomsiz tasavvur qilmaydigan "Milliy tiklanish" partiyasi uchun liberallashtirish to'lqini nomaqbul, xatarlidir. Bu partiya yomon liberallashtirishlardan yaxshi milliy an'anaviylikni afzal ko'radi.

Partiya a'zolari soni 400 ming nafarni tashkil etadi. O'zMTDPning asosiy maqsadlari: O'zbekiston Respublikasi

fuqarolarida milliy o'zlikni anglashning o'sishi, milliy g'urur, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish; o'z safida yurtning vatanparvarlarini birlashtirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini O'zbekiston manfaatlarini hamda uning xalqaro obro'-e'tiborini oshirish yo'lida safarbar etish; yoshlarni o'z Vatanini hurmat qilish, sevis va u bilan faxrlanish, har qanday sharoitda milliy mustaqillikni, xalqning qadriyatlarini, an'analarini va urf-odatlarini asrash va himoya qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, uning ma'naviy ehtiyojlari va qiziqishlarini cheklashga bo'lgan urinishlarga qarshi kurashishga ta'sirchan hissa qo'shish.

Partiya shiori: "Millat, inson va Vatan manfaati muqaddasdir".

Partiyaning maqsadi: davlatning umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tiklanish. Partiyaning oliy maqsadi: milliy qadriyatlar, madaniy boyliklarni asrab-avaylash, tarixiy an'analarimizni izchil targ'ib qilish asosida O'zbekiston xalqining milliy davlatchilik taraqqiyotini ta'minlash va jamiyatda milliy o'zlikni yuksaltirishga erishish.

Partiyaning oliy rahbar organi Partiya Qurultoyi bo'lib, u kamida besh yilda bir marta chaqiriladi. Partiyaning matbuot nashri – "Milliy tiklanish" ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

4. O'zbekiston liberal – demokratik partiyasi (O'zLiDeP) –

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan. O'zbekiston liberal demokratik partiyasi – bu o'ng markaz yo'nalishdagi (kapitalistik tamoyillarga moyil bo'lgan) partiya hisoblanadi. U mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo'jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari va boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

Hozirgi kunda O'zLiDeP a'zolarining soni bir million nafardan ziyodni tashkil etadi. Partiya tashabbusi bilan 2005-yilda O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari Milliy assotsiatsiyasi, 2006-yili Tadbirkorlik va fermerlikni qo'llab-quvvatlash markazi tashkil etilgan. 2010-yilda parlament quyi palatasida partiya fraksiyasi tashabbusi bilan 3 ta partiya (O'zLiDeP, MTDP, ASDP)dan iborat "Demokratik kuchlar bloki" tuzilgan. 2012-yilda Savdo-sanoat palatasi bilan, 2013-yilda Fermerlar kengashi bilan, 2018-yilda Oliy

Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bilan hamkorlik bitimlari imzolangan.

Partiya rahbari: 2003-2004 yillarda Qobuljon Toshmatov, 2004-2005 yillarda Maxamadjon Axmedjanov, 2005-2013 yillarda Muhammadyusuf Teshaboyev, 2013-2017 yillarda Sodiqjon Turdiyev, 2018-yildan boshlab Aktam Xaitov rahbarlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Syezdi partiya oliy organi hisoblanadi va uch yilda kamida bir marotaba o'tkaziladi. Syezdlar oralig'ida doimiy faoliyat yuritadigan Siyosiy Kengash va uning apparatiga ega.

O'zLiDePning matbuot organi: - "XXI asr" ijtimoiy siyosiy gazetasi. *Shiori:* "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi azmi qat'iy bir kishi ming-minglab tadbirsiz kishidan yaxshidir". Partiyaning *asosiy maqsadlari:*

- tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash;

- boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlik, fuqarolik jamiyatiga keng yo'l ochib berish, demokratik qadriyatlarni xalq, avvalo yoshlar ongi va hayotiga singdirish;

- siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'maklashish, O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirishda, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish, barcha millatlar va elatlar qatlamlarining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bunday xurujlarga qarshi kurash olib borish.

- liberal-demokratik g'oya va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish, o'z saflarini kengaytirish.

4. O'zbekiston Ekologik partiyasi (O'EP) - 2018-yil 14-noyabrda tuzilgan markaz hisoblanadi. 2021-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra, partiya 14 ta hududiy va 206 ga yaqin tuman va shahar partiya tashkilotlaridan iborat. Boshlang'ich partiya tashkilotlari ko'plab mahallalarda, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda ishlaydi. Olti oy mobaynida 453 mingdan ziyod odam O'zbekiston Ekologik

partiyasi a'zosiga aylandi, ulardan 46.8 foizi ayollar, 39.8 foizi yoshlardir⁸³.

Ekopartiya tuzish bo'yicha chora-tadbirlar "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlik, jamoatchilik ekologik nazorati va ekologik muammolarni hal qilish amaliyotida 2008-yildan buyon faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Ekologik harakatining tajribasini saqlab qolish va yangi siyosiy kuchga o'tkazishga qaror qilindi.

2018-yil 1-17 dekabr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida partiyaning ta'sis qurultoyiga delegatlar saylash bo'yicha konferensiyalar bo'lib o'tdi. 2019-yilning 8 yanvarida Toshkentda partiyaning Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tgan. Unda partiyaning Dasturi, Ustavi va ramzlari tasdiqlanib, uning boshqaruv organlari saylandi. 2019-yil 22-yanvarda partiya O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan. 27 fevral - 4 mart kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida O'zbekiston Ekologik partiyasi hududiy partiya tashkilotlarini tashkil etish bo'yicha konferensiyalar bo'lib o'tdi. May-iyul oylarida viloyat va shahar konferensiyalarida O'zbekiston Ekologik partiyasining viloyat va shahar partiya tashkilotlari tuzildi. Partiyaning *bosh shiori* - "Biz kelajak uchun javobgarmiz!".

Partiyaning *asosiy maqsadlari* quyidagilardan iborat:

- Mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni ta'minlash;

- Atrof-muhit muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashish.

Partiya faoliyatining *asosiy ustuvor yo'nalishlari*:

- Mamlakatda atrof-muhitni holatini yaxshilash va ekologik muammolarni yaxlit holda hal etishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish;

- Ekologiya va sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish;

⁸³ <https://www.ecouz.uz/date-archive>

O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK IAMIYATI

- Aholining ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda ekologik va sanitariya me'yorlariga rioya etish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish;

- Mamlakatda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishga ko'maklashish;

- Atrof muhitni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va qulay yashash sharoiti yaratish sohasidagi faoliyatni kuchaytirish;

- Aholining ekologik savodxonlik darajasini oshirish;

- Atrof muhit va fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish masalalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Partiyaning oliy boshqaruv organi Partiya hisoblanadi, u kamida besh yilda bir marta chaqiriladi. O'zbekiston Ekologik partiyasining bosh nashri "Oila va tabiat" gazetasi. U 2021-yil 15-iyuldan ijtimoiy-siyosiy, ekologik nashr sifatida chiqa boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentlik saylovlaridagi siyosiy partiyalarning ishtiroki

Saylov sanasi	Xalq DP	Fidokorlar MDP*	Adolat SDP	Milliy tiklanish DP	O'zLiDeP	Ekologik partiya	Erk partiyasi*
1991-yil 29-dekabr	Islom Karimov 87,1 foiz	-	-	-	-	-	Muhammad Solih 12,5 foiz
2000-yil 9-yanvar	Abdulhafiz Jallilov 4,17 foiz	Islom Karimov 91,95 foiz	-	-	-	-	-
2007-yil 23-dekabr	Asliddin Rustamov 3,17 foiz	-	Dilorom Toshmuhammedova 2,94 foiz	Xurshid Do'stmuhammedov (ro'yxatga olinmagan)	Islom Karimov 88,1 foiz	-	-
2015-yil 29-mart	Hotamjon Ketmonov 2,92 foiz	-	Narlmon Umarov 2,05 foiz	Akmal Saidov 3,08 foiz	Islom Karimov 90,39 foiz	-	-
2016-yil 4-dekabr	Hotamjon Ketmonov 3,73 foiz	-	Narlmon Umarov 3,46 foiz	Sarvar Otamuratov 2,35 foiz	Shavkat Mirziyoyev 88,61 foiz	-	-
2021-yil 24-oktabr	Maqsuda Vorisova 6,6 foiz	-	Bahrom Abdulhalimov 3,4 foiz	Alisher Qodirov 5,5 foiz	Shavkat Mirziyoyev 80,1 foiz	Narzullo Oblomurodov 4,1 foiz	-

*hozirda faoliyat ko'rsatmayotgan siyosiy partiya

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
saylovida siyosiy partiyalar ishtiroki tahlili**

№	Siyosiy partiyalar	1994 yil		1999 yil		2004 yil		2009 yil		2014 yil		2019 yil	
		(250 ta o'rin)		(250 ta o'rin)		(120 ta o'rin)		(135 ta o'rin)		(135 ta o'rin)		(150 ta o'rin)	
		son	foiz	son	foiz	son	foiz	son	foiz	son	foiz	son	foiz
1	O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi	69	27	50	19	28	23	32	24	27	20	22	15
2	"Vatan taraqqiyoti" partiyasi*	14	6	20	7	-	-	-	-	-	-		
3	"Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi*	-	-	34	13	18	15	-	-	-	-		
4	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	-	-	11	3	10	8	19	14	20	15	24	16
5	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	-	-	10	3	11	9	31	23	36	27	36	24
6	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	-	-	-	-	41	34	53	39	52	38	53	35
7	O'zbekiston Ekologik partiyasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	15	10
	JAMI	83	33	125	45	108	89	135	100	135	100	150	100

*hozirda faoliyat ko'rsatmayotgan siyosiy partiya

3. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning ahamiyati va o'rni

O'zini o'zi boshqarish tushunchasi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish (munitsipal – ing. "o'zini o'zi boshqarish") deb, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklaridagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga nisbatan aytiladi.

O'zini o'zi boshqarish organlari haqidagi nazariya dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada ishlab chiqilgan bo'lib, u davrlarda bunday organlar davlatning quyi mahalliy boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi siyosiy tashkilot sifatida shakllangan bo'lsa, ular XX asrga kelib fuqarolik jamiyati institutiga aylandi.

G'arb siyosatshunoslarining fikricha, "o'zini o'zi boshqarish" tushunchasi davlatga nisbatan fuqarolar jamoalari mustaqilligining shakllanishi bilan bog'liqdir. fransuz mutafakkiri Aleksis deTokvil fikricha mahalliy o'zini o'zi boshqarish shunday bir siyosiy

institutki, u nafaqat siyosatchilar, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir.

Nemis olimlari esa bu tushunchani Prussiya vaziri baron fon Shteyn (1757-1831) nomi bilan bog'laydilar. Shteyn mahalliy o'zini o'zi boshqaruvni "fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishdagi faol shaklidir", deb yozgan edi. XIX asr manbalarida "o'zini-o'zi boshqarish" tushunchasi davlat-respublikalar, AQSH shtatlari, Shvetsariya kantonlariga (kanton - o'lka) berilgan nisbat sifatida ishlatish odatga kirgan edi. Buyuk Britaniyada esa "o'zini-o'zi boshqarish organlari" deganda kelishuv sudlari, maslahatchilar sudlari va parlament institutlari tushuniladi.

XIX asr davomida markaz bilan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'zaro munosabatlarining uchta modeli shakllandi: ingliz, fransuz va pruss. Bugungi kunlarda ham ana shu shakllangan an'analar asosidagi modellar-ingliz sakson, fransuz va german hayotda amal qilib kelmoqda.

Mahalla o'zini o'zi boshqarishning eng namunali modeli *ingliz sakson* hisoblanadi. Unda o'zini o'zi boshqarish jarayonlari "hokimiyat mahalliy manfaatlari doirasida" ro'y beradi. Ingliz sakson modeli guruhga: Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Irlandiya kabi mamlakatlar kiradi.

Fransuz o'zini o'zi boshqarish modeli esa hokimiyat o'zini o'zi boshqarishni nazorat qiluvchi mahalliy hukumat organlarining qo'lida bo'ladi. Fransuz modeli esa ko'proq mamlakatlarda, jumladan, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Portugaliya, ba'zi Lotin Amerikasi mamlakatlarida amal qiladi.

Germaniya modelida esa davlat boshqaruvi bilan mahalliy o'zini o'zi boshqarish yagona institut sifatida uyg'unlashadi. Shuningdek, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari betakror sifatlarga egaki, ular yuqorida ko'rsatilgan ikki modelga mutlaqo o'xshamaydi.

XIX asrda o'zini o'zi boshqarishning kommuna modeli Fransiya va Italiyadan tashqari AQSHda ham rivojlana boshladi. Buyuk Britaniya esa mahalliy o'zini o'zi boshqaruvchining yirik, bir-biriga aynan o'xshash birliklarini kamaytirish yo'lidan bordi. Boshqa qator mamlakatlar esa "o'rta" yo'ldan bordi.

AQSH tashkil topgan dastlabki yillarda T.Jefferson "kichik respublikachilar" tizimi tarafdori bo'lib, unga ko'ra, o'zini o'zi boshqarish hududlari shu darajada kichik bo'lishi, natijada bu

"kichik respublikachilar" da har bir fuqaro to'g'ridan-to'g'ri umumiy yig'ilishlarda qatnasha olishi va uning o'zi bevosita siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishi lozim edi. Ana shunday tizimning klassik namunasi sifatida *A. Tokvil* Yangi Angliya prinsiplari misol tariqasida keltiriladi: "Agar hokimiyat xalqqa tegishli bo'lsa, unda xalqning o'zi idora etishi lozim. Bu respublikachi hukumatning asosiy qoidasidir".

AQSHda shakllangan plyuralizm tamoyillari Jon Lokkning hokimiyatni nazorat etish va cheklashga doir qarashlariga asoslangan edi. O'sha davrda bundan kuchli ta'sirlangan *J. Medison* shunday deb yozgan edi: "Faqat hukumat hokimiyatini nazorat etish va cheklash bilan chegaralanmasdan, balki, ko'pchilikning hokimiyatini, shuningdek, bir-biriga qarama-qarshi turuvchi "fransiyalar"ning hokimiyatini ham nazorat etish va cheklash lozim". Keyinchalik *S. Xantington* bu ikki xil yondashuvlarni o'zaro qiyoslab, shunday tahlilni keltiradi: "Demokratiya ideali to'g'risidagi T. Jefferson qarashlari J. Medisonning kengaytirilgan respublikanizm konsepsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri va butunlay qarama-qarshi turadi". Jefferson uchun respublikanizm kishilarga yaqinligi bilan jozibalidir, Medison uchun esa u kishilardan uzoq bo'lganligi uchun ham ahamiyatli. Jefferson uchun respublikanizmga tahdid soluvchi asosiy xavf - markazlashgan avtokratiyaning mustabidligidir.

Medisonning hokimiyatlar taqsimlanishi, "o'zaro ushlab turish va muvozanatlar" vositasida chegaralashlar kiritish zaruriyati to'g'risidagi qarashlari AQSH ning XIX asrdagi Yangi Angliyadan tashqaridagi taukshinlariga (tunshin-tuman, shaharcha, qishloqdagi yashash hududlari ham) va u Amerika munitsipal boshqaruvidagi ijroiya (mer) va vakillik (kengash) hokimiyatlarining o'zaro taqsimlanishda o'z ifodasini topdi.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda o'zini - o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatning asosi sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamini kengayib borishi huquqiy davlatning o'z vakolatlarining demokratik tamoyillar asosida amalga oshirish uchun qulay va keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Mahalla - fuqarolikning o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida. "Mahalla" arabcha so'zdan olingan bo'lib, "joy" degan ma'noni anglatadi. Tarixchi olim Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruvi ekanini yozgan edi.

"Mahalla" atamasiga Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'atit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarida ham izoh berilgan. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki, ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning "Hayratul-abror" asarida quyidagi band uchraydi: Shaharlar otini mahalot etib, Bo'ldi chu yuz shahar Hiri ot etib. Mahallaning "joy" degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko'rinib turibdiki, o'rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik "shaharcha" - mahallalardan tashkil topgan ekan.

Mahalla deganimizda, avvalambor, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan va rivojlantiradigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i, hayot maktabini tasavvur etamiz.

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining markazlashuvini cheklash natijasida o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish (g'arbda "munitsipal") deganda, muayyan ma'muriy-hududiy birlikdagi aholi vakolatlarini ifoda etadigan, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish demokratik tamoyillar asosidagi boshqaruvdir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1) mazkur organlarning fuqarolar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanishi;

2) mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan o'zini o'zi boshqaruvning nisbatan mustaqilligi.

G'arb jamiyatshunos olimlari mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir tushunchalarning nazariy jihatlarini ham ishlab chiqqanlar. *Birinchi nazariyaga* binoan, "mahalliy boshqaruv" deganda, davlat boshqaruvidan quyidagi barcha bo'g'inlarni, "mahalliy hokimiyat" deganda esa, "saylangan kengash va uning ijroiya organlari

vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiluvchi tashkilotlar" tushuniladi. Shuningdek, "mahalliy o'zini o'zi boshqarish" – "milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlari asosida jamoatchilik muammolarining aksariyat qismini muvofiqlashtirishi va boshqarishi" dir.

XX asrning ikkinchi yarmida *ikkinchi nazariya* paydo bo'ldi. Ushbu "umumiy farovonlik davlati" nazariyasi bilan bog'liq holda, munitsipal (o'zini o'zi boshqarishga doir) konsepsiya ham paydo bo'ldi. Munitsipalitetlar jamiyatning barcha tabaqalari manfaatlarini ta'minlovchi va qo'riqlovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraldi. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munitsipal kengashlar maqomi huquqiy jihatdan munitsipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo'yilgan bo'lib, ularning vakolatiga quydagilar kiradi: mahalliy budjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, shuningdek, ko'pchilik davlatlarda munitsipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni belgilash.

AQSH ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munitsipalitetlar muhim o'rin egallaydi. Munitsipal maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitariya ishlari, suv bilan ta'minlash, parklar, yong'inga qarshi xizmatlarni boshqarish asosan munitsipal kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o'z vakolatlarini ijroiya organlariga berish huquqiga ham ega.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (fuqarolar vakillarining yig'ilishlari) orqali amalga oshiradi.

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, bevosita yoki

o'zlarining saylanadigan vakillari orqali o'zini o'zi boshqarishda teng huquqlarga ega. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odatlar va an'analarni hisobga olishdan iboratdir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining hududiy birliklaridir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinadi. Xususan, davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonunchilik bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari *fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir*. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi. Fuqarolar yig'ini organlari quyidagilar kiradi:

- fuqarolar yig'ini kengashi;
- fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar;
- taftish komissiyasi.

Fuqarolar yig'ini aholi manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan tegishli hudud doirasida amal qiladigan qarorlar qabul qiladi. Unda 18 yoshga to'lgan va tegishli hududda doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida fuqarolar yig'inining, fuqarolar yig'ini

kengashining, fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) vakolatlari alohida-alohida belgilab qo'yilgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ham jamoatchilik nazorati amalga oshirilishi mumkin. U quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- tegishli hududda qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi holatini o'rganish;
- tegishli choralar ko'rilishi uchun davlat organlariga murojaat etish;
- davlat organlari vakolatiga kiruvchi va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar bo'yicha so'rovlar yuborish.

Davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ko'maklashishi va qonunchilikka muvofiq ularning murojaatlari yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi shart. Jamoatchilik nazorati ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Fuqarolar yig'inlarida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha quyidagi komissiyalar tuziladi:

1. Yarastirish komissiyasi;
2. Ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;
3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;
4. Xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;
5. Voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;
6. Tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya;
7. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish bo'yicha komissiya;
8. Jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ularning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari tegishli hududda yashovchi fuqarolar, tegishli hududda joylashgan yuridik shaxslar, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan ijro etilishi uchun majburiydir. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ularning mansabdor shaxslarining

qarorlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari tegishincha Respublika kengashida, hududiy kengashlarda jamoatchilik asosida raislik qiladi. Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida tegishincha O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondining respublika boshqaruvida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlarida, tumanlar va shaharlar bo'linmalarida raislik qiladi.

Fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), kengashi tomonidan zaruratga ko'ra, lekin har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Fuqarolar yig'ini xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tuman, shahar hududiy kengashining yoki o'n sakkiz yoshga to'lgan va tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin. Fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'inida qatnashish huquqiga ega bo'lgan barcha aholining yarmidan ko'prog'i hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir. Fuqarolar yig'inini chaqirishning imkoni bo'lmagan taqdirda, fuqarolar yig'ini kengashi fuqarolar vakillarining yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Fuqarolar vakillarining yig'ilishiga hovlilar, uylar, ko'chalardan fuqarolarning vakillari yuboriladi. Vakillik normasini fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi tegishli komissiya belgilaydi. Fuqarolar yig'inida (fuqarolar vakillarining yig'ilishida) tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari o'z faoliyatlariga doir masalalar bo'yicha maslahat ovozi bilan ishtirok etishga haqlidir.

Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) tomonidan zaruratga ko'ra, lekin oyida kamida bir marta o'tkaziladi. Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi, agar uning ishida kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Qaror, agar uni fuqarolar yig'ini kengashining hozir bo'lgan a'zolaridan yarmidan ko'prog'i yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Fuqarolar yig'ini kengashining qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq, fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) 3 yil muddatga saylanadigan bo'ldi.

Fuqarolar yig'ini organlarining faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi. Fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) o'rinbosarlari (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilari) va maslahatchilari o'rtasida vazifalarni taqsimlash raisining (oqsoqolning) taqdimnomasiga ko'ra fuqarolar yig'ini tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, mahalliy budjetlar mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalaridan, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatining hisobini yuritadi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda davlat statistika va soliq xizmati organlariga hisobot taqdim etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimidagi islohotlar. Mamlakatimizni barqaror rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirish, fuqarolarimizni o'z hayotidan rozi bo'lib, ertangi kunga qat'iy ishonch bilan munosib hayot kechirishini ta'minlash bo'yicha oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirishda jamiyatning eng muhim bo'g'ini hisoblangan mahalla institutining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mahalla jamiyatda tinchlik-totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va qadriyatlarni asrab-avaylash, oilalar jipsligini ta'minlash, sog'lom va

barkamol avlodni tarbiyalash, aholining kundalik muammolarini hal etishda xalqimizga eng yaqin ijtimoiy tuzilma hisoblanadi.

Islahotlarimiz natijalari, bo'layotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati avvalo mahallada seziladi. Shu ma'noda, "mahalla – jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zguşi" dir. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi, odamlar sezadigan natijani ta'minlashi shart. Bundan buyon mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idoralar va hokimliklar ishini baholashda bosh mezon bo'ladi. Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini oshirish, xodimlarining moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha dastur ishlab chiqish zarur.

Joriy yilda tumanlar budjetiga qo'shimcha manbalarning kamida 10 foizini bevosita mahalladagi muammolarni hal etishga sarflash bo'yicha ishlarni boshlab, bu maqsadlarga 70 milliard so'm ajratildi. Endi bu vakolatni yanada kengaytirib, tuman budjeti xarajatlarining 5 foizini ham ana shunday maqsadlarga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib joriy etiladi.

Mahalla raisi va uning o'rinbosarlari vakolatlarini kengaytirib, ularga aholi muammolarini bevosita hal qilish imkoni yaratilib, bunda mahalla raisiga mahalliy kengash majlisida ko'rilishi majburiy bo'lgan masalalarni kiritish huquqini beriladi. Bu orqali muammolarni tezkor hal qilishga erishish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, mahallada ishlayotgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yo'lga qo'yiladi.

2019-yil may oyida bo'lib o'tgan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovida respublika bo'yicha 9093 ta fuqarolar yig'inida mamlakatimizdagi ovoz berish huquqiga ega fuqarolarning vakili sifatida 2 mln. 58 mingdan ortiq kishilar va 22264 nafar tavsiya etilgan nomzod bevosita qatnashdi. Shunda bir mahalla raisligiga o'rtacha 2,4 nafardan nomzod to'g'ri kelganligi saylovning muqobil asosda o'tkazilganligidan dalolat beradi. Mazkur saylovda saylangan raislarning sifat tarkibi ham yuksaldi. Natijada, 9093 nafar oqsoqol saylanib, ularning 6208 nafari lavozimlarga birinchi marta saylangan. 57,6 foizi oliy ma'lumotga egadir. Ulardan 1025 nafari (11,2 foizi) xotin-qizlar, 164 nafari mahalliy Kengashlar deputatlaridir⁸⁴.

⁸⁴ Xalq so'zi gazetasi. 2019-yil 30-may, № 110 (7340), 3-bet.

Mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolar yig'inlari ishini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, sohaga malakali, boy hayotiy tajribaga ega va fidoyi kadrlarni jalb etish maqsadida 2019-yil 2-aprelda *"Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, murojaatlar bilan ishlash, aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha *"mahalla - sektor - Xalq qabulxonasi - mahalla"* prinsipi asosida hamkorlik tizimi joriy qilinib, quyidagilar mazkur tizimning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa obyektlarni o'rganish orqali muammolarni aniqlash va hamkorlikda bartaraf etish choralarni ko'rish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- har chorakda jamoatchilik nazoratining natijalari, aniqlangan muammolar to'g'risida umumlashgan ma'lumotlar, shuningdek tegishli mansabdor shaxslarning hisobotini eshitish bo'yicha takliflarni xalq deputatlari Kengashlari majlislarida muhokama qilish uchun kiritish;

- aniqlangan muammolarni umumlashtirish hamda hal etish maqsadida elektron axborot almashish tizimini joriy etish;

- joylarda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar loyihalarini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etish va ularning ijrosini ta'minlashda tizimli hamkorlikni o'rnatish.

Mahallada ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini saqlashda keksa avlod vakillari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning nafaqadagi xodimlarining boy hayotiy tajribasidan unumli foydalanish maqsadida *"Keksalar maslahati"* guruhlarini tashkil etildi. Fuqarolar yig'inlari raislari har chorakda o'z mahallasi hududidagi dolzarb muammolar to'g'risidagi ma'lumotlarni sektorlar rahbarlari va Xalq qabulxonalariga taqdim etib boradigan bo'ldi. Natijada eng dolzarb muammolar sektorlar rahbarlari va Xalq qabulxonalarini tomonidan tegishli dasturlarda inobatga olish uchun tavsiya etiladi. Fuqarolar yig'inlari raislari muntazam ravishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning hududga birlashtirilgan mas'ul xodimlari, sektor shtabi a'zolari, yo'l qurilish, elektr, gaz, suv, kanalizatsiya, kommunal va ijtimoiy soha vakillarining hududda amalga oshirgan ishlari natijasi yuzasidan yozma ravishda sektorlar rahbarlari va

Xalq qabulxonalariga ma'lumot kiritadi. Xalq qabulxonalari tomonidan fuqarolar yig'inlari raislarining ma'lumotlarida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan tegishli tashkilotlarga taqdimnomalar, shuningdek ularning yuqori turuvchi tashkilotlariga mansabdor shaxslari va xodimlarini rag'batlantirish yoki intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha takliflar kiritish masalasi ko'rib chiqiladi.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy bo'linmalari hamda fuqarolar yig'inlari xodimlarini ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, taalluqli bo'lmagan vazifalarni yuklash, shuningdek fuqarolar yig'inlari balansida bo'lgan binolarni boshqa shaxslarga birlashtirish yoki asossiz ravishda olib qo'yish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Vazirlik hamda uning hududiy bo'linmalarining faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;
- Vazirlikning budjetdan tashqari mablag'lari;
- faoliyat yo'nalishi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya homiylik mablag'lari;
- xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlar grantlari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Vazirlik tizimiga: vazirlik markaziy apparati; Qoraqalpog'iston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash hududiy boshqarmalari; tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari; "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti; Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha respublika, hududiy va tumanlararo namunali markazlari; Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi; Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlar; "Mahalla" gazetasi, "Mahalla ko'zgusi" jurnali, "Oila va jamiyat" gazetasi, "Saodat" jurnali, "Nuroni" gazetasi, "Keksalar gashti" jurnali, "Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila" xalqaro ilmiy jurnali kiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-apreldagi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

- jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatish;

- oila institutini mustahkamlash;

- xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- mahallalarda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- yolg'iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga moddiy ko'maklashish;

- fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Shuningdek, vazirlik huzurida "Obod va xavfsiz mahalla" jamg'armasi ham tashkil etilgan bo'lib, u xavfsiz mahalla tamoyilini to'laqonli va samarali joriy etish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. "Mahalla" xayriya jamoat fondiga har yili o'tkaziladigan umumxalq xayriya xasharidan tushadigan tushumlarning 10 foizi mazkur jamg'arma hisobiga o'tkaziladi.

Vazirlik rahbarlari o'z faoliyatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalariga va Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi. Vazir har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisida Vazirlik faoliyati yuzasidan hamda sohadagi tizimli muammolar va ularning yechimi to'g'risida axborot beradi. Vazirlikning hududiy bo'linmalari boshliqlari har

chorakda tegishli xalq deputatlari Kengashlari yig'ilishlarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida uchrayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimi bo'yicha axborot beradi.

Mahallalarda tinchlik, osoyishtalik va xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida 2021-yil 20-sentabrda *"Mahallalarda jamoat tartibini saqlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, "Elektron kuzatuv maskanlari" faoliyati eksperiment tariqasida tashkil etilishi belgilandi. Mazkur faoliyatni tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga ijara huquqi asosida beriladigan "Jamoatchilik nazorati maskanlari" ajratiladigan bo'lindi.

2021-yil 18-oktabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, shu yilning 1-noyabrdan boshlab hududida xonadonlar soni mingta va undan ortiq bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining oylik lavozim maoshlari 35 foizga oshirilishi; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini rag'batlantirish, ularga buxgalteriya xizmatini ko'rsatish vazifasi tuman (shahar) hokimliklaridan tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlariga o'tkazilishi hamda tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etiladi.

Muhokama uchun savollar

1. *Nodavlat va jamoat birlashmalarining O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati qanday?*

2. *O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda siyosiy partiyalarning ahamiyati to'g'risida fikr bildiring?*

3. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq qanday partiyalar tuzilishi taqiqlangan?*

4. *O'zbekistonda siyosiy partiyalar tizimini mustahkamlash zaruriyati nimalar bilan belgilanadi?*

5. *Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tishning mazmun-mohiyatini yoritib bering?*

6. *Mahallalar faoliyatini kuchaytirish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?*

11-MAVZU: JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI

Reja:

1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

2. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi - fuqarolik jamiyatining muhim sharti

3. O'zbekistonda jamoatchilik nazorati tizimini takomillashtirishga doir amalga oshirilayotgan islohotlar

Tayanch so'zlar: jamoatchilik nazorati, uning mazmun-mohiyati, fuqarolik nazorati, uning tamoyillari, jamoatchilik nazoratining ko'rinishlari, jamoatchilik nazoratining obyekt va subyektlari, jamoatchilik nazorati shakllari, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash usullari, O'zbekistonda jamoatchilik nazorati tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.

1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

Jamoatchilik nazorati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning samarasi va muvaffaqiyatini ta'minlashda asosiy vositalardan biri sifatida maydonga chiqadi. Shunday ekan, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining mohiyati, mazmuni va shakllari, uslublarini hamda u qanday holatlarda namoyon bo'lishi to'g'risidagi nazariy va amaliy masalalarni tadqiq etish bugungi kunda olimlar oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligini e'tirof etish joiz. Ta'kidlash joizki, ushbu masalalar mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida muayyan darajada o'rganilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi yuridik ensiklopediyasida qayd etilishicha, jamoatchilik nazorati - bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek

davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq tarzda rivojlanib boradi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyatlar va istiqbollar paydo bo'ladi. Ikkinchi tomondan, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga olib keladi. Rivojlangan va keng quloq yoygan jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ham jamoatchilik nazoratisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati jamoatchilik nazorati rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishining sababi shundaki, tom ma'nodagi samarali, mustaqil va xolis jamoatchilik nazoratini iqtisodiy va siyosiy jihatdan erkin fuqarolar va ularning birlashmalarigina amalga oshirishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining zarurligini buyuk allomalar va faylasuflar asoslab berishgan. Masalan, Aristotel o'zining asarlarida xalqning mansabdor shaxslar va hukmdorlar ustidan nazoratini davlatning siyosiy barqarorligi hamda gullab-yashnashining eng muhim shartlaridan biri deb hisoblagan. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ham hukmdorlarning aholi oldida hisob berib turishlari va ularning qonunlarga so'zsiz bo'ysunishlari zarurligi alohida ta'kidlanadi. Sh.Monteske jamiyat hukumatsiz mavjud bo'la olmasligi, lekin mavjud qonunlar fuqarolarga hukumat faoliyati ustidan nazorat olib borish imkoniyati berishini ta'kidlaydi.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo'lsa ham, uni ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan bo'lgan T.Tard olib kirdi. Uning talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me'yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Keyinroq, bu tushunchaning mazmuni ancha kengaydi. Bunday kengayish amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Park tadqiqotlari tufayli yuz berdi. Ularning talqinida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga mos keltirish maqsadida o'tkaziladigan ta'sirni anglatadi.

Amerikalik sotsiolog T.Parsons tavsifida jamoatchilik nazorati sanksiyalar yordamida deviant xulq-atvorga ta'sir o'tkazish orqali

uni me'yoriy holatga keltiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Demak, jamoatchilik nazorati ijtimoiy tizimning o'zini o'zi tartibga solish usulidir. Mazkur usul huquqiy me'yorlar yordamida hamda mazkur tizimning tarkibiy qismlari orqali tartib va barqarorlikni ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Jamoatchilik nazoratining xarakteri, mazmuni, yo'naltirilganligi mazkur ijtimoiy tizimning xarakteri, mohiyati va tipi bilan belgilanadi. Jamoatchilik nazorati ibtidoiy, arxaik jamiyatlarda hozirgi rivojlangan industrial jamiyatlardagiga nisbatan mutlaqo o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi. Arxaik jamiyatlarda u sodda tuzilmaga ega bo'lsa, industrial jamiyatlarda murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik nazoratining asosiy quroli bu – qonun. Haqiqatdan ham “qonunga emas, balki zo'raonlik tahdidiga tayangan nazoratsiz hokimiyatdan xavfliroq narsa yo'qdir”⁸⁵. Shu sababli ham jamoat tashkilotlari davlat ijro tuzilmalarining qonunlarni qanday ijro etayotganini nazorat qiladi. Jamoatchilik nazoratining xulosalari ijro hokimiyatining faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqish, kamchiliklarni tuzatish, xalqchilikni ta'minlashga xizmat qiladi. Fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga daxldorlik hissining ortishi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyati jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonining muhim shartlaridandir. Ya'ni, davlat organlari aholiga o'z siyosati, harakatlarini tushuntirib berishi, xalq oldida muntazam ravishda hisobot berib borishi bugungi zamon talabidir.

Shuni aniq tushunib olish lozimki, *jamoatchilik nazorati* – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir⁸⁶.

Jamoatchilik nazoratida jarayon emas, natijaga qarab xulosa chiqarish zarur. Aks holda, jamoatchilik nazorati ijro hokimiyati idoralarni depsinish holatiga tushirib qo'yadi. Shu sababli jamoatchilik nazoratida jarayon emas, natija asosiy mezon bo'lishi

⁸⁵ Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование. – М.: Статут, 2008. – С. 218.

⁸⁶ Конституция ва қонун устуворлиги - ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. 2019 йил 7 декабрь

lozim. "Davlat hokimiyati" va "jamoatchilik nazorati" bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Davlat hokimiyati va jamoatchilik nazoratining birligi xalqning hokimiyatdan, hokimiyatning xalqdan begonalashuvining oldini olib, ozchilik va ko'pchilik despotizmiga yo'l qo'ymaydi. "Jamiyatning hokimiyat ustidan nazorat o'rnatishga qodirligi – fuqarolik jamiyatining belgisidir. Faqat huquqiy shaklga ega bo'lgan nazoratgina hokimiyatni huquqqa bo'ysundiradi va faqat fuqarolik jamiyati sharoitidagina davlat "huquqqa tobe" bo'ladi va "huquqiy davlat" maqomiga ega bo'ladi⁸⁷. Davlat hokimiyati va jamoatchilik nazoratining uyg'unligini ta'minlash demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Rus olimi A.A.Goncharovning "Davlat organlari ustidan fuqarolik nazorati" kitobida⁸⁸ fuqarolik nazoratining bir nechta tamoyillarini ko'rsatib o'tadi:

1. *Ijtimoiy birlashmalarning erkinligi.* Ijtimoiy birlashmalar fuqarolik nazoratining asosiy subyekti bo'lganligi tufayli bu tamoyil eng muhim ahamiyatga egadir. Fuqarolik nazorati ommaviy tusda va puxta tashkiliy asosga ega bo'lgan taqdirda maksimal darajada samarali bo'ladi.

1. *Mustaqillik.* Fuqarolik nazoratining ta'sirchanligini ta'minlashning asosiy sharti uning mustaqilligidir. Fuqarolik nazorati faqat o'z tamoyillariga bo'ysunishi, davlat organlari hamda boshqa ta'sirlardan xoli bo'lishi zarur.

2. *Adolat.* Adolat fuqarolik nazorati uchun ham tamoyil, ham maqsad, ham natija bo'lishi zarur. Adolat fuqarolik nazoratini olib borayotgan har qanday subyektning o'zi uchun ham, ular tomonidan davlat organlari faoliyatini baholash uchun ham asosiy mezon bo'lishi zarur. Adolatning o'rnatilganlik darajasi fuqarolik nazoratining samaradorligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik nazorati uning subyektlari va obyektlarining irqi, jinsi, fuqaroligi, etnik va ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va boshqa holatlari, mansabi, kasb turi va xarakteri, yashash joyi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodidan qat'i-nazar xolislik bilan amalga oshiriladi.

⁸⁷ Лучин В.О. Конституционный строй России: основные политико-правовые характеристики // Право и политика. 2006. №10. – С. 27–31.

⁸⁸ Гончаров А.А. Гражданский контроль над органами власти. – М.: Издательство "Весь Мир", 2010. – С. 18-19.

3. To'liqlik. O'zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan fuqarolik nazorati barcha bo'g'inlarda davlat boshqaruvi organlari faoliyatining hamma sohalarini qamrab olishi va jamiyat hayotining har bir sohasida mavjud bo'lishi zarur. Davlat boshqaruvi organlari u yoki bu xatti-harakatlariga baho berishda isbotlash nuqtai nazaridan ham fuqarolik nazorati to'laqonli bo'lishi darkor.

4. Qulaylik. Fuqarolik nazorati tizimida bo'lishni istagan har qanday shaxs bunday imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Huquqlari poymol bo'lgan barcha kishilar va boshqalarning huquqlarini himoyalashga bel bog'lagan har qanday fuqarolar uchun nazorat maksimal darajada qulay bo'lishi zarur. Buning uchun nazorat avvalo axborot nuqtai nazaridan qulay bo'lishi kerak, shu tufayli mazkur tamoyil oshkoralik va ommaviylik bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqarolik nazorati tizimida ortiqcha rasmiyatchilik va qog'ozbozlik bo'lmasligi talab etiladi.

5. Obyektivlik. Fuqarolik nazorati davlat boshqaruvi organlari faoliyatini obyektiv baholash va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga qaratilishi kerak. Fuqarolik nazoratini jamiyat manfaatlariga zid keladigan xususiy manfaatlarni ro'yobga chiqarish quroli sifatida qo'llanilishiga yo'q qo'yimaslik kerak.

6. Isbotlilik. Fuqarolik nazorati haqqoniy faktlar va isbotlar asosida amalga oshirilishi zarur. Davlat organi faoliyatining noqonuniyligi haqqoniy isbotlanishi kerak. Bu tamoyil to'liqlik va obyektivlik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq bo'lib fuqarolik nazorati uchun to'laqonli isbot talab etiladi.

7. Ochiqlik. Fuqarolik nazorati subyektlari faoliyati ochiq xarakterga ega. Fuqarolik nazorati subyektlarining har qanday harakati barcha uchun ochiq bo'lishi zarur. Yopiq ko'rinisdagi fuqarolik nazoratiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Ommaviylik. Nazoratning har qanday subyekti jamiyat manfaatlari yo'lida va jamiyat nomidan faoliyat yuritadi, shu tufayli fuqarolik nazorati ommaviy faoliyat hisoblanadi.

9. Fuqaroviy faollik. Fuqarolik nazoratining izchilligi va samaradorligi ushbu faoliyatni olib borayotgan subyektlarning ongliligi va faolligiga bog'liq. Fuqarolik ongi qanchalik past bo'lsa, davlat organlari tomonidan manipulyatsiya qilinishga ko'proq moyil bo'ladi va aksincha. Jamiyatdagi har bir a'zo jamiyat bilan o'zining chambarchas bog'liqligini his etishi va siyosiy hayotning faol

ishtirokchisi bo'lishi kerak. Har bir kishi nafaqat o'z faoliyati, balki o'zi yashab turgan mamlakatning davlat organlari faoliyati uchun ham mas'uliyat sezishi darkor.

10. Dinamiklik Fuqarolik nazorati doimiy rivojlanish va yangilanishda. Uning vazifalari, shakllari, usullari, mexanizmlari aniq shart-sharoitlarga ko'ra o'zgarib turadi. Jamoat nazoratining mavjud tizimi eskirishi bilan u yangisi bilan almashinadi. Shunday qilib, tashkiliy shakllar o'zgarib borsa-da, jamoatchilik nazorati ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida mavjud bo'lib qolaveradi. Fuqarolik nazorati dialektik tamoyillarga mos ravishda quriladi, amalga oshiriladi va rivojlanadi.

Jamoatchilik nazoratining quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Bevosita va bilvosita nazorat. Bevosita nazoratda - oila, qarindoshlar yoki mahalla tomonidan tarbiya ko'rinishida, u yoki bu salbiy xatti-harakatni qoralash yoki aksincha, ijobiy axloq, intizomni e'tirof etish orqali amalga oshirilsa, bilvosita nazorat jamiyat a'zolari, milliy, diniy urf-odatlar, an'analar yordamida amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayon sifatida aks etadi;

2. Ijobiy va salbiy nazorat ko'rinishi. Jamiyat tomonidan u yoki bu xatti-harakatni tan olish, ulug'lash, tashviq qilinishi ijobiy bo'lsa, salbiy xatti-harakatlarni qoralash, jazolash, qahr-g'azab ko'rinishida amalga oshiriladigan nazorat salbiy nazorat hisoblanadi;

3. Kuch va tavsivaviy xarakterdagi nazorat. Jamoa a'zolarining u yoki bu shaxs yoki shaxslar guruhining nojo'ya xatti-harakatiga turli tadbirlar vositasida, masalan, mahalliy OAVdagi chiqish yoki mahalla yig'ilishlarida majburan chek qo'yilishi kuch vositasidagi nazorat hisoblansa, tasviriy xarakterdagi nazoratda esa biror-bir ijtimoiy foydali an'anani jamoa a'zolari orasida tashviqot qilish va joriy etish nazarda tutiladi;

4. Anglangan va anglanmagan nazorat. Jamiyat tomonidan reja asosida, ma'lum muddat davomida amalga oshirilishi anglangan nazorat, mavjud urf-odatlar, milliy yoki diniy an'analar vositasida amalga oshirilsa anglanmagan nazorat hisoblanadi;

5. Rasmiy va norasmiy nazorat. Rasmiy nazorat bu davlat institutlari tomonidan qabul qilingan rasmiy me'yorlar vositasida amalga oshiriladi. Norasmiy nazorat esa jamoa a'zolari yoki mahalla

yetakchilari tomonidan tanqid, salbiy ijtimoiy fikrni shakllantirish orqali amalga oshiriladi;

6. *Konstruktiv va destruktiv nazorat.* Yaratuvchi nazorat shaklida ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish va natijalarini turli tarbiyaviy vositalar yordamida targ'ib qilinadi. Buzg'unchi nazorat esa senzuraning turli usullari, po'pisa bilan amalga oshiriladi;

7. *Sun'iy va tabiiy nazorat.* Shaxs yoki guruhning jamiyat a'zolarining tavsiyasiz amalga oshiradigan xatti-harakati, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilishi sun'iy nazoratga misol bo'ladi. Jamiyat tomonidan majburiy ravishda, qo'rquv yoki uyat hissini tuydirish orqali amalga oshirilishi tabiiy nazoratdir.

Jamoatchilik nazorati quyidagi *asosiy prinsiplar* asosida amalga oshiriladi:

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatleri ustuvorligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;
- jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi va beg'arazligi;
- jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchligi;
- jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining quyidagi faoliyat turlari *jamoatchilik nazoratining obyekti* hisoblanadi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga doir faoliyati;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta'minlashga doir faoliyati;

o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga doir faoliyati;

davlat xizmatlarini ko'rsatishga doir faoliyati;

ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati.

Fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari *jamoatchilik nazoratining subyektlaridir.*

Jamoatchilik nazorati quyidagi *shakllarda* amalga oshiriladi:

1. *Davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar.* Jamoatchilik nazorati subyektlari davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ularga so'rovlar yuborishga haqli. Jamoatchilik nazorati subyektlarining murojaatlari va so'rovlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik nazorati subyektlarining axborot olishga bo'lgan huquqi, agar mazkur axborot shaxsga doir ma'lumotlar yoxud davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar jumlasiga kiritilgan bo'lsa, cheklanishi mumkin.

2. *Davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish.* Jamoatchilik nazorati subyektlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etadi. Davlat organlari o'zining ochiq hay'at majlislarida jamoatchilik nazorati subyektlari ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratadi.

3. *Jamoatchilik muhokamasi.* Ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini ommaviy muhokama qilish jamoatchilik muhokamasidir. Jamoatchilik muhokamasi asosan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o'tkazadi. Shuningdek, uni turli ijtimoiy guruhlarning vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan shaxslar ishtirokida o'tkazilishi ham mumkin. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy va ochiq tarzda o'tkaziladi. Uning ishtirokchilari jamoatchilik muhokamasiga kiritilgan masalalar yuzasidan o'z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy axborot vositalari orqali va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'tkazilishi mumkin. Jamoatchilik muhokamasining tashkilotchisi jamoatchilik muhokamasiga

kiritilayotgan masalalar, muhokamani o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi. Bunda tashkilotchi o'z ixtiyoridagi, jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo'lgan materiallardan jamoatchilik muhokamasining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta'minlaydi.

4. Jamoatchilik eshituvi. Davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish jamoatchilik eshituvi hisoblanadi. Jamoatchilik eshituvini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik eshituvi turli ijtimoiy guruhlarining vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirokida o'tkazilishi mumkin. Jamoatchilik eshituvi ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik eshituvining ishtirokchilari jamoatchilik eshituviga kiritilgan masalalar yuzasidan o'z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli. Jamoatchilik eshituvining tashkilotchisi jamoatchilik eshituviga kiritilayotgan masalalar, eshituvni o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi. Bunda tashkilotchi o'z ixtiyoridagi, jamoatchilik eshituviga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo'lgan materiallardan jamoatchilik eshituvining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta'minlaydi.

5. Jamoatchilik monitoring. Davlat organlari va mansabdor shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig'ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali kuzatish jamoatchilik monitoringi hisoblanadi. Jamoatchilik monitoringini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilik nazoratining boshqa subyektlari qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik monitoringi ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik monitoringi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'tkazilishi mumkin. Jamoatchilik monitoringining tashkilotchisi jamoatchilik monitoringining obyektini, uni o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi.

6. *Jamoatchilik ekspertizasi.* Jamoatchilik ekspertizasi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o'rganish hamda baholashdan iboratdir. Jamoatchilik ekspertizasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik ekspertizasining tashkilotchisi tegishli sohada zarur bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni jamoatchilik asosida jalb etishi ham mumkin.

7. *Jamoatchilik fikrini o'rganish.* Jamoatchilik fikrini o'rganish turli ijtimoiy guruhlarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining qonunchilik talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratdir. Jamoatchilik fikrini o'rganishni nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonunchilikka muvofiq o'tkazishi mumkin.

8. *Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.* Bunda fuqarolar yig'ini: ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini; ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, joylardagi ta'lim muassasalari rahbarlarining hisobotlarini; tegishincha oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotini; tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalariga doir hisobotlarini eshitadi.

Jamoatchilik nazorati subyektlari quyidagi huquqlarga ega:
jamoatchilik nazoratini amalga oshirayotganda tadbirlar o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga, ularni tashkil etishga, shuningdek ularda ishtirok etishga;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni qonunchilikka muvofiq davlat organlaridan so'rab olishga;

jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlashga hamda ularni tegishli davlat organlariga ko'rib chiqish uchun yuborishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat manfaatlari buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborishga;

davlat organlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga;

jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilishga haqlidir.

Jamoatchilik nazorati subyektlari quyidagi majburiyatlarga ega:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

qonunda belgilangan, davlat organlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan cheklovlarga rioya etishi;

davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

davlat organlarining faoliyat ko'rsatishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining faoliyati uchun to'siqlar yaratmasligi;

fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning tarqatilishi qonun bilan cheklangan bo'lsa, uning maxfiyligiga rioya etishi shart.

Jamoatchilik nazoratining natijalariga ko'ra bayonnoma, xulosa, ma'lumotnoma shaklida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin. Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi. Yakuniy hujjatda bayon etilgan axborot, tavsiya va takliflar davlat organlari tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi hamda ular yuzasidan qonuniy qarorlar qabul qilinadi. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Shunday qilib, jamoatchilik nazoratining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, davlat nazoratidan farqli ravishda uning asosiy maqsadi kimnidir jazolash yoki kimgadir chora ko'rish emas, balki qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, davlat dasturlarida keng jamoatchilik tomonidan shakllantirilgan fikr-mulohazalar, takliflarni aks ettirish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat manfaatlarining himoyasini, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni, davlat xizmatlarining samarali ko'rsatilishini ta'minlash hisoblanadi.

2. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi – fuqarolik jamiyatining muhim sharti

Bugun turmushimizning barcha jabhalariga internet tarmog'i chuqur kirib bormoqda. Shu ma'noda, har bir davlat hokimiyati va boshqaruvi organining rasmiy veb-saytlarini tashkil etish va ularda joylashtirilishi lozim bo'lgan axborotlarni belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, davlat hokimiyati va boshqaruv organining huquqlari, majburiyatlari, tuzilishi, vazifalari, rekvizitlari, vakolat doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi axborotlar, bunday organ tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati va ularni ko'rsatish tartibi, rasmiy tadbirlar (kengashlar, uchrashuvlar, brifinglar, hay'atlar va boshqa), shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organi rahbarlarining tashriflari va safarlari to'g'risidagi ma'lumotlar, davlat idorasi faoliyatiga doir tahliliy ma'ruzalar, sharhlarni bunday axborotlar sirasiga kiritish mumkin. Ayni paytda davlat hokimiyati va boshqaruvi organining vakolatiga kiruvchi dasturlarning amalga oshirilishi, hisobot davridagi faoliyat rejalari, ochiq tanlovlar, kim oshdi savdolari, tenderlar, ekspertizalar va boshqa tadbirlar, fuqarolar murojaatlarini va foydalanuvchilar so'rovlarini ko'rib chiqish tartibi, tegishli so'rovni rasmiylashtirishning taxminiy namunasi, mavjud vakant lavozimlar, vakant lavozimlarini egallash uchun nomzodlarga qo'yiladigan malaka talablari, qonun hujjatlariga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organining faoliyati to'g'risidagi boshqa axborotlarni joylashtirib borish foydadan xoli bo'lmaydi. Rasmiy veb-saytda davlat hokimiyati va boshqaruv

organi tomonidan joylashtiriladigan axborotga sana qo'yilishi va u muntazam yangilab turilishi kerak. Shu sababli ham davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida *"Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 2014-yilning 5-may kundan kuchga kirdi.

Ushbu qonunning *asosiy vazifalari* jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan ochiq foydalanishini ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olish huquqining kafolatlarini ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar uchun mas'uliyatini oshirish hamda ushbu faoliyat to'g'risidagi axborotni keng ommaga tarqatish tartibini belgilashdan iborat.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining *asosiy prinsiplari* 4 ta bo'lib, ular tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida berilishi va ishonchiligi; ular faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi; mazkur organlar faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etishga asoslangan.

Shuningdek, qonunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotlar jumlasiga nimalar kirishi belgilangan bo'lib, bularga:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarining huquqiy maqomini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, normativ hamda boshqa hujjatlar, shuningdek ularning ijro etilishining borishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga, normativ va boshqa hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ushbu hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning, normativ va boshqa hujjatlarning loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat dasturlari hamda boshqa dasturlar amalga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

budjetdan ajratiladigan mablag'lardan, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan foydalanilishi, o'tkazilgan tanlovlar va olingan tovarlarning yetkazib berilishi to'g'risida, vazirliklar, idoralar, davlat maqsadli jamg'armalari hamda boshqa budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladigan tegishli axborot;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar (majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot konferensiyalari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati sohasiga taalluqli bo'lgan tarmoqning (hududning) holatini va uning rivojlanish sur'atini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar haqidagi, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'tkaziladigan (tashkil etiladigan) ochiq tanlovlar (tenderlar) va kimoshdi savdolari to'g'risidagi ma'lumotlar;

bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari va bo'sh ish o'rinlarini egallash uchun nomzodlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay'at majlislarini o'tkazish rejalari, shu jumladan majlislarning kun tartibi

loyihalari, ular o'tkaziladigan sana, joy va vaqt, majlislarda hozir bo'lish tartibi kabilar kiradi.

Davlat hokimiyatining vakillik organlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari), ularning qo'mitalari (doimiy komissiyalari), komissiyalari ochiqlikni ta'minlash maqsadida o'z faoliyati to'g'risidagi axborot, shu jumladan rejalashtirilayotgan majlislar va tadbirlar, ko'rib chiqilishi mo'ljallanayotgan masalalar, qabul qilingan qarorlar haqidagi axborot o'z vaqtida e'lon qilinishini (chop etilishini) ta'minlaydi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanish, agar mazkur axborot qonunda belgilangan tartibda davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar jumlasiga kiritilgan bo'lsa, cheklab qo'yiladi.

Axborotdan foydalanuvchi (davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot izlashni amalga oshirayotgan shaxs) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotni olish va tarqatish; axborotni olish uchun bevosita yoxud o'z vakillari orqali so'rov bilan murojaat etish hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishni rad etish kabi huquqlarga ega.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi *axborot manbalariga*: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy nashrlari; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining, shuningdek ushbu organlar tomonidan vakolat berilgan mansabdor shaxslarning chiqishlari va bayonotlari; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari axborot xizmatlarining xabarlari; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rasmiy veb-saytlarining materiallari hamda ommaviy axborot vositalarining materiallari kiradi.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborot xabarlarini (press-relizlar, byulletenlar va hokazolarni) tarqatish, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytida ularning faoliyati to'g'risidagi axborotni joylashtirish va yangilab borish yo'li bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini

ommaviy axborot vositalarida yoritish chora-tadbirlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining Axborot xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Axborot xizmati – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni tayyorlash hamda tarqatish vazifalarini bajaruvchi, shuningdek ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan hamkorlikni ta'minlovchi tarkibiy bo'linmasi yoxud ushbu vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxsdir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash *usullari* ham belgilab qo'yilgan bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish);

axborotni ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish va yangilab borish;

axborotni hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalarga va joylarga joylashtirish hamda yangilab borish;

axborotni axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali taqdim etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay'at majlislarida axborotdan foydalanuvchilarning hozir bo'lishi uchun sharoitlar yaratish;

axborotdan foydalanuvchilarning so'rovi asosida ularga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida og'zaki va yozma shaklda (shu jumladan elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etish.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy nashrlari, rasmiy veb-saytlari, axborot-kutubxona va arxiv fondlari, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladigan axborotning sanasi qo'yilgan bo'lishi hamda u vaqti-vaqti bilan yangilab borilishi kerak. Axborotni yangilab borish davriyligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi, lekin u haftasiga bir martadan kam bo'lmasligi kerak.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir axborotdan foydalanuvchining so'rovi ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran ko'pi bilan o'n besh kunlik muddatda ko'rib chiqilishi kerak. Ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to'g'risidagi so'rovi ko'pi bilan yetti kunlik muddatda ko'rib chiqiladi. Agar axborotdan foydalanuvchining so'rovini ko'rib chiqish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlariga kirmasa, so'rov so'ralayotgan axborotni taqdim etish vakolatiga kiritilgan organga ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yuboriladi, axborotdan foydalanuvchi esa bu haqda xabardor qilinadi. Agar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari olingan so'rov bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari vakolatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasa, axborotdan foydalanuvchiga so'rov ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida tegishli javob yuboriladi. So'rov rad etilgan taqdirda axborotdan foydalanuvchiga asoslantirilgan javob yuboriladi.

2020-yilning noyabr oyida Oliy Majlis Senatining to'qqizinchi yalpi majlisida "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining vazirlik, idoralar hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ijro etilishi to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi⁸⁹. Olib borilgan o'rganish davomida amalga oshirilgan ishlar bilan birga tizimli xato va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi:

hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarni (majlis, kengash, uchrashuv, matbuot konferensiyasi, brifing va boshqalar) tashkil etish va o'tkazish hamda OAV vakillarini xabardor qilish tartibi ishlab chiqilmagan;

mahalliy hokimliklar qabul qilayotgan qaror loyihalarini muhokama etishlari nafaqat aholi o'rtasida, balki OAV vakillari o'rtasida ham muhokamasi tashkil etilmagan;

O'rganilgan hududlarda aholini qiynayotgan mavjud muammolar biror marta hokimiyat organlarining veb-saytlari va boshqa axborot manbalarida yoritilmagan;

⁸⁹ <http://www.uzdaily.uz/uz/post/6783>

hokimiyat va boshqaruv organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan faoliyatga oid ma'lumotlar yangilab borilmagan. Ayrim ruknlarga esa ma'lumotlar umuman joylashtirilmagan;

hokimiyat va boshqaruv organlarida ochiq hay'at yig'ilishlarida hozir bo'lish tartibi joriy qilinmagan. Oqibatda OAV vakillarining ochiq hay'at yig'ilishlaridagi ishtiroki ta'minlanmagan. Mazkur o'rganishlar natijasida aniqlangan muammo va kamchiliklar tizimli ekanligini hamda ularning yechimi tub o'zgarishlarni talab qilishini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarga qaramay, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish darajasi yildan yilga oshib bormoqda. Buni birgina joriy yilning 24-fevral kuni Open Data Inventory (ODIN)ning 5 yillik bo'yicha e'lon qilgan hisobotida ham ko'rish mumkin. Ushbu hisobot ODIN-2020/21 natijalarining global ochiq ma'lumotlar rivojlanishi va tahlili sur'ati bo'lib, ular 2020-yil dekabr oyining boshlarida nashr etilgan. ODIN – so'nggi nashrda 187 mamlakatni qamrab olgan milliy statistik ma'lumotlarning yagona global ochiq ko'rsatkichidir. Ushbu indeksdan hozirda ko'plab mamlakatlar o'z davlatlarida statistik ma'lumotlarni topishdagi yutuqlari uchun etalon sifatida foydalanmoqda. O'zbekiston ochiq ma'lumotlar reytingiga ko'ra Open Data Inventory (ODIN) 63 ball to'plab, dunyoda 44, markaziy Osiyoda 1-o'rinni egallagan, shuningdek 125 pog'onaga ko'tarilgan⁹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4273-son qaroriga asosan, Davlat statistika qo'mitasi, davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz)da o'z vaqtida aks ettirilishi bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'ul etib belgilandi. Olib borilgan amaliy ishlar natijasida O'zbekiston "Open data Inception" tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, jahon mamlakatlari orasida 70 ta ochiq ma'lumotlar manbalari bilan ochiq ma'lumotlar manbalari soni bo'yicha jahonda 6-o'rinni egalladi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Elektron hukumat kuzatuv

⁹⁰ <https://data.gov.uz/uz/news/view/144>

2020"da "Ochiq davlat ma'lumotlari indeksi" bo'yicha O'zbekiston eng yuqori (Very High OGD) ko'rsatkichiga ega bo'lgan jahonning 41 ta mamlakati orasidan joy olgan. Jami ushbu indeksda 193 ta mamlakat baholangan hamda O'zbekiston eng yuqori ball to'play olgan. Ochiq ma'lumotlarning sifat darajasi, ularni fuqarolarga va jahon hamjamiyatiga yetkazishning amaldagi mexanizmlari, shuningdek, davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash orqali O'zbekiston Respublikasining jahon maydonidagi imijini hamda investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlab bormoqda.

3. O'zbekistonda jamoatchilik nazorati tizimini takomillashtirishga doir amalga oshirilayotgan islohotlar

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda mustaqil fuqarolik institutlarini rivojlantirish va mustahkamlash, ularning erkin faoliyati kafolatlarini ta'minlash, davlat organlarining fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish, ularning ochiq, shaffof va oshkora faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, davlat organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish yuzasidan kompleks va izchil ishlar amalga oshirildi. Jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Konstitutsiyamizda davlatning jamiyat oldidagi mas'ulligi mustahkamlab qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida "davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" deb belgilab qo'yilgan. Bosh Qomusimizda bunday normalarning mustahkamlangani, o'z navbatida davlat organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini olib borishga qodir bo'lgan turli fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga oid qonunchilik tizimi shakllanishiga zamin yaratdi. Yuqorida qayd etilgan konstitutsiyaviy qoidalar 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda, shu jumladan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

to'g'risida"gi qonunlarda hamda boshqa qonun hujjatlarida o'z aksini topdi.

Shuningdek, jamoatchilik nazorati institutining izchil rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan boshqa qator qonunlar ham qabul qilindi. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Mazkur hujjatlar davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishini ta'minlash, bunday nazoratni samarali amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan. Shunday qilib, mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini olib borish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilgan bo'lib, u rivojlanib bormoqda.

Shu bilan birga, milliy davlatchilik hamda jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi samarasi o'laroq fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib bormoqda. Bu esa jamoatchilik nazorati bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, uni eng yuqori pog'ona, ya'ni konstitutsiya darajasida mustahkamlashni talab etadi. Shunga muvofiq, 2014-yilda Bosh qomusimizning 32-moddasiga kiritilgan qo'shimchalarga muvofiq yurtimizda jamoatchilik nazorati konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilishdan avval, uning loyihasi ustida uzoq ishlendi. Qonun loyihasini tayyorlash uchun Ishchi guruh tuzildi. 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi, jamoatchilik nazoratiga oid xorij tajribasi, olimlar va mutaxassislarining qarashlari hamda sohada olib borilgan ilmiy ishlar o'rganib chiqildi. Jamoatchilik muhokamalari o'tkazildi. Qonun loyihasining Internet muhokamasi ham tashkil etildi. Qonun loyihasi yuzasidan 150 ga yaqin takliflar kelib tushdi. Kelib tushgan takliflar asosida Qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-noyabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma'qullandi. 2018-yil 12-aprelda prezident tomonidan imzolanib, e'lon qilingan 2014-yilning 5-may kundan boshlab kuchga kirdi. Shu bilan birga, 2019 yil 17 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni natijasida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari faoliyati tashkil etildi.

Birinchi Prezident I.Karimov davlat nazorat funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazoratining afzal va muhim ekanligi xususida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q".

Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 4-iyul *"Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi qarori qabul qilindi. Sababi davlat organlarining fuqarolar bilan o'zaro munosabatlariga bo'lgan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqishni, jumladan aholi bilan ochiq va manzilli muloqot olib borishning yangi samarali vositalari va mexanizmlarini joriy etishni talab qilmoqda edi. Mazkur qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Vazirlar Mahkamasi, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari va keng jamoatchilikning har bir davlat organi, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Shu bilan birga, Davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashining Namunaviy nizomi ham qabul qilindi.

2019-yil 4-aprelda Prezident Sh.Mirziyoyev islohotlar ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan *"Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-*

tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonunini qayta ko'rib chiqilib, xalqaro amaliyotda keng tarqalgan jamoatchilik nazoratining ta'sirchan shakllarini joriy etish; jamoatchilik nazorati shakllarini amalga oshirish mexanizmlarini batafsil reglamentatsiya qilish, ularni amaliyotda samarali qo'llash hamda davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati, tegishli sohalardagi ishlarning holatini yaxshilashda ularning roli va samarali ishtiroki masalalari ifoda etilishi belgilandi. Shuningdek, unda quyidagi muhim o'zgarishlar amalga oshirilishi belgilab berildi:

aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun olimlar, sotsiologlar, tadqiqotchilar, ekspertlar, jamoat arboblari, xotin-qizlar, yoshlar va fuqarolar ishtirokida doimiy faoliyat yurituvchi “munozara maydonchasi”ni tashkil etishga qaratilgan teleko'rsatuvlar turkumini tayyorlash va namoyish etishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston” telekanalida “Jamoatchilik fikri” tahririyatini tashkil etish; O'zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi kodeksi loyihasini tayyorlash; nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini muntazam ravishda tashkil etish; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi to'g'risidagi Nizom hamda davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokining xalqaro standartlarini respublikada joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomasida bugungi kunda yurtimizda 10 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritayotganligiga qaramay, ularning o'rni va faolligi sezilmayotganligi, chunki bu tashkilotlar manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat bilan ko'prik vazifasini bajaruvchi yaxlit tizim yo'qligi ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, hozirda jamoatchilik bilan ishlash tizimi joylarda va sohalarda xalqimizni qiynayotgan masalalarni davlat miqyosiga olib chiqib, hal qilishda natija ko'rsata olmayotganligi, ko'p nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati rasmiyatchilikdan iborat bo'lib qolayotganini aytib o'tdi. Shu sababli, Prezidentimiz nodavlat notijorat tashkilotlar va

fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o'ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e'tiborini qaratib, o'zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq ekanini alohida ta'kidlab, jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jamoatchilik palatasini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Murojaatnomada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim masalalarga doir qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlar, jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish majburiyiligi aniq belgilash, jamoatchilik ma'qul desa - ma'qul, noma'qul desa - noma'qul bo'lishi kerakligi aytib o'tilgandi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 16-apreldagi *"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"*gi farmoni mamlakatimizda aynan jamoatchilik nazorati instituti faoliyatini takomillashtirish va yanada rivojlantirish, bu boradagi ishlarni yaxlit tizim asosida tashkil etish imkonini beradi.

"Jamiyat - islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya ilgari surilgan mazkur farmonga muvofiq, markazda va barcha hududlarda oliy maqomda tashkil etilayotgan Jamoatchilik palatasining eng asosiy vazifasi fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini -faollashtirish, davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko'maklashishdan iborat bo'ladi.

Shuningdek, mazkur palata Prezident va Oliy Majlisga fuqarolik jamiyatining holati va rivojlanish tendentsiyalari to'g'risida yillik milliy hisobotlarni taqdim etib borishi, Konstitutsiyaga o'zgartirish hamda tuzatishlar kiritish to'g'risidagi takliflar, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim va dolzarb masalalarga doir qonun hujjatlari loyihalarini ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lmoqda. O'z navbatida, davlat organlariga qonunlarning, turli sohalaridagi davlat dasturlarining ijrosi hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan tushuntirish berish talabi bilan Jamoatchilik palatasi so'rovini yuborish vakolati ham berilmoqda.

Palata faoliyatining asosiy yo'nalishlari esa davlat, fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlarining tizimli muloqotini yo'lga qo'yish, ularning ijtimoiy manfaatlari kelishilishini ta'minlash, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini faollashtirish hamda davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko'maklashish, aholi fikrini tizimli o'rganib borish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va ularning yechimi bo'yicha takliflar kiritish, jamoatchilik fikrini o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

Jamoatchilik palatasi fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasi, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qo'shayotgan hissasini baholovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqadi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda jamoat tashkilotlarining hamkorligini yo'lga qo'yadi, muhim normativ-huquqiy hujjat loyihalarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazib boradi. Fuqarolar, NNTlar va OAV vakillari, bloggerlarning OAVlarda so'z erkinligi, fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqini amalga oshirish, "jamoatchilik eshituvi", "jamoatchilik ekspertisasi", "jamoatchilik monitoringi" kabi ta'sirchan zamonaviy nazorat shakllarini hayotga joriy etish, islohotlar va davlat dasturlarining joylarda, shuningdek, sohalarda amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik monitoringini tashkillashtirish, taklif-tavsiyalar va natijalar haqida Prezident, parlament va hukumatga muntazam axborot kiritib borish ham palata faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Chindan ham, davlat organlarining samarali faoliyat yuritishi, pirovardida mamlakatning jadal taraqqiy etishida jamoatchilik nazorati institutining o'rni beqiyos. Jamoatchilik palatasining Prezident huzurida mutlaqo yangi institut sifatida tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad ham fuqaro – jamoat tashkilotlari – davlat birligini mustahkamlash orqali xalqning hokimiyatdan, hokimiyatning xalqdan uzoqlashishining oldini olish, Konstitutsiyamizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi prinsipini amalda ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Prezidentning 2021-yil 13-apreldagi Qarori bilan fuqarolarga budjetni shakllantirish jarayonlarini nafaqat nazorat qilish, balki budjet mablag'larini shakllantirish jarayonidan boshlab ularni

sarflashda qatnashishi uchun ham imkoniyat yaratildi. Budget shakllanishi jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida tuman va shaharlarda tegishli budgetlarning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib bosqichma-bosqich joriy etiladi. Hozir ushbu tartib O'zbekistonning har bir viloyatida bitta tuman yoki shaharda joriy qilingan (jami 14), 2022-yil 1-yanvardan boshlab esa bu tartib mamlakatning barcha tuman va shaharlarida joriy qilinadi. Bundan tashqari, 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman va shaharlar budgetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizga oshiriladi. 2021-yilning 9-iyul kuni O'zbekiston moliya vazirligi yangilangan "Ochiq budget" portalini (openbudget.uz) ishga tushirdi, portalda davlat budjeti, davlat qarzi haqida ma'lumot e'lon qilinadi va "Tashabbusli budget" bo'limi yaratildi.

2021-yil 16-iyun kuni "*Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Farmon bilan Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta'minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilab berildi. Xususan, belgilangan vazirlik va idoralar har yili 1-martga qadar o'z faoliyatiga oid hisobotni rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, 10-martga qadar uni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar beradi. 1-aprelga qadar esa o'z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o'tkazadi. Bu esa budget mablag'larining noo'rin sarflanib talon-taroj qilinishining oldi olinishiga xizmat qiladi. 2021-yil 1-iyuldan boshlab, amalga oshirilgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga va o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirilib, ular har chorakda yangilab boradigan bo'ldi. Shuningdek, 2021-yil 1-dekabrda boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati majlislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman,

shahar Kengashi sessiyalari Internet tarmog'i orqali jonli efirga uzatilishini ta'minlash belgilandi.

Shuningdek, 2021-yil 22-sentabrdagi "Ochiq budget" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga asosan, 2022-yil 1-yanvardan boshlab tuman va shaharlar budgetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizi "Ochiq budget" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki yo'llarni ta'mirlashga yo'naltiriladi. Shuningdek, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan har chorakda chorakdan keyingi oyning 25-sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha ma'lumotlar o'zlarining rasmiy veb-saytlari va "Ochiq budget" axborot portaliga joylashtirib boriladigan bo'ldi.

Xalqaro media hollda 2021-yilning oktabr oyida "Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi: O'zbekiston tajribasi va xorij amaliyoti" mavzusida bo'lib o'tgan davra suhbatida 230 ta vazirlik va idoralarning 121 tasi xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirmagani ta'kidlandi. Shuningdek, respublikadagi 119 ta davlat organi va tashkiloti o'z tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarni portalga o'z vaqtida joylashtirilishini ta'minlamagan bo'lsa, 48 tasi Portalda shaxsiy kabinet ham ochmagan. Shu kabi salbiy holatlarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlab beligilab olindi.

Umumiy qilib, aytganda, jamoat nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur institut insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlangani, balki davlat organlari faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda olib

borilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasi o'laroq, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning konstitutsiyaviy hamda huquqiy asoslari yaratildi. Endilikda ushbu islohotlar jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi va o'zbek xalqi mentalitetiga xos bo'lgan an'analarni uyg'unlashtirgan holda davom etmoqda.

Muhokama uchun savollar

- 1. Jamoatchilik nazoratining qanday shakl va usullarini bilasiz?*
- 2. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi nima uchun kerak?*
- 3. Mamlakatimizda davlat boshqaruvida keng jamoatchilik ishtirokini oshirish borasida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?*
- 4. "Ochiq budget" tushunchasiga ta'rif bering. Buni ta'minlashning zaruriyati nimadan iborat?*

XULOSA

Demokratik siyosiy tizimning eng muhim subyekti bo'lmish davlatchilik hamda uning boshqaruv sohasini isloh qilishda yangi vazifalar ko'ndalang turibdi. Bu, avvalambor, hozirda siyosiy institutlarning va nodavlat ijtimoiy uyushmalarning xilma-xilligi hamda ularning roli mustahkamlanishi, shuningdek, aholining siyosiy faolligini oshirish asosida jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish, yangilash vazifalari dolzarb bo'lib qolganligi bilan izohlanadi. Bu yangi O'zbekiston sharoitida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g'oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat ijtimoiy tashkilotlar, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishni yangicha yondashuv asosida tashkil etilishidan iboratdir.

Demokratik o'zgarishlarning hozirgi bosqichi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning uzoq vaqtga mo'ljallangan *Harakatlar va Taraqqiyot Strategiyalarini* ishlab chiqish va uni amalga oshirishni talab qilmoqda. Bunda davlatning roli demokratik taraqqiyotimizning pirovard maqsadi – *fuqarolik jamiyati* barpo etish maqsadiga asoslangan holda tubdan o'zgarishi darkor. Kuchli markaziy davlat hokimiyati o'zining kuch-g'ayratlarini asosiy, umumilliy vazifalarga, chunonchi, mudofaa, davlat va fuqarolar xavfsizligi, tashqi siyosat, valyuta-moliya hamda soliq tizimlarini shakllantirish, adolati qonunlar qabul qilish va taraqqiyotning boshqa strategik vazifalariga qaratadigan *xalqparvar davlatni* barpo etish nazarda tutilgan. Boshqa masalalarni hal qilishni esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish muhim. Fuqarolarning haq-huquqlar, so'z, matbuot, vijdon erkinligi, erkin saylovlarni amalga oshirish hamda davlat boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi ta'minlanadigan, qisqa qilib aytganda *ochiq va shaffof jamiyatni* qurish bu – rivojlantirish sohasidagi strategik vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993-yil. 5-son. 202-modda // yangi tahrirda "Xalq so'zi" gazetasi 2003-yil 29-avgust.
3. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996-yil 26-dekabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son
4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002-yil, 12-son, 215-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002-yil, 12-son, 216-modda.
6. Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga sharhlar. -T.: 2002, 14-bet.
7. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni // "Xalq so'zi" gazetasi 2003-yil 21-may soni.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 14-fevraldagi 62-son qaroriga ilova // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari 2005-yil fevral.
9. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi (yangi tahriri) qonuni. 22.04.2013 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
10. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y. 39-son, 488-modda.
11. "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y. 19-son, 209-modda.
12. "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y. 49-son, 611-modda.

13. "Parlament nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y. 15-son, 141-modda.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2017-yil 3-yanvar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

15. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y. 6-son, 70-modda.

16. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y. 14-son, 213-modda.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3 fevraldagi "Mahalla institutini yadana takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari to'plami. №6. 2017.

18. Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son Farmoniga 1-ilova // QHMMB: 06/18/5505/1639-son.

19. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 10-dekabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

20. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.07.2019-y., 06/19/5769/3450-son.

21. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5980-sonli Farmoni. 16.04.2020. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2020 y., 06/20/5980/0450-son.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 06/20/6013/1002-son.

23. Sudlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 28.07.2021 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son.

Nazariy-metodologik adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston. 1992. 6 bet.

2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. -T.: O'zbekiston. 322-b.

3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kag'olatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. -T.: O'zbekiston, 2015. -B.210.

5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 491 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-592 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2- jild. - Toshkent: "O'zbekiston", 2019.-592 b.

8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3- jild. - Toshkent: "O'zbekiston", 2019.-400 b.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi // www.uz.uz

10. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz bizdan qonun va adolat ustuvorligini amalda ta'minlashni kutmoqda // Prokuratura xodimlari va faxriylari bilan uchrashuvdagi ma'ruza. 2017-yil 7-yanvar

11. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi - huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir // Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2019-yil 7-dekabr.

12. Mirziyoyev Sh.M. Miliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4- jild. - Toshkent: "O'zbekiston", 2020.-452 b.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan // www.president.uz

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // www.press.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati rasmiy web-sayti.

15. 2021-yilning 28-sentabr kuni prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning Farg'ona viloyatida O'zLiDeP tomonidan tashkillashtirilgan saylovchilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvidagi nutqi.

Asosiy adabiyotlar

1. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. –T.: Sharq, 1998. –B. 30-32.
2. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003. –B. 20.
3. O'zbekiston: fuqarolik jamiyat sari. Mas'ul muh. R.Alimov. – T.: "Sharq", 2003. –B. 73.
4. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. –T.: O'zbekiston, 2010. –B. 52.
5. Jalilov A boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
6. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi – T.: 2016.
7. O'tamurodov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati.–T.: Turon-zamin-ziyo. 2017.
8. Fuqarolik jamiyati evolyutsiyasi: monografiya / A.O'tamurodov. –T.: Adabiyot uchqunlari. 2018. -193 b.
9. O'zbekistonda 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Factbook. –T.: Yuksalish umummilliy harakati. 2021. -160 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Temur tuzuklari. B. Ahmedov tahriri ostida – T.: G'G'ulom nomidagi Nashriyot - matbaa birlashmasi, 1991.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. – T.: Fan. 1971.
4. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. О законах в их отношениях к различным существам. – М., 1955. – С.164–165.
5. Гоббс Т. Избранные произведения. В 2-х томах. Т.2. М.1956. 137-бет.
6. Гегель Г.В.Ф. Философия права. М., 1990. –228 с.
7. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. (Вопросы теории). – T.: Адолат, 2001. – С.68
8. Odilqoriev X.T. Fuqarolik jamiyati qaror topishining asosiy tamoyillari va qonuniyatlari. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati

O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK JAMIYATI

institutlarini shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007. – B. 31-32.

9. Мухаев Р.Т. Политология. - М.: Проспект, 2010. – 640 с.

10. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. –М.: “КАНОН-пресс”, “Кучково поле”, 1998. 39-40 с.

11. Фергюсон А. Опыт истории гражданского общества / Пер. с англ. Под ред. М.А.Абрамова. М., 2000. – С. 107.

12. Фергюссон А. Опыт истории гражданского общества / Пер. с англ. И.И.Мюрберг. Под ред. М.А.Абрамова. – М.: РОССПЕН, 2000. – С. 4–10.

13. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. Стр. 402-405.

14. Саидов А.Х. Религиозная толерантность и светская государства а Узбекистан по прав человека, 2002. –Б. 57.

15. Лучин В.О. Конституционный строй России: основные политико-правовые характеристики // Право и политика. 2006. №10. – С. 27–31.

16. Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование. – М.: Статут, 2008. – С. 218.

17. Гончаров А.А. Гражданский контроль над органами власти. – М.: Издательство “Весь Мир”, 2010. – С. 18-19.

18. Karimov J. Jaholatga qarshi ma'rifat: o'quv qo'llanma / J. Karimov. –T.: “O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi”, 2021. –B. 49.

19. Saidov A. Fuqarolik jamiyati va siyosiy islohotlar // “Muloqot”, 2000. 5-son.

20. Gulnoza Hidoyatova. Haqiqiy fuqarolik jamiyati NNTlar miqdori bilan belgilanmaydi// “Turkiston”. 2006. 4-yanvar.

21. Jumayev Sh., Shodiyev G'. Ijtimoiy himoya – adolat mezonini // “Ma'rifat”, 2007-yil 17-yanvar

22. B.Ismoilov., U.Abdurahmonov. Ta'sirchan jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashishda qay darajada muhim?// uza.uz/oz/posts

23. Dominov T. Kuch – adolatda. O'zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasi saylovoldi harakat dasturining asosiy yo'nalishlari// “Xalq so'zi”, 2004-yil, 1-dekabr.

Chet el adabiyotlar

1. Political Parties. A Behavioral Analysis. Chicago, 1964. P. 6.

2. Apter D. Introduction to Political Analysis. Cambridge (Mass), 1977.p.157.

3. Болингброк Г. Рассуждение о партиях.- В кн: Писма обизучении и ползе истории. М, "Наука", 1978, с.195-196; Просветителскос движение в Англии, с. 286-288.

4. Eldersveld S. Political Parties in American Sociely. N. Y., 1982. P. 11.

5. Dowser R/ Political Sociology, N. Y., 1983, a 2.P.7

6. Просветителское движение в Англии. /Под ред. Н.М. Мещяряковой. -М, Изд-во МГУ, 1991, С. 221-222.

7. Droit constitutionnel et libertes, Edition SIREY, 1998,pp 50-52.

8. L'Etat du monde, Annuaire economique et geopolitique 2003, Paris, Decouverte, page 497.

Elektron resurslar

1. <https://president.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti

2. <https://pm.gov.uz> - Yagona interaktiv davlat xizmatlari Portali

3. <https://data.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar Portali

4. <https://mfa.uz/uz> - O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi sayti

5. <http://uza.uz> - O'zbekiston axborot agentligi rasmiy sayti

6. <https://anticorruption.uz> -Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rasmiy sayti

7. <https://kasaba.uz> - O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Portali

8. <https://strategy.uz> - "Taraqqiyot strategiyasi" markazi rasmiy sayti

9. <https://yoshlarittifoqi.uz> - O'zbekiston yoshlar ittifoqi rasmiy sayti

10. <https://www.yuksalish.com> - "Yuksalish" umummilliy harakati rasmiy sayti

11. <https://www.transparency.org> - korrupsiyaga qarshi xalqaro tashkilot sayti

12. <https://worldjusticeproject.org> - jahon adolat loyihasining rasmiy sayti

13. <https://reforms.uz> - Harakatlar strategiyasi islohotlari sayti

14. <http://www.uzdaily.uz> - O'zbekiston yangiliklari: biznes, iqtisod sayti

15. <https://www.gazeta.uz> - Gazeta nashrining sayti

16. <https://xs.uz> - Xalq so'zi gazetasi rasmiy sayti

17. <https://review.uz> - O'zbekiston yangiliklari sayti

MUNDARIJA

KIRISH	2
1-MAVZU: O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	5
2-MAVZU: HARAKATLAR STRATEGIYASI – O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI	38
3-MAVZU: DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	68
4-MAVZU: QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMINI ISLOH QILISH	110
5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA USTUVOR YO'NALISHLARI	141
6-MAVZU: IJTIMOY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH	170
7-MAVZU: XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH	198
8-MAVZU: KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI	243
9-MAVZU: SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI – FUQAROLIK JAMIYATINING SHARTI	268
10-MAVZU: O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH	294
11-MAVZU: JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI	351
XULOSA	378
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	379

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
ТЕМА 1: СОЗДАНИЕ И РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА НА НОВОМ ЭТАПЕ НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	5
ТЕМА 2: СТРАТЕГИЯ ДЕЙСТВИЙ - ОСНОВА НОВОГО ЭТАПА НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	38
ТЕМА 3: СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА	68
ТЕМА 4: ЗАКОННОСТЬ И РЕФОРМА СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ	110
ТЕМА 5: ОСОБЕННОСТИ И ПРИНЦИПЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ	141
ТЕМА 6: УГЛУБЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ РЕФОРМЫ	170
ТЕМА 7: БЕЗОПАСНОСТЬ, МЕЖДУНАРОДНЫЙ МИР И РЕЛИГИОЗНАЯ ТЕРПИМОСТЬ	198
ТЕМА 8: БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ – ГЛАВНОЕ УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА	243
ТЕМА 9: СВОБОДА ГОЛОСОВАНИЯ - УСЛОВИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА	268
ТЕМА 10: УЧРЕЖДЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И МЕСТНОЕ САМОУПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ	294
ТЕМА 11: ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ И ПРОЗРАЧНОСТЬ ОРГАНОВ УПРАВЛЕНИЯ	351
ЗАКЛЮЧЕНИЕ	378
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ	379

CONTENTS

INTRODUCTION	3
TOPIC 1: FORMATION AND DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY AT A NEW STAGE OF NATIONAL DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN	5
TOPIC 2: STRATEGY OF ACTION - THE BASIS OF A NEW STAGE OF NATIONAL DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN.....	38
TOPIC 3: IMPROVING THE SYSTEM OF STATE AND SOCIETY	68
TOPIC 4: RULE OF LAW AND REFORM OF THE JUDICIARY.....	110
TOPIC 5: CHARACTERISTICS AND PRINCIPLES OF ECONOMIC DEVELOPMENT AND LIBERALIZATION.....	141
TOPIC 6: DEEPENING SOCIAL REFORM.....	170
TOPIC 7: ENSURING SECURITY, INTERNATIONAL PEACE AND RELIGIOUS TOLERANCE	198
TOPIC 8: FIGHT AGAINST CORRUPTION - A PRINCIPAL CONDITION FOR THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY	243
TOPIC 9: FREEDOM OF VOTING RIGHTS - CONDITIONS OF CIVIL SOCIETY.....	268
TOPIC 10: CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS AND LOCAL SELF-GOVERNANCE IN UZBEKISTAN	294
TOPIC 11: PUBLIC CONTROL AND TRANSPARENCY OF GOVERNMENT BODIES.....	351
CONCLUSION	378
REFERENCES	379

Ilmiy nashr

**Jo'rayev Ro'zimat To'xtasinovich
Isabayev Maxsad Baxadirovich**

**O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI**

O'quv qo'llanma

**Mas'ul muharrir: Narimon Dexkanov
Texnik muharrir: Qodir Mamadaliyev
Dizayner: Mirkomil Usmonov**

**«Iste'dod ziyo press» nashriyoti,
Namangan shahri, 3-kichik tuman, 2-uy.**

Terishga 2022-yi 6-iyunda berildi. Bosishga 2022-yil 10-iyunda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 ¹/₁₆. «Cambria» garniturasida ofset bosma usulida oq qog'ozga
bosildi. Hajmi 24,5 bosma taboq. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

Namangan shahar Hamroh ko'chasi 71A uy.
«Yashin sanoat» bosmaxonasida chop etildi.

